


G.Q.HASANOVA, Z.B.JALILOV

MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH METODIKASI



ISBN 978-9943-7203-8-1

9 789943 720381



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

G.Q.HASANOVA, Z.B.JALILOV

**MUTAXASSISLIK FANLARINI
O'QITISH METODIKASI**

*5A111801- ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lif) magistratura mutaxassisligi talabalari uchun
darslik*

**“Durdon” nashriyoti
Buxoro – 2021**

UO‘K 373.21(075)

74.1я7

H 30

Hasanova, G.Q., Jalilov Z.B.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi [Matn] : darslik / G.Q.

Hasanova, Z.B. Jalilov.-Buxoro: OOO "Sadriiddin Salim Buxoriy"

Durdona nashriyoti, 2021.-260 b.

КБК 74.1я7

Ushbu darslik 5111801- ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) magistratura mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda mutaxassislik fanlarini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari, mazmuni, mohiyati, mutaxassislik fanlari o‘qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida; mutaxassislik fanlarini o‘qitishning pridmeti, vazifalari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillari, mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv meyoriy hujjatlari, metodik ishlar, ulami rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metod va vositalari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish shakllarining umumiy tavsifi, ma’ruza turlari, seminar mashg’ulotlari, labaratoriya va amaliy darslar, mustaqil ta’lim va kurs ishlarini tashkil etish metodikasi, bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilish metodikasi bitiruv malakaviy ishlariga raxbarlik qilishning tashkiliy va ilmiy-metodik ta’minoti, mutaxassislik fanlaridan o‘quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o’tkazish, mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarning bilini, ko‘nikma va malakalarini baholash, mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalari masalalari yoritilgan.

Mas’ul muharrir:

M.H. Mahmudov – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.B. Ma’murov – pedagogika fanlari doktori

M.M. Axmetjanov – BuxMTI professori, pedagogika fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-7203-8-1

Учебник рассчитан для студентов по специальности 5111801 - Теория и методика воспитания и обучения (дошкольное образование). В нём изложены научно-теоретические основы, содержание, сущность, процесс преподавания предметов по специальности. в целом система; предмет, задачи, законы и принципы преподавания предметов по специальности, образовательные нормативные документы учителя по специальности, методические работы, методы планирования, организации и обучения специалистов, методы и средства преподавания предметов по специальности, общее описание форм обучения специальностям, видов лекций, семинаров, лабораторных и практических занятий, методов организации самостоятельного обучения и курсовой работы, методов руководства дипломной работой, организационного и научного руководства дипломной работой, вопросы методического обеспечения, организации и проведения учебной и профессиональной педагогической практики по предметам специальности, оценки знаний, навыков и умений студентов при преподавании предметов по специальности, информационных и педагогических технологий при преподавании предметов по специальности.

Главный редактор:
Махмудов М.Х. - доктор педагогических наук, профессор

Рецензенты:
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук.
Ахметджанов М.М. - профессор БухИТИ, кандидат педагогических наук.

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda kelajakning tayanchi va suyanchi bo‘lmish yosh avlodni yangicha fikrlaydigan, mustaqil va ijodiy faoliyat ko‘rsatadigan, zamonaviy bilim, kasb-hunarni puxta egallagan, o‘z yurtining haqiqiy egasi, Vatanimizning taqdiri va taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir insonlar bo‘lib etishishi lozimligi nazarda tutilgan. Bu demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ustivor vazifalaridan biridir. Bunday insonni tarbiyalab voyaga etkazishda uzluksiz ta’lim-tarbiya muassasalari va ulardagi o‘quv tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, uzluksiz ta’lim muassasasi va undagi o‘quv tarbiya jarayoni yosh avlodni axloqiy, jismoniy va ruhiy jihatdan chiniqtiradigan, ma’naviy, madaniy ma’rifat nuqtai nazardan kamolotga etkazadigan maskan hisoblanadi. SHunday ekan mazkur maskanlar o‘quv-tarbiya jarayonini shunday tashkillashtirish lozimki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot qonuniyatlari, fan-texnika yangiliklari erkin, mustaqil, ijodiy o‘zlashtirilsin, shaxsiy sifatlar jamiyat talablariga xos o‘zlashtirilsin, ilmiy bilimlar egallanib, ko‘nikma va malakalar tarkib toptirilsin.

Oliy ta’lim tizimida tahsil olib o‘qituvchi -murabbiylik mutaxassisligiga tayyorlanayotgan har qanday bo‘lajak kasb egasi mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib oliy ta’limning maktabgacha ta’lim magistratura mutaxassisligi talabalariga mo‘ljallangan mazkur darslik yaratildi. Darslikda mutaxassislik fanlarini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari, mazmuni, mohiyati, mutaxassislik fanlari o‘qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida; mutaxassislik fanlarini o‘qitishning pridmeti, vazifalari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillari, mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv meyoriy hujjatlari, metodik ishlar, ulami rejallashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metod va vositalari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish shakllarining umumiy tavsifi, ma’ruza turlari, seminar mashg’ulotlari, labaratoriya va amaliy darslar, mustaqil ta’lim va kurs ishlarini tashkil etish metodikasi, bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilish

metodikasi bitiruv malakaviy ishlariga raxbarlik qilishning tashkiliy va ilmiy-metodik ta'minoti, mutaxassislik fanlaridan o'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning bilini, ko'nikma va malakalarini baholash, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

Darslik uzlucksiz ta'lim tizimining bo'lajak pedagog-o'qituvchilar uchun o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quv - tarbiya mashg'ulotlari innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

1-MODUL. MUTAXASSISLIK FANLARI VA ULARNING O'ZIGA XOSLIKLARI

1-MAVZU: MUTAXASSISLIK FANLARI O'QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA; MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHNING PRIDMETI, VAZIFALARI.

Tayanch iboralar: mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, yaxlit jarayon, ta'lim tizimi, tizimli yondashuv, mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayoni, o'qitish qonuniyatları va tamoyillari.

1.1. Maktabgacha ta'limda mutaxassislik fanlari tizimi.


Bugungi kunda raqobatga kirisha oladigan, o'z sohasini zamon talablari asosida biladigan mutaxassislarni tayyorlash davr talabi hisoblanadi. Zamonaviy mutaxassis o'z kasbining bilimdoni, uni kelajakda yuksaltira oladigan va bu bilan o'zi ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantira oladigan shaxs bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish malakalarini shakllantirish hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlash sifati ko'p jihatdan mutaxassislik fanlarini samarali o'qitish bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari mazmuni muayyan yo'nalish yoki ixtisoslikning tavsifiga mos tushishi, ya'ni ta'lim oluvchining egallaydigan kasbi bo'yicha bajariladigan faoliyat usullarini o'zida qamrab olishi kerak.

Mutaxassislik fanlari muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishi; mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi; mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy o'quv va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

5111800-maktabgacha ta'lim bakalavr yo'nali shida umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, maktabgacha ta'limning me'yoriy asoslari, bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi, ona tili va bolalar adabiyoti, bolalarni nutqini o'stirish, matematik tasavvurlarni shakllantirish, bolalar jismoniy tarbiyasi, tabiat bilan tanishtirish, tasviriy faoliyatga o'rgatish, bolalarning musiqiy ta'limi, maktabgacha ta'limda boshqaruv va menejment, bolalarning ijtimoiy moslashuvi, metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi, maktabgacha pedagogika, bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish kabi fanlar umumkasbiy va ixtisoslik fanlari sifatida belgilangan.



1. Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik printsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, psixikaning filo va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha.

2. Umumiy pedagogika – ta'lim va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

3. Maktabgacha ta'limning me'yoriy asoslari - O'zbekistonda maktabgacha ta'limni tashkil etishning asosiy bosqichlari va

me'yoriy-huquqiy asoslari, maktabgacha ta'lim bo'yicha yuqori malakali rahbar, metodist-nazoratchi va tarbiyachilarni tayyorlash vazifalarini o'rganadi.

4. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi - psixologiya fanining alohida tarmog'i bo'lib, u turli yosh davrlarida bola psixik taraqqiyotining qommiyatlarini, shuningdek, bir yosh bosqichidan boshqasiga o'tish qonuniyatlarini hamda psixodiagnostik uslublarini o'rganadi.

5. Ona tili va bolalar adabiyoti –ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me'yorlari, lug'at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, bolalar adabiyoti va bolalar folklori, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti haqida ma'lumot berish, talabalaming og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilish to'g'risidag fan.

6. Bolalarni nutqini o'stirish- maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari, unga qo'yilgan talablar, usullari, shakllari, nutqni rivojlantirish muammolari, barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shkllantirih yo'llarini tadqiq etadi.

7. Matematik tasavvurlarni shakllantirish - maktabgacha ta'lim muassalarida matematika elementlariga o'rgatishning nazariy asoslari, bolalarning matematik rivojlanishining psixologik xususiyatlari, matematika elementlariga o'rgatish jarayonini tashkil qilish, mashg'ulotlarni rejalshtirish, mashg'ulot ishlanmalarini tuzish va tahlil qilish, metodik usullari va ta'limiy o'yinlar tanlash, ular bilan ishlash mazmuni va metodlarini tahlil qilishning kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishni o'rganadi.

8. Bolalar jismoniy tarbiyasi- maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya berish metodikasi, ertalabki badantarbiyani, harakatli o'yinlarni, sayrlar va chiniqtirish tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasini o'rganuvchi fan.

9. Tabiat bilan tanishtirish - maktabgacha ta'limda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ilmiy, nazariy, metodik asoslarini o'rganadi.

10. Tasviriy faoliyatga o'rgatish- maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi, tasviriy faoliyati turlari, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish

metodikasi bilan tanishtirishiradi hamda rasm, loy, applikatsiya, qurish-yasash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy ijodkorligini rivojlantirishni, maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy qobiliyatni rivojlanganlikni aniqlayadi.

11. Bolalarning musiqiy ta'limi - maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqiy tarbiya metodikasi, musiqiy tarbiya turlari, musiqiy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bilan tanishtiradi.

12. Maktabgacha ta'limda boshqaruv va menejment- maktabgacha ta'limni tashkil etish va rahbarning tashkilotchilik madaniyatining mazmuni, o'zi xos xususiyatlari, tarbiyachining kasbiy xususiyati va unga qo'yilgan talablarni o'rganadi.

13. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi- jismoniy imkoniyatlari cheklangan (nogironlar, jismoniy nuqsoni bo'lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og'ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar), ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga kiradigan bolalarni (yetimlar, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qarovisiz qolgan bolalar, notinch oilalar bolalari), shuningdek ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka ega bo'lgan, biroq xatarli guruhlarga kirmaydigan alohida iqtidorli bolalarni ijtimoiy moslashtirish muammolarini o'rganuvchi fandir.

14. Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi - metodika fanlarini o'qitishning fanining nazariy, milliy asoslari, innovatsion texnologiya asosida pedagogik bilim berish, ilg'or tajribalarni o'rganish, kuzatish, tahlil qilish kabilarni o'rganadi.

15. Maktabgacha pedagogika - maktabgacha ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatları, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

16. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish - maktabgacha ta'lim muassasalarida sahna chiqishlarini tayyorlash, bolalaming ijodiy faoliyatlariga rahbarlik qilishning metod va usullari o'rganadi.

1.2. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalari

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi barcha ko'rinishdagi maktabgacha tarbiya, o'rtal umumiyligi ta'lim maktablari, o'rtal maxsus o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o'zaro uzviylikdagi bog'liqlik **pedagogik tizim** deyiladi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir. Demak, ta'lim yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bog'liq quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyatları, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari.

Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo'ladi:

Pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi uning ichki harakati, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteriga, o'zaro tahsir kuchiga bog'liq.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligi: tarbiya obyekti bir vaqtning o'zida tarbiya subyekti ham hisoblanadi. O'zaro faollikka asoslangan pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi hamkorlik pedagogik o'zaro ta'sir tushunchasini to'laroq aks ettiradi.

Sub'ekt bilan obhekt o'rtasida turli-tuman aloqalar mavjud:

Axborot xarakterida (o'zaro axborotlar almashinib turish).

1. Tashkiliy faoliyat aloqalari (o'zaro birgalikdagi faoliyat).
2. Kommunikativ aloqalar (muomala, munosabat).
3. Boshqaruv va o'z-o'zini boshqaruv aloqalari.

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. Vosita keng mahnoda mazmun, shakl va usullarni o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar: qo'yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlardir. Xuddi shu qarama-qarshilik rivojlanish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi¹.

¹ Педагогика. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. - М.: Издательский центр "Академия", 2002. - 576 с.

Shaxsni shakllantirishni amalga oshirish ta'lim-tarbiyaning tashkil etuvchilari ya'ni ularning barcha elementlari-ta'lim maqsadi, ta'lim vazifalari, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ta'lim mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, mustaqil o'quv topshiriqlari, mustaqil faoliyat, nazorat, o'z- o'zini nazorat orqali o'z natijasiga erishiladi. Shunday ekan ta'lim-tarbiyani alohida elementlarga bo'lib emas, balki yaxlit holda karash va amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishishning yo'lini yaqinlashtiradi. Chunki, yuqorida kayd kilib o'tganimizdek, voqelikdagi barcha narsalar yaxlit tizim sifatida bir-biriga chambarchas bog'langan. Ulardan birortasining funktsiyasi buzilsa, yoki birortasi ishlamay qolsa maqsadga erishilmaydi. Masalan, mashina dvigatelining yonilgi uzatgich tizimini olaylik, uning yonilg'i uzatuvchi elementlaridan birortasi ishlamay qolsa, yoki yomon ishlasa dvigatel yonilgi bilan ta'minlanmaydi, natijada mashinaning o't oldirishi qiyinlashadi yoki o't olmaydi. Ta'lim-tarbiyada ham shunday. Ushbu jarayonning biror elementa yaxshi faoliyat ko'rsatmasa, o'zlashtirish qiyinlashadi va bilim samaradorligi pasayadi. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyada ta'lim- tarbiya jarayoniga tizimli yondashish Juda muhim bo'lib, katta ahamiyat kasb etadi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim jarayonining muhim elementlaridan biri ta'lim mazmuni qancha murakkablashtirilib, uni ta'lim oluvchilarga etkazish yo'li aniqlashtirilsa, kuchli intellekt va yuksak ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish osonlashadi.

1.3. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari

Metodika deganda ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushuniladi. Bu — nazariy jihatdan qo'yilgan maqsadga yetish, haqiqatni, reallikni, faoliyatni nazariy yoki amaliy bilish, o'rganishning usullari yoki operatsiyalari majmuidir.

Metodika pedagogikaning tarkibiy qismi bo'lib, insoni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to'g'risidagi hamda ta'lim-tarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fandir.

Metodika – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgaridan o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o‘tkazish usullari, yo‘llari majmuasidir.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liklikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlar, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”. G.M.Kodjapirova, A.Yu.Kodjapirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”.

O‘qitish metodikasiga qo‘yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

- 1) anqlik;
- 2) asoslanganlik;
- 3) rejalarashtirilgan harakatning maqsad va vazifalarga mosligi;
- 4) qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik;
- 5) hayot bilan uyg‘unlik;
- 6) natijaviylik.

Yuqorida fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida quyidagilarni aks ettiradi:

- ta’limning maqsad va vazifalarini – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;
- ta’limning qonuniyat va tamoyillarini;
- ta’lim mazmunini;
- ta’limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;
- ta’limning umumiyligi va xususiy metodlarini;
- o‘quv vositalari;
- o‘qitish natijasini.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o‘qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tamiz:

- 1) o‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;
- 2) o‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallah jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

- 3) o‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;
- 4) ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;
- 5) bilim – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi;
- 6) ko‘nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyatga qo‘llash usullarini egallah;
- 7) malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi;
- 8) maqsad – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi;
- 9) mazmun – o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;
- 10) tashkil etish - qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon;
- 11) shakl - o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun qobiq;
- 12) metod - o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li;
- 13) vosita - o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob’ekt;
- 14) natija - o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

15) metodik (uslubiy) ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari, loyihamalar, laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko‘rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan ta’lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo‘llanma.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr mutaxassislik fanlarini o‘qitish qonuniyatları va tamoyillari, mutaxassislik fanlari ta’lim mazmunini tanlash mezonlari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metod va vositalari, mutaxassislik

fanlarini o'qitishning tashkiliy shakllari, mutaxassislik fanlarini o'qitishning axborot texnologiyalari, mutaxassislik fanlarini o'qitish texnologiyalari, mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi kabilarni o'rganadi.

Magistratura talabalari uchun "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" o'rganilishi zarur bo'lgan asosiy predmetlardan biri hisoblanadi.

Dars o'tish o'qituvchidan fanni puxta bilishnigina emas, balki o'z bilimini ustalik bilan talabalar ongiga yetkazishni ham talab qiladi. Talabalar fanni puxta o'zlashtirishlari uchun uni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar katta ahamiyatga ega. Shu sababli, bo'lajak pedagoglar mutaxassislik fanlarni o'rganish metodlarini puxta egallashlari, ularni mahorat bilan qo'llay bilishlari kerak.

"Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanining maqsadi – yetuk kadrlarni taylorlash maqsadida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, mutaxassis fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan turli an'anaviy va interfaol usullar va ularni dars jarayonida qo'llash yo'llarini o'rgatish hamda yangi usullarni yaratish bo'yicha ko'nikma va malakasini shakillantirishdir.

Fanning vazifasi – magistratura talabalarini mtaxassis fanlarini o'qitish metodikasi sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy –pedagogik va amaliy ishlab-chqarish faoliyatiga taylorlashdan iborat.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi ta'lim va tarbiya jarayonining tuzilishi, qonuniyat va tamoyillari; mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish, talabalarning diqqatini jalg qilish va mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllari (ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, o'quv amaliyoti, malakaviy amaliyoti)ni tashkil etish va o'tkazish metodikasini, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish turlari, shakl va metodlarini, mutaxassislik fanlarini o'qitishning multimedia va interfaol ta'lim texnologiyalarini tadqiq etadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Maktabgacha ta’lim tizimida mutaxassislik fanlari va ularning maqsad va vazifalarini ayting.
2. Bo’lajak o’qituvchi-tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi o’quv fanining ahamiyati haqida tushuncha bering.
3. Maktabgacha ta’lim tizimida mutaxassislik fanlarini o’qitish jarayonini izohlang.
4. Pedagogik jarayon va pedagogik tizim haqida ma’lumot bering.
5. Metodika tushunchasini izohlang.
6. O’qitish metodikasiga ta’rif bering.
7. Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi fanining predmeti va maqsadini ayting.
8. Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi fanining vazifalarini izohlang.

2-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Tayanch tushunchalar: qonuniyat, tamoyil, prinsip, ilmiylik printsipi, nazariya va amaliyotning birligi prinsipi, zamonaviylik va milliylik prinsipi, ma’lumotlarini bayon etishning tushunarligi, izchilligi va tizimliliği prinsipi, o’qituvchi rahbarligida talabalarning ijodiy faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini yo’lga qo’yish prinsipi.

2.1.Ta’lim qonuniyatları va tamoyilları (prinsipları) tushunchasi.

Ta’lim qonuniyatları – ta’lim jarayonida ro‘y beradigan hodisalar o’rtasidagi o’zaro bog‘lanishlar, ularning mohiyatini ifodalovchi shart-sharoit, asos.

Ta’lim qonuniyatları quyidagilardan iborat:

- 1) ta’lim omillari, shart-sharoitlari va natijalari o’rtasida o’zaro aloqadorlikning mavjudligi;

- 2) ta’lim jarayonining ijtimoiy omillar va jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liqligi;
- 3) ta’lim, rivojlanish va tarbiyaning o‘zaro birligi;
- 4) har qanday ta’lim jarayonida o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘rganilayotgan ob’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning talab etilishi;
- 5) ta’lim jarayoni samaradorligining o‘quvchilar o‘quv faolligi asosida ta’milanishi;
- 6) malakalarning muayyan operatsiya, harakatlarning muntazam takrorlanishi natijasida hosil bo‘lishi;
- 7) o‘zlashtirish puxtaligining takrorlash izchilligiga bog‘liqligi;
- 8) o‘quvchilar o‘zlashtirgan murakkab faoliyat usullari o‘qituvchining ularda eng oddiy faoliyat usullarini samarali o‘rgata olishining natijasi ekanligi.

Maktabgacha ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi ham mazkur qonuniyatlarga tayanadi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida mutaxassislik fanlarini qanday o‘qitish, nimaga o‘qitish, nimani o‘qitish kabi savollarga javob berish uchun, avvalo, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasining prinsiplarini bilishimiz lozimdir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘atiga bu iboralarga berilgan izohlarga qaratamiz. “Printsip [lot. principium-asos, negiz; ibrido]¹. Biror nazariya, ta’limot, dunyoqarash, va sh.k.ning dastlabki asosiy qonun qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g‘oya, qonun-qoida”.

“Tamoyil [ar.-tebranish, chayqalish; o‘zgarib turish; o‘zgaruvchanlik; moyillik] 1. Mayl, moyillik 2. Biror sohada tartib qoida, tusini olgan narsa, tadrijiy yo‘nalish”.

“Didaktika” o‘quv qo‘llanmasida qayd etilishicha “Printsip-rahbar g‘oya asosiy qoida, xulqqa nisbatan asosiy talab” (Zunnunov A. Mahkamov U. Didaktika: Oliy o‘quv yutrlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.-T.; “Sharq”, 2006, 36-bet). Shuningdek, N. Saidahmedovning “Yangi pedagogik texnologiyalar” risolasida printsip tushunchasiga shunday ta’rif beradiki; “Printsip- lotincha “principium” so‘zidanolingen bo‘lib asos, dastlabki xolat,

¹ Qarang; O‘zbek tilining izohli lug’ati. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 309-bet

boshqaruvchi g‘oya, umumlashtirilgan talab kabi ma’nolarni anlatadi”.¹

Biz oliy ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasining printsiplari deganda mazkur fanlarni o‘qitish jarayonlarini tashkil etishi va amalga oshirishda o‘quv tarbiya mazmunini, shakllari, metodlarini tanlanishini begilaydigan dastlabki holatni, umumiyligini qoidalarni va talablarni tushunamiz.

Printsiplarda ta’lim beruvchi va ta’lim o‘rganuvchiga o‘qitish jarayonida rioya qilishi lozim bo‘lgan talablar mujassamlashgan. Bu masalalar tanlangan o‘quv mavzusining mazmunidan kelib chiqib qo‘llaniladigan faoliyatning shakli, yo‘l-yo‘riqlari, vositalarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tanlanishini belgilaydi hamda ta’lim-tarbiya muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Zero, metodika o‘quv predmetining printsiplari ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ma’naviy-axloqiylikni, mazmunli hamda oqilona ehtiyojlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni nazarda tutadi va yo‘lga qo‘yadi.

2.2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fani prinsiplerining tavsifi.

Qayd qilib o‘tilganidek mutaxassislik fanlarni o‘qitishning metodikasining printsiplari o‘quv-tarbiya jarayonlarining tashkiliy-didaktik asoslariga qo‘yiladigan ijtimoiy-pedagogik talablarni, uni boshqarishda rioya qilinadigan meyorlar sifatida amal qiladi. Fikrimizcha, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida o‘qitish metodikasining printsiplarini belgilashda quyidagilarga asoslanadi:

- 1) mutaxassislik fanlari oldiga jamiyat ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi yo‘llari;
- 2) mutaxassislik fanlarini o‘qitish qonuniyatları;
- 3) ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishning didaktik-metodik shart-sharoitlari.

O.Roziqov va boshqa “Didaktika” darsligi mualliflarining yozishlaricha “Printsipler umumdidaktik kategoriylar bo‘lib, ular ta’limning barcha turlari (individlar, guruh, umumsinf), darajalari (boshlang‘ich, o‘rta, professional, oliy), su’ektlari (o‘qituvchilar, o‘quvchilar kollektivi) o‘quv-tarbiya jarayonlarining hamma

¹ Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar nazariya va amaliyot. –T.: “Moliya” nashriyoti, 2003 82-bet.

komponentlari (ta’limning maqsadi, vazifasi, vositasi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, natijalari)ga daxldor umumiy qoidalardir”¹.

Pedagogika adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi o‘quv predmetining quyidagi prinsiplari tizimi mavjudl.

1. Ilmiylik printsipi.
2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda nazariya va amaliyotning birligi printsipi.
3. Mutaxassislik fanlari mazmunini o‘zlashtirishda zamonaviylik va milliylik printsipi.
4. Ma’lumotlarini bayon etishning tushunarligi, izchilligi va tizimliligi printsipi.
5. O‘qituvchi rahbarligida talabalarning ijodiy faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini yo‘lga qo‘yish printsipi.
6. Ma’lumotlarni o‘rganishda ta’lim va tarbiya mazmunining o‘zaro bog‘liqligi printsipi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida mutaxassislik fanlarini o‘qitish **ilmiylik** printsipiga asoslanadi. Har qanday ma’lumot ilmiy asosga ega bo‘lsagina taraqqiyotga hissa qo‘sha oladi. Zero, ilmiy bilim bu tajribada sinalgan, fan, texnika rivojini ta’minlab, svilizatsiyaning ilgarilashga mos kelishini ifodalaydi.

Ma’lumki, o‘qitishning ilmiylik printsipi “fan-o‘quv predmeti” kesimida amalgalash oshadi. O‘quv predmeti fan asoslab bergen ma’lumotlar asosida ko‘riladi. Bunda ilmiy bilimlar borliqdagi qonuniyatlarni o‘zlashtirish, nazariy ma’lumotlarni anglash sari olib boradi. Chunki, ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan har bir o‘quv predmeti, jumladan mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi o‘quv predmeti ham o‘ziga taa’luqli bo‘lgan fanning umumiy asoslaridan iborat bo‘lgan. Bunda fanda tushuncha va kategoriyalarning ko‘pligi, mazmunan boyligi, qo‘llanish doirasining kengligi bilan o‘quv predmetidan yuqori turadi. O‘quv predmeti esa ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini, real o‘quv imkoniyatlarini, qiziqishlari asosida yaratildi. Shuning uchun o‘quv predmetlaridagi ma’lumotlar ham ilmiylik printsiplariga asoslangan deb aytish mumkin.

¹ Roziqov O. va boshqalar “Didaktika” darsligi –T.: UzR F A “Fan”, 1997, 149-bet.

Ilmiylik printsipida, ilmiy bilimlar, fan asoslarini egallash jarayonida ta’lim oluvchilarga aqliy qobiliyat, ijodiy tafakkur rivojlanadi, ilmiy dunyoqarash tarkib topa boradi. Shuning uchun o‘rgatishda o‘qituvchi (talabalar) ilmiylik printsipini qo‘llar ekan talabalar diqqatini ilmiy ko‘nikmalar, ularni kuzatishga, pedagogik voqelikdagi narsa va hodisalarni mohiyatini tahlil qilishga, aniq xulosalar chiqarishga o‘rgatishi lozim. Bu esa o‘quv fanining ilmiy mazmunini o‘zlashtirib olishga va kelgusida fanni chuqr egallab, uni o‘z faoliyatiga keng qo‘llashga yordam beradi.

Mutaxassislik fanlarni o‘qitishda **nazariya bilan amaliyotning birligi printsipi** muhim ahamyat kasb etadi. Zero, bu nazariyadan egallagan bilimlari, amaliyotga tadbiq etish bilan bog‘liq holda olib borilishini ta’minlaydi. “Fan-ta’lim-ishlab chiqarish” kesimida yo‘lga qo‘yilishini talab etadi. Shu bilan birga bu printsip pedagogika fanlaridan o‘zlashtirilgan bilimlarni shaxsiy qarashlari asosida voqelikdagi voqealarni tahlil qilishni nmazarda tutadi. Bu esa bilimlarni hayotga tadbiq etishda talablarning amaliy faoliyati mehnatini birlashtiradi hamda nazariy bilimini amaliy faoliyati uzviyligini ta’minlaydi.

Nazariya bilan amaliyotning birligi g‘oyasi metodika fanining muhim xususiyatlaridan biri. Chunki bunda talabalar pedagogika fanlari nazariy ma’lumotlarini o‘quv tarbiya muassasalarida qo‘llashning mazmuni, metod va usullarini o‘rganib oladilar. Buni jonli amalga oshirish uchun talabalar maktabgacha ta’lim o‘quv yurtlariga, maktablarga, o‘rta maxsus va kasb hunar bilim yurtlariga ekskursiya uyshtiradilar, u yerlardagi mehnat jarayoni bilan tanishadilar va o‘zlari egallagan bilimlarni amaliy hodisalar bilan solishtiradi. Bunda nazariy malumotlar ifodalangan adabiyotlar bilan talabalarni takroriy tanishtirish mashg‘ulotlari muhim metodik ahamyat kasb etadi. Shuning nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligini ta’minalashda ilg‘or pedagogik tajribalar yoritilgan audio, video ma’lumotlar ham shu natijaga erishishni ta’minlaydi.

Mutaxassislik fanlarni o‘qitishda metodikasi o‘quv predmetining zamонавиyliek printsipi talabalarga bayon etilayotgan ma’lumotlar zamонавиy va milliy asosda bo‘lishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatda ta’lim tizimi jahon talablariga mos andoza va milliy asosda qurildi.

Ta’lim muassasalarining uzliksizligi amalga oshirilishi natijasida, ularning moddiy texnika bazasi, o‘quv tarbiya jarayonlarining yuqori sifati o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiya ta’minlandi. Endi bunday o‘quv yurtlarida ishlaydigan kadrlar zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishlari lozim.

Shuningdek maktabgacha ta’lim, umumiyl o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun tayyorlangan o‘quv fanlarining mazmuni milliy asosda ko‘rildi. Shunga asosan maktabgacha ta’limda o‘qitiladigan mutaxassislik fanlarining mazmunidagi malumotlarni milliy xususiyatlar asosida aks ettirishda davr talabi bo‘lib qoldi. Bu esa o‘z navbatida mazkur fanni o‘qitishni milliy asosda qurishni taqozo qiladi.

Zamonaviy va milliylik ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi zamonaviy texnik qurilmalar, vositalar, o‘quv adabiyotlaridan o‘rinli maxsulli foydalanish taqdirdagina yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyat va yuqori malakali insonlar bo‘lishini anglatadi. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasining muhim printsiplaridan yana biri ma’lumotlarning tushunarligi, ularni bayon etishning izchilligi va tuzimliligidir. Asosan tushunarlik ta’lim beruvchidan ma’lumotlarning hajmi qiyinlik darajasi ta’lim oluvchilarning yoshi, real o‘quv imkoniyati, individual xususiyatlariga muvofiq bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Printsipga amal qilish jarayonida ta’lim beruvchi mavzu bo‘lim, savollarni o‘rganish vaqtini belgilashni yoddan chiqarmasligi zarur.

Shunindek tushunarlik printsipi yangi tushuncha, darliklardagi hozirgi zamon fan, texnika yutuqlarini, terminlar hajmini, o‘rganayotgan muammoning o‘quv dasturidagi o‘rnini, o‘qitish metodlari va usullarini o‘qituvchi tomonidan aniq belgilanishi lozimligini talab qiladi. O‘qitish jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan individual xususiyatlarga o‘quvchilarning qiziqishlari, rivojlanish darajasi, his tuyg‘ulari, temperamenti, xarakter xususiyatlari, qobiliyati, mayli, turmush tarsi kiradi. Tushunarlik printsipi izchillik va tizimlilik printsipi bilan o‘zaro aloqadorlik tarzida qo‘llanilib, bunda masalalarni o‘rganishda A) ma’lumdan nomalumga; B) oddiydan murakkabga; V) aniqdan noaniqqa G) osondan qiyiga D) umumiyyadan xususiyga qoidalariga amal qilish asosida olib boriladi. Ta’limning izchillik printsipiga Y.A.Komenskiy

asos solgan, so‘ngra bu printsiplar rus pedagogi K.D.Ushinskiy tomonidan rivojlantirilgan.

Tajribaning ko‘rsatishicha izchil va tizimni bayon etilgan malumotlar ongli o‘zlashtiriladi, uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Parchaqism asosida bayon etilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish qiyin. Shuning uchun bilimlar izchilk muayyan tizim asosida bayon etilsa ular o‘zaro bog‘lanadi va ikkinchisi birinchisini to‘ldiradi. Shunga asosan bilimlarni o‘zaro bog‘liqlikda yaxlit muayyan izchillik, tizimlilik yo‘nalishida o‘rganish mukammal takomillashib boruvchi shaxsning shakllanishini amalga oshiradi. Izchillik va tizimlilik butun o‘quv tarbiya jarayonini aniq rejalashtirish darslarning ma’lumotlarini ratsional ta’minalashga yordam beradi, bilimlar tushunarli o‘zlashtiriladi, mantiqiy tafakkur rivojlanadi.

Pedagogik ma’lumotlarni o‘zlashtirishda talabalarning ijodiy faolligi mustaqilligi va tashabbuskorligi printsipi fanda muhim ahamyat kasb etib gullab, xosilni ko‘p beruvchi daraxtga o‘xshaydi. Talaba pedagogika fanlari materiallarini ijodiy o‘zlashtirsa qo‘sishimcha adabiyotlardan bilimlarni mustaqil to‘ldirsa albatta bu tashabbus ko‘rsatib mehnat qiladigan shaxs bo‘ladi. “kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham nazarda tutilgan masalalardan biri talabalarda ijodiy faollikni mustaqillikni, tashabbuskorlikni shakllantirishi orqali malakali, maxoratli kadrlarni tayyorlash hisoblanadi.

Mustaqillik o‘z yo‘nalishida ijodiy faollikni tarbiyalaydi, ijodiy faollik tashabbuskorlikka undaydi. Bular o‘zaro sabab va natija shaklida bog‘langan pedagogik hodisadir. Zero, “Haqiqiy mustaqillikga erishmagan joyda talabalarning ijodiy faollikni ” tashabbuskorligi to‘g‘risida gapirib bo‘limganidek, mutaxassislik fanlarni o‘qitishda metodika fani o‘z ta’lim oluvchilarida mustaqillikni ta’minalmay turib pedagogik bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish faol va tashabbuskor bo‘lishni tarbiyalash murakkabdir.

Darhaqiqat mustaqillik printsipi davr ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyot talab etayotgan printsip hisoblanadi. Chunki, mustaqillik talabalarda erkin fikrlashni, ijodiy qobiliyatni, aqlan teranlilikni shakllantiradi.

Shuni ta’kidlash joizki, har qanday mustaqillik, mustaqil bilim olish aqliy faoliyatni shakllantiradi. Faollik shaxsiy intellektual faoliyat belgisi tarzida mustaqil bilim olishni o‘rgatadi. Shu jihatdan bu ikki printsip pedagogika fanlari mazmunidagi ma’lumotlarni

qo'shimcha adabiyotlarda seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish, mustaqil ish bajarish, referat yozish, testlar tuzishda qo'l keladi va ijodiy aqliy faoliyatning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Ta'lim qonuniyatlarini izohlang. Printsip so'ziga ta'rif bering.*
3. *Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi o'quv predmetning printsiplari nimalardan iborat?*
4. *Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi o'quv predmetning printsiplarini ta'riflang.*
5. *Mutaxassislik fanlarni o'qitishda ilmiylik printsipini tushuntiring/*
6. *Mutaxassislik fanlarni o'qitishda nazariya bilan amaliyotning birligi printsipini tushuntiring.*
7. *Mutaxassislik fanlarni o'qitishda metodikasi o'quv predmetining zamonaviylik printsipini ta'riflang.*
8. *Ma'lumotlarini bayon etishning tushunarligi, izchilligi va tizimliliği printsipi mazmunini tushuntiring.*
9. *O'qituvchi rahbarligida talabalarning ijodiy faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini yo'lga qo'yish printsipi haqida ma'lumot bering.*
10. *Ma'lumotlarni o'rganishda ta'lim va tarbiya mazmunining o'zaro bog'liqligi printsipi deb nimani tushunasiz?*

2-MODUL. MUTAXASSISLIK FAN O'QITUVCHISINING O'QUV MEYORIY HUJJATLARI

3-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH MAZMUNINI BELGILAB BERUVCHI MEYORIY HUJJATLAR VA ULARDA TA'LIM MAZMUNINI SHAKLLANTIRISHNING BOSQICHLARI

Tayanch iboralar: *ta'lismazmuni, bilim, ko'nikma, malaka, ko'p predmetlilik, texnokratik yo'nalishi, insonparvarlashtirish, integratsiya, standartlashtirish, ko'p bosqichlilik, axborotlashtirish, individuallashtirish, ketma-ketlik, davlat ta'lism standartlari, o'quv reja, dastur, darslik.*

3.1.Ta'lismazmuni tushunchasi.

Ta'lismazmuni- inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri.¹

Ta'lismazmuni deganda ta'lismazmuni o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan ilmiy bilimlar tizimini, amaliy ko'nikma va malakalarni hamda dunyoqarash va axloqiy-estetik g'oyalarni tushunamiz - deb ta'kidlaydi I.F.Xarlamov.

Ta'lismazmuni—yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lismazmuni jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotSIONAL baholashga doir munosabatlardir degan qarashlarni O.Roziqov, B.Adizovlar ilgari suradilar.

3.2. Mutaxassislik fanlar mazmunini belgilovchi muhim g'oyalar (asoslar)

Ta'lismazmuni – bu jamiyatning shaxsni ma'naviy rivojlanishi darajasiga qo'yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va

¹ Ж.Хасанбоев, Х.Тўракулов, М.Хайдаров, О.Хасанбоева, Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет

madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir. Ijtimoiy tajriba quyidagi to‘rt element bilan tavsiflanadi:

- inson tabiat, jamiyat haqidagi bilimlari
- faoliyatning ko‘nikma, malaka va usullari;
- yangi vazifalarni hal etish bo‘yicha ijodiy faoliyat tajribasi;
- atrofdagilar bilan o‘zaro emotsiyal (hissiy) – qadriyatli munosabatlar tajribasi.

Shularga muvofiq zamonaviy didaktika g‘oyalariga ko‘ra ta’lim mazmunining tarkibida quyidagilar o‘z aksini topadi: 1) olam haqidagi bilimlar; 2) faoliyatni amalga oshirish usullari tajribasi; 3) ijodiy faoliyat tajribasi; 4) atrof-muhitga emotsiyal (hissiy) qadriyatli munosabat tajribasi.

Bilim va ko‘nikmalar ijodiy faoliyat asosi bo‘lib qolishi mumkin, lekin unga tayyorlikka kafolat bo‘la olmaydi. Ijodga, ta’limning o‘ziga xos turi sifatida maxsus o‘qitish kerak bo‘ladi. Atrof-muhitga emotsiyal-umumiy munosabatda bo‘lish u haqida bilish, lekin ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmaslikni nazarda tutadi. Uni rivojlantirish uchun o‘qitish jarayonida maxsus ishslash olib berish zarur.

Ilmiy asoslangan ta’lim mazmunini qanday aniqlash mumkin? Ta’lim mazmuniga nima ta’sir ko‘rsatadi? U nimaga bog‘liq bo‘ladi?

Ta’lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi;
- ta’limning maqsad va vazifalari;
- o‘quvchilarning yoshi xususiyatlari;
- o‘quvchi shaxsining ehtiyojlari.

Hozirgi sharoitda ta’lim mazmuni ishlab chiqishda ta’lim mazmunida quyidagi g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi:

- insonparvarlashtirish;
- integratsiya;
- standartlashtirish;
- ko‘p bosqichlilik;
- axborotlashtirish;
- individuallashtirish;
- ketma-ketlik.

Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish ta’lim muassasasining o‘quvchiga e’tibor haratishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilishi, birinchi navbatda bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning mustaqil hayotda o‘z yo‘llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko‘zda tutadi. Insonparvarlashtirish gumanitar va tabiiy fanlarni optimal nisbatlarda bo‘lishi, matematik, biologik, texnik kurslar mazmunini insoniylik haqidagi bilimlar bilan boyitishni ko‘zda tutadi. Ta’lim mazmunida insonparvarlik g‘oyalarining aks etishi o‘quvchilarda fikrlash layoqatining shakllanishiga yordam beradi.

Ta’limni insonparvarlashtirish bu ta’lim tizimi va butun ta’lim jarayonini har bir inson huquqlarini hurmat qilish, pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, ularning sog‘liqlarini saqlash va mustahkamlash, shaxsiy qadr-qimmatlarining his etishlarini ta’minalash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’limni insonparvar (gumanitar)lashtirish yangi tayanch o‘quv rejasining ikkinchi muhim g‘oyasıdir. Ta’limni gumanitarlashtirish birinchi navbatda tayanch o‘quv rejasida gumanitar fanlar hajmini oshirishda o‘z ifodasini topadi. Bu xususan estetik tarbiyani tashkil etishga o‘quv vaqtini ikki barobar ko‘paytirishga imkon beradi. Gumanitarlashtirish – bu ta’limning bosqichi va turidan qat’iy nazar asosiy ijtimoiy muammo - inson farovonligi muammosini hal etishga imkon beruvchi ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirishdir.

Ta’lim yangi mazmunini ishlab chiqishning uchinchi g‘oyasi – ta’limni differentsiyalashtirish. Bu yo‘nalish majburiy kurslar bilan birga katta sinflarda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan o‘qitish, fanlarni tanlash asosida olib borishni ko‘zda tutadi. Sinfda, sinflar o‘rtasida hamda turli yoshdagi o‘quv guruhalarda fakultativ kurslarni individual, guruhli mashg‘ulotlar hamda qiziqishlariga ko‘ra to‘garaklarni rivojlantirish ham ko‘zda tutiladi. Differentsatsiyalash – bu zamonaviy sharoitda ta’limni rivojlantirish umumiyo yo‘nalishi hisoblanadi. Respublikada o‘tgan asrning 90-yillarida ta’limni differentsatsiyalash maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar (fizika, ximiya, matematika, chet tillarini chuqur o‘rganish bilan) litseylar, gimnaziyalar ochildi.

1997 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi ta’lim tizimini rivojlantirishda yangi bosqich bo‘ldi. Davlat ta’lim standartlari talablaridan kelib chiqib ta’lim dasturlarining yangi avlodи ishlab chiqildi.

Kurslarni integratsiyalashtirish ta’limning yangi mazmunini ishlab chiqishga haratilgan yana bir g‘oya o‘quvchilarda dunyonи yaxlit tasavvur qilish layoqatini rivojlantirishda umumlashtiruvchi, dunyoharashni shakllantirish imkonini beruvchi integrativ fanlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi yagona (tayanch) o‘quv rejasida integratsiyalash hisobiga o‘quv fanlari soni kamaytirildi, soatlarning umumiу hajmi ixchamlashtirildi. Xususan, “Tarix” fani umumiу tarix va O‘zbekiston xalqlari tarixiga asoslanadi.

Standartlashtirish – bu majburiy o‘quv fanlari to‘plamini soatlari aniq belgilangan hajmini belgilash. Ta’lim standartlari yordamida ta’lim muassasalarida o‘quv ishlarining normativlari moslashtiriladi, o‘quvchilar bilimlarini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqiladi.

Ko‘p bosqichlilik – bu ta’limning har bir bosqichida o‘quvchining imkoniyat va qiziqishlari darajasiga javob bera oladigan bilim darajasiga erishish imkonini beruvchi ko‘p bosqichli ta’lim jarayonini tashkil etishdan iborat. Turli bosqichlarning har birida o‘qitishning yakuniy holati ta’limning sifatli yakunlanganligi hisoblanadi.

Fundamentallashtirish – shaxs (o‘quvchi)ni ijtimoiy faoliyatiga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashni kuchaytirish. Bu yerda maktab bo‘lsa ham, litsey, kollej yoki oliy o‘quv yurtining ta’lim tizimi, o‘quv rejasi, barcha fanlar bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur va tizimli o‘zlashtirishga alohida ahamiyat beriladi.

Ta’limni axborotlashtirish o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalaridan ommaviy va keng foydalanish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ta’limni axborotlashtirish oxirgi o‘n yillikda keng tarqaldi, buning boisi shuki, zamonaviy video-radiotexnika va kompyuterlarning ta’lim tizimida qo‘llanilishi mumkin bo‘lganligi hamda foydalanish nisbatan oddiyligidir.

Individuallashtirish ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning hamma turlaridan

foydalangan holda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va rivojlantirish demakdir.

Uzluksizlik jamiyat hayotining tez o‘zgarib borishi odamni doimiy ravishda ta’lim olish (mustaqil ta’lim olish)ga undovchi jarayon mohiyatini anglatadi.

3.3. Mutaxassislik fanlar mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari

Mutaxassislik fanlar mazmunini shakllantirish quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Ta’lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmuniga an’anaviy bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

2. Ta’limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmunini tanlashda bir tomonlama ilmiy yo‘nalishni rad etadi. U aniq bir o‘quv jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq pedagogik haqiqatni hisobga olishni ko‘zda tutadi.

3. Ta’lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyili. Bu tamoyil ta’lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o‘quv fani, o‘quv materiali, pedagogik faoliyat, o‘quvchi shaxsi kabi tashkil etuvchilarining o‘zaro mosligini ko‘zda tutadi. Oxirgi yillarda ta’lim mazmunini tanlash gumanitarlashtirish va fundamentallashtirish kabi tamoyillar yetakchi o‘rin egallamoqda.

4. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o‘quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o‘zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratish bilan bog‘liqdir. Buning uchun gumanitar g‘oyalar umumiy ta’lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o‘z navbatida gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro munosabatlari tamoyilining o‘zgartirilishini talab etadi, uning assosini shaxsga e’tibor haratish tashkil etishi zarur.

5. Ta’lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta’limni gumanitarlashtirishdagi to‘sqliarni yo‘qotishga imkon beradi (an’anaviy pedagogi-psixologikda uni ilmiylik, tushunarilik va tarixiylik tamoyili sifatida haraladi). U gumanitar va tabiiy-ilmiy

bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o‘rnatish va fanlararo aloqalarni ta’lim oluvchilarining idrok etish va amaliy faoliyat metodologiyasi mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

6. Ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili, bu tamoyil ta’lim mazmunini o‘sib boruvchi yo‘nalishda rejallashtirishdan iborat bo‘lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

7. Ta’limning mazmuni muntazamligi tamoyili, ushbu tamoyil o‘rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalarni yagona tizimdagi o‘rni, barcha o‘quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimiga kiruvchi tizim sifatida ko‘rishni ko‘zda tutadi.

8. Ta’lim mazmunining ta’lim oluvchilaarning yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili ta’lim oluvchilaarning yosh darajasi va tayyorgarligini ko‘zda tutadi. Ularga o‘zlashtirish uchun u yoki bu bilimlar va malakalar tizimi o‘zlashtirish uchun taklif etiladi.

Mutaxassislik fanlar mazmunini tanlab olish quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- erkin fikrlovchi shaxsning rivojlanishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari mazmunini yaxlit aks ettirish;
- ilmiy va amaliy ahamiyati;
- ta’lim mazmunining murakkabligi, o‘quvchilar imkoniyatlarining mavjud o‘quv dasturlariga mosligi;
- ta’lim hajmining uni o‘rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;
- maktab hamda litseylar bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;
- umumiyl o‘rta ta’lim mazmunini qurishda xalharo tajribalarni hisobga olish.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Ta’lim mazmuni tushunchasiga izoh bering.*
2. *Mutaxassislik fanlar mazmunini taanlashning yetakchi g’oyalarini izohlang.*
3. *Ta’lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyilini tushuntiring.*

4. *Ta'limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili nimani anglatadi.*
5. *Tizimli yondasshuv tamoyili nima?*
6. *Mutaxassislik fanlari mazmunini insonparvarlashtirishga ta'rif bering.*
7. *Mutaxassislik fanlar mazmunini tanlab olish qaysi mezonlar asosida amalga oshiriladi?*
8. *Ta'lim mazmunining ta'lim oluvchilaarning yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili*

4-MAVZU. MUTAXASSISLIK FAN O'QITUVCHISINING O'QUV MEYORIY HUJJATLARI VA DAVLAT TALIM STANDARTI

Tayanch iboralar: me'yoriy hujjatlar, davlat ta'lim standarti, malaka talablari, bilim, ko'nikma, malaka, o'quv reja, fan dasturi, darslik, o'quv uslubiy majmua.

4.1. Mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlari

Mutaxassislik fanlari o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlariga davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, ishchi o'quv reja, fanning o'quv dasturi, fanning ishchi o'quv dasturi, o'qituvchining fanga doir taqvimiylar - mavzuiy rejasi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi, darslik, o'quv uslubiy majmua kabilar kiradi.

Malaka talablari — uzlucksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

5111800 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'naliishinnng malaka talablari tarkibi:

1. 5111800 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'naliishining umumiy tasnifi
2. 5111800 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrlnnig tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar
3. 5111800 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim

yo‘nalishi o‘quv rejasi fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar

Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilariing tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya va imtihon komissiyalari;

- oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- ta’lim yo‘nalishi(tarkibi)ning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan abiturientlar va boshqa manfaatdorlar.

5111800 — Maktabgacha ta’lim io‘nalishi bo‘yncha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

5111800 - Maktabgacha ta’lim bakalavnriag ta’lim yo‘nalishi umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha pedagogik kadr jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiytadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish;

ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

5111800 - Maktabgacha ta’lim bakalavnriag ta’lim yo‘ialishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining ob’ektlari:

- ta'lim jarayoni; o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;

- ta'limning nazariy masalalari; o'qitish metodikasi;

- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, mактабдан ташқари та'lim muassasapari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

- mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlari.

5111800 - Maktabgacha ta'lim bakalavrnat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati kuyidagnlarnn qamrab oladn:

- mактабгача, мактабдан ташқари та'лим муассасаларда, о'рта maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida mактабгача та'лим va mutaxassislik fanlaridan dars berish;

- ta'lim tizimida kabinet mudiri, metodist, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;

- ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

- mактабгача va xalq ta'limi bo'limlari va ularning vakolatli organlarida, turli tadbirkorlik sub'ektlarida, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlarida hamda boshqa muassasalarda ishlash;

- mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida shilash;

- ishlab chiqarish sohalarida, kasbiy ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitshining didaktik vositalariini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish.

5111800 — Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;

Ta'lim yo'nalishi yo'nalishlari bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor

ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Ta'lim yo'nalishi bakalavrлarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari:

Bitiruvchilar kasbiy qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin oliy, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan turdosh (sohaga mos) fanlarni o'qitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'limni davom ettirish nmkoniyatlari:

5111800 — Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'palishi bo'yicha bakalavr 5A111801 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) magistratura mutaxassisligi bo'yicha ikki yilda kam bo'lмаган muddatda o'qishni davom ettirishi mumkin.

Shuningdek, o'rnatilgan tartnbda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

5111800 -Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning tayyorgarlik darajasiga qo'ynladigan umumiy talablar

Bakalavrлarnnng tayyorgarlik darajasnga qo'yiladigan umumiy talablar:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida xodimlarning g'oyaviy nazariy darajasini va ish malakasi, kasb mahoratini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish;

- maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilmiy-tadqiqot natijalarini, fanning zamonaviy yutuqlarini inobagga olgan xolda muvofiq yo'lga qo'yish;

- sifatli kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijgimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangap faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi hakidagi

bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmny asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish;

-shaxsning shaxsga nisbatap, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

-axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

-tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish;

-yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

-psdagogik faoliyatga ijodiy, izlanuvchan yondoshishga o‘rgatish;

-sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriya gi to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqqirish uquv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Bakalavr:

-ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda musqaqil ishpashga;

-tegishli bakalavriat yo‘nalishlari doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga;

-kadrlarni qayta taysrlash va malaka oshirish tizimida qo‘srimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadilar.

O‘quv jarayonini tashkil etishda yana bir me’yoriy hujjat bu o‘quv rejasidir.

O‘quv rejasি — oliy ta’limning muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat hisoblanadi.

O‘quv fani dasturi — ta’lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjatdir.

O‘quv rejasи va fan dasturini tuzishga qo‘yiladigan talablarni keying mavzuda batafsil tushintiramiz.

Darslik – DTS, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g‘oyalari singidirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini

mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslikni bu pedagogik tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab har bir o‘qituvchi darslikda ta’lim oluvchilar bajarilishi kerak bo‘lgan o‘quv jarayonining ma’lum bosqichlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ta’lim oluvchilar uchun mavzularni o‘qib, undagi topshiriqlarni ma’lum harakatlar ko‘rinishida bajarishadi: tekshiradi, echadi, javob beradi va h.k. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin.

Demak, darslik bu – muayyan o‘quv predmeti mazmunini o‘quv dasturida ko‘satilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo‘lib, uning **xarakterli xususiyati** darslik mazmunining o‘quv dasturi mazmuniga mos kelishidir.

Darslikdagi material bo‘limlar bo‘yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo‘lgan bandlar asosida ochib beriladi.

Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o‘rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va echimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqidagi ma’lumotlar, fanga tegishgi soha yoki ishlab chiqarishning zamонавиј тараqqiyoti hamda talabaning fan bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yoritilishi talab qilinadi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

Darslikning asosiy matni – bu ta’lim oluvchi tomonidan o‘rganilishi va o‘zlashtirishi majburiy bo‘lgan o‘quv axborotining asosiy manbai vazifasini bajaradi. Matnning mohiyatini asosiy tushunchalar, qonunlar, qoidalar, nazariyalar, mezonlar, tamoyillar va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Darslikdagi qo‘srimcha materiallar. Bu matnlar – asosiy matnda bayon qilingan holatlarni mustahkamlab va chuqurlashtirishga, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv materialini o‘z ichiga oladi. Qo‘srimcha matnlarga belgilashlar, hujjatlar (xrestomatik) materiallar, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma’lumotlar kiradi. Qo‘srimcha matnlar o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam berish bilan birga ijodkorlikka undovchi va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Darslikning tushuntirish matni – o‘quv materialini tushunishga va chuqurroq o‘zlashtirishga mo‘ljallangan xususiy yozma tuzilma. Bu matnlar ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tushuntiruvchi matnlarga izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug‘atlar, ramzlar va ko‘rsatkichlar kiradi. Bu matnlar tushunarli, qisqa va ma’lum tushunchani aniq shakllantiradigan bo‘lishi kerak.¹

4.2. Davlat ta’lim standarti

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlari “Ta’lim to‘g‘risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida” 1997-yil 6-oktabrdagi PF-1869-son va “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g‘risida” 1998-yil 10-noyabrdagi PF-2107-son farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida” 1998-yil 5-yanvardagi 5-son, “Davlat test markazi tarkibida Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasini tashkil etish to‘g‘risida” 1998-yil 11-martdagi 109-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2004-yil 24-iyundagi 293-son qarorlari va oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

“Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”:

kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan umumiyl talablarni;

ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiyl malakaviy talablarni;

o‘quv yuklamasining hajmini;

¹ Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х.А., Алқаров И., Усмонов Н.Ў., Исъянов Р.Г., Юзликаев Ф. Педагогика назарияси (Дидактика): Олий ўкув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. 105-бет.

ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilaydi.

OT DTS o‘quv jarayonini, ta’lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli normativ hujjatlar (ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalar, o‘quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi.

OT DTS oliv ma’lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

OT DTSga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini amalga oshirish jarayonida, shuningdek mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda tuzatishlar va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

Oliy ta’lim standartlari quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari:

- Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar;

- Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

- Oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari — ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari;

Muayyan ta’lim sohasining davlat ta’lim standarti quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

- zarvaraq (titul);
- mundarija;
- muayyan ta’lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiy tasnifi;
- bitiruvchilarning soha bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar;
- o‘quv reja tuzilmasi;
- kadrlar tayyorlash sifatini baholash.

Ta’lim sohasining davlat ta’lim standarti ikkita (bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo‘ladi.

Quyidagilar oliy ta'limning normativ hujjatlari hisoblanadi:

- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejalarini va o'quv fanlari dasturlari;
- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar.

Oliy ta'limning birinchi bosqichida o'quv rejalarini va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabaning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisosli;
- qo'shimcha.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga muvofiq ayrim oliy ta'lim muassasalari yoki ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha boshqa fanlar bloklari belgilanishi mumkin.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejalarini va fanlar dasturini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Mutaxassislik fanlar mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ayting.*
2. *Maktabgacha ta'lim bakalavr yo'nalishining malaka talablarini o'qib tahlil qiling.*
3. *Davlat ta'lim standarti nima?*
4. *Klassifikator nima?*

5. *DTS qanday shakllantiriladi?*
6. *Zamonaviy o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishga qanday talablar qo'yiladi?*
7. *Darslikning kirish qismida nimalar keltiriladi?*
8. *Darslikning asosiy matni tuzilishini tushuntiring.*
9. *Darslikdagi qo'shimcha materiallarga nimalardan iborat bo'lishi mumkin?*
10. *Darslikning tushuntirish matni mazmuni nimadan iborat bo'ladi?*

5-MAVZU. O'QUV REJASINING TUZILISHI, FAN DASTURIGA QOYILADIGAN TALABLAR, FAN BO'YICHA ISHCHI REJANING TUZILISHI.

Tayanch iboralar: *o'quv rejasi, o'quv rejasing tuzilishi, fan dasturi, fan dasturiga qoyiladigan talablar, ishchi o'quv rejasi, ishchi fan dasturi, fan bo'yicha ishchi rejaning tuzilishi.*

5.1. Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari

Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan u兹luksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy; umumkasbiy;
ixtisoslik;
ko'shimcha.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlarini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari oliy ta'lim muassasasi, bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.

Nazariya va amaliyot yaxlitligi ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari ta'lim muassasalari, bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkazidadi.

O'quv reja va fan dasturining muddati, o'qish shakli va bitiruvchilarining malaka(daraja)si

O'quv reja va fan dasturining nomi	Malaka (daraja)	O'quv reja va fan dasturini o'zlashtirish ning me'yoriy muddati	Ta'lim shakli	Кредит ҳажми
Ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlari	Bakalavr	3 yil	kunduzgi	180
		4 yil	kunduzgi	240
		5 yil	kunduzgi	300
Ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlari	Bakalavr	3 yil	Sirtqi	180
		4 yil	Sirtqi	240
		5 yil	Sirtqi	300
Ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlari	Bakalavr	3 yil	Kechki	180
		4 yil	Kechki	240
		5 yil	Kechki	300

5.2. O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumny talablar

Gumanitar va ijtimoiy-iktisodiy fanlar bloki:

O'zbekiston RSSpublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'limning bakapavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalaridagi gumanitar va ijtimoiy-iktisodiy fanlar blokiga qo'yiladigan umumiy talablar asosida belgilanadi.

-umumiyligida o‘rtalik va o‘rtalik maxsus, kasb-xunar ta’limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to‘plash, ularni qayga ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati haqida oly darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi;

-koinotning tabiiy ob’ekt ekanligi va uning evolyusiyasi; tabiiy fan-larning o‘zaro fundamsntal birligi; zamonaviy tabiiy hodisalarini tadkiq etish konsepsiysi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur etkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantsrishi;

-muayyan bilim sohasi uchun zarur bo‘lgan fundamsntal fanlarni chukur o‘rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta’minlashi;

-o‘quv-tarbiyaviy jarayonning kompleks xususiyagga ega ekanligini e’tiborga olgan holda, axborot texnologiyalarini joriy etishtsh integrativ yondashuv asosida tashkil etish malakasini tarkib toptirishi;

-o‘qitishning ilmiyligi va ko‘rgazmaliliginin ta’minlash maqsadida axborot texnologiyalarining multimsdia imkoniyatlardan unumli foydalanishga o‘rgatishi;

-zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda o‘qitishni individuallashtirish, intensivlashtirish va optimallashtirishga erishish malakalarini shakllantirishi;

-o‘qitishning samaradorligi va natijaviyligini ta’minlash maqsadida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini tizimli, mantiqiy ketma-ketlikda qullash qobiliyatini tarkib toptirishi;

-internet vositasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, veb-kvestlarni yaratish hamda ularni o‘quv jarayoniga gatbiq etish malakasini shakllantirishi;

-matematika dunyonи bilishning o‘ziga xos usuli, uning tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi xaqida;

-talabalarga bakalavriat ta’lim yo‘nalishining nazariy va amaliy masalalarini echa olishga etarli bo‘lgan matematik apparatni egallashi va uni qo‘llashni shakllantirish;

-tarbiya jarasnida turli yoshdagи bolalar va o‘smirlar organizmining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish, zararli odatlar, giyohvandlikni oldini olish, yoshlarpi oilaviy hayotga

tayyorlashning tibbiy - gigienik asoslari haqida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

-tarbiya jarayonida bolalar va o'smirlar sog'ligini himoya qilish. o'rta maxsus va kasb-hunar kolledjlar shart - sharoitlari, jihozlanishi va o'quv yuklamaning organizmga ta'sirini o'rganish;

-bakalavrlarni ekologiya va tabiatni muhofaza qilish hakidagi asosiy tushunchalar, ekologik muammolar, bu muommolarni o'z vaqtida ijobiy hal qilish uchun ekologik ma'lumotga ega bo'lishlari;

-tabiat qonunlaridap xabardor bo'lishlari, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi uzviy bogliklikning tub mohiyatlarini anglab etishlari.

Umumkasbiy fanlar bloki:

-matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan ixtisoslik fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liklikni ta'minlashi;

-ixtisoslik faplarni o'rganish va chuqr egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllaptirishi;

-ta'lim oluvchilarning umumkasbiy madaniyati va intellektini rivojlantirishi;

-umumkasbiy vazifalarni hal etishda fap va ta'limning zamopaviy muammolariga doir bilimlardan foydalanishga tayyorlashi hamda muvaffaqiyatli amalga oshirishga doir axboriy-didaktik ta'miilotni yaratish malakasini tarkib toptirishi;

-kasbiy faoliyatipg ilmiy sohasidagi o'zgarishlarni anglash, tahlil etish, umumlaiggirish, aniq xulosalar. qabul qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishi;

-zamonaviy ta'lim va innovatsion tendsnsiyalarni hisobga olgan holda, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab berishi;

-birlamchi manbalar asosida kasbiy bilimlarni rivojlantirish, kasbiy shakllapish va ijtimoiylashtirish imkoniyatini taqdim etishi;

-modelli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishslash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda ko'llash ko'nikmalarini ta'minlashi;

-psixika, shaxs, faoliyat, muloqot, bilish jarayonlari, irodaviy sifatlar, hissiy holatlar, individual-xususiyatlarga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, hamda bo'lajak pedagog mutaxassislar tamonidan psixik taraqqiyot qonuniyatlari, davrlari, mexanizmlari, omillari va shart-sharoitlari hakidagi zamonaviy ilmiy bilimning o'zgartirilishini tashkil etish;

-psixologiyaning mohiyati, psixika va ong tushunchalari, psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlari, psixik rivojlanish va uning o‘ziga xos xususiyatlari, yosh davrlari tasnifi, psixik taraqqiyotning turli bosqichlari uchun xos psixofiziologik va psixologik xususiyatlar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish;

-bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanining nazariytarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” galablari asosida ta‘lim- tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, psdagogik merosdan samarali foydalanish, real ta’lim amaliyotida yuksak pedagogik mahorat va o‘qituvchi nutqi madaniyatnni namoyon eta olishga o‘rgatish;

-talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axlokiy tarbiyalash va ta’limni samarali tashkil etishga o‘rgatish;

-o‘quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o‘quv-me’yoriy hujjatlar bilan ishslash hamda ta’lim olganlikni tashxis etish qonuniyag va tamoyillari bilan tanishtirish;

-milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

-global doirada ta’lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo‘nalishlari va qonuniyatlarini taxdil etish, milliy va hududiy o‘ziga xosliklardagi umumiy ko‘rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va mstodlarini aniqlashtirish;

-talabalarni o‘qituvchi faoliyatida kasbiy maxoratning tutgan o‘rni, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko‘rinishlarida o‘qituvchining muomala madaniyati, ogzaki va yozma nutqt madaniyati, o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatish va mulokotga kirisha oliga metodikasini to‘liq o‘zlashtitirishlariga erishish lozim.

Ixtisoslik fanlar bloki:

-bakalavriat za’lim yo‘nalishi bo‘yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

-tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko‘pikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

-ixtisoslikning aniq kasbiy va ilmiy yo‘nalishlari bilan tanishtirish, kasb faoliyatni xususiyatlari, faoliyatning ustuvor jihatlari, malakaviy talab hamda qo‘llanishi zarur bo‘lgan asosiy malakalarni tarkib toptirishi;

-kasbiy-yo‘naltirilgan talablar, ijtimoiy madaniy sifatlar, mutaxassislikka xos bo‘lgan sifatlar (kasbiy yo‘nalganlik, bilimdonligi, kasbiy lasqat)ni rivojlantirishi;

-bo‘lajak kasbiy faoliyat individual metodining asosi sifatida, o‘quv- pedagogik xarakatlarning reproduktiv va ijodiy usullarini shakllantirish; muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o‘zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirishi;

-aniq pedagogik vaziyatda ma’lum masalalarni ajratib olish va ularni hal qilish usuli sifatida nedagogik tafakkurni rivojlantirishi;

-talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga ongli munosabatda bo‘lishiga ko‘maklashishni ta’minlashi lozim.

Ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda buyurtmachilarining talablari e’tiborga olinadi.

Kushnmcha fanlar bloki

-talabalarning bakalavriat ta’lim fanlari bo‘yicha qo‘shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi;

-mehnat bozorida raqobagbardoshlikni ta’minlashi hamda ta’lim xizmatlari sohalari rivojini jadallashtirishi;

-jamiatni pedagogizatsiyalash sharoitida pedagogik profilaktikani tashkil etish va amalga oshirish malakasini tarkib toptirishi;

-kasbiy faoliyat strategiyasi va taktikasini to‘g‘ri tanlay olish, kasbiy nuktai nazarning barqarorligini ta’minlashi;

-ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar va mehnat bozori kon’yunkturasi tez o‘zgarayoggan sharoitda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rsjalar va fanlar dasturlarining moslashuvchanligini ta’minlashi lozim.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilarini talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo‘yilgan talablar OTM Kengashi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘kuv rejasndagi
yuklama hajmi

Barcha turdag'i auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasiping eng yuqori hajmi haftasiga 96 soat kilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi xaftasiga 30 soatgacha qilib belgilanishi lozim.

O'qishning normativ muddati 3 yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 152 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiyligi quyidagicha taqsimlanadi:

O'quv jarayonining tarkibiy kismlari	Haftal ar soni	Semes tr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lif	96	1-6	Bitiruv malakaviy ishini ximoya kilish yoki ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi
Malakaviy amaliyot	14	2,4,6	
Attestatsiyalar	I+1 (DA)	1-6	
Bitiruv malakaviy ishi	6	6	
Ta'til	24	1-6	
Jami	152		

Oliy ta'lif muassasasi ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda kadrlar buyurtmachilarining talablarini e'tiborga oladi.

O'quv reja asosida oliy ta'lif muassasasi har yili ishchi o'quv rejasini tuzadi. Bunda oliy ta'lif muassasasiga talabalar yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fanlari bloki hajmini 5 foizgacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 foizgacha o'zgartirish hamda auditoriya yuklamasining umumiyligi xajmini saqlagan holda, ayrim semestrlarda haftalik yuklamalar hajmini erkin belgilash huquqi beriladi.

Talaba bilimini baxolash zamonaviy, shaffof va adolatli usullardan foydalanilgan holda o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddatlari tarkibigauni himoya qilish ham kiritiladi.

O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari oliy ta'lif muassasasi hamda bazaviy tashkilotlarda o'tkaziladi

Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari ta'lif muassasalari, bazaviy tashkilotlarda o'kaziladi.

5.3. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining davlat ta’lim standartlari asosida fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2011 yil 20 maydagi PQ-1533-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2001 yil 16 avgustdagи 343-son, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2004 yil 20 iyuldagи 341-son qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

Mazkur tartib asosida ishlab chiqilgan fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari (fan dasturi) respublika oliy ta’lim muassasalari uchun me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, fanlar bo‘yicha ishchi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy fan dasturlari sifatida qo‘llaniladi hamda tegishli fan bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra davlat ta’lim standartlari va o‘quv rejalarini qayta tasdiqlanganda hamda tayanch yoki turdosh oliy ta’lim muassasalari tomonidan kiritilgan takliflar asosida fan dasturlari qayta ishlab chiqiladi va tasdiqqa kiritiladi.

Fan dasturining maqsadi va vazifasi

Fan dasturining asosiy maqsadi – davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarga muvofiq o‘quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar, bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy kismlarini tartibga solish.

Fan dasturining asosiy vazifalari:

- fanga oid o‘quv materiallar mazmuni va tuzilmasini maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, mashg‘ulotlar mavzularining mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan mazmuniy-mantiqiy bog‘liqligini ta’minlash;
- uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta’lim turlaridagi hamda turdosh yo‘nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta’minlash;
- fanga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini, ilg‘or horijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish;
- ta’lim shakli va o‘quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o‘quv materiallarni mavzular va mashg‘ulotlar turlari bo‘yicha taqsimlash;
- fanni o‘zlashtirish, talabalarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur o‘quv-uslubiy shartlar, o‘quv adabiyotlar va didaktik materiallarni belgilash;
- baholash vositalari yordamida talabalar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

Fan dasturi uning asosiy maqsadi va vazifalariga to‘liq amal qilingan holda ishlab chiqilishi talab etiladi.

Fan dasturlarining mazmuni va tarkibi

Fan dasturi ta’lim jarayonining muhim me’yoriy-uslubiy xujjati bo‘lib, unda o‘quv materiallar ma’ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketliklikda joriy etilishi, fanni o‘qitishda zarur hollarda kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ularga ajratilgan vaqt me’yorlariga mosligini ta’minlagan holda qo‘llanilishi ko‘zda tutiladi.

Fan dasturi quyidagi **tarkibiy qismlardan** iboratdir:

- fan dasturining titul varag‘i va uning sirt tarafidagi ma’lumotlar;
- o‘quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rnii;
- o‘quv fanining maqsadi va vazifasi;
- asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari);
- amaliyot, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar;
- mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar;

- o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari;
- asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.

Fan dasturining **titul varag‘ida** vazirlik nomi, Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq tegishli bilim, ta’lim sohalari va ta’lim yo‘nalish (mutaxassislik)larning shifri va nomlari, xarakatdagi o‘quv rejaga muvofiq fanning to‘liq nomi, ro‘yxatga olingan va tasdiqlangan sanalari va belgilari ko‘rsatiladi.

Fan dasturi **titul varag‘ining sirtki tarafida** uni tasdiqlagan vazirlik buyrug‘i, ma’qullagan Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning bayoni soni va sanalari, fan dasturini ishlab chiqgan oliy ta’lim muassasasi nomi, tuzuvchilar ismi, familiyasi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, taqrizchilar ismi, familiyasi, ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, fan dasturi ko‘rib chiqilgan oliy ta’lim muassasasi kengashi bayonining soni va sanasi keltiriladi.

O‘quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni. Tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanishida o‘quv fanining dolzarbliji va ahamiyati, kasbiy faoliyatdagi o‘rni va ishlatilishi, mutaxassis uchun muhimligi aniq va lo‘nda yoritiladi.

Fan o‘quv rejaning qaysi blokiga taalluqliligi, u nechanchi kurslarda o‘qitilishi maqsadga muvofiqligi, uni o‘qitish uchun qaysi fanlar nazariy zamin bo‘lib xizmat qilishi hamda fanning o‘zi qaysi fanlar uchun nazariy (ilmiy) zamin bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatiladi. SHuningdek, fanni o‘zlashtirish uchun talaba qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi hamda o‘quv fani tayyorlov yo‘nalishining boshqa qismlari bilan mantiqiy va mazmuniy bog‘liqligi qisqa bayon qilinadi. Ushbu qism hajmi 120 so‘zdan ortmasligi tavsiya etiladi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifasi. O‘quv fanini o‘qitishdan maqsad va uning asosiy vazifalari tegishli yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlash vazifalariga bog‘langan holda bayon etiladi. Maqsadlar ifodalanishida kutilayotgan natijalar ko‘rsatilishi lozim, bunda “shakllantiradi”, “zamin yaratadi” kabi iboralar ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan o‘quv fanining vazifalari ifodalanadi. Bular fanni o‘qitishda maqsadga erishish

usullari va yo'llarini bayon qilishi lozim, bunda “o'zlashtirish”, “ko'nikmalarga ega bo'lish” kabi iboralar ishlatilishi o'rinnlidir.

SHuningdek, mazkur kismda ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar doirasida ushbu fan bo'yicha talabalar egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bayon qilinadi. Ushbu qism hajmi 120 ta so'zdan ortmasligi tavsiya etiladi.

Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari). O'quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Asosiy nazariy qism modullar shaklida berilishi mumkin. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida etkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar qamrab olinishi lozim. Fanning mazmun va mavzulari boshqa ta'lim turlaridagi hamda turdosh yo'nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini qat'iy nazorat qilish talab etiladi.

SHuningdek, mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, sohaga oid jahon tajribalari, fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari qat'iy e'tiborga olinishi zarur. Asosiy nazariy qism oddiy matn shaklida qisqa va aniq tarzda, mavzu va modullar nomlari qalinlashtirilgan shrift bilan ajratilgan ko'rinishda, hajmi o'quv rejada ajratilgan vaqt hajmiga mos ravishda berilishi tavsiya etiladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar. O'quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari keltiriladi. Ushbu mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari, unda qo'llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, zarur hollarda muhokama etiladigan mavzular, masalalar variantlari, “keys”lar, faol va interfaol usullar ishlatilishi, laboratoriya ishlarining mazmuni, maqsadi, ishlatiladigan jihozlar va ashyolar ro'yxati hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritilishi lozim. Mazkur qism hajmi o'quv fanning mohiyati va unga kiritiladigan zaruriy ma'lumotlar hajmiga bog'liqdir.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar. Mustaqil ta'lim –professor-o'qituvchilar tomonidan auditoriyada talabalarga etkaziladigan mavzulardan tashqari o'quv fanning mazmuniga kiruvchi va aloqador mavzular, masalalar, axborotlarni mustaqil o'rganish va

o‘zlashtirishga qaratilgan muhim ta’lim jarayonidir. Talaba mustaqil ta’limining asosiy maqsadi – auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtida o‘qituvchining rahbarligi hamda nazoratida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir.

Mazkur qismda mustaqil ta’limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo‘ljallangan mavzular va topshiriqlar keltiriladi. Mustaqil mashg‘ulotlar jarayonida talabalar tomonidan tayyorlanishi zarur bo‘lgan yakuniy ishlar shakli (referat, esse, mustaqil (ijodiy) ish, muammoli ma’ruza va boshqalar) ko‘rsatiladi.

SHuningdek, talabalarning mustaqil ishlari turkumiga kiruvchi kurs loyihasi, kurs ishi, chizma-hisob, ijodiy va boshqa ishlarining mavzu va mazmuni, bajarish bo‘yicha qisqa uslubiy ko‘rsatmalar keltiriladi. Mazkur mustaqil ishlarining kengaytirilgan mavzulari va ularni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar tegishli kafedralar tomonidan alohida uslubiy ko‘rsatma ko‘rinishida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Mazkur qism hajmi o‘quv fanining mohiyati va unga kiritiladigan zaruriy ma’lumotlar hajmiga bog‘liqdir.

O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari. O‘quv rejada o‘quv fani bo‘yicha o‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti ko‘zda tutilgan holda fan dasturining ushbu qismi yoritiladi. O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi va mohiyati, shakli va mazmuni, amaliyot jarayonida talabalar tomonidan tayyorlanishi zarur bo‘lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko‘rsatmalar beriladi. Bunda o‘quv fanining mohiyati, kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni, tegishli yo‘nalish va mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlashning o‘ziga hos taraflari, tegishli yo‘nalishga oid jahondagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy texnika va texnologiyalar hisobga olinishi zarur.

O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini o‘tkazish bo‘yicha kengaytirilgan uslubiy ko‘rsatmalar tegishli kafedralar tomonidan alohida uslubiy ko‘llanma ko‘rinishida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Mazkur qism hajmi o‘quv fanining mohiyati va unga kiritiladigan zaruriy ma’lumotlar hajmiga bog‘liq bo‘lib, 80 ta so‘zdan ortmasligi tavsiya etiladi.

Asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari. Foydalilanidigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar hamda qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxatini keltirishda zamonaviy xorijiy va mahalliy adabiyotlardan, Internet, turli axborot

kommunikatsiya resurslaridan, himoya qilingan dissertatsiyalar, monografiya hamda boshqa o‘quv, ilmiy va uslubiy ma’lumotlar manbalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Fan dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi

Fan dasturlari bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalariga kiritilgan har bir fan bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (keyingi o‘rinlarda “Vazirlik” deb yuritiladi) belgilagan tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi.

Fan dasturlarini ishlab chiqish uchun tayanch oliy ta’lim muassasasining etakchi professor-o‘qituvchilari tarkibidan mualliflar (mualliflar guruhi) belgilanadi. Mualliflar guruhiga turdosh oliy ta’lim muassasalarining etakchi professor-o‘qituvchilari ham kiritilishi mumkin. Mualliflar guruhlari tarmoq ilmiy tadqiqot muassasalari, tegishli sohaning ishlab chiqarish korxona, tashkilot va muassasalarining etuk mutaxassislari bilan yaqin hamkorlik asosida fan dasturi loyihasini ishlab chiqadi.

Fan dasturlarining davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va mazkur Tartibga mos holda ishlab chiqilishiga tegishli tayanch oliy ta’lim muassasasi mas’uldir.

Fan dasturi ishlab chiqilishida mamlakat iqtisodiyoti real sektori rivojlanishi tendensiyalarini, jahondagi ilm-fan, texnika va texnologiyalarning eng so‘ngi yutuqlarini hisobga olish, ta’lim jarayonini optimallashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar, fanni talabalar tomonidan samarali o‘zlashtirishiga xizmat qiladigan boshqa vositalarni keng qo‘llash, “oddiydan murakabga”, “hususiydan umumiyya” kabi tamoyillarga amal qilish zarurdir.

Fan dasturlariga o‘quv jarayoni uchun zarur texnik vositalar, axborot-resurs markazidagi tegishli o‘quv adabiyotlar, didaktik materiallar, o‘quv va ilmiy jihozlar, ashyolar va boshqa moddiy-texnik vositalar to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiq.

Fan dasturining matni A-4 formatli standart varaqlarda, Times New Roman shriftining 14-o‘lchamida, 1,15 intervalda, chap va o‘ng tomonidan – 20, pastidan – 25, yuqoridan – 20 mm o‘lchamida hoshiyalangan holatda bostirib chiqariladi. Betlarni raqamlash pastki qismining markazida joylashtiriladi.

Fan dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Vazirlik topshirig‘iga muvofiq tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan fan dasturining loyihasi tayyorlanadi;
- tayyorlangan fan dasturining loyihasiga fanning etuk mutaxassislari, ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliy ta’lim muassasalari, tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarining taqrizlari olinadi;
- tayanch oliy ta’lim muassasasining Kengashida fan dasturining loyihasi atroflicha muhokama qilinadi va tasdiqlashga tavsiya etilishi to‘g‘risida Kengash bayoni rasmiylashtiriladi;
- fan dasturining loyihasi ekspertizadan o‘tkazish uchun tayanch oliy ta’lim muassasasi rektorining xati bilan Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markaziga kiritiladi. Kiritilayotgan xujjatlarga taqrizlar, tayanch oliy ta’lim muassasasi Kengashining bayoni ilova qilinadi;
- Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan kiritilgan fan dasturlarining loyihalari ni ta’lim sohalari va yo‘nalishlariga muvofiq jamlab O‘quv-uslubiy birlashma va komissiyalarga taqdim etadi;
- O‘quv-uslubiy birlashma va komissiyalar fan dasturlarining loyihalari davlat ta’lim standartlariga, malaka talablariga, o‘quv rejalgara, mazkur Tartib talablariga mosligi hamda talabalarga mukammal zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni berishga xizmat qilishi yuzasidan belgilangan tartibda batafsil ekspertizadan o‘tkazadi va har biri bo‘yicha asoslangan hulosa beradi;
- O‘quv-uslubiy birlashma va komissiyalarning fan dasturlari loyihalari yuzasidan bergen hulosalari Vazirlik huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisida muhokama qilinadi. Muhokama natijasida ijobiy deb topilgan fan dasturlari Vazirlik tomonidan tasdiqlanishiga tavsiya beriladi, salbiy baholangan fan dasturlari esa qayta ishlashga tayanch oliy ta’lim muassasalariga yuboriladi;
- Vazirlik huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisini qaroriga muvofiq fan dasturlarining loyihalari Vazirlik buyrug‘i bilan tasdiqlanadi;

- tasdiqlangan fan dasturlari belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi, ularning bir nusxasi Vazirlikda (etalon sifatida), bir nusxasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazida, bir nusxasi tegishli tayanch oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

Tasdiqlangan va ro'yxatga olingan fan dasturlarining elektron versiyalari yoki ko'chirma nusxalari taalluqligi bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan barcha oliy ta'lim muassasalariga etkaziladi.

O'quv-uslubiy birlashma va komissiyalar tomonidan fan dasturlari loyihamalarini ekspertizadan o'tkazish va muhokama etish tartibi Vazirlik huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan belgilanadi.

Fanning ishchi o'quv dasturi

Ta'lim jarayonini bevosita joylarda maqsadli tashkil qilish va mashg'ulotlarni tizimli tartibga solish maqsadida fan dasturi asosida **fanning ishchi o'quv dasturi** (keyingi o'rinlarda "ishchi fan dasturi" deb yuritiladi) ishlab chiqiladi.

Ishchi fan dasturlari oliy ta'lim muassasalari tomonidan har bir o'quv yili uchun ishlab chiqiladi va oliy ta'lim muassasasining Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

Ishchi fan dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- fan dasturining titul varag'i va uning sirt tarafidagi ma'lumotlar;
- o'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar;
- ma'ruza mashg'ulotlari;
- amaliyot, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari;
- mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar;
- o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari;
- fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari;

– asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar, qo'shimcha adabiyotlar va boshqa axborot manbaalari ro'yxati.

Ishchi fan dasturining **titul varag'ida** vazirlik nomi, oliy ta'lim muassasasi nomi, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq tegishli ta'lim sohasi, ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)larining shifri va nomlari, o'quv rejaga muvofiq fanning to'liq nomi, tasdiqlangan sanasi va belgilari (muhr), fanga

ajratilgan umumiy hamda semestrlar va mashg‘ulotlar kesimida soatlar hajmi ko‘rsatiladi.

Ishchi fan dasturi **titul varag‘ining sirtki tarafida** unga asos bo‘lgan fan dasturi tasdiqlangan vazirlik buyrug‘i, uni tasdiqlagan Oliy ta’lim muassasasi Kengashi bayonining soni va sanasi, ishchi fan dasturining tuzuvchilari ismi, familiyasi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, taqrizchilar ismi, familiyasi, ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, oly ta’lim muassasasining tegishli fakulteti dekani va kafedra mudiri imzolari o‘z aksini topishi lozim.

O‘quv fani o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. Fan dasturidagi asosiy masalalar, fanni o‘qitish bilan bog‘liq uslubiy ko‘rsatmalar qisqa beriladi.

Ma’ruza mashg‘ulotlari. O‘quv fanining mavzulari fan dasturiga qat’iy amal qilgan holda mantiqiy ketma-ketlikda oddiy jadval shaklida keltiriladi. Har bir mavzu ketma-ket raqamlanadi va unga ajratilgan soat ko‘rsatiladi. Jadval tagidagi oxirgi katakda ma’ruzalarga ajratilgan umumiy soatlar hajmi ko‘rsatiladi, ushbu raqam o‘quv rejadagi bilan to‘liq mos kelishi shart.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv reja, fan dasturi, o‘quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy (seminar, kollokvium, laboratoriya va boshqa) mashg‘ulotlar oddiy jadval shaklida keltiriladi. Har bir mavzu ketma-ket raqamlanadi va unga ajratilgan soat ko‘rsatiladi. Jadval tagidagi oxirgi katakda ushbu mashg‘ulotlarga ajratilgan umumiy soatlar hajmi ko‘rsatiladi, mazkur raqam o‘quv rejadagi bilan to‘liq mos kelishi shart. Ishchi fan dasturining ushbu qismida faqat o‘quv reja va fan dasturida ko‘zda tutilgan mashg‘ulotlar turi qayd etiladi.

SHuningdek, amaliy mashg‘ulatlarda ishlataladigan jihozlar, axborot va pedagogik texnologiyalar, muhokama etiladigan mavzular, masalalar variantlari, “keys”lar, faol va interfaol usullar, laboratoriya ishlarining maqsadi, mazmuni, ishlataladigan laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlari va ashyolar ro‘yxati, mashg‘ulotlar boyicha talabalarning yakuniy ishlari, hisobot turlari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma’lumotlar aniq yoritilishi shart.

Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar. Mazkur qismda mustaqil ta’limning shakli va mazmuni, mustaqil o‘zlashtirishga mo‘ljallangan mavzular va topshiriqlar keltiriladi. Har bir mavzu ketma-ket raqamlanadi va unga ajratilgan soat ko‘rsatiladi. Jadval tagidagi oxirgi

katakda ushbu mashg‘ulotlarga ajratilgan umumiy soatlar hajmi ko‘rsatiladi, mazkur raqam o‘quv rejadagi bilan to‘liq mos tushishi shart. Mustaqil mashg‘ulotlar jarayonida talabalar tomonidan tayyorlanishi zarur bo‘lgan yakuniy ishlar shakli (referat, esse, mustaql (ijodiy) ish, muammoli ma’ruza va boshqalar) va uni topshirish (himoya qilish) tartibi aniq ko‘rsatiladi.

SHuningdek, o‘quv reja va fan dasturiga muvofiq kurs loyihasi, kurs ishi, chizma-hisob, ijodiy va boshqa mustaqil ishlarining mavzu va mazmuni, bajarish bo‘yicha zarur uslubiy ko‘rsatmalar, rasmiylashtirish, topshirish shakli va tartibi keltiriladi.

O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari. O‘quv reja va fan dasturida ko‘zda tutilgan holda ishchi fan dasturining ushbu qismi yoritiladi. O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi va vazifasi, shakli va mazmuni, u qaerda va qanday tartibda o‘tilishi, amaliyot jarayonida talabalar tomonidan tayyorlanishi zarur bo‘lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan zaruriy uslubiy ko‘rsatmalar beriladi.

Fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari. O‘quv fanining mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib mashg‘ulotlar jarayoni va yakunida talabalar bilimini baholash mezonlari va nazorat tartibi ko‘rsatiladi. Baholash mezonlari fan dasturida belgilangan ushbu fan bo‘yicha talabalar egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida ishlab chiqiladi. Talabalar bilimini baholash va nazorat qilish tartibiga talabalar tomonildan bajariladigan mustaqil ishlar va vazifalar baholanishi tartibi ham kiritilishi lozim.

Asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari. Fan dasturiga muvofiq foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar hamda qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxati va axborot manbaalari beriladi. Ko‘rsatilgan o‘quv adabiyotlar oliy ta’lim muassasasining axborot-resurs markazida mavjud bo‘lishi shart.

Ishchi fan dasturining matni fan dasturi matniga qo‘yilgan talablarga muvofiq bostirib chiqariladi.

Fan dasturi va ishchi fan dasturini rasmiylashtirish, tarqatish va saqlash uchun A5 formatidagi “kitobcha” shaklida bostirib chiqarish lozim.

Fan dasturi va ishchi fan dasturi ilmiy-uslubiy va o‘quv-uslubiy ish maqomiga ega bo‘lib, uning tuzuvchilari mualliflik huquqiga ega.

Tartibga o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish va bekor qilish Vazirlikning buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *O‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumny talablar*
2. *Ixtisoslik fanlari haqida ma’lumot bering.*
3. *O‘quv rejasi va uning tarkibiy tuzilishini aytib bering.*
4. *Maktabgacha ta’lim bakalavr ishchi o‘quv rejasini ishlab chiqing.*
5. *Fan dasturi va unga qo‘yiladigan talablarni ayting.*
6. *Mutaxassislik fanlardan ishchi fan dasturini ishlab chiqing.*
7. *Maktabgacha pedagogika fanidan taqvimiylar reja ishlab chiqing.*

6-MAVZU. METODIK ISHLAR, ULARNI REJALASHTIRISH, TASHKIL ETISH VA TAYYORLASH METODIKASI

Tayanch iboralar: o‘quv-uslubiy majmua, titul, mundarija, maruza, seminar va amaliy mashg’ulot, glossariy, taqvimiylar reja.

6.1. Mutaxassislik fanlaridan o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash

Oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 1 martdagisi “Yangi o‘quv-uslubiy majmularini tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmani tavsiya etpsh to‘g‘risida”gi 107-son buyrug‘i asosida tayyorlanadi.

O‘quv-uslubiy majmua - davlat ta’lim standartlari va fan dasturlarida belgilangan talabalarga muvofiq egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompeteitsiyalarni shakllantirish, fanga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini, ilg‘or xorijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish, o‘quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarga erishish, mustaqil bilim olish va o‘rganish hamda nazoratni amalga oshirishni ta’minlaydigan

o‘quv-uslubiy vositadir. O‘quv-uslubiy majmua talabaning ijodiy kobiliyatlarini rivojlantirishga yunaltirilgan o‘quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta’lim resurslari, o‘qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi.

O‘quv-uslubiy majmua Davlat ta’lim standarta, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining malaka talablari asosida tuzilgan fan dasturiga muvofiq, shaxsga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil ta’lim olish texnologiyalari, tamoyillari va talablari asosida ishlab chiqiladi.

O‘quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish uchun mualliflar jamoasi tashkil qilinishi, unga fan bo‘yicha professor-o‘qituvchilar, soha mutaxassislari, ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining malaka talablari hamda fan dasturlarini ishlab chiquvchilari, xorijiy tilni biladigan mutaxassislar, elektron ta’lim resurslarini yaratish bo‘yicha mutaxassis dasturchilar va dizaynerlar, uslubchilar kiritilishi maqsadga muvofiq.

Mualliflar jamoasi yaratiladigan o‘quv-uslubiy majmuuning konsepsiyasyni ishlab chikishi, reja tuzishi, mazmuniy-uslubiy tizimni bayon qilishi, komponentlar orasidagi o‘zaro integratsiyani joriy qilish yo‘llarini belgilashi va shu bilan birga o‘zlarining ijodiy qobiliyatini namoyish etishlari zarur.

Oliy ta’lim muassasalarda o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va takomillashtirish bo‘yicha seminar va treninglar tashkil kilinishi tavsiya etiladi.

Ishlab chikilayotgan o‘quv-uslubiy majmular tegishli ta’lim yunalishlari va mutaxassisliklarining malaka talablari, fan dasturiga to‘liq javob berishi, soha va fan bo‘yicha zamonaviy xorijiy adabiyotlar, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning eng so‘ngi yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lishi lozim.

6.2. Mutaxassislik fanlaridan o‘quv-uslubiy majmualari tarkibi

O‘quv-uslubiy majmular qo‘yidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

a) Titul varag‘i va uning ikkinchi beti. O‘quv-uslubiy majmualarning titul varag‘ida vazirlik nomi, Oliy ta’lim muassasasi nomi, o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlagan kafedra nomi, o‘quv dasturga muvofiq fanning to‘liq nomi, Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq tegishli bilim, ta’lim

sohalari va ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik)larning shifri va nomlari, shaxar va o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqilgan yil ko‘rsatiladi.

O‘quv-uslubiy majmualar titul varag‘ining ikkinchi betida u O‘zbekistan Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (keyingi o‘rinlarda “Vazirlik” deb yuritiladi) tomonidan qanon va qaysi buyruq bilan tasdiqlangai fan dasturi asosida ishlab chiqilgani, o‘quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqqan tuzuvchilar ismi, familiyasi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, taqrizchilar ismi, familiyasi, ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, o‘quv-uslubiy majmua ko‘rib chiqilgan va ishlatishga tavsiya etilgan oliy ta’lim muassasasi Kengashi bayonining sopi va sanasi keltiriladi.

b) Mundarija. o‘quv-uslubiy majmuaning asosiy bo‘limlari va uning betlari ko‘rsatiladi.

v) O‘quv materiallar. Birinchi o‘rinda fan dasturiga muvofiq ma’ruzalar mavzulari yoritib beriladi. Mavzular fan dasturiga muvofiq modullar tarkibida berilishi mumkin, har bir mavzu bo‘yicha: reja (o‘quv materiali matnidan oldin qo‘yiladi), tayanch so‘z va iboralar, asosiy matn (mavzu mazmuni va mohiyatiga qarab u ham qismlarga bo‘linishi mumkin). Ma’ruzalar bo‘yicha o‘quv materiallar matni ko‘rgazmali elementlar, rasmlar, diagramma, gistogramma, grafiklar, qiziqarli havolalar, misollar hamda talabalar e’tiborini jalg qilib fanni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladigan boshqa elementlar bilan boyitilishi mumkin. Xorijiy adabiyotlardan olinganssitatalarga havolalar berib borilishi shart.

Ikkinchi o‘rinda fan dasturiga muvofiq amaliy va (yoki) laboratoriya mashg‘ulotlari mavzulari bo‘yicha yoritib beriladi. Har bir mavzu bo‘yicha: asosiy matn, topshiriqlar variantlari, masala va misollar, keyslar to‘plami, laboratoriya ishlarining maqsadi, mazmuni va kutilayotgan natiasi, laboratoriya ishining bat afsil rejasi va tushuntirish matni, laboratoriya ishlarini o‘tkazish qoidalari va xavfsizlik choralar, nazorat savollari, xorijiy va maxalliy adabiyotlar ruyxati keltirilishi shart. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari ko‘rsatiladi. O‘quv kursi yakunida xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi hamda xorijiy adabiyotlardan olinganssitatalarga havolalar berib borilishi shart.

g) Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari. Fan bo‘yicha mustaqil ta’lim mashg‘ulotlar mavzulari va ularni o‘zlashtirish bo‘yicha zarur uslubiy

ko‘rsatmalar beriladi. Fan dasturiga muvofiqq kurs loyihasi, kurs ishi, hisob-chizma ishi, ijodiy va boshqa mustaqil ishlar mavzulari, mazmuni, maqsadi, kutilayotgan natijasi, variantlari, zarur tushuntirishlar hamda mustaqil vazifalarini bajarishga qaratilgan boshqa ma’lumotlar keltiriladi.

d) **Glossariy.** Fanga oid termin va iboralarning qisqa talqini bo‘yicha uzbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

e) **Ilovalar:**

- fan dasturi;
- ishchi fan dasturi;
- tarqatma materiallar;
- testlar;
- ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo‘llash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar;
- fanni o‘ziga xosligiga qarab o‘rganish bo‘yicha boshqa materiallar keltirilishi mumkin;
- o‘quv-uslubiy majmuuning elektron varianti.

6.3. O‘quv-uslubiy majmualarni chop etishga tayyorlash

1. O‘quv-uslubiy majmualar uchun quyidagi parametrlar qabul qilinadi:

- O‘quv-uslubiy majmualarning ulchami 60x84/8 (210x297 mm);
- hoshiyalarning ulchami tepadai va pastdan 20 mm, chap va o‘ng tomondan 20 mm, hoshiyalarning o‘lchami $\pm 10\%$ o‘zgartirilishi mumkin;
- O‘quv-uslubiy majmualarni rasmiylashtirishda har bir bo‘limning nomi (yoki qisqa nomi)ni ifodalaydigan kolontitul elementini joylashtirish tavsiya kilinadi;
- saxifalarni bezatish uchun ortiqcha ornament va bezak elementlaridan foydalanishga yul qo‘yilmaydi.

2. O‘quv-uslubiy majmualarning muqova titul varag‘ini rasmiylashtirishda uni ishlab chiqqan oliy ta’lim muassasining logotipi (emblemasi) hamda o‘quv-uslubiy majmua nomidan keyin fanning asosiy mazmunini ifodalaydigan 1 ta rangli rasm joylashtirish mumkin.

3. O‘quv-uslubiy majmua matnini terish va sahifalashda quyidagi talablarga rioya kilinadi:

- 3.1. O‘quv-uslubiy majmualarning asosiy va qo‘shimcha

matnlarini terishda Times Uz va Times New Roman SHrift garniturasi, asosiy matn uchun 12, 14, qo'shimcha va yordamchi matnlar uchun 11,12 shriftning keglidan foydalanish lozim.

Bunda kompyuterdan foydalanishda ushbu parametrlarga ulchami va yozilishi yaqin bo'lgan boshqa shriftlar garniturasidan foydalanish mumkin. O'ziga xos yozuv shakliga ega tillar (masalan arab, yapon, koreys, xitoy, hind va boshqalar) uchun boshqa mavjud garnituralardan foydalanish mumkin.

3.2. Asosiy matn 1,0 yoki 1,5 intervalda teriladi. Abzats chekinishi ulchami 1,0 yoki 1,5 sm. Bu parametrlar matn bo'ylab bir xil bo'lishi shart.

3.3. Jadvallar nomi va qo'shimcha matnlarni boshqa rang bilan ajratishga yo'l qo'yilmaydi. O'quv-uslubiy majmualarda asosiy matn bir ustunda terilishi kerak.

3.4. O'quv-uslubiy majmualarda asosiy sarlavhalarni hamda matnda rasm ostidagi yozuvlarni tuq ko'k rang bilan yozishga yo'l qo'yiladi ammo ko'rinxaydigan yozuvda yozishga yo'l qo'yilmaydi.

3.5. Formulalar kqora rangda teriladi. Formularni terishda fon ishlatishga va boshqa rangdan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

3.6. Sahifalarda asosiy va qo'shimcha matnlarni turli rangli fonlarga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

3.7. O'quv-uslubiy majmualarda asosiy va qo'shimcha matnni terish uchun 1-2 ta shrift garniturasidan foydalanish mumkin.

3.8. Darajasi bir xil bo'lgan yozuv, sarlavha va boshqa matnli elementlar bir xil parametrli shrift bilan terilishi va rasmiylashtirilishi kerak.

3.9. Snoskalarni terish uchun asosiy kegldan 2 p, 4 p kichik bo'lgan shrift kegllari tanlanadi.

3.10 Titul varagida kolonsifra (betlarning tartib raqami) qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3.11. Kolonsifralar sahifaning tag qismining markazida quyilishi maqsadga muvofiq.

4. O'quv-uslubiy majmualarda rasmlar bilan ishslash qo'yidagi tartibda amalga oshiriladi:

➤ Rasmlar bir va kup rangli bulishi mumkin.

➤ Estetik talablardan kelib chiqqan holda rasmlarni kvadrat shaklda joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

➤ O'quv-uslubiy majmualarda sifatsiz skanerlangan va yozuvlari

aniq o‘qilmaydigan rasmlarni joylashtirish man etiladi.

➤ Rasmlar va diagrammalarni bezatishda 10-15 foizli, yani juda och fondan foydalanish lozim.

➤ Rasmlar ketma-ketligi har bir bobda alohida qo‘yiladi, masalan, 1 bobda 1-rasm «1.1-rasm», - 2 bobda 4-rasm - «2.4-rasm» deb belgilanadi. Jadvallar bilan rasmlar bir xil usulda raqamlanadi.

➤ Jadval va diagrammalarni bezatishda matnni o‘qishni kiyinlashtirmaydigan och tusli qaymoq rangli fondan foydalanish lozim.

➤ O‘quv-uslubiy majmualarni birdan ortiq rang qo‘llab ishlab chiqishda, boshqa ranglar luz, sarlavha, qoidalar, shuningdek, belgilar, jadval va x-k. ni ajratishda qo‘llaniladi. Ranglarni tanlashda ularning bir-biriga mosligiga va uyg‘unligiga e’tibor qaratish shart.

➤ O‘quv-uslubiy majmualarda rasmlar soni chegaralanmagan, lekin rasm hajmini umumiylar *hajmga nisbatan 35% dan oshirmaslik tavsiya qilinadi*.

➤ Matn va rasqli elementlarni bezashda ko‘p hollarda tuq kizil ranglardan foydalanish tavsiya kilinmaydi.

5. O‘quv-uslubiy majmualarni bosmaga chiqarish va muqovalashda quyidagi talablarga rioya kilish lozim:

5.1. O‘UMlarni bosmaga chiqarishda 1-4 rangli lazerli va purkashli (struyniy) printerlardan foydalanish mumkin.

5.2. O‘UMlarni bosmaga chikarish uchun 1 m² vazni 70-80 g bulgan ofset va idora qog‘ozlaridan foydalaniladi. O‘UMni chop etishda qog‘ozni oldi va orqa tomonidan foydalanish maqsadga muvofiq.

5.3. O‘UMlar quyidagi xil muqovalarda tayyorlanishi mumkin:

- O‘UM taxlamini №76 tipdagisi qattiq muqova bilan qoplash.

Bunda muqova ofset yoki idora qog‘ozida bosilib, shaffof plenka bilan qoplanadi yoki muqova uchun matbaa muqovabop materiali kullanadi;

- O‘UM taxlamini tikmasdan elimlab mahkamlash va yumshoq muqova bilan birlashtirish. Bunda muqova uchun 240 g/m² ko‘rsatkichga ega qog‘oz tanlanadi va tasvir bosilganidan keyin shaffof plenka bilan qoplanadi.

5.4. O‘UM taxlamlarini mahkamlashda ip bilan tikish, sim bilan tikish, tikmasdan elimlab mahkamlash usullarini qo‘llash mumkin.

5.5. Taxlam kalinligi 20 mm dan ortiq bo‘lgan O‘UM larni №76 tipidagi qattiq muqovalarda tayyorlash tavsiya kilinadi.

6. O'UMlarni ishlab chiqishda san'at, chizma, dizayn yo'nalishlari uchun hamda boshqa tillardagi (masalan arab, yapon, koreys, xitoy va boshqa tillarda) fanning o'ziga xosligini hisobga olgan holda bezatishlari mumkin.

7. O'UM ilmiy-uslubiy va o'quv-uslubiy ish hisoblanadi, uning tuzuvchilari mualliflik huquqiga ega hamda ularning ilmiy-pedagogik faoliyati baholanishida hisobga olinadi.

8. Talablarga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish va uni bekor qilish Vazirlilikning buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. O'quv-uslubiy majmuasi nima?

2. O'quv-uslubiy majmuasini yaratish tartibi haqida ma'lumot bering.

3. Glossariy nima?

4. O'quv-uslubiy majmuasi tarkibidagi "Ilovalar" qismiga nimalarni kiritish mumkin?

5. Kafedra professor-o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan O'UMlarni tahlil qilib chiqing.

6. O'qituvchi yordamida "Maktabgacha pedagogika" fanidan O'UM majmua tayyorlang.

3-MODUL. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH MAZMUNI

7-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH METOD VA VOSITALARI

Tayanch so‘zlar: metod, ta’lim metodlari, axborotli namoyish etish metodi, reproduktiv metod, izlanuvchanlik metodi, qisman izlanish metodi, muammoli bayon qilish, tadqiqot (ijodiylik) metodi, amaliy metodlar, reproduktiv metodlar, muammoli bayon qilish metodlari, mustaqil ish metodlari, ma’ruza, ma’ruza-bahs metodi, suhbat, laboratoriya metodi, manbalar bilan ishlash metodi, ta’lim vositalari.

7.1. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarning mohiyati va ahamyati

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlar bo‘lajak o‘qituvchilarga shu fanlar haqida ma’lumot berib mazkur kasbga tayyorlaydi. Bu ta’lim jarayonida amalga oshadi. Ma’lumki, ta’lim ikki yoqlama jarayon bo‘lib, ta’lim beruvchilar va o‘quvchilar faoliyatini qamrab oladi. Bu jarayonning samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan ta’lim beruvchilar bilan ta’lim oluvchilar faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi bilan tasvirlanadi. Bu yo‘lni pedagogika fanida o‘qitish metodlari deb atash va nomlash qabul qilingan. Chunonchi o‘qitish metodlarini faoliyatni amalga oshirish yo‘li bo‘lib, u ko‘zlangan maqsadga erishishiga olib boradi.

Darhaqiqat, “Metod” yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, “tadqiqot yo‘li”, “usul” kabi ma’nolarni anglatadi va maqsadga erishish uchun ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchining o‘zaro ta’limiy muloqotlarini, tadqiqotlari amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Ta’lim metodlarining mohiyati, ularga berilgan ta’riflarda o‘z izohini topa olgan. Zero, o‘qitish jarayonning mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi usul, metod, so‘zlarda aks ettiriladi.

Keyingi davrlarda ilmiy pedagogik manbalarda “ta’lim metodlari” tushunchasida ko‘pgina ta’riflar berilgan bo‘lib, bu ta’riflarda o‘qitish jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar faoliyatini bir

yo‘nalishda undovchi fikrlar qayd etilganki, ular to‘liq ma’noda “ta’lim metodlari” terminining mohiyatini to‘la ochib bera olishga qodir. Masalan, ta’lim metodlari o‘quv jarayonining murakkab tarkibiy unsuri (komponenti) bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini barcha yo‘nalishlarini yoritishda xizmat qiladi, ular o‘rtasida ko‘p sonli aloqani va bog‘lanishlarni yuzaga keltiradi¹ deb yozgan edi professor G.I.Shukina. Bu ta’rifda ta’lim metodlarining mohiyati o‘qitish jarayonida o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilar faoliyatlarini yakka maqsad bo‘yicha tashkil qiladi hamda faoliyatning turli aloqadorlik va bog‘lanishlik holatini vujudga keltirishdaligi ochib berilgan.

Shuningdek, ta’lim metodlarining o‘qituvchini o‘rgatuvchanligi faoliyati asosida o‘quvchilar o‘quv mehnatini tashkillashtiruvchi hamda didaktik topshiriqlar yechimini topishga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv faoliyati usullari jamigina ta’kidlovchi ta’rif ham mavjud. “Ta’lim metodlari deganda o‘qituvchining o‘rgatuvchanligi va o‘quvchilararning o‘quv materialini egallashga yo‘naltirilgan turli didaktik masalalar yechimini topishga oid o‘quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish usullari tushuniladi”²

Shu nuqtai nazarda pedagogik turkum fanlarni o‘qitadigan o‘qituvchilar unutmasligi kerakki, qayd qilingan ta’riflarda ta’lim metodlari o‘quv jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun o‘qituvchi - o‘quvchilar faoliyatini yagona yo‘nalishi nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirishiga yo‘naltirish yo‘llarini anglatishi nazarda tutilgan.

Ta’lim metodlari ko‘p hollarda o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati qanday tartibda bo‘lishini, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish talabga muvofiqligini hamda bu jarayonda o‘quvchilararning o‘quv-bilish harakatlari qanday tashkillashtirilishi lozimligini ham bilib beradi.

Ma’lumki, o‘qituvchi ta’lim berish jarayonida insoniyat taraqqiyoti va tajribasida to‘plangan hamda bilimlar holatiga keltirilgan ma’lumotlarni bu ma’lumotylarni hali egallamagan

¹ Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta’lim sohasi bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik/ M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar; 0 ‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: « 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. 125-bet.

² Харламов И.Ф. Педагогика: учеб. пос. 2- изд Высшая школа, 1990, 194-195-ст

o‘quvchining ongi o‘rtasida vositalik vazifasini bajaradi. Bunday holatda bola o‘qituvchining ko‘magisiz ijtimoiy tarixiy tajribalarni ifodalovchi barcha bilimlarni o‘zlashtirishga qodir emas. Bunday o‘qituvchining katta xizmati o‘quv meyorini bayon qilishga eng maqbul yo‘l, metod va usullarni tanlashda namoyon bo‘ladi. Ta’lim metodlari o‘quv materialini bayon qilishda va bolalar yaxshi bilib olishlariga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlarining usullari ham hisoblanadi. Ta’lim metodlari dastlab pedagog ongida, muayyan yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashgan tarzdagi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mazkur ko‘rinish amaliy faoliyatda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligining o‘zaro bogliqligida o‘qitish va o‘qish vazifalarini aniq bajarishga yo‘naltirilgan harakatlar, amallar usullar birligida amalga oshiriladi. Metod boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmaydi, buning sababi ta’lim metodi o‘zida umumiyl holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.

Ta’lim metodlari o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatining xususiyatini, ya’ni bilim darajasini, ilmiy fikrlar mantig‘i va uni anglash qobiliyatini inobatga olishni ta’kidlaydi. Bunda o‘qituvchi ish harakati, o‘quvchining yuqorida qayd etilgan holatlar bilan bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim. Bunda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar bilish faoliyatlarining yo‘nalishi bir vazifani bajarishga qaratilgan bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta’lim metodlari psixologik asosga ega. O‘quvchining o‘quv ma’lumotlarini o‘zlashtirishdagi qobiliyati, o‘zlashtirishning yetuklik darajasi, bilimlarni qabul qilish, esda saqlash va xotirlash darajasi o‘qish va bilishga juda katta ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun oliy o‘quv yurtlarida pedagogik turkum fanlardan dars beruvchilar ta’lim metodlarini tanlashda bularni albatta inobatga olish lozim.

Shuni e’tirof etish joizki ta’lim metodlari tarkiban, o‘qitish va o‘qish usullaridan tashkil topgan. Bunda o‘qitish va o‘qish usullari metodning bir qismi bo‘lib, o‘quv vazifasini hal etishda metodning metodning ta’sirchanligi va natijaviyligini kengaytiradi. Masalan, o‘qituvchi og‘zaki bayon metodidan foydalanganda, tushuntirish yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin, o‘quvchi esa o‘qishda mustaqil ish yoki kitob bilan ishslash usulidan foydalanadi. Bunda bilimlarni og‘zaki bayon etish, tushuntirish, suhbat, mustaqil ish, kitob bilan ishslash kabilar usullar hisoblanib, ular yordamida didaktik vazifalar-

bilimlarni o'rgatishi, mustahkamlash, tadbiq qilish hal etiladi. Chunonchi, o'qituvchi ijtimoiy tajribani o'quvchilarga o'rgatish talablaridan kelib chiqib, o'z faoliyatini o'quvchi-yoshlar faoliyatiga muvofiqlashtiradi. Bunda ta'lim metodlarini ta'lim usullari to'ldiradigan bo'lishi kerak, mabodo bunday bo'lmasa, ta'lim metodlarining natijasi foydasiz narsaga aylanadi.

Ta'lim metodlari yana bir tomondan oliv o'quv yurti talabalarining anatomik-fiziologik, biologik xususiyatlariga ham bog'liqdir. Talabalarning bilim faoliyatini tashkil qilishda ularning yoshiga xos biologik rivojlanishni hisobga olish lozim. Chunki, ta'limning ko'p jihatlari ishlash qobiliyati, jismoniy sog'lik, aqliy o'sish, kayfiyat, intellekt, gigiyenik shart-sharoitlar aynan biologik rivojlanish bilan bog'liq. Oliy ta'lim talabalarining intellektini inobatga olib ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamyat kasb etadi. Binobarin intellekt-bilish, tushunish, idrok qilish hisoblanib, yoshlarni aqliy qobiliyati fikrashi, o'qish-o'rganishi ijtimoiy hayotni, muhitni, voqelikni aynan ongda aks ettirishni voqealarni oldindan ko'ra bilish layoqatini ifodalaydi va turli muammolarni oqilona hal qilish, aniq qarorlar chiqarish, to'g'ri ish yuritishi uchun muhim ahamyat kasb etadi.

Demak, mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari deyilganda, maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridagi ma'lumotlarni o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan bayon qilish, uzatish va ta'lim oluvchi(o'quvchi)lar tomonidan bu ma'lumotlarni, nazariyalarni idroklash, o'zlashtirish yo'li deb tushunmoq kerak.

7.2. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlarining tasnifi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitish juda murakkab jarayon hisoblanib bu fanlarni o'qitishda ta'lim metodlarining turli-tuman tasniflari mavjud. Didaktika fanida ta'lim metodlarini tasniflashning turli-tumanligi ta'lim jarayonida turlicha, yondashuvlarning maydonga kelganligi va bu yondashuvlarning qandaydir didaktik belgilarga qarab o'qitish metodlarining tasniflanishiga yondashilganlidadir. Shu nuqtai nazardan ba'zi mutaxasislar ta'lim metodlarini tasnif etishda bilish manbalarini hisobga olishsa, ayrim mutaxasislar o'qituvchi xususiyatlaridan kelib chiqishadi, uchinchi bir guruh olimlar esa o'quvchilar faoliyatini

faoliyatini e'tiborga olishadi. Ta'lim metodlariga bunday qarashlarning ko‘p rang-barang bo‘lishi tabiiy. Zero, ta’lim metodlari mazmunan boy hodisa bo‘lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati bilan ham bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish bilan ham daxldor katigoriyadir. Qayd etilgan fikrlarga aytish mumkinki ananaviy didaktikada ta’lim metodlarini o‘quvchi bilim oladigan manbaga qarab ya’ni o‘qituvchi nutqi ko‘rgazma quroq, darslikni va qo‘srimcha materiallarni ta’lim manbai deb qabul qilish ta’lim metodlarini; og‘zaki bayon qilish metodlari (hikoya, ma’ruza, suhbat, tushuntirish o‘qituvchining jonli nutqi, kitob bilan ishslash): ko‘rgazmali metodlar (namoyish qilish, tasviriy materiallar, ekskursiyalar va h.k.); amaliy metodlar (mashqlar, amaliy ishlari, laboratoriya ishlari va h. k.)ga bo‘lib tasniflaganlar(S.I.Peroveskiy, E.Ya.Golyan). Boshqa guruh olimlari (M.A.Danilov, B.P.Yesipov) ta’lim jarayonining muayyan qismlarida bajariladigan o‘quv vazifasining mazmunidan kelib chiqib ta’lim metodlarini bilimlarni o‘rganishga oid metodlar; bilish va ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari; bilishni tadbiq etish metodlari; ijodiy ishslash metodlari; bilim va malakalarni mustahkamlash, hamda bilimlar va ko‘nikmalarni tekshirish metodlar. Taklif etilayotgan metodlar o‘quv mashg‘ulotlarining samarali bo‘lishi va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga ko‘maklashadi.

I.Ya.Lerner va M.N.Skatkinlar tomonidan tasnif etilgan metodlar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga tadqiqotchilik va muammoli holatlarni yaratishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi, jumladan:

1. Axborotli namoyish etish metodi. Bunda bilimlar o‘qituvchi tomonidan tayyor holda beriladi. O‘quvchi talabalarga muammo to‘g‘risida ma'lumot beriladi va misollar keltiriladi, bayon etilayotgan pedagogika faniga oid muammolar to‘g‘risidagi axborotni tinglaydilar, namoyish etgan pedagogik hodisani ko‘radilar va ularni xotiraga saqlashga harakat qiladilar. Bayon etilayotgan pedagogik hodisani ko‘radilar va ularni xotiraga saqlashga harakat qiladilar. Bayon etilayotgan pedagogik hodisa muammoli vaziyatni sodir qilish orqali amalga oshirilsa samara yaxshi bo‘lishi mumkin.

2. Reproduktiv metod. Bu metod o‘quvchi talaba bilimini chuqurlashtirish va kengaytirishni nazarda tutadi bunda talaba pedagogika fanidan berilgan o‘quv topshirig‘ini oldin egallangan

ma'lum darajada esda qolgan namunaga qarab bajaradi o'quvchi o'rganuvchi namunani darslikdan yoki boshqa manbalardan o'qituvchi ko'rsatmasiga qarab oladi.

3. Izlanuvchanlik metodi bu meyodning mohiyati shundaki pedagog masalaga doir muammoni o'qituvchi mashg'ulot jarayonida talabalar oldiga qo'yadi ammo muammoni yechish yo'llarini ko'rsatmaydi va maslahat ham bermaydi. O'quvchilarning har biri muammoni mustaqil hal qilish uchun izlanadi, ijodiy faoliyat ko'rsatadi. Muammoni aqliy faoliyat asosida yechgan o'quvchilarda bilim faolligi va ijodiy izlanish malakalari hosil bo'ladi.

4. Evrika yoki qisman izlanish metodi o'quv mashg'ulotlarida o'qituvchi o'quvchilar fikrini qo'yilgan o'quv vazifasi (muammosi)ni hal qilishga yo'llashni nazarda tutadi. Bunda o'qituvchi turli vositalarni namoyish etib yangi ma'lumotni izlab topishni vazifa qilib qo'yadi. Buning uchun dastlab o'qituvchi yangi bilimlarning muayyan bir qismni, o'quvchilarga ma'lum qiladi va muammoning qolgan qismini topshiriqlar berish orqali o'quvchilarning faoliyatini yo'lg'a qo'yadi hamda ularning o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

5. Muammoli bayon qilish metodi - o'qituvchi talabalar oldiga ma'lum bir muammoni qo'yadi, muammoli vaziyat yaratish orqali o'quvchilar aqliy faoliyatlarini yuzaga keltiradi, ammo hal qilish yo'llari ko'rsatilmaydi. Har bir o'quvchi qo'yilgan muammoni hal qilish uchun izlanadi, o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari asosida vazifani bajaradi. Ta'limning bu metodi o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'qituvchi rahbarligida mustaqil yechish va tahlil qilish bilan xarakterlanadi.

Bunda talabalarda mantiqiy mulohaza yuritish natijasida ijodiy fikrlash rivojlanadi.

6. Tadqiqot (ijodiylik) metodi. Bu metod ta'lim oluvchilarning to'la ijodiylikka, tadqiqotchilikka ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi taklif etgan masalani talabalar mustaqil mustaqil tadqiq etadilar. Bu jarayonda zaruriy bilimlar, talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladi. Tavsiya etilgan topshiriqni bajarish jarayonida, o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib, tadqiqotchilik faoliyatini egallaydi.

Akademik Yu.K.Babanskiy ta'lim metodlarini uchta katta guruhga bo'lib, tavsiflaydi.

1. O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil qilishlari.

2. O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini rag‘batlantirish metodlari.

3. O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.¹

Yu.K.Babanskiy birinchi guruh metodlar jumlasiga, hikoya, o‘quv ma’ruzasi, suhbat, illyustryatsiya, namoyish qilish, o‘quv kinosi, induktiv-deduktiv, reproduktiv, muammoli-izlanish kabi ta’lim usullarini kiritadi va bu usullar yordamida o‘qituvchi asosan o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quv materiallarini o‘qituvchi tomonidan bayon qilish va ularni o‘zlashtirishga jalb qilish lozimligini ta’kidlaydi. Bu jarayonda ikki shaxs ham o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotganlar mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishda keyingi faoliyatlarini inobatga olib, o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish metodlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishlari talab etiladi. Zero, ta’lim metodi mazmunida har bir usul o‘ziga xos ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatni yo‘lga qo‘yish, o‘quv materiallarini uzotish va ularni o‘zlashtirish yo‘llarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, o‘quv ma’ruza oliy ta’lim maktablarida ko‘p qo‘llaniladigan o‘quv ko‘rinishlaridan biri hisoblanib, unda o‘zaro ta’sir ta’lim beruvchining bayoni va ta’lim oluvchilarning tinglashlari, asosiy g‘oya va fanlarni yozib olishlari ko‘rinishida amalga oshadi. O‘qitish, o‘qish, o‘rganish samaradorligini oshirish uchun, ma’ruza jarayonida o‘qituvchi o‘z nutqini ko‘rgazma qurol, audio va video apparaturalar (qurilmalar), adabiyotlarda berilgan faktlar bilan uyg‘unlashtiradi. Bu jarayonda ma’ruzachi o‘z nutqini to‘xtatib, talabalarning ma’lumotlarini qabul qilish darajasini, ularning qiziqishi va xohishini oshirish maqsadida muammoli savollar, qiziqarli faktlar bilan murojat qilishni amalga oshirsa ayni muddao bo‘ladi. Bunda o‘quv-biluv faoliyatining barcha unsurlari-tinglash, ko‘rish, aniqlash, taqqoslash, fikr yuritish, mulohazani bayon qilish, amalga oshgan bo‘ladi. Shuningdek, mazkur guruhga kiruvchi barcha metodlar-ma’ruza, suhbat, tasvir, muammoli-izlanish, reproduktiv to‘sinq qo‘llanilgan bo‘ladi.

¹ Педагогика: Учеб. пособий для студентов пед.ин-тов/под ред. Ю К Бабанского. –М.: Просвещение, 1983, 178-203 б

O'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda deduktiv va induktiv metodlar ham muhiim ahamyatga ega. Zero, yangi o'quv materialni o'zlashtirish deduktiv va induktiv usullar yordamida amalga oshishi tajribada sinalgan. Pedagogik turkum fanlarini o'qitishda, avvalo, o'quv mavzularining umumiyligi, tomoni haqida, so'ngra xususiy tomonlari izohlandi. Masalan, shaxs rivojlanishi, shakllanishi va ijtimoiylashuvi mavzusi o'rganilganda dastlab shaxsning shakllanishiga ta'sir qiluvchi biologik omillar, ijtimoiy omillar, ta'lim tarbiyaning umumiyligi xususiyatlari yoritilib, so'ngra har bir omilning bu jarayondagi ta'sir kuchi alohida qayd etiladi.

O'qitish jarayonida talabalar o'quv-biluv faoliyatini rag'batlantirish metodlari tuzimiga o'qishga qiziqishni motivlashtirish va rag'batlantirish metodlari hamda o'qishga burch va ma'suliyatni motivlashtirish va rag'batlantirish metodlari kiritilgan. Ular tarkibiga bilish va qiziqishlarni shakllantirish, bilishga oid o'yinlar, o'quv munozaralari, o'qishga ulgurish vaziyatini yaratish va o'qishga burch va ma'lumotni rag'batlantirish kabi usullar kiritilgan.

Mazkur metodlar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim pedagogik hodisa sifatida o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini, rag'batlarini bilim oluvchilarning mustaqil faoliyatlarini qamrab oladi.

O'quv-biluv faoliyatlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari og'zaki nazorat metodlari, yozma nazorat metodlari, laboratoriya nazorat metodlari, o'z-o'zini nazorat metodlari turkumiga ajratgan bo'lib, ular ta'lim oluvchilar oldiga topshiriqlar qo'yish va topshiriqlarni bajarish orqali o'zlashtirilgan bilimlarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Yu.K.Babanskiy taklif etgan metodlar ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini optimallashtiradi, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarini to'la amalga oshishini ta'minlaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda chop etilgan pedagogika darsliklari va o'quv qo'llanmalarining "Ta'lim metodlari" bo'limida XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan ta'lim metodlarining tasnifi to'g'risida so'z boradi. Jumladan O.R.Roziqov va boshqalarning 1997-yilda chop etilgan "Didaktika" darsligida Ukraina olimlari V.F.Polamarchuk, V.I.Polamarchuk ta'lim metodlarini tasnif etishda uch masalani ta'lim manbalari bolalarning faollik va mustaqillik darajasi, o'quv-bilishining borishidagi mantiqiy yo'lni hisobga olish

zarurligini uqtirishganligi qayd etildi. Shuningdek, S.G.Shapovalenkoning ta’lim metodlarini tasnif etishda ularning mantiqiy, mazmuniy, manbai, jarayoniy, ta’limiy boshqaruvchanlik xususiyatlarini hisobga olishni taklif etilganligi ko‘rsatiladi hamda ta’lim metodlari tasnifida bir vaqtida ta’lim manbalari va mantiqiylikni (N.M.Verzilin), ta’lim manbalari va o‘quvchilarining mustaqillik davrida darajasini (A.N.Alepsyuk, I.O.Zverov) mezon qilib olganligi tahlil etilgan.

2010-yilda o‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani sohasi uchun bakalavrlarga mo‘ljallab yozilgan, professor M.X.Toxtaxodjayevaning umumiyligi tahriri ostida chop etilgan “Pedagogika” darsligida pedagog N.S.Saidahmedov tomonidan taklif etilgan ta’lim metodlari tasnifi keltirilgan. Unda qayd etishicha N.S.Saidahmedov ta’lim metodlarini tasnif etishda didaktik jarayon nuqtai nazaridan yondashgan. “Ma’lumki-deb yoziladi darslikda, didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o‘zida quyidagi uchta komponentni mujassamlashtiradi.

1.Motivatsion

2.O‘quv faoliyati

3.Boshqaruv

Demak, didaktik jarayon tuzilmasiga mos holda ta’lim metodlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin.

1.O‘qish va mehnatga rag‘batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari

2.O‘quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari

3.O‘quv bilish faoliyatini boshqarish.

Bu guruhdagi metodlarning har biri kichik guruhlarga ajratilib tasniflangan¹.

O‘zbek olimlari A.Zunnunov va U.Mahkamovlar o‘zlarining “Didaktika” o‘quv qo‘llanmalarida² bilimni hayotga tadbiq etish metodlarining uch turini tavsiya qiladilar. Bular:

a) o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash metodlari

b) o‘quvchilarining o‘quv ishlarini muntazam kuzatib borish

¹ Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta’lim sohasi bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik/ M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar; 0 ‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: « 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010, 138-139-betlar.

² Zunnunov A, Maxkamboyev U, Didaktika: Oily o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.-T.: “sharq” 2006, 67-70-betlar

v) o‘quvchilarning uy ishlarini tekshirish

Qayd etilgan birinchi guruh metodlariga mashq metodi, og‘zaki mashq, yozma mashq, grafik mashq, o‘quv mehnat mashqi, laboratoriya mashg‘uloti kabi metodlar kiradi. Ular egallagan nazariy mashg‘ulotlarni hayotga tadbiq etish, yoki bilimlarni ko‘nikma va malakalarga aylantirish maqsadi qo‘llaniladi. Bunga amaliyot ustuvorligi ta’minladi.

Ikkinchi guruh metodlari-og‘zaki, yakka frontal so‘rash, nazorat metodlaridan iborat bo‘lib, ular ta’lim oluvchilarda bilim o‘zlashtirish fikrlash, xotira, ko‘nikma, malaka hosil qilishga, bilim egallahsha xohish, qobiliyat darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

O.R.Roziqov, S.Yu.Og‘ayev, M.M.Maxmudova, B.R.Adizovlar tomonidan yaratilgan va 1997-yilda “Fan” nashriyotidan chop etilgan “Didaktika” darsligida ta’lim metodlari o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati kontekstiga qarab chiqilib, o‘qitish usullari, o‘qish usullari deb tasniflanadi.¹ Darslikda rus pedagoglari tomonidan tasniflangan ta’lim metodlarining yangicha talablar asosida izohlanib, ta’lim metodlari o‘zaro ta’sirini tashkil etish, boshqarish va o‘zaro ta’sir natijasini nazorat etish nuqtai nazaridan tasniflanadi.

Ta’lim metodlarining o‘zaro ta’siri kesimida tasnif etilishi, ta’lim metodlarining yaxlit tizimini yaratilishi; ta’lim metodlari integrativ birligi ajratilishi; ta’lim metodlarining o‘qitish va o‘qish usullari tutashuvida shakllanishi, komillikka yondashuv va ta’lim metodlariga mazmuniy, jarayoniy tavsifi kontektida tahlil qilinadi.

7.3. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘laniladigan ta’lim metodlariga qo‘yiladigan talablar

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda ta’lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tanlash o‘qituvchi imkoniyatlarini kengaytiradi, ta’lim o‘rganishda ta’lim oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyatlarini faollashtiradigan ta’lim metodlarini tanlash muhim pedagogik hodisa hisoblanadi. Ta’lim metodlarini tanlash va optimal qo‘llashda o‘qituvchi muayyan tartib qoidalarga rioya qilishi lozim:

1. Tanlanayotgan metod o‘quv materiali mazmuniga muvofiq bo‘lishi, mavzuni murakkabligi, o‘rganilayotgan o‘quv material

¹ O. R Roziqov, S.Yu.Og‘ayev “Didaktika” darslik. (oily o‘quv yurtlari, asperantlar uchun).- Toshkent, “Fan” 1997, 184-205-betlar

yuzasidan o‘quvchilarda ayrim hayotiy hodisalar mavjudligi, o‘quv materialining hajmini inobatga olish zarur. Mavzu o‘quvchilarining real o‘quv imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan material o‘quv jarayonining qaysi bosqichida turganligini va qanday aniq o‘quv hamda tarbiyaviy masalalar hal etilayotganligini aniq tasavvur qilish lozim. Mavzu o‘quvchilarining o‘quv imkoniyatiga muvofiq kelsa, yani u shu mavzu yuzasidan qandaydir tushunchalarni egallagan bo‘lsalar, yoxud avvalgi o‘qish bosqichlarida o‘rganilayotgan o‘quv ma’lumoti yuzasidan muayyan tasavvurga ega bo‘lsalar, reproduktiv metodlar bilan muammoli bayon qilish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

2. Qo‘llaniladigan ta’lim metodlari ta’lim printsiplariga muvofiq kelishi lozim. Bunda tanlanadigan o‘qitish metodlari pedagogika fanlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ta’lim printsiplarini amalga oshirishda real imkoniyat vujudga keltirilmog‘i darkor. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda talabalarga ta’lim-tarbiya berish, tarbiyalash, talaba shaxsini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi bunda nazariyaning amaliyot bilan, ilmiylikning puxtalik bilan mustaqillik va izchillik printsiplariga bog‘liqlikda olb borilishi ta’lim metodi muvaffaqiyatini ta’minlaydi va o‘zlashtirishni kuchaytiradi. Shuningdek real o‘quv imkoniyatlarini inobatga olgan holda pedagogik ma’lumotlar-shaxs ta’lim, tarbiya, bilim oluvchilarining ijtimoiy kelib chiqishlari pedagogik jarayonning xos xususiyatlarini hamda bolaning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi faktorlar, ota-onaning tarbiyachilik sanati; tarbiya va ma’naviyat, bolaning rivojlanishi, tarbiyaning nazariy ilmiy va milliy asoslari to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rgatish, pedagogika turkum fanlarini o‘qitishda tarixiylik va milliylikka asoslanishda reproduktiv, tadqiqiy-ijodiy, tadqiqot, muammoli o‘qitish, maqsadga muvofiq bo‘ladi

3. Ta’lim metodi mashg‘ulot turi, maqsadi va vazifalariga muvofiq bo‘lishi shart. Mutaxassislik fanlari ta’limiy, tarbiyaviy rivojlaniruvchi funksiyalar bilan ruhiy-ijtimoiy malakalar, aqliy qobiliyat, ijodiy tafakkur, o‘zini anglash, shaxs, faoliyat, ijtimoiylashuv, jamiyat, o‘zini boshqarish, ma’naviy yuksalish kabilarni amalga oshirish pedagogika darslarining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun pedagogik turkum fanlar mashg‘ulotlarida bu funksiyalarni amalga oshirishga yaxlit bir tizim sifatida yondashishga yordam beradigan metodlarni qo‘llash kerak. Bu

funksiya va maqsadlar yaxlitligini ta'minlashda namoyish-kuzatish, maruza, suhbat metodlari bilan birga nazorat, o'z-o'zini nazorat metodlarini qo'shib olib borish tavsiya etiladi.

4. Talabalarning o'quv materialini o'zlashtirish va qayta shug'ullanishdagi faoliyatlarini faollashtiruvchi o'qish motivlarini shakllantiruvchi, o'quv axborotini egallashga qiziqish, tashabbusni, mustaqillikni va o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilishga undovchi metodlarni qo'llash. Bunga uchun ta'limning muammoli, qisman izlanish va evristik, tadqiqotlilik, rag'batlantirish metodlaridan foydalanish orqali erishiladi.

5. Qo'llaniladigan metod o'qituvchining o'quv ishi sharoitlari va imkoniyatlari-mashg'ulot o'tkaziladigan xona va uning jihozlanishi, o'quv asboblari, gigiyenik sharoitlar mavjudligi, yil fasli, kunning tarkibiy qismi, o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishga tayyorligi va shu kabilarni inobatga olib tanlanishi lozim.

6. Qo'llaniladigan metod o'rganilayotgan mavzu xususiyatlariga muvofiq bo'lган taqdirda samarali bo'lishni nazardan qoldirmaslik darkor. Masalan, "Pedagogikaning umumiy asoslari" bo'limini o'tishda, ko'proq pedagogika fanining predmeti, metodologiyasi, drektiv va normativ hujjat ("Ta'lim to'g'risidagi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim sohasida davlat ta'lim standarti" vazirliklar, rektorat tomonidan fanni o'qitishga qo'yilgan talablar)ni inobatga olgan holda metod tanlash lozim. Buning uchun o'qitishning tushuntirish-illyustratsiya, muammoli bayon qilish, hikoya, suhbat, ko'nikma va malakalarni shakllantirish kabi metodlardan foydalanish maqlu hisoblanadi.

7. Qo'llaniladigan metod talabalarning real o'quv imkoniyatlari o'zlashtirish darajali, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tavsiya etiladi. Talabalarning real o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqib bir mashg'ulotning o'zida bir necha metoddan foydalanish mumkin. Masalan, o'quvchi-talabalar tomonidan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi bo'sh bo'lган talabalar uchun reproduktiv, produktiv, qisman izlanish (evristik) metodlardan foydalanissa yaxshi bo'ladi.

7.4. Amaliyotda qo'llanilayotgan ta'lim metodlarining mazmuni

Oliy ta'lim maktablarining barchasida ta'limning eng ko'p qo'llaniladigan metodlariga – ma'ruza, suhbat, laboratoriya, muammoli bayon etish, munozara, manba bilan ishslash kabilar kiradi.

Bu metodlar ta’lim jarayonida o‘qitish va o‘qish funksiyalarini bajaradi. Binobarin, o‘qituvchi pedagogika fanlarini o‘qitishga talabayoshlarga ijtimoiy tajribalarni o‘rgatishni ko‘p sonli tinglovchilar bilan ishlar ekan, asosan **ma’ruza** metodini qo‘llaydi. Ma’ruza metodi-bu o‘qituvchi tomonidan katta mazmundagi ma’lumotni og‘zaki tarzda mantiqiy izchillikda bayon qilish, talabalarning esa o‘quv materialini tinglash orqali idrok etishini nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi o‘quv ma’lumotlarini bayon qilar ekan, ularni ilmiy-nazariy jihatdan mukammal bilishi, o‘quv materiallarini, ilmiy bilimlarni hayotiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish, dastlab talabalarni tinglashga hamda idrok qilishga tayyorlashi lozim. Buning uchun ma’ruza boshlanishida va butun dars jarayonida turli xil usullardan keng foydalanishi ya’ni auditoriyaga muammoli, hayotiy savollar bilan murojaat qilishi, rasm, jadvallar, plakatlar, video materiallaridan kengroq foydalanish talab etiladi. Bunda ba’zan mimik va pantomimik irodalar, imkoniyatlarni ishlatish, tovush diapazoni e’tiborda saqlash, ba’zan tez, ba’zan sekin, ba’zan baland-kuchli, ba’zan sekin-kuchsiz tovushda fikrini bayon eta olishi ham diqqatga sazovor. Bunda yana bir narsani nazardan qochirmaslik kerak, ma’ruza tinglovchi talabalar tafakkuriga, idrokiga, mo‘ljallab tashkil etilishi ma’qul.

Shunga asosan, ma’ruzada tajribada sinalgan va qo‘llanishda samara bera oladigan ta’limning **ma’ruza-bahs metodi** yaxshi natija berishi tabiiy, zero, ma’ruzadan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarda bilimni mustaqil ijodiy egallash qobiliyatini shakllantirishdir. Chunki, ma’ruzada talabalar mustaqil fikrlash, fikrlarni isbotlash va asoslashga o‘rganishlari lozim. Buning uchun ma’ruzachi dars boshlanishida talabalar oldiga ma’ruza mazmunidan kelib chiqib muammoni aniq belgilashi, uni talabalar o‘quv-biluv qobiliyatiga moslashtirishi holida talabalarni o‘z fikr-mulohazalarini isbotlashga tayyorlashlari lozim. Chunki, bu hol talabalarning ma’ruza mashg‘ulotiga bo‘lgan qiziqishi va bilishga ehtiyojini tarbiyalaydi. Bu esa talabani ta’lim obyektidan ta’lim subyektiga aylanishiga qo‘llashadi.

O.R.Roziqov va “Didaktika” darsligining boshqa muallifari leksiya metodini o‘qitish va o‘qish usullariga ajratib, undan foydalanish bir necha variantlarni taqdim etadilar.¹

¹ O.R Roziqov va boshqalar. Didaktikalar Darslik-T.: “Fan” 1997, 187-188-betlar

Ta’lim muassasalarida qo’llaniladigan ma’ruza metodi, asosan talabalarga ya’ni bilim berish uchun mo’ljallangan bo‘lib, u murakkab masalalar, mavzularni o‘rganishda, muammoli mavzularni o‘qitishda va pedagogika o‘quv fanlari o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganishigda farqlaniladi.

Ma’ruza metodining samarali, optimal qo’llanilishi uchun, o‘qituvchi-lektor:

- Mavzuga oid asosiy va ularni bayon etish rejasini tuzish.

- Ma’ruza boshlanishida rejani talabalarga e’lon qilib, asosiy va qo’shimcha adabiyotlar ro‘yxatini e’lon qilishi;

- O‘quv materialini izchil, tizimli, o‘tilgan mavzu va kelgusi darsda o‘tilishi nazarda tutilgan mavzu bilan bog‘langan holda bayon etilishi;

- Ma’ruzaga talabalarning qiziqish, intilishi va ma’ruza samaradorligini oshirish maqsadida mavzuni hayotiy misollar, tajribadagi ishlar bilan bog‘lashi va kerakli joylarda talabalarga muammoli savollar bilan murojat qilish;

- Bayon talabalarga tushunarli, qiziqarli bo‘lishi uchun ko‘rgazmali, audio va video materiallardan unumli foydalanish;

- Rejada ko‘rsatilgan har bir punktni yakunlaganda, uni xulosalashi va ma’ruza yakunida umumiylashtirish uchun ma’lumotlarni belgilab qo‘yishi;

- Ma’ruza mavzusidagi eng muhim sonlar xotirada saqlanishi qiyin bo‘lgan ma’lumotlarni talabalarning yozuv daftarlariiga qayd qilishlarini tavsiya etishi;

- Mavzu yuzasidagi xulosalarni turli o‘quv sharoitlarida tadbiq etishga oid ko‘rsatmalar berishi kabi qonun-qoidalarga amal qilishi talab etiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida qo’llaniladigan ta’lim metodlarining yana biri **suhbat** metodidir. Bu metod bilim o‘zaro so‘zlashuv (dialog) yo‘li bilan o‘rganishga sabab asosan seminar mashg‘ulotlarida, talabalarning mustaqil ishi, referatlari, o‘quv konfersiyalarida qo’llaniladi. Bu pedagog va talabaning faol, jonli savol-javob yo‘sindida qo’llaniladigan o‘qitish-o‘qishning bir ko‘rinishi bo‘lib, savol-javob tarzida tashkil qilinadi.

O‘qituvchi suhbat metodini tashkil etishda turli o‘quv vazifalarni hal etadi. Jumladan: talabalarning nazariy bilimlarini o‘zlashtirganliklarini aniqlash, ma’lumotlarni umumlashtirishi va tizimlashtirish: yangi mavzuni o‘rganishda talaba tafakkurini

boshqarish; talabalarning ijodiy qobiliyati, aqliy kuchi, intellektini rivojlantirish vaho kazolar. Shu bois suhbat metodida talabalar pedagog savollariga javob berish bilan o‘rganilayotgan mavzuda izohlangan ma’lumotlarni mantiqiy ketma-ketlikda o‘rganadi, fikr yuritadi, tahlil qiladi va fikrlarini nazariy jihatdan umumlashtiradi.

Pedagogik manbalarda ko‘rsatishicha suhbat metodi, o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra kirish suhbati, nazariy bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni ma’lum qiluvchi, tekshiruv suhbati, evristik suhbat. **Kirish** suhbati seminar mashg‘uloti dastlabki soatida qo‘llanilib, u o‘qituvchining talablarni mazkur fandan o‘tkaziladigan seminar mashg‘ulotning maqsad, vazifalarini, fan dasturidagi ushbu fanga qo‘yilgan pedagogik talablarni, seminar mashg‘ulotida ajratilgan vaqtini, seminar mavzulari va ularning rejalari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Yangi bilimlarni ma’lum qiluvchi suhbat o‘qitish-o‘qishning murakkab va ko‘p mehnat talab qiladiganlaridan biri bo‘lib, nazariy bilimlarni izchil, o‘zaro aloqadorlikda, talabalarda ma’lum bo‘lgan faktlar, pedagogik hodisalarga asoslangan holda tashkil etiladi va o‘tkaziladi. Nazariy bilimlarni mustaqilovchi va umumlashtiruvchi suhbat, ma’ruzaga o‘rganilgan material bilan aloqa o‘rnatishiga yordam beradi. Masalan, shaxs ta’lim va tarbiya haqidagi bilimlarni mustaqillashga pedagog savollar berib, talabalarni ma’ruzaga o‘rganilgan shaxs taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillar va ularda ta’lim-tarbiyaning yetakchilik rolining sabablarini, hayotiy misollar bilan ajratib ko‘rsatishga undaydi. **Tekshiruvchi** suhbat ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida egallangan bilimlarning haqqoniyligi, hajmi va hayotiyligini aniqlashga yordam beradi. Chunki bunday suhbat o‘tganlarni qayta xotirda tiklash, takrorlash va sistemalash ko‘rinishiga amalga oshiriladi. Evristik suhbat metodi o‘quv ma’lumotini ijodiy, topqirlik yo‘li bilan qo‘llanilganligi sababli, u talabalar tafakkurida mo‘ljallangan. Bunda o‘qituvchi-talaba faoliyati uyg‘unligi asosida mantiqiy tafakkur rivojlantirilishiga erishiladi. Umuman, suhbat metodining mohiyati shundaki u:

- Talabalarning ijodiy, mantiqiy fikrlashini yo‘lga qo‘yadi;
- Talabalar faolligini oshirishga, xotira va nutqning rivojlanishiga yordam beradi;
- Talabalarning muayyan ko‘rinishdagi mustaqilliklari yo‘lga qo‘yiladi;
- Talabalarda ijodiy qobiliyat rivojlanib axloqiy va estetik dunyoqarashlari rivojlanadi.

Laboratoriya metodi.

Pedagogika fani mashg‘ulotlarida laboratoriya metodidan foydalilaniladi. Bu metod asosan pedagogik hodisalarni tajriba qilishda qo‘llaniladi. Bu pedagog rahbarligida o‘tkaziladigan talabaning mustaqil faoliyati. Laboratoriya metodi og‘zaki bayon qilish metodlarining boshqa turlari ya’ni tushuntirish, mashq bajarish, ta’lim tarbiya usullarini amalda qo‘llash kabi pedagogik epizodlarda qo‘llaniladi. Masalan, kichik tarbiyachilik, o‘qituvchining dars o‘tish mahorati, maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy malakalarini shakllantirish, bog‘chaga o‘yin mashg‘uloti kabi pedagogik voqealarni laboratoriya metodidan foydalanim o‘tkaziladi. Chunki, bu metod ta’lim oluvchi talabaga o‘qituvchi pedagog tomonidan oldindan rejalahtirilgan voqea bo‘yicha tajriba o‘tkazish tavsiya etiladi. Shu vaziyat yordamida nazariy ma’lumotlarni tajribada sinab, amaliy ko‘nikmaga ega bo‘linadi. Laboratoriya metodidan foydalanoliganda, laboratoriya mashg‘uloti mavzusi, uning mazmuni, foydalanoladigan adabiyotlar talabalarga oldindan tavsiya qilinadi, uni bajarish uchun ko‘rsatmalar beriladi.


Manbalar bilan ishslash metodi. Ma’lumki, nazariy mashg‘ulotlar jarayonida, barcha axborotlar, ma’lumotlarni talaba xotirasida saqlab qolmaydi va esda saqlashi ham qiyin. Shuning uchun talabaga nazariy bilimlar bo‘yicha asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar tavsiya etiladi. Mazkur tavsiya bo‘yicha talabalar nazariy mavzuda ko‘zda tutilgan masalalarni mustaqil o‘rganadilar. Buning uchun talaba mavzu bo‘yicha fundamental hodisalarni saqlab qolgan bo‘lmasalar va mustaqil ish jarayonida bu xolatlarni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirishlari lozim. Asosiy adabiyotlar va qo‘srimcha adabiyotlardan turlangan axborotlarni quyidagicha guruhlash mumkin; mustaqil egallangan yangi bilimlar, bilimlarni mustahkamlash va to‘ldirishbilimlarni amalda qo‘llashga tayyorlanish.

Talabalar topshirilgan vazifaga qarab, manbalar bilan ishslashda quyidagicha yo‘l tutishi mumkin; a) manbalardan eng muhim va kerakli ma’lumotlarni yozib olish; b) tuzilgan reja bo‘yicha konsept tuzish; v) kerak bo‘lgan qo‘llash uchun muhim belgilar shaklida bir yoki bir necha manbalar bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bayon etish; g) ananaviy (mavzuning qisqa mazmuni) yozish, yangi mavzuning mazmuniga qisqa ta’rif berish vaho kazo. Bu ishlarni bajarish uchun pedagog talabaga ko‘rsatma berishi va mavzu rejasini tavsiya qilishi mumkin.

Talaba o‘qishi va kelgusida yaxshi mutaxasis bolishni istasa, albatta manbalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lish lozim. Chunki, bu uning butun hayoti va faoliyatida asqotadi.

7.5. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish vositalari va ularning tasnifi

Ta’lim va tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan sinf taxtasi va bo‘rdan tortib, elektron hisoblash mashinalarigacha bo‘lgan, o‘quvchitalabalarga ma’lumotlarni chuqur anglashga yordam berishga yo‘naltirilgan materiallar o‘qitish vositalarini anglatadi. B.Q.Xo‘jayev¹ ularni quyidagicha tasniflangan:



Ko‘rib turganimizdek bu materiallar turlicha bo‘lib, avvalo, ularning o‘ziga xos xususiyati, ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni bo‘yicha farqlash lozim. O‘qitishning didaktik vositalari yangi ma’lumotlarni o‘qituvchi tomonidan bayon qilish, o‘quvchilar tomonidan esa o‘zlashtirishning eng qulay manbai hisoblanadi.

¹ Xo‘jayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. –Buxoro. 2017.

Didaktika fanida o‘qitish metodlari va o‘qitish vositalarining o‘zaro bog‘ligi, biri birisiz mavjud bo‘lolmasligi va ko‘zlangan maqsadga erishishning qiyin bo‘lishi qayd etib o‘tiladi. Chunki, o‘qitish metodlari, o‘quvchi-talaba erishmoqchi bo‘lgan fan cho‘qqisiga ko‘tarilishining yo‘li bo‘lsa, o‘qitish vositalari mana shu yo‘lda o‘quvchi va o‘qituvchiga suyanchiq bo‘ladigan, yo‘lni shamchiroq singari yoritadigan «kompas», «xarita» sifatida ishtirok etadigan quroq hisoblanadi. Mabodo shu quroq bo‘lmasa, yoki o‘tmas, ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan bo‘lsa unda muddaoga erishish qiyin kechadi. Shuning uchun ta’lim-tarbiyada o‘qitish vositalari aniq maqsadga yo‘naltirilgan hodisadir. Ma’lumki, tabiat hodisalari, jamiyatda ro‘y beradigan voqealar inson ongi orqali o‘zlashtirilganda odam va tabiat, jamiyat o‘rtasida qandaydir aloqa o‘rnataladi. Mana shu aloqa rolini ta’limda o‘qitishning didaktik vositalari bajaradi. Shunga asosan o‘qish, o‘qitish jarayonini «inson–o‘qitish vositalari – muhit (ob’yekt)» kontekstida izohlash pedagogikada qabul qilingan. O‘quv-tarbiya jarayonida bu vositalardan keng foydalanish o‘qitishning mukammalligini, ishonchligini kuchaytirib, o‘rganuvchilarining ob’yekt voqealarini tushunib etishini oshiradi va bilim sifatini yaxshilaydi.

O‘qitishning texnika vositalari va ularning turlari.

Zamonaviy o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan didaktik vositalarning xilma-xilligini tasniflash va ularni qo‘llashda o‘quv jarayonining, shart-sharoitlarini inobatga olish maqsadga muvofikdir. Hozirgi zamonda ta’lim va tarbiya imkoniyatlarini oshirishga yordam beradigan va ko‘p qo‘llaniladigan didaktik vositalar majmuining eng ko‘p tarqalgan turi–bu o‘qitishning texnika vositalaridir. O‘TV garchi ilmiy asosda qat’iy tavsiflangan texnika vositalari mavjud bo‘lmaseda, ammo ularni tasniflashda pedagogikada ayrim yondashuvlar mavjud. O‘qitishning texnika vositalarining bunday guruhlanishi, avvalo, ularning sezgi organlariga, xotiraga, diqqatga ta’sirini va bajaradigan ish turini hamda ishslash printsipining inobatga olinganligidadir. Bunda, O‘TVning avtomatlashtirilganlik darajasi, o‘qituvchilar tarkibi, texnika vositalarining tuzilishi, o‘quv jarayonida ularni qo‘llash imkoniyatlari e’tiborga olinmog‘i darkor. O‘qitishning texnik vositalari o‘quvchi-yoshlarning sezgi organlariga, diqqat va xotiraga ta’sirini inobatga olib, hamda O‘TV qo‘llash jarayonida, o‘qitishning oddiydan murakkabga, aniqdan noaniqqa tamoyili asosida ish tutishi

va ularni o‘rganishda ham shu ketma–ketlikka rioya qilish muhim didaktik hodisa deb tavsiflanadi. endi ularni shu yo‘nalish bo‘yicha tasniflanishini ko‘rib chiqamiz.

1. Ko‘rishga moslashtirilgan vizual (ekranli) vositalar. Bu o‘quv–texnika vositalari o‘qitishning didaktik vositalar majmui orasida eng birinchilaridan biri hisoblanadi va o‘quv jarayonida ham eng ko‘p qo‘llaniladi. Chunki, ular oddiy bo‘lib foydalanish uchun eng qulay va ko‘p tarqalgan vositalardir. Bunday texnika vositalariga diapozitivlar, epidioskoplar, kodaskoplar, diafil’mlar, transparantlar, dioproek-torlar, grafoproektorlar, fil’moskoplar, kinoproektorlar, videoproek-torlar kiradi. Ularning ishlash texnologiyasi deyarli bir xil bo‘lib, ular shisha, shaffof plyonkalarda yozilgan ma’lumotlar va axborotlarni ekranda proektsiyalab beradi. Fikrlar aniq, lo‘nda qilib bayon etilgan, ammo tovushsiz. Tovushli eshittirish orqali ma’lumotlarni idrok etish zamonaviy o‘quv radiosи, tovush yozuvchi va tovushni kuchaytirib beruvchi apparaturalar orqali amalga oshiriladi.


2. Ko‘rish va eshitishga moslashtirilgan audiovizual vositalar. eshitish va ko‘rish yordamida ma’lumotlarni idrok etish. Audiovizual vositalar yordamida amalga oshadi. Bularga kinofil’mlar, teleko‘rsatuvlar, videoyozuvarlar, diafil’mlar, videomagnitafonlar taalluqli bo‘lib, ular videoproektorlar yordamida video axborotlarni proektsiyalab beradi. Bugungi kunda videomagnitafonlar, kinofil’mlar, televidenie o‘quv jarayonida keng qo‘llaniladigan didaktik vositalar sirasiga kirib qoldi.

Ilmiy-nazariy ma’lumotlar va maktab tajribasining ko‘rsatishicha o‘quv-ko‘rgazmali vositalar o‘qitishning didaktik vositalari majmui mazmunidagi eng oddiy, eng qulay va qo‘llash uchun har tomonlama oson hamda ko‘p tarqalgan vositalar hisoblanadi.

O‘qitishning o‘quv-ko‘rgazmali vositalarini ba’zan vizual, ya’ni o‘qitishning tovushsiz vositalari deb ham atashadi. Chunki, o‘quv-ko‘rgazmali vositalarda axborotlar (ob’yekt) tasvirlangan bo‘lib, ularda tovush bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ularni faqat namoyish etish mumkin bo‘ladi.

O‘qitishning o‘quv-ko‘rgazmali vositalarini ko‘p qo‘llanishining yana bir sababi, ular oddiy mакtab sharoitida ham tayyorlanishi mumkin. Ularda ma’lumotlar (ob’yekt) qisqa, lo‘nda, yo‘nalishli,

bayon etiladi. Shuning uchun ulardan foydalanish, ularni qo'llash va yaratish juda oson hisoblanadi. Shu o'rinda e'tirof etish joizki, o'quv-ko'rgazmali vositalar muntazam faoliyatda bo'lishi, o'qituvchining mavzuli-ishchi rejasida o'z ifodasini topishi uchun ta'lim muassasalarida o'quv-ko'rgazmalari vositalar kartotekasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Kartotekada o'quv-ko'rgazmali vositaning nomi, mavzuli-o'quv dasturdagi mavzu raqami, qisqacha mazmuni ifodalanishi darkor. Chunki, bu vositadan aniq vaqtda, aniq mavzuda foydalanishni osonlashtiradi. O'quv-ko'rgazmali didaktik vositaning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, ular o'quv predmetlarining juda ko'p jihatlarini, kunlik turmushimizdagi hodisotlarni, ishlab chiqarish sohalaridagi ayrim lavhalarni aks ettiradi. Ulardan o'rinli foydalanish o'quv predmetining mazmunini qiziqarli, o'quv ma'lumotlarini ta'sirchan, o'quvchilar o'zlashtirish jarayonini samarali qiladi. O'quv-ko'rgazmali vositalarini tor ma'noda ko'rgazmali vositalar, kengroq ma'noda o'qitishning didaktik vositalari deb atash qabul qilingan. Uning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning ko'rish organlariga ta'siri, ko'rinish qoidalari, ma'lumotlarni bayon eta olish imkoniyati, axborotlar etkazish turi bo'yicha quyidagicha guruhash mumkin.



Jadvalda aks ettirilgan o'quv-ko'rgazmali vositalar, didaktik vositalar majmuidan o'rin olgan muhim o'quv vositalari hisoblanadi. Axborotni uzatish, muayyan ko'rinishda izohlash nuqtai nazaridan

natural o‘quv-ko‘rgazmali vositalar eng qulay va ko‘p qo‘llaniladigan vosita hisoblanadi. Chunki, ularni tabiiy holda ko‘rsatish imkoniyatlari katta. Ularni pechatli (chop etilgan) ko‘rsatmali vositalar to‘ldiradi. Ular mavjud va ularni ta’lim muassasasi sharoitida ham yasash mumkin. O‘qitishning hajmli ko‘rgazmali vositalari ko‘p tarqalgani hamda ularni yaratish imkoniyati mavjudligi uchun ham ular eng qulay o‘quv-ko‘rgazmali vosita sanaladi. Bugungi bozor iqtisodi sharoitida ulardan foydalanish faoliyat uchun samarali bo‘ladi. Proektsion ko‘rgazmali vositalar garchi texnika bilan bog‘liqlik tomoni bo‘lsada, ular ovozsiz namoyish etilganligi sababli ular ushbu guruhgaga kiritilgan. Ularni ham tabiiy holatda uncha ko‘p mablag‘ sarflamasdan taxrlash va qo‘llash mumkin bo‘ladi. Qayd etib o‘tilgan, guruhlardan o‘rin olgan o‘quv-ko‘rgazmali vositalardan foydalanganda, birinchidan, o‘quv yurtining shart-sharoitidan kelib chiqish, ikkinchidan, o‘quvchilarining ushbu didaktik vositaga munosabatlarini inobatga olish va nihoyat, uchinchidan, ularning samaradorligiga va didaktik jarayonning muhim tamoyillariga tayanish lozim bo‘ladi. endi har bir guruhdagi o‘quv-ko‘rgazmali vositalar mazjmuib bilan tanishib chiqamiz.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

- 1. Metod nima?*
- 2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntiring.*
- 3. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarning vazifalarini ayting.*
- 4. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlarga qo‘yiladigan asosiy didaktik talablarni izohlang.*
- 5. Amaliyotda qo‘llanilayotgan o‘qitish metodlarining mazmuni nimalardan iborat?*
- 6. Ta’lim vositalari deb nimani tushunasiz?*
- 7. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish vositalari haqida ma’lumot bering.*
- 8. O‘qitishning o‘quv -ko‘rgazmali vositalarining guruhanishini tushuntiring?*

8-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH SHAKLLARINING UMUMIY TAVSIFI; MA’RUZA TURLARI, SEMINAR MASHG’ULOTLARI, LABARATORIYA VA AMALIY DARSLAR

Tayanch so‘zlar:o ‘qitish shallari, individual, guruhiy, sinf-dars tizimi, an’anaviy yondashuv, noan’anaviy yondashuv, texnologik yondashuv, monolog, dialog, polelog, ma’ruza, kirish maruzasi, mavzular bo‘yicha maruza, umumlashtiruvchi ma’ruza, seminar, amaliy mashg’ulot, laboratoriya mashg’uloti, O‘quv konfrensiyasi va munozara mashg’ulotlari

8.1. O‘qitish shakllari haqida tushuncha va oliy maktablarda o‘qitishing tashkiliy shakllari

Ma’lumki, hozirgi oliy ta’lim maktablari oldiga turgan vazifalarning bajarilishi ko‘p jihatdan o‘quv fanlarining mazmuni, ular mazmunidagi mavzularni o‘qitish metodlari va o‘qitishning tashkiliy shakllari kabi didaktik komponentlarning aniq to‘planishi, ularda sifat va samaradorlik darajasining ta’minlanganliga bog‘liq. Zero, ular yordamida talabalar ilmiy bilimlar bilan qurollanadilar, dunyoqarashlari rivojlanadi,o‘quv yurtining ideologik vazifasi bajariladi, jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi hal etiladi.Talaba shaxsida g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy-ma’naviy sifatlar tarkib topadi.

Biz oldingi mavzularda pedagogika fanlarini o‘qitishda ta’limning metodlari xususida fikr yuritgan edik. Endi uning tashkiliy shakllarini izohlash malakasini ko‘rib chiqishimiz talab etilmoqda. Chunonchi, har qanday ta’lim muassasasi kabi, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya ishlarini davlat talablari darajasida tashkil etmay turib, jamiyat ehtiyoji-yuksak ma’naviy–axloqiy salohiyat,yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassisni tarbiyalab bo‘lmaydi. Buning uchun esa o‘quv ishlarini davr talablari asosida tashkillashtirish, ularning amaliy yo‘nalishini jadallashtirish kerak. Bunga oliy ta’lim maktablari ta’lim–tarbiya jarayoning tashkiliy shakllari yordam ko‘rsatadi.

Xo‘shta’limning tashkiliy shakllari deganda nima nazarda tutiladi? U qanday didaktik hodisa? Shakl (lotincha forma-tashqi ko‘rinish, sirtqi qiyofa) ma’nosini anglatib qandaydir mazmunning

tashqi ko‘rinishi, qiyofasini ifodalaydi. Fanda ta’lim shakllari deyilgan o‘qitish, o‘qish jarayonoda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining tashqi ko‘rinishi qurilishini ifodalovchi didaktik hodisa tushuniladi. Professor T.A.Ilina ta’kidlaganidek (u yoki bu) tashkiliy shakl o‘qitishning turli jamoaviy va individual ko‘rinishini hamda o‘quvchilarning turli darajadagi mustaqilligini va o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilar o‘qishiga rahbarlik qilishini o‘qitiishini ifodalaydi¹. Demak, oliy ta’limda pedagog va talaba o‘quv munosabatlari o‘qitish-o‘qish faoliyatining tashqi ko‘rinishini ifodalashi –ta’limning tashkiliy shakllari deb yuritiladi. Ta’lim nazariyasi va amaliyoti o‘z taraqqiyotida turli tuman o‘qitish shakllarini kasb etdi, ularning ayrimlari o‘z qimmatini yo‘qotmay takomillashib borgan bo‘lsa, boshqalari keng tarqalib asta sekinlik bilan o‘z qimmatini yo‘qotib tarixga aylanib qoldi. Ta’limni tashkil qilishning tashkiliy shakllaridan individual o‘qitish bo‘lib bir o‘qituvchi yakka o‘quvchi bilan o‘qitish shularini olib borgan. Jamiyat talablarining o‘sib borishi natijasida o‘qitishning individual-guruhiy shakli paydo bo‘lib, o‘qituvchi uncha katta bo‘lмаган guruhi uchun alohida o‘quvchi bilan o‘qitish ishini olib borgan, bunda ko‘proq o‘quvchining topshiriqlarni mustaqil bajarishi amalga oshgan. Individual-guruhiy o‘qitish ishlarining taraqqiyoti sinf-dars tizimining yaratilishiga asos bo‘lgan. Bu ta’lim tizimi aniq yoshdagi o‘quvchilar tarkibiga, aniq vaqtida, o‘qituvchi rahbarligida mashg‘ulot olib brogan. Uning nomi dars uslubi deyilgan, bu tizimning asoschisi va targ‘ibotchisi chex pedagogi Yan Amos Komenskiy edi (XVII asr).

XVIII oxiri XIX-asr boshlarida paydo bo‘lib, keng tarqalgan o‘qitish shakllaridan biri o‘zaro o‘qitish (Bell-Lankaster tizimi) bo‘ldi. Bunda o‘qitish ishlari katta tarkibga ega bo‘lgan, o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirish mavqeini egallagan o‘quvchining o‘qituvchi rahbarligida mashg‘ulotlarni olib borishi bilan xarakterlanadi. O‘quvchilarning ko‘proq mustaqil bilim olishlarini ta’minlash yo‘lidagi izlanishlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSH maktablarida qollanilgan Dalton – reja o‘qitish shakli hisblanadi. Bunda o‘quv mashg‘uloti yakka ko‘rinishda va individual holda kabinetlarda, laboratoriyalarda,

¹ Ильина Т.А. Педагогика: Курс лекций: Учебное пособие для студентов пед. ин-тов. — М.: Просвещение, 1984. - 496 с.

kutubxonalarda maxsus tayyorlangan topshiriqlarni bajarishga yo‘naltirildi.

Barcha qayd qilib o‘tilgan ta’lim shakllaridan hanuzgacha o‘zining qimmatini yo‘qotmagan, dunyoning barcha ta’lim muassasalarida keng qo‘llaniladigan sinf-dars tizimi hisiblanadi.

Professor N.X.Avliyoqulovning fikriga ko‘ra «sinf-dars tizimi o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

- Yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo‘lgan talabalar sinflarini (guruhi) tashkil etadi.

- Sinfda (guruhi, oqim) yagona o‘quv reja, yagona o‘quv dasturlari va yagona mashg‘ulotlar jadvali bilan shug‘ullanadi.

- Mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi.

- O‘quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo‘llaniladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi, jamiat ehtiyojini fan-texnika yutuqlri oliy ta’lim muassasalarda o‘qitishning tashkiliy shakillarini mazmunan va tarkibidan o‘zgarishiga olib keldi. Ayniqsa, mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun, “Kadirlar tayyorlash milliy dasturi” (29-avgust, 1997-yil) talablarni amalda bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlangan “Nizom”ga (1998) binoan oliy maktablarda o‘quv mashg‘ulotlarining ma’ruza, amalyot, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, malakaviy bitiruv ishi, magistrlik desertatsiyasini tayyorlash kabi shakl-usullar joriy etilgan¹.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizkiy, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda quyidagi yondashuvlar ko‘zga tashlanmoqda:

a) An’anaviy yondashuv- o‘qitish, tarbiyalash o‘qish jarayonlarda pedagogik subyekt sifatida faoliyat yuritadi va yetakchilik mavqeida bo‘ladi, talabalar esa “obyekt” tarzida ishtirok etib passiv tinglovchi rolini bajaradi. Ilmiy-nazariy ma’lumotlarni yetkazib berish, ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, bilim ko‘nikma malaka darajalarini baholash pedagog tomonidan amalga oshiriladi. Talabaning mustaqilligi, tashabusi e’tibordan chetda

¹ Avliyoqulov N.H. Zamoniaviy o‘qitish texnologiyalari. Toshkent. 2001. 11-bet.

qolgan. Bunday o‘qitish ishlari shakllariga- ma’ruza, seminar, laboratoriya, o‘quv ekskursiyasi, o‘quv konferensiyasi, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘sishimcha mashg‘ulotlar, amaliyot (pedagogik) kiradi.

b) Noan’anaviy yondashuv- ta’lim tarbiya jarayonida pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yadigan, ta’lim oluvchilarning fikrlash qobilyati, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan, o‘quv mashg‘ulotining noan’anaviy (odatdan tashqari, belgilanmagan) tuzilishini ifodalaydigan o‘quv ishlarini shakli. Bunday mashg‘ulotlarga hamkorlikda ishlash darslari, musobaqa-tanlov darslari, mukammallashgan darslar, auksion darslar, matbuot yangiliklari darsi, dialog darslari, binary darslar, sinov darslar, baxtli voqeal o‘yin darslari, ijodiy hisobot darslari, “Eud” darslari, baholash va qiyoslash darslari kabilarni kiritish mumkin.

v) Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari yoki texnologik yondashuv- ta’lim tarbiya markaziga talaba shaxsi qo‘yilgan, uning aqliy qobilyatlarini rivojlantirish, tabiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda shart-sharoitlar yaratishni (G.K.Selevko) nazarda tutgan o‘quv mashg‘ulotlari. Bunday o‘quv mashg‘ulotlarda talaba faoliyati o‘quv tarbiya jarayonida yetakchi o‘rin egallaydi. Ularning faollik, mustaqillik, erkin fikr yuritishlari, tashabuskorliklari qo‘llab quvvatlanadi. Pedagogning faoliyati esa yo‘l yo‘riq ko‘rsatish, zarur bo‘lganda maslahat berish, talabalar xatti-harakatini nazorat qilish va baholashdan iborat bo‘ladi. Bunday mashg‘ulotlarga muammoli o‘qitish, modulli o‘qitish, kichik guruhlarda ishlash, tabaqlashgan, mujassamlashgam, individuallashgan o‘qitish texnologiyalari, rivojlantiruvchi, faol, aqliy hujum, bilts o‘yin va boshqa o‘qitish texnologiyalari kiradi.

8.2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’limning tashkiliy shakllari

Ta’lim islohoti talablariga ko‘ra oliy o‘quv yurtidagi pedagogik jarayonning asosiy maqsadi-bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarda bilim, ko‘nikma, malakalar hosil qilish, ularni yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyat, yuqori kasbiy mahorat egasi bo‘lishga ko‘maklashishdir. Bundan tarbiyachilik va o‘qituvchilik ixtisosligiga tayyorlanayotganlar ham istisno emas. Bu pedagogik hodisa ta’lim jarayonida axborotlar almashinuvi orqali amalga oshadi.

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M. Karimovaning ta'kidlashicha, bunday pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlar almashinuvi va monolog, dialog, polelog ko'rinishida amalga oshiriladi.

Monolog-ma'ruzadagii oq'ituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir.

Dialog- o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir.

Polelog- guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o'quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardag'i ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi.

Oliy ta'lim maktablarida ham yuqoridagi shakllar bilan o'quv ishlari tashkil qilinmoqda.

Ma'ruza (o'quv ma'ruzasi)-oliy o'quv yurti pedagogik jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan shakli bo'lib unda ta'lim oluvchilarga maksimal darajada yangi ilmiy axborotlar berish, o'quv materialini talabalar ongiga yetkazish nazarda tutiladi. Ma'ruzalarda talaba uchun zarur bo'lgan kasbiy, ilmiy-nazariy ma'lumotlar bayon etiladi.

Oliy ta'limda pedagogika fanlaridan tashkil etiladigan ma'ruzalar pedagogik qonuniyatlar, g'oyalar mazmunini nuqtai nazarlar mohiyatini ochib berishga, bilimlarni tizimlash va umumlashtirishga qaratiladi. Bunda ma'ruzani tinglay olish, asosiy g'oyalar va muhim sanalar, fikrlarini yozib borish muhim hisoblanadi.

Ma'ruza jarayonida professor-o'qituvchi bilan tinglovchi-talaba o'rtasida jonli muloqot yuzaga keladi. Shuning uchun ma'ruzachi o'z o'quv predmetining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur va mukammal bilishi, fandagi ma'lumotlarni qiziqarli, tushunarli, jonli qilib talabalarga yetkaza olish mahoratiga ega bo'lishi talab etiladi. Ma'ruzada jonli muloqot tashkillashtirilganligi sababli talabalar ilmiy nazariy bilimlar olamiga kiradilar, o'zлari uchun mavhum bo'lgan pedagogik tushunchalarni mohiyatini tushunib oladilar. Bu hol ma'ruzachining o'quv dasturidagi muhim ma'lumotlar, murakkab fikrlar mazmunini aniqlab, ochib berishi, farazlar mohiyatini izohlashi, talabalar oldiga muammolar qo'yishi ularni mustaqil fikrlashga undashi yordamida ro'y beradi.

Ko‘pgina ma’ruza raqiblari ma’ruzada lektorning faolligi, tinglovchi talabaning passivligini keltirib chiqaradi, talabalar mashg‘ulotda passiv tinglovchi sifatida ishtirok etadilar deb da’vo qilib ma’ruzani video ko‘rsativlar, texnika komputer vositalari bilan almshtirishni tavsiya qiladilar. Ammo tajriba shuni ko‘rsatadiki hech qanday texnika vositasi, hech qanday video ko‘rsatuvi o‘qituvchining jonli bayoninimg o‘rnini bosa olmaydi. Chunki texnika vositasi video ko‘rsatuvi yordamida tashkillashtirilgan o‘quv ishlartida sun’iylikdan iborat va shuning uchun ham ular ma’ruza uchun yordamchi vosita bo‘lib ishlatilishi mumkin. Sun’iylikning mohiyati shundaki ma’ruzadagi qarama – qarshi fikrlar nuqtaiy nazarlar ziddiyatlarning mazmunini texnika vositalari video ko‘rsatuvlari jonli muloqotchalik ochib bera olmaydi. Shuning uchun pedagogika fanlarini o‘qitishda ma’ruza oliv ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Ma’ruzaning afzalligi shundaki u katta hajimdagi materialni qisqa mudatda, aniq izoh yordamida tinglovchiga yetkaza oladi va o‘quv ma’lumotlarini sistwmali bayon qilishni ta’minlaydi. Ilmiy pedagogik nazariya va amaliyot shundan darak beradiki, maruzani ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini ijobiy bo‘lishi ko‘p hollarda auditoriyada maruzachi bilan tinglovchining aloqao‘rnatishiga bog‘liq. Maruzachi professor- o‘qituvchi va talaba - tinglovchining auditoriyadagi hamkorlik va aloqa o‘rnatishning muhim shartlari mavjud. Ularni pedagog olim N.V.Savin uch guruhga ajratadi.

Birinchi guruhga maruza mazmuni va tuzilishi bilan bog‘liq shart kiradi.

1. Maruza mavzusini aniq rejlash va ko‘rish;
2. Maruzani ilmiy informatsiyalarga boyitish;
3. Maruzada fanning eng yangi yutuqlarini bayon etish;
4. Maruza uchun o‘quv materialini puxta tayyorlash va uning mazmunini asosiy tushunchalar mohiyatini yoritishga qaratish;
5. Bayon etilayotgan o‘quv materialining darslikdagi izohini obyektiv baholash va qo‘srimcha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda ulardan o‘z o‘rnida foydalanish.

Maruzachining talabalar bilan aloqasining ikkinchi sharti maruza sifatiga taa’lluqli:

1. Maruzachi mavqeining aniqligi uning g‘oyaviy va ilmiy ishonchi hamda bu ishonchning maruza mazmuniga, fikrlar bayonida ifodalanishi.

2. Umumiy va ilmiy bilimdonlik, erkin axbarotlarni bayon etishi.
3. O‘z o‘quv faniga ishtiyoq va ilmiy ijodga qiziqish
4. Diktorlik mahorati, bilimdonlik va fikrlar boyligi, bayon etish malakasiga ega bo‘lish (ma’ruzada diqqatini turli obyektlarga taqsimlay olishi va uni butun mashg‘ulot davomida saqlay olishi, aqliy faoliyatini stimullash va h.k).
5. Nutq sifati: fikrni til orqali ifodalashi, nutqning yorqinligi, auditoriyada aniq eshitilishi, ifodali bayon etish.
6. Ma’ruza o‘qish tizimi: barcha kurs talabalarining o‘quv ma’lumatlarni to‘liq idrok qilish va ayrim yozuvlarni qayd qilish imkoniyatining yaratilishi
7. Talabalarga xayrixohlik bilan, munosabatda bo‘lish, munofiqlik, soxta obro‘ga ega bo‘lish izidan quvmaslik va h.k. Ma’ruzachi va tinglovchining mashg‘ulotdagi aloqasining uchunchi sharti: ma’ruza vaqtini optimal taqsimlash o‘quv jarayoniga sifatli o‘quv ma’lumotini tanlash va uni o‘z vaqtida bayon etishi, ish sifatiga e’tibor qaratish,yordamchi vositalarni jalb eta olishi kiradi¹. Maruzalarda talabalarni o‘quv materialini idrok qilishga faolishtirokini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.Buning uchun ma’ruza jarayonida talabalar oldiga muammoli savollar qo‘yish ularning fikrlarini tinglash,javoblarni izohlash, faktlar, misollardan foydalanish darkor.

Professor M.Ochilovning ta’kidlashicha oliy ta’lim maktablarida o‘qiladigan ma’ruzalar kirish maruzasi, mavzular bo‘yicha maruza, umumlashtiruvchi ma’ruzalardan iborat. Mualliflarning fikriga ko‘ra kirish ma’ruzasida o‘rganilayotgan oliy o‘quv yurtidagi fanlar tizimidagi o‘rni ya’ni agar “Umumiy pedagogika” fani bo‘yicha ikkinchi kursda ma’ruza o‘qilayotgan bo‘lsa, uning umumkasbiy fanlar tarkibidagi o‘rni, boshqa turdosh bo‘lmagan fanlar bilan aloqadorligi, bog‘liqligi, fan o‘rganadigan asosiy muammolar, kursning maqsadi, vazifalari,mutaxassislikda tutgan mavqeい,metodik asoslari, tadqiqot metodlari, manbalari hamda fanning o‘ziga xos xususiyatlari bayon etiladi.

Mavzular bo‘yicha ma’ruzalarda o‘quv va ishchi dasturda ko‘rsatilgan vaqt doirasida o‘tkaziladi. Unga har bir mavzu bo‘yicha

¹ Ochilov M., Ochilov N. Oliy mактаб pedagogikasi darslik –T. “Aloqachi”, 2008,54-bet

ma'lumotlar, ushbu mashg'ulotlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni, munozarali masalalar, qonunlar, muammoning mohiyati, tarixi, erishilganlik darajasi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon etiladi. Umumlashtiruvchi, yakuniy ma'ruzalar, fanni o'rganishning yakunida, yakuniy davlat attestatsiyasi oldidan o'tkaziladi. Bunda fan bo'yicha mavzulardagi ma'lumotlar umumlashtirilib, mavzular bo'yicha sodir bo'layotgan voqealar, yangiliklar, o'zgarishlar, erishilgan yutuqlar to'grisidagi axbarot beriladi. Shunday qilib, ma'ruza bugungi kunda oliy ta'lim maktablarida o'qitishning asosiy shakllaridan biri edi va shunday bo'lib qoladi. U ma'lumotlarni bayon qilishga katta hajmdagi axbarotni qamrab olganligi, vaqtini tejasi ko'p sonli tinglovchilarni qamrab olganligi jihatlari bilan oliy o'quv yurtlarida o'qitish shakllarining muhim shakllari bo'lib qoladi.

Ma'ruza o'tkazishning umumiyligi metodik talablari

1. Maruza mavzusini aniq rejalash va ko'rish;
2. Maruzani ilmiy informatsiyalarga boyitish;
3. Maruzada fanning eng yangi yutuqlarini bayon etish;
4. Maruza uchun o'quv materialini puxta tayyorlash va uning mazmunini asosiy tushunchalar mohiyatini yoritishga qaratish;
5. Bayon etilayotgan o'quv materialining darslikdagi izohini obyektiv baholash va qo'shimcha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanish.
6. Maruzachi mavqeining aniqligi uning g'oyaviy va ilmiy ishonchi hamda bu ishonchning maruza mazmuniga, fikrlar bayonida ifodalanishi.
7. Umumiyligi va ilmiy bilimdonlik, erkin axbarotlarni bayon etishi.
8. O'z o'quv faniga ishtiyoq va ilmiy ijodga qiziqish
9. Diktoriylik mahorati, bilimdonlik va fikrlar boyligi, bayon etish malakasiga ega bo'lish (ma'ruzada diqqatini turli obyektlarga taqsimlay olishi va uni butun mashg'ulot davomida saqlay olishi, aqliy faoliyatini stimullash va h.k).
10. Nutq sifati: fikrni til orqali ifodalashi, nutqning yorqinligi, auditoriyada aniq eshitilishi, ifodali bayon etish.
11. Ma'ruza o'qish tizimi: barcha kurs talabalarining o'quv ma'lumatlarni to'liq idrok qilish va ayrim yozuvlarni qayd qilish imkoniyatining yaratilishi

Ma'ruza bosqichlari

1.Tashkiliy qisim

Ma'ruza mavzusi bilan bog'liq bo'lмаган масалаларни е'lon qilish yoki hal qilish uchun ma'ruza boshlanishidan oldin amalga oshiriladi.

2.Talabalarning diqqatini jalb qilish.

Bu tinglovchilarni qiziqtiradigan va ijobji munosabat yaratadigan bir nechta iboralarни o'z ichiga olgan ma'ruzaning boshlanishi

3. Yangi mavzuni yoritishga tayyorgarlik.

Uslnbu bosqichda talabalarning bilimlari harakatga keltiriladi. Buning uchun o'tgan materialni qisqacha eslatiladi (oddatda oldingi ma'ruzaning mavzusi yoki natijalari aytiladi), yangi ma'ruza mavzusi e'lon qilinadi va mawzuning o'tilgan mavzu bilan aloqadorligi ko'rsatiladi.

4. Kognitiv vazifalarni belgilash.

Ma'ruza rejasи, adabiyotlar ro'yxати va ma'ruza oxirida javob beradigan savollar yozib olish tavsия etiladi.

5. Yangi materiallarni o'rgatish. Bu ma'ruzaning asosiy va eng uzun qismidir (kamida bir soat).

Ma'ruzachi o'quv dasturidagi muhim ma'lumotlar, murakkab fikrlar mazmunini aniqlab, ochib beradi, farazlar mohiyatini izohlaydi, talabalardan oldiga muammolar qo'yadi ulamni mustaqil fikrlashga undaydi.

6. Materialni mustahkamlash

Yaxshi o'qituvchi ma'ruzaning bu qismini hech qachon e'tiborsiz qoldirmaydi. Mustahkamlash ma'ruzada xulosalar yoki qisqacha takrorlashni o'z ichiga oladi. Mustahkamlash bosqichining vazifalari: * taqdим etilgan barcha materiallar umumlashtiriladi; * savollar beriladi; * keyingi mavzu bilan bog'lanadi; * talabalarning savollariiga javob beriladi; * o'r ganilgan material qaerda ishlatalishi mumkinligini ko'rsatiladi.

7. Mustaqil ta'lif va uyga vazifa berish

Tushuntirish beriladi va individual elementlarni kiritish tavsия etiladi. Keyingi seminar shu asosda tashkil etilishi aytiladi.

12. Talabalarga xayrixohlik bilan, munosabatda bo‘lish, munofiqlik, soxta obro‘ga ega bo‘lish izidan quvmaslik va h.k.
13. Yangi materiallarni o‘rganish – bu ma’ruzaning yagona qismi emas, balki asosdir.
14. Ma’ruza muayyan mantiq va tempga ega bo’lishi kerak.
15. O’quv jarayonining yaxlitligini yaratish uchun har bir ma’ruza mantiqan avvalgi va keyingi bilan bog’lanishi kerak.
16. Faqat yangi mavzuni taqdim etish bilan emas, balki uni o‘rganishning har bir bosqichi xulosa bilan yakunlanishi kerak.
17. O’qituvchi barcha talabalarning fikrini inobatga olishi kerak. Ularning faoliyatini doimiy ravishda aniqlashi lozim
18. Ma’ruzani o‘qiyotganda, darslikning tegishli sahifalari yoki xatboshilariga murojaat qilish kerak.
19. Ma’ruza matni, darslik va taqdimotni so’zma-so’z o’qib bermaslik, balki keltirilgan materialni mazmunini tushuntirib berish.

8.3. Seminar va amaliy mashg‘ulotlar

Oliy o‘quv yurtlarida, pedagogik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘qitish shakllarining yana bir shakli seminar mashg‘ulotidir. Agar ma’ruza katta patok (oqim)da o‘tkazilsa, seminar mashg‘uloti alohida guruhda o‘tkaziladigan o‘quv ishlarining bir shakli hisoblanib, talabalar o‘quv-biluv faoliyatları, mustaqil bilim olishlari, ijodiy fikr yuritishlarini yo‘lga qo‘ya oladigan o‘qitish shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham u oliy ta’lim mакtabida olib boriladigan o‘qitish shaklining o‘ziga xos bir shakli hisoblanadi.

Seminar (lotincha seminarium) olimlarning muayyan ilmiy soha bo‘yicha ma’lumotlarni muhokama qilishning dastlabki shakli bo‘lgan. Keyinchalik ilmiy faoliyatlardan o‘quv jarayoniga ko‘chib, talabalarning ishchanligi, bilim darajasi fanga qiziquvchanligi, xarakteri, psixologiyasiga xos tomonlari aniqlash shakliga aylandi, hozirgi kunda seminar mashg‘uloti suhbat, ma’ruza bo‘yicha fikr almashish, rolli o‘yinlar shaklida o‘tkazish nazarda tutilgan.

Mashg‘ulotni seminar, ma’ruzada o‘tkazilishining muhim tomoni shundaki, unda o‘qituvchi ham talaba ham puxta tayyorgarlik ko‘radi. Har ikkala faoliyat egasi, manbalar bilan ishlash, seminar rejasida ko‘rsatlgan savollarga javoblar topishda asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar bilan tanashib chiqishlari lozim bo‘ladi. Seminar mashg‘ulotida o‘qituvchi va talaba mavzu bo‘yicha aniq rejani, uni

hal qilish manbalarini o‘rganib, matn tayyorlaydilar, so‘zga chiqib fikrlarini asoslaydilar. Ma’ruza jarayonida o‘rganilgan nazariy ma’lumotlarning haqqoniyligini dalillash uchun imkon beradi.

Oliy ta’limda pedagogika turkum fanlaridan o‘tkazilayotgan seminar mashg‘ulotlari shundan dalolat bradiki, talabalar seminar mashg‘ulotiga tayyorgarlik kursi jarayonida buyuk pedagoglar asarlarini, pedagogika nazariyasi va tarixi ma’lumotlarni chuqur va ongli ravishda o‘zlashtirilishiga majbur bo‘ladilar va shundagina mavzuga doir masalalarning aniq egallaydilar, muhokamaga faol ishtirok etadilar.

Seminar mashg‘ulotlarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar to‘qnashuvi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Shuning uchun seminar olib boruvchi o‘qituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, babs-munozara ishlarini, o‘z nuqtai nazarini dalilash, o‘zgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yo‘llarini aniq tanlashi lozim. Mashg‘ulotning yakunida o‘qituvchi umumiy xulosa yasab, seminar mashg‘ulotining borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib, navbatdagi seminar mashg‘ulotini o‘tkazish haqida tavsiyalar berish, o‘ylab ko‘rish, fikrlarni yanada to‘ldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar ro‘yxatini e’lon qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ilmiy nazariy, amaliy-metodik jihatdan yuksak darajada o‘tkazilgan seminar mashg‘uloti talabalarga fanga qiziqishi, manbalar va adabiyotlar bilan ishlashga ishtiyoq faollikka intilish uyg‘otsa, o‘qituvchilarga o‘z ilmiy- nazariy malakasiga oshirishga, ilmiy adabiyotlarga ijobiy munosabatda bo‘lish, fan yangiliklarga ishonch-e’tiqod va fanga qo‘yilayotgan muammolarni yechishga ishtiyoqni tarbiyalaydi. Demak, seminar mashg‘ulotlarining sifatlari va samarali o‘tishiga o‘qituvchi mohorati muhim rol o‘ynaydi. Seminar mashg‘uloti o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda talabalar o‘z fikrlarini, nuqtai nazarlarini ochiqdan ochiq bayon etadilar, qatiyatlik bilan o‘zlashtirganlarini himoya qiladilar, muloqatda fikr almashinish amalga oshadi.

Seminar OTMda o‘qituvchi rahbarligida guruhli mashg‘ulot ekanligini inobatga olgan holda, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ma’ruzalar hamda mustaqil ishlash jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish;
- auditoriyada talabalarning mustaqil ishlash samaradorligini tekshirish;
- muhokama etilayotgan masala bo‘yicha o‘z fikrini shakllantirish, asoslash, bildirish va bayon etish, o‘z qarashlarini himoya qilish.

Tanlangan uslubga qarab seminar mashg‘ulotini o‘tkazish rejası turlicha tuzilishi mumkin. Lekin uning majburiy bo‘lgan komponentlari sifatida o‘rganiladigan mavzu, mashg‘ulotning didaktik va tarbiyaviy maqsadlari, ko‘riladigan o‘quv masalalar, tashkiliy-uslubiy ko‘rsatmalar, ma’ruzalar, xabarlar, mustaqil ishlar mavzulari va tavsiya qilinadigan adabiyotlar keltirilishi zarur.

Seminar mashg‘ulotida muhokama qilinadigan o‘quv masalalari rejaning asosini tashkil qiladi. Agar seminar kengaytirilgan suhbat usulida o‘tkazilsa, uning rejası masalalari quyidagi talablarga javob berishi shart:

- shaklan muammoli bo‘lishi kerak, ya’ni ushbu mavzu bo‘yicha muhim ziddiyatlarni ochish, muammo mohiyatini qamrab olishi, shu bilan birga, judayam keng bo‘lmasligi zarur, balki o‘z chegaralarida aniq belgilanishi kerak;
- kurs dasturi va ma’ruza rejasining ma’lum punktlari ifodasi so‘zma-so‘z takrorlanmasligi, talabalar ilmiy va kasbiy yo‘nalishi hisobga olinishi kerak;
- seminar mashg‘uloti mavzuning mazmunini butunlay qamrab olishi yoki muhokama etilayotgan muammo ifodalangan aspektni qamrashi lozim, shu bilan birga, muammoning shakllanishi talabalarni dastlabki manbalar bilan ishslashga undashi kerak.

Seminar mashg‘ulotini o‘tkazishdan avval talabalarga uning rejasini berish ularning mustaqil ishini uslubiy tashkil qilish va har bir talabaning unga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi uchun asos hisoblanadi. Agarda shu vaqtgacha ma’ruzada ko‘rib chiqilayotgan muammo qo‘yilmasa, muammoli vaziyat yaratilmasa, qiziqish bo‘lmasa, navbatdagi mashg‘ulotga talabalarning tayyorlanishini faollashtirish ancha qiyin bo‘ladi.

Talabalarning tavsiya qilingan adabiyotlar bilan chuqur ishslash vaqtida o‘qituvchi asosan individual maslahatlar va suhbatlar o‘tkazadi. Ushbu bosqichda u asosiy ma’ruzalar va xabarlar

tayyorlanishini hamda navbatdagi mashg‘ulotda ishtirokini nazorat qiladi.

Rejadagi masalalar muhokama qilish tartibi turlicha bo‘lishi mumkin, u seminar shakli va mazkur mashg‘ulotda talabalar oldiga qo‘yilgan maqsadlarga bog‘liq bo‘ladi. OTM sharoitida ko‘proq uchta sxema ishlatiladi: mustaqil ish-ma’ruza, savol-javob va aralash.

Mustaqil ish-ma’ruza sxemasida dastlab har bir masala bo‘yicha biror-bir talaba tomonidan tayyorlangan mustaqil ish yoki kichik ma’ruza eshitiladi, savol-javob sxemasida esa bir talabaning chiqishi (o‘qituvchi tanlovi asosida) bo‘ladi, undan so‘ng kengaytirilgan suhbat o‘tkaziladi. Aralash shaklda har bir masala bo‘yicha mustaqil ish (kichik ma’ruza), boshqa masala bo‘yicha – talabalar chiqishi (ularning xohishi bo‘yicha) mumkin. Muhokama so‘ngida asosiy ma’ruzachi umumiy xulosa qiladi.

Seminar mashg‘uloti haqiqatan ham qiziqarli bo‘lishi uchun u bahs-munozara shaklida, ammo boshqariladigan bo‘lishi lozim. Buning uchun bahs-munozara tartibi o‘qituvchi tomonidan oldindan o‘ylab chiqiladi, ishchi rejada ma’lum savollar, misollar, syujetlar belgilanadi.

O‘qituvchi tomonidan navbatdagi mashg‘ulot uchun belgilangan didaktik masalalar echimida seminar mashg‘ulotining tashkil qilinishi muhim o‘rin tutadi. Seminarni talabalarning mashg‘ulotga tayyorgarligini tekshirishdan boshlash tavsiya qilinadi. Tekshirishning shakliga (seminar va uning tashkil qilinishiga) qarab har xil boshlanishi mumkin.

Mavzu masalalari doirasida talabalarni faol muhokamaga yo‘naltirish maqsadida seminar boshida quyidagilarga e’tibor qilish kerak:

- o‘tiladigan mavzu va butun kurs bog‘liqligi;
- ko‘rib chiqilayotgan muammoning ilmiy yo‘nalishi, uning amaliyat bilan bog‘liqligi;
- talabalarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liqligi.

Talabalarning seminar mashg‘uloti masalalari bo‘yicha chiqishlari mustaqil ish, kichik ma’ruza yoki xabar shaklida bo‘lishi hamda ular, eng avvalo, o‘rganilayotgan masalani anglash chuqurligi bilan ajralib turishi mumkin. Ammo, shuni xam ta’qidlash lozimki, umuman olganda ushbu keltirilgan shakllar orasida aniq chegarani belgilash qiyin.

Mustaqil ish – o‘rganilgan asarlar, monografiyalar, davriy nashrdagi maqolalarning qisqa bayoni (yozma yoki og‘zaki shaklda) hamda ko‘rib chiqilayotgan masala doirasida talabaning shaxsiy tajribasi.

Kichik ma’ruza va xabar — talabalarning ko‘rib chiqilayotgan masalalardan biri bo‘yicha o‘rganilgan materialning umumlashtirish asosidagi qisqa chiqish.

Bundan tashqari, o‘quv mashg‘ulotlarning boshqa shakllaridan, o‘qitishning boshqa usullaridan ham foydalanish mumkin. Bular ilg‘or tajribani tahlil qilish, joriy voqealar, mashqlar va amaliy topshiriqlarning (vazifalar, muammoli vaziyatlar echimi) tahlil qilish usullaridir.

Seminar mashg‘ulotning muvaffaqiyatliligi doimo talabalar faolligiga bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchining ikkinchi majburiyati – seminarni har tomonlama rivojlantirish va talabalarni rag‘batlantirishdan iborat. Talabalarning faolligi bu nafaqat seminarda qatnashish va bahs-munozaralar, balki eshitish qobiliyatini ham rivojlantirib boradigan jarayondir. SHu bois, talabalarga eshitish va gapirish qobiliyatini kabi muhim fazilatlar tushuntirish lozim. Talabalar o‘z kursdoshlarining darsda javob berishlariga e’tiborli va tanqidiy munosabatda bo‘lishlari lozim. Buning uchun ularni javob berish, kichik ma’ruza yoki mustaqil ishning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, kichik ma’ruza yoki mustaqil ish kabi muhim ekanligi haqida har tomonlama yo‘naltirish lozim. Ko‘p vaziyatlarda talabalarning auditoriya bilan muntazam muloqot bo‘lgan holda erkin javob berishiga erishish zarur. So‘zga chiqqan talaba seminar mashg‘uloti rahbariga yoki boshqa tomonlarga emas, balki auditoriyaga qarab gapirishi kerak.

O‘qituvchining uslubiy mahorati va nazariy tayyorgarlik darajasi seminarda mashg‘ulot kechishi jarayonida masalalar muhokamasini qanday yo‘naltirishi, talabalarni ijodiy bahs-munozaraga jalg qilish, ya’ni kengaytirilgan suhbatni tashkil qilish qobiliyatiga bog‘liq.

Har qanday seminar mashg‘uloti vaqtida guruhda mazmundor javob berishga tayyor bo‘lgan faol talabalar bo‘ladi. Faol talabalar o‘qituvchining tayanchidir, ulardan seminar mashg‘ulotining eng mas’uliyatli onlarida foydalanish zarur.

SHunday qilib, seminar mashg‘uloti rahbarining uslubiy taktikasining bir qator vazifalari mavjud:

- auditoriyada erkin vaziyatni tashkil qilish va shuning asosida seminar rejasidagi asosiy masalalar bo‘yicha fikrlar erkin almashinushi, munozara va bahslarni tashkil qilishdan iborat;
- har tomonlama talabalarning faolligini rag‘batlantirish va rivojlantirish, kursdoshlarning javob berishlariga e’tiborli va tanqidiy bo‘lishni ta’minlash;
- masalalarning muammoli nuqtalarini topish va real hayotga zid bo‘lganligi orqali echimini topish;
- talabalarning erkin nutq so‘zlashi, javob berishlari va guruhdagi do‘stlarning nutqlarini to‘g‘ri baholash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ta’minlash.

Seminar mashg‘uloti jarayonida paydo bo‘lgan savollarga iloji boricha talabalar tomonidan javob topilishi lozim. Faqatgina so‘nggi chora sifatida o‘qituvchi bu vazifani o‘z zimmasiga oladi. U qiyin savol bo‘yicha auditoriyaning hamma imkoniyatlarini tamom bo‘lguncha javob bermasligi maqsadga muvofiq.

O‘qituvchining yakuniy nutqi seminar mashg‘ulotining mazmuni bilan belgilanadi va quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- har bir talaba va butun guruh chiqishlarini baholash;
- masalalar muhokamasi darajasining bahosi;
- muhokama qilinadigan muammolar qisqacha mazmuni, ularning nazariy va uslubiy ahamiyati;
- seminar jarayonida etarli darajada yoritilmagan savollarga javoblar;
- chiqishlarning kuchli va zaif tomonlari, shu bilan birga, yorqin va mustaqil fikrni yoki talabalarning diqqatga sazovor chiqishini ta’kidlash lozim;
- qo‘srimcha adabiyot bilan tanishishni xohlovchilarga tavsiyalar;
- navbatdagi seminarga tayyorgarlik bo‘yicha topshiriqlar.

O‘qituvchining uslubiy mahorati, xushmuomalaligi va aql-idroki yakuniy nutqda yorqin namoyon bo‘ladi.

Seminar mashg‘ulotlarning yuqorida ko‘rib chiqilgan tashkiliy, tayyorgarlik va o‘tkazish masalalari talabalarni bilim olish jarayonini faollashtirishga qaratilgan. Talabalarning intensiv mustaqil ishlashiga urg‘u berib iqtisodiyot mutaxassisliklari va yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Ma’ruza materiallarini chuqurroq o‘zlashtirish, o‘rganilgan pdagogik ma’lumotlarni amalda qo’llay olish malakasini shakllantirish maqsadida **amaliy mashg‘ulotlar** tashkil qilinadi.

Amaliy mashg‘ulot – bu ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi, mashg‘ulotni o‘qitish shaklidir.

Amaliy mashg‘ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma’ruza darsi mavjud bo‘lgan va ma’ruza darsi mavjud bo‘lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar. Amaliy mashg‘ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat’iy amal qilingan holda o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha zarur adabiyotlar ro‘yxati beriladi. Ma’ruza darsi mavjud bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarda asosan ma’ruza darslarida o‘tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

Amaliy mashg‘ulot quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi:

- nazariy materialni tartibga solish.
- ko‘nikmalarni hosil qilish.
- bilimlarni nazorat qilish.

Ta’lim beruvchi amaliy mashg‘ulotni samarali o‘tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o‘zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo‘lishi;
- o‘quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;
- o‘quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Amaliy mashg‘ulot darslarida yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo‘ladi. O‘qituvchi darsga kirib, tashkiliy ishlarni o‘tkazadi. Xonaning darsga tayyorgarligi, doskaga yozish va o‘chirish vositalarining mavjudligi hamda talabalar davomati aniqlanadi. Darsda o‘tiladigan mavzu e’lon qilinib, doskaga yozib qo‘yiladi. O’tgan mavzuning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinib, yangi mavzu rejasi beriladi. Ma’ruza darslari mavjud bo‘lgan fanlardan amaliy mashg‘ulot darslari albatta ma’ruza o‘tilgandan keyin o‘tkaziladi. Ma’ruzada o‘tilgan materiallarning asosiy xulosalari tushuntiriladi, ma’ruza bilan amaliy mashg‘ulot bog‘lanadi. Amaliy mashg‘ulotlar fanning, hattoki

mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil usullarda o'tkazilishi mumkin.

- Amaliy mashg'ulot darslarida savol javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantirilib ball qo'yiladi. Amaliy mashg'ulot darslarining qat'iy dastur bo'yicha sifatli o'tilishini, talabalar bilimining o'z vaqtida baholanishini fandan ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. SHuningdek amaliyat o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi, amaliyat darslarida nimalarga alohida e'tibor qaratilishi, ma'ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilganini va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib, fikrlashib turishi lozim.

- Ma'ruza darslari rejalshtirilmagan, faqat amaliy dars o'tkaziladigan fanlardan amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda nazariy bilimlar bilan amaliy mashqlar bajarish birgalikda olib boriladi. Dastlab mavzu bo'yicha nazariy bilimlar beriladi, o'qituvchi misol va mashqlar bajarib ko'rsatadi. SHundan so'ng talabalar mustaqil mashqlar bajaradi. O'qituvchi talabalar bilimini baholab boradi. Amaliy darsni o'qituvchi xulosalab yakunlaydi.

- **Amaliy mashg'ulotlarda ta'lim berish texnologiyasini loyihalash**

- Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning asosiy yo'li ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlangan ma'ruza va ma'lumotlarni jamoaviy muhokama qilishni tashkillashtirishdan iborat bo'ladi.

- Amaliy mashg'ulotlar samaradorligi ta'lim oluvchilarni amaliy mashg'ulotga tayyorlanish sifati bilan aniqlanadi. Ma'ruza va yangiliklar bilan chiquvchi, ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi ahamiyatga ega bo'ladi. Xar bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi.

O'quv maqsadlari muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi. Har bir fanning o'quv maqsadlari to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'quv maqsadlarining mazmuni yo'naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. O'qituvchi tomonidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab

chiqiladi. Har bir mashg‘ulot bo‘yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o‘quv jarayonini

Dastlabki vaqtarda amaliy mashg‘ulotlar darsning bir qismi hisoblanib, unga tayyorgarlik darsning o‘zida amalga oshirilgan. Keyinchalik pedagogik fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi faoliyatini tashkil qilishning mustaqil sohasi sifatida o‘quv ishlarining bir shakliga aylandi.

Amaliy mashg‘ulotning o‘ziga xos tomoni o‘quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o‘rnini, o‘qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi bilan xarakterlansada, amaliy mashg‘ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma’ruza, seminar mashg‘ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar bayon etilgan malumotlarni chuqur va puxta o‘rganishga talaba mustaqil ishining sifati va o‘zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko‘nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi.

Hozirgi davrda ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkillashtirishning turli shakllarini tatbiq etish bo‘yicha faoliyat olib borilmoqda. Jumladan “Mening bo‘lajak kasbim”, “Dars o‘tmoqdaman”, “O‘quvchilar mening tassavurimda” nomi bilan o‘tkazilayotgan dars va o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga mujasamlashtirilgan mashg‘ulot o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan ma’naviy-axloqiy mavzusidagi suhbat (tarbiya soati), “Men pedagogikani chuqur bilaman” (o‘yin darsi) mashg‘ulotlari talabalarda mustaqil ishslash, manbalardan muhimi topish, ijodiy tafakkurni rivojlanadirish, faktlar, ilmiy axbarotlar to‘plashga qiziqishni orttirmoqda. Shuningdek mazkur amaliy mashg‘ulotlarda talabalar o‘qituvchi rahbarligida sinf (guruh) mashg‘ulotini o‘tkazish, sinfda ijtimoiy-foydali ishni tashkil qilish va o‘tkazish, dars va tarbiyaviy soatlarni rejalashtirish ishlarini amalga oshirmoqdalar.

Amaliy mashg‘ulotlar frontal, guruhiy (juft-juft), individual ko‘rinishda “aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishslash”, “Tanqidiy fikrlarsh”, “Klaster” (tarmoqlar), “Munozara” va h.k interfaol usullarda o‘tilsa ko‘zlangan maqsadga erishish amalga oshadi.

Tajribaning ko‘rsatishicha amaliy mashg‘ulot maxsus jihozlangan kabinetlar, yoki o‘quv tarbiya muassasalarida o‘tkazilsa samaradorlik yanada oshadi. Chunki, bunda o‘qituvchi-talaba-o‘quvchi muloqoti amalga oshadi. Talabalar bunday mashg‘ulotlarda o‘zlarini yo o‘qituvchi, yo tarbiyachi, yo o‘quvchi- tarbiyalanuvchi o‘rniga qo‘yish, nazariya bilan amalyotni taqqoslash imkoniyatiga ega

bo‘ladilar. Bu esa mashg‘ulot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Seminar va amaliy mashg‘ulotlarning mazmundorligi va samaradorligi quyidagi talablar asosida qurilishi talab etiladi.

- Seminar yoki amaliy mashg‘ulotda talaba javobi, ma’ruzasi muayan ijtimoiy-ma’rifiy maqsadga yo‘nalgan bo‘lishi (muammoning qo‘yilishi, dolzarbligi, nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi ustuvor maqsadga ega bo‘lishi.

- Talaba maruzasida fikrlarning mantiqiy ketma-ketlik, rejalilik, mukammalik va fikrlarning o‘zaro aloqadorlik tamoyili asosida tuzilganligi, asosiy va qo‘sishimcha ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatilishi, adabiyotlarni aniq tanlanganligi, va to‘g‘ri foydalanganligi.

- O‘quvchi- o‘quvchi –o‘qituvchi muloqotining to‘g‘ri tuzilishi, o‘quvchi talabaning kursdoshlari, o‘qituvchining tanqidiy fikriga xayrxohli, samimiyligi, e’tirozli munosabatning ijobiyligi, muomilaga kirish madaniyatining mavjudligi.

- O‘quvchining axloqiy-madaniy harakatlari: o‘rinli, maqsadli bahslashishi, kursdoshi fikrini tinglay olishi, ma’lumotlarni taxlil qila olishi, fikrini lo‘nda, ixcham bayon etish va nuqtai nazarini dalillashning ijobiyligi.

- Talabaning mashg‘ulot jarayonidagi faolligi, mavzu rejasidagi har bir punktda o‘z fikrini ayta olishi, o‘ziga va o‘zgalar fikriga tanqidiy yondasha olishi.

Laboratoriya ishlari oliy ta’limda “Umumiy pedagogika” fanidan laboratoriya mashg‘uloti o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotda laboratoriya ishi, o‘qitishning interfaol metodini ko‘rish orqali peagogik mashg‘ulotlar o‘tiladi, amaliy o‘yinlar o‘tkaziladi, masalalar yechiladi va h.k. masalan, “Ta’limni tashkil etish shakllari” mavzusi zamonaviy darsslarni tashkil qilish, dars o‘quv-tarbiya ishlarini yaxlit tizimini ko‘rinishida pedagogik o‘yin darsi o‘tkazilishi mumkin. Bunda asosan talabalarda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish uchun laboratoriya ishini tashkil qilish nazarda tutilgan. Odatda laboratoriya ishlari “Umumiy pedagogika” fanining nazariy asoslari bo‘yicha ma’lumotlarni amalda qo‘llab, o‘quv mashg‘uloti, tarbiya soatlarni o‘tkazish to‘g‘risida ma’lumot berish, o‘qituvchilik-murabbiylik kasbini egallash yo‘llarini ko‘rsatish maqsadida tashkillashtiriladi.

Shu o‘rinda e’tibor etish joizki, laboratoriya mashg‘ulotlari izlanish xarakteri (tavsifi)ga ega bo‘lib, muayan pedagogik hodisani kuzatish, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish ko‘rinishidagi

ishlarni yo‘lga qo‘yish uning xulosalarini umumiylashtirish, yakuniy mashg‘ulotlarni qo‘lga kiritish uchun ham qo‘llaniladi.

8.4.O‘quv konfrensiyasi va munozara mashg‘ulotlari.

Pedagogika fanlarini o‘qitishda o‘quv konferensiyalari mashg‘ulotlarini tashkillashtirish oliy ta’lim muassalarida qo‘llaniladigan ta’limning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Odatda o‘quv konfrensiyasi fanning muayyan bo‘limi yoki katta hajmdagi mavzularni o‘rganishda yoki o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotidir. Shuning uchun konferensiya mavzulari o‘quv mavzusini takrorlash, qo‘srimcha darsliklardagi qayd etilgan masalalarni takrorlamasliklari lozim. Masalan, “Pedagogika tarixi” o‘qitilgandan so‘ng “Sharq muttafakirlari ta’limotida ma’naviy –axloqiy tarbiya masalalari”, “Abdulla Avloniy jadid tarbiyashunosligining asoschisi”, “Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda pedagogika fanning taraqqiyoti” va h.k. Mavzularda o‘quv konfrensiyasining boshqa o‘quv fanlaridan farqi shundaki, u bir necha fakultet ta’lim muassasalari talabalarmi qamrab oladi. Unga talaba pedagog rahbarligida jiddiy tayyorgarlik ko‘radi, konfrensiya mavzusi va o‘zi tanlagan mavzu mohiyatidan kelib chiqib bir necha ilmiy, siyosiy, pedagogik, adabiyotlar bilan tanishib, muammoli masalalarni hal qilishga majbur bo‘ladi.

O‘quv konfrensiyalari pedagogika fanlarining eng dolzarb, jamiyat talablariga javob bera oladigan masalalar bilan to‘ldirilsa ayni muddao bo‘ladi. U talaba yoshlarni ijodkorlikka, tashabbusga, ilmiy izlanishga qiziqish, manbalar bilan aniq ishlashga o‘z fikri, nuqtai nazarini asoslashga o‘rgatadi. Shuning uchun ham uni oliy ta’lim maktablarida o‘qitish ishlarining tashkiliy shakli sifatida o‘tkazish muhim ilmiy pedagogik axamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim maktablarida pedagogik turkim fanlarining yana bir o‘qitish shakli bahs munozaramashg‘ulotlardir. odatda bahs-munozaralarni o‘qitishning noan’anaviy shakli deb hisoblaydilar. Zero, ular ta’lim jarayonining shunday bir shakliki, undatalabalar muayan mavzular, masalalar, muammolar yuzasidan faol bahsga kirishadilar, muammolar yuzasidan faol bahsga kirishadilar. O‘z fikrlari, nuqtai nazarlarini dalillashni o‘rganadilar, ijodiy qobiliyat va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Ko‘pincha pedagogika fanlarini o‘qitishda, talabalarning qiziqish va ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish kasbiy faoliyat mazmunini chuqurroq

anglab olish, ichki imkoniyat, aqliy faollikni ta'minlash shaklida babs-munozara mashg'ulotlari o'tkaziladi. Uning mavzusi va mavzu mazmuni yorituvchi, bahsni tashkillashtiruvchi savollar talabalarga taxminan o'n kun e'lon qilinadi, unga puxta tayyorgarlik ko'riladi.

Ta'lismuassasida o'tkaziladigan babs-munozara-talabalar bilish faoliyatlarini rivojlantirish, talabalar uchun keying faoliyatlarida babs-munozarani o'tkazishda namuna hamda bu mashg'ulotga ma'suliyat hissi bilan qarash majburyatini bajarganligi uchunham qadrli va ahamiyatli. Masalan, "Ertangi kun tarbiyachisi qanday bo'lishi kerak? Mavzuda o'tkaziladigan munozaraga guruhning 4-5 talabasi belgilanib, ular mavzu bo'yicha topshiriqlarni tuzadilar, ularni boshqa talabalarga e'lon qiladilar, boshqaruvchilarni belgilaydilar, kerakli manbalarni taklif qiladilar va h.k. Shu asosda tashkil qilinib, o'tkaziladigan mashg'ulotlardan talabalar o'zları uchun ko'pgina yangiliklarni bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, pedagogika va psixologiya ta'lism yo'nalishida pedagogika fanlaridan tashkil qilinadigan o'quv ishlarining shakllari bo'lajak tarbiyachi -murabbiylarda pedagogika fanlariga qiziqishni, kelajak kasbga qiziqish va havasni uyg'otishga katta amaliy yordam ko'rsatadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. O'qitish shakllari haqida tushuncha bering.
2. Oliy ta'linda o'qitish asosan qaysi shakllarda olib boriladi?
3. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan ta'limning qaysi shakllaridan foydalilanildi?
4. Ma'ruza o'tkazishning umumiy metodik talablari.
5. Mavzu doirasida olingan nazariy ma'lumotlar asosida professor-o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan maruza mashg'ulotlarini tahlil qiling.
6. Seminar va amaliy mashg'ulotlar haqida tushuncha bering.
7. Mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulot ishlanmasi bilan tanishib chiqing va biron mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulot ishlanmasini tayyorlang.
8. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish tartibini tushintiring.

4-MODUL. MUSTAQIL TA’LIM VA KURS ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

9-MAVZU:TALABALARNI MUSTAQIL ISHLARI UCHUN MAVZULAR TANLASH,TALABALARНИ MUSTAQIL ISHLARIГA RAHBARLIK QILISH, MUSTAQIL ISHLARNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI, MUSTAQIL ISHLARNI QABUL QILISH.

Tayanch iboralar: mustaqil ta’lim, mustaqil ish, referat, ijodiy ish, tayyorlash, rasmiylashtirish, rahbarlik qilish, mavzu tanlash, mustaqil ishni topshirish, topshiriq.

9.1. Mustaqil ta‘limning maqsad va vazifalari .

Mustaqil ta‘limda qo‘llaniladigan eng muhim metodlardan biri kitob ustida ishslashdir. Bu metodning afzalligi shundaki, u kitobxonga o‘quv axborotini uning o‘ziga xos sur’atda va qulay vaqtida olishini ta’minlaydi. o‘quv adabiyotlari bilan ishslash metodlariga xos funk siyalarni barchasini bajaradi.

Kitob ustida mustaqil ishslashning maqsadi uning tarkibi bilan tanishib chiqish, tezda qarab chiqish, alohida boblarni yoki paragraflarni sinchiklab o‘qish, berilgan materialni o‘rganish, alohida bob yoki butun kitobga referat yozish, ayrim qoidalarni yodlash va boshqa usullar tarzida bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu metodning qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, turli modifikatsiyalarda qo‘llash mumkin.

Kitob ustida ishslash talaba uchun murakkab va qiyin metod sanaladi. Juda ko‘p talabalar o‘qishni bilganlari holda kitob bilan ishslashni yetarli darajada bilmay yoki o‘qiganlarining ma’nosiga to‘liq yetmagan holda bitiradilar. Bunga sabab nima?

Nima sababdan o‘quvchilar ham, talabalar ham o‘quv adabi yotlari bilan ishslashni qiyin ko‘rishadi?

Bir guruh metodistlar (Beck va boshqalar, 1993) tadqiqot o‘tkazib, buning ikki asosiy sababini aniqlashdi:

Birinchidan, darsliklar, ko‘pincha noaniq, mujmal yozilgan bo‘ladi, hech bo‘lmaganda matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan barcha axborotni kamdan-kam holatda qamrab oladi.

Ikkinchidan, kitobxon noaniq yozilgan matnga, tushunmagan so‘zga duch kelgach, tipik holatda o‘zini passiv tutadi, ya’ni eng osoni kitobni yopib qo‘ya qoladi.

Uchinchidan, o‘quvchi, talabalar ko‘pincha bir adabiyotdan zarur axborotni barchasini olishni ko‘zlashadi.

Shuning uchun amerikalik pedagoglar tomonidan o‘quvchi, talabalarni kitob ustida ishslashlarini faollashtirish maqsadida «muallifdan so‘rang» metodi ishlab chiqilgan. Bu metodni qo‘llab darsni boshlashdan oldin o‘qituvchi buyuk faylasuflardan Suqrotning yozma nutq haqidagi shikoyatini boshqacha tarzda ifodalab, yozilgan matn doimo tushunarli bo‘lavermaydi. Uni tushunmagani uchun o‘quvchi aybli emas. Odatda, gapiroayotgan kishining nutqida tushunilmagan gapni, so‘zni so‘zlovchiga savol berib, uni kengroq tushuntirib berishini so‘raymiz. Yozma matn, ya’ni kitob ma’nosi tushunarli bo‘lmasa, uni tushuntirib berishlarini so‘rash mumkin emas. Faqat bunda uni kursdoshlari tushuntirib berishi yoki o‘zi harakat qilishi mumkin, deya tushuntiradi.

Buning uchun o‘qituvchi talabadan matnda nima yozilganini tushunishni ana shu metod yordamida o‘rganishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu organilayotgan fan bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmasi yoki gazeta, jurnallarda chop etilgan bevosita o‘rganilayotgan mavzuga taalluqli ilmiy maqolalar bo‘lishi mumkin.

Bunda o‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha o‘quv adabiyotidan paragraf yoki biron parchani o‘qishni taklif etadi. So‘ngra o‘qituvchi talabalaiga:

Aytinglarchi, muallif bu yerda nima haqida gapiroayapti? degan savolni beradi. Talabalar javob bergach, o‘qituvchi gap nima haqida ketayotganligiga yakun yasaydi. Hamda aniqroq, tushunarliroq bo‘lishi uchun siz bu fikrni qanday ifodalagan bo‘lardingiz? degan savol bilan murojaat qiladi.

Bu metodni boshqacha variantda, dars o‘tishni uch kursga bo‘lib quyidagicha qo‘llash mumkin:

Dastlab, o‘qituvchi talabalaiga kitob yoki ilmiy maqolani o‘qib chiqib, tushunmagan jumla, fikrni alohida ajratib daftarga yozishni topshiradi.

So‘ngra, ikkinchi kursda muallif nima haqida fikr yuritayotgani, u nima demoqchi ekani muhokama qilinadi.

Uchinchi kursda, o‘qituvchi talabalardan o‘zлari muallif sifatida bu fikrni yozma ravishda qanday ifodalagan bo‘lar edingiz, yozib bering deb, topshiriq beradi.

To‘rtinchi kursda, talabalar yozgan javoblar o‘zaro tekshiriladi va muhokama qilinadi. Muhokama individual yoki kichik guruhlar bo‘yicha olib borilishi mumkin. Asosiy maqsad, yozilgan fikr tanqid qilingan muallifnikiga qaraganda tushunarliroqmi yoki aksinchaligini aniqlash.

Talabalar o‘z fikrlarini bildirgach, ularni solishtirib, o‘qituvchi o‘zi yakun yasaydi. Ana shu parchani tushunish uchun avvaldan nimalarni o‘qigan bo‘lishi, nimalarni bilish kerak? va hokazo.

Topshiriqni bajarilishiga qarab talabalaiga ball beriladi

Bunday usulni qo‘llash talabalarni o‘qishni faol o‘rganishga undaydi. Undan tashqari talabalarni o‘z fikrlarini asoslashga, materialni taqdim qilishni o‘igatadi.

«Muallifdan so‘rang» usuli bo‘yicha talabalar o‘zлari yangi matn bilan ishlab, yozishni o‘rganishadi.

Ko‘pincha, talabalar oliv o‘quv yurtini bitirib, ishga tushganda ustozlar hayron bo‘lishadi, nahot shu narsalami bilmaydi, o‘quv yurtini bitirib keldi-ku, u yerda bu narsalarni o‘qitgan, o‘rgatgan bo‘lishi kerak edi, deb. Psixologlarning fikricha, buning asosiy sababi, eng avvalo, har bir kishi o‘qishdan aniq maqsad qo‘ymas ekan, ko‘zlagan natijaga erishib bo‘lmaydi. Agar aniq maqsad qo‘yilmasa, bilimli mutaxassis emas, o‘qiganini tutiqushdek takrorlovchi, bilganini real hayotda qanday qo‘llashni bilmaydigan bitiruvchilar tayyorlanadi.

Talabalar kitob yoki maqola o‘qir, ekan, unga olgan bilimi yoki undagi berilgan axborotdan joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat topshirishda yoki ball to‘plashda qanday foydalansam bo‘ladi, degan nuqtayi nazardan qaraydi. Kasb egasi bilimi jihatidan undan ustun bo‘lmasada, mutaxassisligi bo‘yicha qo‘liga kitob tushsa, eng avvalo, undan ish jarayonida qanday foydalanish mumkinligiga e’tibor qaratadi. Akademik va amaliy bilimning asosiy farqi ham ana shunda.

Shuning uchun ham hozirda o‘quv yurtlarini bitiruvchilarni egallayotgan kasblari bo‘yicha amaliyat bilan bog‘lashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda nazariya bilan amaliyotni bog‘lovchi dars o‘tish metodlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Kitob o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi yoki talabalarning o‘zлari tanlashlari mumkin. o‘qituvchi talabalarning hikoyasini tinglab

yoki esselarini o‘qib, uni - naqadar real hayot bilan bog‘langanligi, fikrning originalligi, bayon qilinishiga qarab ball berishi lozim.

Bu metodni qo‘llashda o‘qituvchi avvaldan qaysi mavzu yoki savolni shu metod yordamida organizhni aniqlaydi. O‘rganilgan mavzu bo‘yicha savollar va ularning javoblarini, o‘qiladigan maqola, darslikdagi paragraf yoki ma’ruza matni, yangi mavzu bo‘yicha bilish lozim bo‘lgan savollar va ularga javoblarni tayyorlaydi.

Talabalarning nimalarni bilishi, yangi mavzu bo‘yicha nimani bilishi zarurligi va dars davomida nimalarni talabalar bilganini ko‘rsatishi uchun jadval chiziladi.

Talabaning mustaqil ishidan maqsad o‘qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talabaning mustaqil ishi vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishslash;
- elektron o‘quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishslash;
- internet tarmog‘idan samarali foydalanish;
- berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- natijalarni muhokamaga tayyorlash va ko‘rsatilgan kamchiliklarni qayta ishslash;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g‘oyani asoslash, mutaxssislardan jamoasida himoya qilish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlicha bo‘lib, ularni bir qismi o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan. Uni har bir talaba bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy, ya’ni talabalar o‘z xohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

Mustaqil ishlarini tashkil etish o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi:

Borgan sari ortib boradigan mustaqil tayyorlanish vaqtini samarali bo‘lishini ta'minlashda ikki narsaga e'tibor qaratish kerak: A) mustaqil ish - o‘qishning, aqliy mehnatning alohida turi; B) axborotning asosiy qismini talaba mustaqil ravishda oladi. Ayniqsa, internetning kirib kelishi bilan uning doirasi yanada kengayadi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning interfaol usullarini qo‘llash o‘qituvchining ijodkorlik mahoratini, qolaversa, mas’uliyatini yanada oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik texnologiyaning maqsadi o‘qitish emas, balki ularni mustaqil o‘qishga o‘rgatishdir. Demak, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishda, muhim omil hisoblanadi.

Har bir talaba mustaqil ishni tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Unga qanday maqsad qo‘yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalanilishini aniq ko‘z oldiga keltira olishlari kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani, bu ishni tashkil etildi degani emas.

9.2. Mustaqil ishlarini tashkil etish o‘ziga xos jihatlari

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari uni tashkil etishning tamoyillari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilar:

1.Mustaqil ishini tashkil etishning asosiy va birinchi tamoyili uning muntazamligidir, ya’ni doimiy, uzlusiz ravishda amalga oshirishdir. Ma'lumki, o‘quv jarayonini tashkil etishda qafiy ketma-ketlik, uzviylikni muntazam olib borish talab qilinadi. Talaba auditoriyada olgan bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o‘zlashtirish uchun har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

Bugungi o‘tiladigan mavzuni yaxshi tushunishi va o‘zlashtirishi uchun o‘tilganlarni o‘z qobiliyati va olgan bilimi darajasini yanada chuqurlashtirishga intilishi, mustaqil takrorlashi, o‘rganishi zarur. Chunki ma’ruzada talabaga yo‘llanma beriladi. Dars davomida mavzuga tegishli barcha asosiy savollarni muhokama qilib bo‘lmaydi. Uning iloji yo‘q, ma’ruzada o‘tilgan, muhokama qilin-gan masalalarni

psixologlarning tadqiqoti natijalariga ko‘ra, atigi 5 foizi talabalar yodida qolar ekan. O‘zi o‘qib o‘rgangani, o‘rganganlarini boshqalarga o‘rgatishi esa bir necha baravar ko‘p yodida qolar ekan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, talabaning o‘zini mustaqil tayyorlanib o‘qishi fanni o‘rganishda, uni asosiy mazmunini tushunish va o‘zlashtirishida, tahlil qilishi, o‘z fikrini ifodalashida muhim rol o‘ynaydi.

2. Mustaqil ishiarni bajarish muddati jihatidan xohlagancha davom etishi mumkin emasligi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, 17—25 yosh darajasida mehnatni ratsional tashkil etganda bir sutkada 9 soat unumli ishlash mumkin ekan. Haddan tashqari uzoq o‘tiradigan bo‘lsa, mehnat unumi pasayadi, odam charchaydi, keyingi kunlari charchog‘i yozilishi qiyin bo‘lgani sababli, avvalgiday ishlay olmaydi.

Shuning uchun mustaqil ishni rejalshtirganda auditoryada o‘tkazgan vaqtini hisobga olishi kerak. Agar, auditoriyada dars soatlari 6 soat bo‘ladigan bo‘lsa, mustaqil ishlash 3 soat, auditoriyada dars undan kam bo‘lsa 3 soatdan ko‘proq, agarda ko‘p.bo‘lsa, kamroq tarzda rejalshtirish kerak.

Oliy o‘quv yurtlarida haftalik mustaqil ish bajarish vaqtি 22—24 soat atrofida bo‘ladi.

Albatta, bu vaqt talabani normal tarzda diqqat-e’tibor, g‘ayrat qilib ishlashini mo‘ljallagan holda belgilanadi. Lekin real hayotda sobir talaba o‘zini zo‘rlab dars tayyorlasa, ikkinchisi qiziqib, predmetni o‘rganishga ilhom bilan kirishib ketadi. Uchin-chisi esa, umuman dars tayyorlagisi kelmaydi. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablarni keltirish mumkin.

3. Mustaqil ishni tashkil qilishda ish tartibini belgilash katta ahamiyatga ega ekanligi. Mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqtni semestr davomida kunlar bo‘yicha taqsimlash, uni ratsional tashkil qilishning muhim prinsipi, qoidasi hisoblanadi. Goh umuman dars tayyorlamay, goh haddan tashqari shoshib, shiddat bilan, ayniqsa, semestr yakuniga, oraliq nazorat yakuniga yaqin qolganda, bajarmagan ishlarni tezda bajarishga harakat qilish ijobiyl natija berishi qiyin. Bu talabaning mehnati samaradorligini, qilgan ishidan qoniqish hissini pasaytiradi. Odatda, talabaning kun tartibini dars jadvali belgilaydi. Lekin ko‘p narsa talabaning o‘ziga ham bog‘liq. Masalan doklad, referat, nazorat ishi, seminar darsiga tayyorlanishga har

haftada ma'lum vaqt ajratilib, muntazam ravishda olib borilmasa, kutilgan natija bermaydi.

Barcha mustaqil ishlar talabalarda ijodiy ishlash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Talaba ijodiy ishlashga o'rgatilmasa, u ma'lum mavzuga oid materiallarni turli manbalardan ko'chirib kelish bilan kifoyalanib qolishi hamda o'zi mustaqil fikr bildirishga qiynalishi mumkin.

Bunda, yangi yoki oldindan ma'lum bo'lsada, ungacha boshqacha nuqtayi nazardan qaralgan g'oya, fikrlarni tadqiq qilish, ya'ni axborotlar toplash, ular ustida ishlash, o'z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar beriladi.

Talabalar mustaqil ishi uchun mutaxassislik fanidan tasdiqlangan namunaviy dasturga kiritilgan mavzular bo'yicha har bir talabaga har bir semestrda alohida topshiriq beriladi. Topshiriq talabalarga amaliy mashg`ulotlarni olib boradigan o'qituvchilar tomonidan beriladi va o'qituvchi jurnalida belgilangan bo`ladi. Talabalar mustaqil ishi ballarini ON o`z ichiga oladi. Talabalar mustaqil ishini topshirmagan talaba YaB ga qo`yilmaydi. Talabalar mustaqil ishi ijodiy ish sifatida olib boriladigan ilmiy anjumanga maqola tayyorlash, mavzular bo'yicha jadvallar, slaydlar, referativ ma`ruza, vaziyatli masalalar majmuasini ishlab chiqish va boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin.

9.3.Talabalarning mustaqil ish turlari.

Mustaqil ish talabaning faoliyatida takrorlanuvchi va ijodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunga qarab, talabalarning mustaqil faoliyatining uch darajasi mavjud: reproduktiv, rekonstruktiv va ijodiy (qidiruv).

1. Reproduktiv mustaqil ish –o'qituvchining algoritmi yoki ko'rsatmasi bo'yicha talabalarning harakatlarini o'z ichiga oladi. Algoritmlar tizimini o'zlashtirish muammoni hal qilish usulini mustaqil ravishda ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirishga olib keladi.

2. Rekonstruktiv mustaqil ishlar - talabalarni o'qituvchi tomonidan bildirilgan umumiyl muammolarni mustaqil hal etishga, mavjud bilimlarga, shakllangan ko'nikma va malakalariga tayanadilar.

3. Evristik ishlar-nostandard vaziyat va notipik vazifalarni nazarda tutadi. Ishning markazida – qidiruv: g'oyani va uni hal qilish yo'llarini mustaqil shakllantirish va asoslash. Bunday vazifalar kurs ishlari va seminar mashg'ulotlarini bajarishda amalga oshadi.

4. Ijodiy-tadqiqot ishlari. Ularni amalga oshirish jarayonida talabaning eng yuqori darajadagi mustaqilligi va bilim faoliyati namoyon bo'ladi. Ijodiy topshiriq orqali talaba o'rganilayotgan savolning mohiyatiga chuqur kirib, muammolarni hal qilishning yangi usullarini topadi. Odatda, bunday ish tezisni bajarishda, ilmiy hisobotni tayyorlashda, ijodiy topshiriqn ni bajarishda namoyon bo'ladi.

Mustaqil ish tashkil etish joyiga qarab auditoriya (o'qituvchi rahbarligida) va auditoriyadan tashqari (o'qituvchi rahbarligida va o'qituvchi bo'lмаган holda) shakllarga bo'linadi.

1. Auditoriya ishlari, odatda, ma'ruzalar, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Misol uchun: umumiy fikrlashlar, "munozarada ishtirok etish", mavzuli diktantlar, nazorat ishlari va boshqalar.

2. Auditoriyadan tashqari ishlar - ilmiy va maxsus adabiyotlarni o'rganish, darslarga tayyorgarlik ko'rish, tezislar, ma'ruzalar yozish, mustaqil o'qish uchun taqdim etilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish. Sinovlar, o'z-o'zini nazorat qilish masalalari, nazorat ishlari orqali nazorat qilinadi va baholanadi.

Maqsadiga qarab mustaqil ishlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Materiallarni joriy o'rganish - uy vazifasi, ma'ruza yozuvlari bilan ishslash, asosiy manbalarni tahlil qilish, seminarlar, laboratoriya ishlariga tayyorgarlik.

2. O'quv-tadqiqot ishlari – kunlik, oylik, semestr topshiriqlarini bajarish, mavzuni mustaqil o'rganish, abstrakt, hisobot, xabarlar, maxsus adabiyotlarni tahlil qilish.

3. Ilmiy-tadqiqot ishlari) - kurs va diplom ishlarini bajarish, ilmiy ma'ruzalar, maqolalar tayyorlash va h. k.

A.K.Buryak mustaqil ishning asosiy turlariga kitob, kuzatish, tajriba, dizayn, modellashtirish, muammolarni hal qilish kiritadi.

Kitob bilan mustaqil ishslash talabalarning o'quv faoliyatida katta o'rin egallaydi. Kitob bilan ishslash bo'yicha topshiriqlar turli xil bo'lishi kerak: o'qilgan kitobni sharhlash va o'qilgan adabiyotlar asosida amaliy mashqlarni bajarish. bilan Mazkur vazifalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- sharhlangan o'qish ("Matnning bir qismini o'qing va uni qanday tushunganingizni tushuntiring»);
- o'qish materialining rejasini tuzish;
- berilgan savollar bo'yicha ko'chirma tanlash, matnni konspektlash;
- bir nechta adabiyotlar bo'yicha tezislар tuzish;
- adabiyotlarda shakllantirilgan qoidalar rejasini tuzish va ularni amaliy faoliyatda amalga oshirish ("maqolani o'qing, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qanday ishlatayotganingizni aytинг yoki tushuntiring»;
- lug'atlar, ma'lumotnomalar, ensiklopediyalarda alohida atamalarni tushuntirish;
- normativ-me'yoriy adabiyotidan foydalangan holda amaliy topshiriqlarni bajarish.

Uy vazifasi, talabalarning mustaqil ishi sifatida. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli talabalarning uy vazifalarini bajarish bo'yicha mustaqil mashg'ulotlari hisoblanadi. Auditoriya mashg'ulotining mantiqiy davomi sifatida o'qituvchilarining ko'rsatmasi bilan topshiriqni bajarish muddati belgilanadi va topshirig'iga binoan amalga oshiriladi. O'quv jarayonini tashkil etishning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, ushbu ishni bajarish uchun vaqt sarflash jadval bilan tartibga solinmaydi. Ish tartibi va davomiyligi talabalarning qobiliyatları va o'ziga xos sharoitlariga qarab tanlanadi, bu nafaqat aqliy, balki tashkilotning mustaqilligini ham talab qiladi. Uy ishi-bu mashg'ulotni to'ldiradigan va ta'lim tizimining bir qismi bo'lgan talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatlaridir. Uning maxsus funksiyalari mustaqil ravishda o'rganish, ish vazifalari va vositalarini aniqlash, o'qitishni rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. U talabaning fikrlash, irodasi, xarakterini rivojlantiradi. Uning asosiy maqsadi-darsda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, ko'nikmalarni rivojlantirish, yangi materiallarni o'zlashtirishdir. Olimlar uy ishlarining muvaffaqiyati uchun quyidagi shartlarni ajratib ko'rsatadilar: talabalarning mustaqil ish qobiliyatları, pedagogik rahbarlik va uy vazifalarini bajarilishini nazorat qilish. Ikkinchidan, uy vazifasi hajmini cheklash, vazifalarni aniq belgilash va bajarish bo'yicha tavsiyalar, o'z vaqtida tekshirish va baholashni talab qiladi.

4. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarni ma'lum bir sohada ilm-fanning zamonaviy holati, ilmiy-tadqiqot faoliyatining asosiy yondashuvlari, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullari, tegishli sohalarda aniq nazariy va amaliy bilimlar, ilmiy axborotni izlash usullari bilan tanishtirish.

2. Abstrakt fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy va texnik axborot oqimida ilmiy yoki amaliy muammolarni topish qobiliyatlar, muammolarni shakllantirish, tadqiqotni rejalashtirish, muammoni nazariy hal qilish va olingan natijalar va topilmalarni eksperimental tekshirish.

3. Talabalarning yakuniy amaliy natijalarga yo'naltirilishi va ilmiy-tadqiqot ishlari natijasini rasmiylashtirish, ilmiy ma'ruza tayyorlash, olingan natijalarni himoya qilish, og'ir ilmiy bahsmunozaralarini olib borish.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarining quyidagi turlari ajratiladi:

1. Talabalarning amaldagi o'quv rejalarida ko'zda tutilgan o'quv ilmiy-tadqiqot ishlari. U, birinchi navbatda, kurs va diplom loyihibariga tegishli; shuningdek, amaliy yoki seminar mashg'ulotlari mavzularida tezislar yozishni ham o'z ichiga olishi mumkin.

2. O'quv rejalarini talablaridan tashqari ilmiy-tadqiqot ishlari: fan to'garagi (ko'pincha kichik kurs talabalari bilan ishslashda). Bu ilmiy-tadqiqot ishlariga birinchi qadam – hisobot va tezislarni tayyorlash, keyinchalik to'garak majlislarida yoki ilmiy konferensiyada eshitiladi. O'quv yilining boshida tashkiliy yig'ilishda ma'ruza va tezislar mavzusi tarqatilib, o'qituvchi har bir mavzu uchun adabiyotni tavsiya qiladi va ish rejasini o'laydi. O'qituvchi talabalarga ilmiy tadqiqot usullari va usullari, materiallarni to'plash, adabiyotlar ustida ishslash, ilmiy asboblardan foydalanish bo'yicha 2-3 ta ma'ruza o'qishi, shuningdek, talabalarni kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy yo'nalishlari bilan tanishtirishi, zarur hollarda ularga yordam so'rab murojaat qilishi mumkinligi haqida yordam beradi. Keyin jadval tuziladi va tayyor hisobotlarni tinglash boshlanadi. Amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinadi: ma'ruzalar tanlovi, ilmiy anjumanlar va fan olimpiadalarida ishtirok etish, olimlar bilan uchrashuvlar, ilmiy to'plamlarda eng yaxshi ishlar tezislarini nashr etish.

Talabalarning ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtiroki. Ilmiy anjumanlar nazariy ilmiy ma'ruzalar, ilmiy-amaliy – nazariy ilmiy ma'ruzalar va amaliy muammolarni hal qilish yo'llarini muhokama qilishni o'z ichiga oladi. Talabalarning eng yaxshi ma'ruzalari qayd etiladi. Bunda o'qituvchi talabalarning ma'ruzalarini baholashning quyidagi mezonlarini hisobga oladi: taqdim etilgan g'oyalarning dolzarbliji, nazariy va amaliy ahamiyati, yangiligi va o'ziga xosligi, mazmunan ravshanligi va aniqligi, taqdimot mantiqi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Mustaqil ishlarning maqsadi va vazifalarini aniqlang.*
2. *Mustaqil ishlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.*
3. *Zamonaviy ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan talabalarning mustaqil ishi mohiyatini yoriting.*
4. *Ma'ruza, seminar hamda amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik algoritmini bayon qiling.*
5. *O'zingiz tomonidan oldin bajarilgan mustaqil ishni mazkur mavzuda yoritilgan mustaqil ish shakllari bilan qiyoslang va tahlil qiling.*
6. *Talabalarning mustaqil ishlariga nimalar kiradi?*
7. *Talabalarni mustaqil ishlariga rahbarlik qilish tartibini tushintiring.*
8. *Mustaqil ishlarni rasmiylashtirish va qabul qilish tartibi haqida ma'lumot bering.*
9. *Referat nima va u qanday yoziladi?*

10-MAVZU. KURS ISHLARINI MAVZUSINI TANLASH, KURS ISHIGA RAHBARLIK QILISH

Tayanch iboralar: kurs ishi, mavzu, rahbar, reja, kirish, asosiy qism, adabiyotlar, rasmiylashtirish, taqriz, himoya, mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, xulosa.

10.1. Kurs ishlarini yozish bo'yicha umumiyl talablar

Kurs ishi talabaning mustaqil ilmiy ishi bo'lib, o'quv rejasining maxsus va ixtisoslik fanlari bo'yicha olingan amaliy ko'nikma va tadqiqot natijalarini tanlangan mavzu doirasida aks ettirishi hisoblanadi. Kurs ishini yozishda talaba quyidagilarni ko'rsatishi kerak: adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalari, normativ-huquqiy va mavzu doirasidagi manbalarni tahlil qila olish va ongli xulosalar chiqara olish.

Kurs ishini bajarilishini nazorat qilish, kurs ishi himoyasini ko'rib chiqish va tashkil etish kafedra zimmasiga yuklatiladi. Talabalarga ilmiy maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish uchun kafedra ilmiy rahbar ajratadi, u kurs ishining tayyorlik darajasini belgilaydi.

Tanlangan mavzu ustida ishlash talabidan tadqiqot metodologiyasi, ijodiy fikrlash, bahslashish va taqdimot mantiqi, muammoga shaxsiy munosabat, mehnatsevarlik va professionallik asoslarini bilishi talab etadi.

Kurs ishini yozish jarayoni bir qator o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mavzu tanlash va ish rejasini ishlab chiqish.
2. Adabiyotlarni to'plash va o'rganish.
3. Tanlangan mavzu bo'yicha materiallarni ishlab chiqilgan rejaga muvofiq to'plash va tahlil qilish.
4. Asosiy nazariy qoidalar, amaliy xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish.
5. Kurs ishini rasmiylashtirish.
6. Ilmiy rahbar tomonidan taqriz berish.
7. Kurs ishini himoya qilish.

10.2. Kurs ishi mavzusini tanlash va rejasini ishlab chiqish.

Talabaning ijodiy ishga teran yondashishi, tanlangan mavzuning dolzarbligini, uning nazariy va amaliy ahamiyatini chuqur anglab

etishi mavzuni tanlashdan boshlanadi. Amaliyat shuni ko'rsatadiki, to'g'ri mavzuni tanlash, uning muvaffaqiyatli bajarilishini yarim ta'minlash demakdir. Mavzu tanlashda talabaning qiziqishi muhim bo'lib, unda o'z ijodiy g'oyalarining mavjudligi, ilmiy to'garaklarda so'zlashish tajribasi egaligi, muammoni tushunishi va uni to'liq o'rganishga intilishi nazarda tutiladi. Agar talaba mavzu tanlashda qiynalsa, o'qituvchidan yordam so'rashi mumkin. Mavzuni tanlagan holda talaba uning mohiyati nimada ekanligini tushunishi kerak. Bu talabaga bo'lajak tadqiqot chegaralarini to'g'ri tushunish va ish rejasi uchun savollar tuzish imkoniyatini beradi. Kurs ishi mavzulari banki ko'pligi talabalar tomonidan tanlash takrorlanishini oldini oladi.

Mavzu aniqlangandan so'ng talaba tanlangan mavzuni qayd etadi, bu esa o'z navbatida mavzularning takrorlanishini oldini olishga xizmat qiladi. So'ngra kafedra mudiri tomonidan tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy rahbar tayinlanadi. Talabaning iltimosiga ko'ra tanlangan mavzuni o'zgartirish yoki rahbarni almashtirish yozma asoslagan holda amalga oshiriladi.

Kurs ishi mavzusini rasmiylashtirish ish rejasini tayyorlashdan boshlanadi. Talabaga tanlangan tadqiqot mavzusi bo'yicha ishni aniq tashkil etadigan ish rejasini ishlab chiqish taklif etiladi. Dastlab ish rejada tadqiqot predmetiga faqat asosiy nuqtai nazardan tavsif beriladi, biroq kelajakda bunday reja o'zgartirilishi mumkin, lekin umuman ish oldida turgan asosiy vazifa o'zgarishsiz qoladi.

Kurs ishining ish rejasi o'z ichiga olishi kerak:

- kirish;
- boblar va paragraflarga bo'lingan asosiy qism;
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- ilovalar.

10.3. Kurs ishi bo'yicha tadqiqot materiallarini yig'ish va tahlil qilish

Bu kurs ishini yozishda eng qiyin va vaqt talab qiladigan bosqichlardan biridir. Talaba katta hajmdagi me'yoriy-huquqiy, adabiyotlar: tadqiq etilayotgan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy manbalar, olimlarning turli yondashuv va qarashlarini aks ettiruvchi monografiyalar va ilmiy maqolalar hamda tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolarni hal etishning turli yo'llari bilan tanishishi kerak bo'ladi.

Mavzuni to‘liq ochib berish zarurati talabidan OTM kutubxonalar bilan cheklanib qolmasdan, shahar kutubxonalariga murojaat qilishni talab etadi. Kurs ishi mavzusi bilan mazmuni bog‘liq bo‘lgan manbalarning barcha turlari ko‘rib chiqilishi lozim. Ishni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha materialni o‘z ichiga olgan darslik va qo‘llanmalarning o‘sha bob va bo‘limlari mazmuniga batafsilroq kirish bilan boshlash kerak. YAxshi bajarilgan kurs ishining qiymati, muallif tomonidan olimlarning turli pozitsiyalarini tahlil qilishi, ular orasida muammoning mohiyatini aks ettiradigan va (yoki) ushbu masalani hal qilish bo‘yicha o‘z qarashlarini taklif qiladigan pozitsiyani aniqlashga harakat qilishida ifodalanadi. SHuning uchun o‘quv materiali mazmuni bilan tanishish bilangina cheklanish maqsadga muvofiq emas, ayniqsa, o‘quv materiali o‘rganilayotgan muammoni dinamikasini tartibga solishdan orqada qoladi.

Kurs ishi mavzusida tadqiqotda eng asosiy g‘oyasi axborot va bibliografik nashrlarni o‘rganish natijasida shakllanadi. Ilmiy, o‘quv va boshqa adabiyotlarni bosqichma-bosqich o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

Asarga uning mundarijasi bo‘yicha umumiy kirish:

- barcha kontentning tezkor ko‘rinishi;
- materialni ketma-ketligi tartibida o‘qish;
- asarning biron qismini tanlab o‘qish;
- qiziqtirgan materiallarni ko‘chirib olish;
- qayd etilgan, tahrir qilingan va yakunlovchi yozuvni kelgusi kurs ishi matnining fragmenti sifatida tanqidiy baholash.

O‘qilgan materialning yozuvlari juda xilma-xil bo‘lishi mumkin: oddiy yoki batafsil reja, tezislari, sitatalar. Ko‘rib chiqilgan adabiyotning murakkabroq shakli konspektidir.

Konspektlashning quyidagi usulini tavsiya qilamiz: daftar sahifasi vertikal chiziq bo‘yicha ikkiga bo‘linadi, o‘qishning asosiy nuqtalari chap tomonda qayd qilinadi va o‘z izohlaringiz o‘ng tomonda amalga oshiriladi. O‘qigan materialningizni tahlil qilish natijasida paydo bo‘lgan va shu bilan bir qatorda o‘ylab topgan o‘z fikrlaringiz yangi bilim olishning sintezi bo‘lib xizmat qiladi. O‘rganilayotgan manbalarni tizimlashtirish ularni tahlil qilish va umumlashtirish samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. SHaxsiy kompyuterdan foydalanish bu ish bosqichida bebahoh yordam bo‘lishi

mumkin. Ushbu ishning natijasi o‘rganilayotgan muammoni muhim bilish va asosiy nazariy hamda amaliy qoidalarni shakllantirishning mantiqiy qurilgan tizimi bo‘lishi kerak.

10.4. Kurs ishining tarkibiy tuzilishi.

Kurs ishi yakuniy malakaviy ishning turi bo‘lganligi uchun uni baholash nafaqat muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning sifatiga, balki kurs ishining umumiyligini uslubiy tayyorlarlik darajasiga ham bog‘liq. Avvalo, bu uning kompozitsiyasida aks etadi.

Kompozitsiya-kurs ishini shakllantirish, ya’ni muallif matnning barcha tarkibiy darajalarida qurish, asarning alohida elementlarini yagona va mantiqiy bir butunlikka joylashtirish borasidagi ishlardir. Tadqiqot materiali nafaqat kerakli ma’lumotlarni taqdim etishi, balki fikrlash mantig‘ini ham o‘rgatishi kerak. Mantiqiy reja oddiy materialdan murakkabroq va ma’lum axborotdan yangi axborotga o‘tish izchil, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tarzda ishlab chiqiladi, shunda bir bayon boshqasidan kelib chiqadi.

Bu masalada standart yo‘q va bo‘lishi mumkin emasligiga e’tibor berish kerak. Muallif tadqiqot natijasida olingan materialni tartibga solishning u yoki bu tartibini tanlash huquqiga ega-bunda qo‘llaniladigan yagona mezon tadqiqot mavzusining ichki mantiqiy munosabati va oshkorasidir.

SHunga qaramay, kurs ishining muayyan kompozitsion tuzilishi an’naviy tarzda shakllantirilgan bo‘lib, asosiy elementlarini qo‘yidagi tarzda tartibga solish talab etiladi:

- titul varag‘i;
- mundarija;
- kirish;
- asosiy qism (boblar va paragraflar);
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- ilovalar

Titul varag‘i

Titul varag‘i qo‘yidagilarni qamrab olishi kerak:

- ta’lim muassasasi va kafedra nomi;
- ta’lim yo‘nalishi;
- kurs ishi mavzusining raqami va nomi;

- talabaning to‘liq ismi;
- rahbarning ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, lavozimi, familiya, ismi-sharifi;
- “topshirish sanasi”, “himoya sanasi”, “baholash”.
- kurs ishi yozilgan joy va yil.

Mundarija

Mundarija titul varag‘idan keyin joylashtiriladi. Mundarija kurs ishining barcha sarlavhalarini o‘z ichiga oladi va ular boshlanadigan sahifalarni ko‘rsatadi. Mundarijadagi sarlavhalar kurs ishi matnidagi sarlavhalarni aynan takrorlashi kerak.

Kirish

Kurs ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbliji, uning tadqiqotchanlik darajasi tushuntiriladi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, ishning maqsadi va vazifalari, muammoning o‘rganilganlik darajasi va kutilayotgan natijalar, tadqiqot uchun qo‘llaniladigan metodlar belgilanadi.

Mavzuning dolzarbliji. Kirish qismida talaba muammoning tadqiq etishning zaruriyati, muhimligi va ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsata olishi lozim. Mavzuning dolzarblikini yoritish barcha ilmiy ishlarda majburiy talabdir. Muallif mavzuni tanlagan ekan, uning ilmiy salohiyati va kasbiy tayyorgarligi, albatta, bu mavzuni ma’nosini tushunib etishi va uni zamon talabiga mosligi hamda ijtimoiy muhimligini baholay olishi kerak. Dolzarblikni yoritishda asossiz gaplar yozilmasligi kerak. Mavzuning dolzarblikining asosiy omillarini to‘liq bir sahifada ko‘rsatish etarli bo’ladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Kurs ishining ushbu qismida mavzu kimlar tomonidan qaysi tomonlari o‘rganilganligi, qaysi qismi o‘rganimaganligiga alohida urg‘u beriladi.

Tadqiqot ob’ekti – bu muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o‘ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyatini yo‘naltirilgan narsa.

Tadqiqot predmeti ob’ektning aniq bir qismi bo‘lib, uning ichida izlanish olib boriladi. Hodisalar, ularning ayrim tomonlari tadqiqot predmeti bo‘lishi mumkin. Tadqiqot predmetini tadqiqotchi ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqot ob’ekti haqida oladigan yangi ilmiy bilim sifatida belgilash mumkin.

Tadqiqot maqsadi bu talaba o‘z kurs ishisini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natijadir. Muammo echimi talaba ishining maqsadi sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqsad tadqiqotning xarakteri, borishi va vazifalarini belgilovchi o‘ziga xos oxirgi sababdir. SHu asosda ish tuzilishining aniq maqsadga bo‘ysundirilishi kerak bo‘lgan mantiqiyligi kelib chiqadi. Tadqiqot maqsadini ifodalashda ishlatiladigan iboralar va so‘z birikmali: «*aniqlash...*», «*belgilash...*», «*asoslash...*», «*aniqlashtirish...*», «*ishlab chiqish...*».

Tadqiqot vazifalari bu ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo‘llar va vositalarning tanlanishidir. Vazifalarni maqsadga erishish uchun qilinishi zarur bo‘lgan narsaning tasdiqlanishi shaklida ifodalash eng ma’qul variantidir. Vazifalarning qo‘yilishi tadqiqot maqsadining kichik maqsadlarga bo‘linishiga asoslanadi. Vazifalarning sanab o‘tilishi unchalik murakkab bo‘lmagan vazifalardan eng murakkab, ko‘proq mehnat talab qiladigan vazifalarga tomon yurish tamoyili bo‘yicha quriladi, ularning soni esa tadqiqotning teranligi bilan belgilanadi. Vazifalarni juda sinchiklab ifodalash zarur, chunki keyinchalik ular echimlarining bayoni boblar mazmunini tashkil etadi. Boblar sarlavhalari ayni shu vazifalar ifodalaridan hosil bo‘ladi.

Tadqiqot metodlari. Metod (lotincha «metodos»-«yo‘l») tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so‘zi keng ma’noda muayyan maqsadga erishish yo‘lini, tor ma’noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Kurs ishining tadqiqot bosqichlari quyidagilardan iborat: ma’lumotlarni yig‘ish, xulosalarni jamlash, tadqiqot bo‘yicha miqdoriy tahlil o‘rtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, xulosalarning to‘g‘riligini ta’minlovchi ma’lumotlarni yig‘ish: (buning uchun turli xil metodlar qo‘llaniladi), ta’lim-tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazish mahsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar. Mutaxassislik fanlardan kurs ishi yozishda asosan quyidagi pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalilanadi: adabiyotlar va arxiv

materiallarini o‘rganish, kuzatish, suhbat, so‘rov, test, eksperiment va h.k.

Kirish yakunida kurs ishining tuzilishini ohib berish, ya’ni uning tarkibiy elementlari ro‘yxatini berish maqsadga muvofiqdir.

Kirish qismida tadqiqot muammosi bo‘yicha biron-bir kategorianing mazmuni va ta’rifi bo‘lmasligi kerak, bularning barchasi asosiy qismdagi bob va paragraflarda o‘z aksini kerak. Kirish hajmi 2-3 sahifadan oshmasligi kerak.

Asosiy qism (boblar va paragraflar)

Kurs ishi asosiy qismining boblari va paragraflarida mavzu bo‘yicha tadqiqot jarayonida muallif tomonidan olingan tahliliy material batafsil yoritiladi va kirish qismida ko‘rsatilgan muammoning mohiyati bo‘yicha ilmiy olamdagি bahs-munozaralarни aks ettiradi hamda uni hal etish yo‘llari shakllantiradi. Boblar mazmuni kurs ishi mavzusiga aynan mos kelishi va uni to‘liq ohib berishi lozim. Asosiy qism mazmunini taqdim etish jarayonida muallif har qanday pozitsiyani quruq bayon qilishdan tiyilishi kerak. Har bir bob tadqiqot xulosasi bilan yakunlanishi kerak.

Xulosa

Kurs ishining bu qismi asosiy qismda to‘plangan ilmiy ma’lumotlarning sintezi bo‘lgan yakunlovchi qismi hisoblanadi. Xulosa olingan natijalarni mantiqan izchil taqdim etish va ularning umumiyl maqsad va aniq vazifalarga munosabatlari kirishishda belgilangan va shakllantirilgan holda tuziladi. Mohiyatan xulosa kurs ishining har bir bobи oxirida muallif tuzgan xulosalarning tahlili va sintezidir.

Ayrim hollarda bu mavzu bo‘yicha keyingi tadqiqotlarning yo‘llari, uning shakl va usullari hamda bo‘lajak tadqiqotchilar hal etishi lozim bo‘lgan aniq vazifalarni birinchi navbatda ko‘rsatib o‘tish lozim. Xulosa muallif tomonidan bajarilgan tadqiqot ishining qiymatini oshiradigan amaliy takliflarni o‘z ichiga olishi mumkin. Mazkur takliflar tadqiqot materiallariga asoslangan va kurs ishida muallif tomonidan taqdim etilgan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kurs ishi matnida havola qilingan barcha ilmiy va boshqa nashrlar ro‘yxatidan iborat bo‘lishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati quyidagi uch qismdan iborat bo‘ladi:

- normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar;

- monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar;
- foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati alifbo, sistematik yoki matnda havola qilinishi ketma-ketligi tarzida keltiriladi.

Kurs ishida foydalanilmagan va havola qilinmagan adabiyotlarni ro‘yxatga kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kurs ishida foydalangan materiallar manbai, uning muallifi va nomi to‘liq ko‘rsatilishi lozim.

Ilovalar

Muammoni tushunish uchun muhim bo‘lmagan barcha materiallar ilovaga kiritiladi. Ilovalar matnda ko‘rsatilgan tartibda foydalanilgan adabiyotlardan keyin joylashtiriladi. Ilovalar kurs ishida belgilangan betlar miqdoriga kirmaydi. Ilovalarga odatda turli diagrammalar, grafiklar, jadvallar, sotsiologik tadqiqotlardan olingan ma’lumotlar va boshqalar kiradi. Barcha ilovalar o‘z tartib raqamiga ega bo‘lishi kerak (1-, 2-, 3-, ilova). Har bir ilova yuqori o‘ng burchakdagi "1-ilova" so‘zi bilan yangi varaqdan boshlanishi va uning mazmunini tushuntiruvchi tematik nomga ega bo‘lishi kerak.

10.5. Kurs ishini rasmiylashtirishning umumiyyatli talablari

Kurs ishining umumiyyatli hajmi qo‘l yozmada 35-40 varaq, kompyuterda esa A4 formatda 25-30 betdan kam bo‘lmasligi kerak. Ilovalar ko‘rsatilgan hajmga kirmaydi.

Ishda me’yoriy hujjatlar va orfografik qoidalar bo‘yicha qa-bul qilingan shartli qisqartirishlar kiritishga ruxsat beriladi. Masalan: y.–yil, yy.– yillar, sh.k.– shu kabi, OTM – oliv ta’lim muassasasi, KHK – kasb-hunar kolleji va boshqalar. Lekin mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi faniga oid, umuman, pedagogika sohasiga oid atamalar imkon qadar qisqartirilmasdan yoziladi. Ushbu holatni inobatga olib, kurs ishida qisqartma so‘zlarni kamroq ishlatish tavsiya etiladi.

Kurs ishida ba’zi so‘z birikmlari qayta-qayta kelishi ko‘zda tutilsa, ushbu so‘z birikmalarini birinchi yozilishida to‘liq yozib, so‘z birikmasi tugashi bilan qavs ochib, ushbu so‘z birikmasini qisqartma ko‘rinishini keltirish kerak. So‘ng, ushbu so‘z birikmasi qaytarilsa, qisqartma ko‘rinishini yozish mumkin. Masalan, bilim, ko‘nikma, malaka (BMK), pedagogik texnologiya (PT) va boshqalar.

Kurs ishini yozishda chap tarafida 3 sm, pastda 2 sm, tepada 2 sm, o'ngda 1 sm joy qoldirish tavsiya qilinadi, bunda bir varaqda 28-30 qator ëzuv bo'lishi zarur. Kurs ishining barcha betlari titul betidan oxirgi betigacha tartib bilan raqamlanadi.

Qismlarning nomlanishi bosh harf bilan yoziladi. Qism ichidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Asosiy qism ichidagi savollarni sarlavhalarini yozishda bo'g'in ko'chirishga ruxsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo'yilmaydi. Sarlavhaning tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Har bir sarlavhadan oldin arab raqami bilan raqamlar qo'yiladi va raqamdan so'ng nuqta qo'yiladi. Agarda savol ichida savollar keltirilsa, masalan, birinchi savol ichida bitta savol "1.1.", ikkita savol bo'lsa "1.2." shaklda yoziladi.

Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar boshlanishida raqam qo'yilmaydi. Kurs ishining har bir qismi yangi betdan boshlanadi. Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va asosiy qism savollari bir xilda, varaqning yuqori qismining o'rtasiga yozish tavsiya etiladi.

Illyustratsiya (surat)lar ko'rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Barcha surat (grafik, chizma, diagramma, fotosurat)lar, "rasm" so'zi va bo'lim bo'yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalarda keltirilgan suratlar bundan mustasno. Surat raqami bo'lim va su-rat raqamidan iborat bo'lib, nuqta bilan ajratiladi, masalan "1.2-rasm" va izoh beruvchi yozuv pastga yoziladi.

Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Har bir jadval sarlavhaga ega bo'lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Sarlavahani ostiga chizilmaydi.

Jadvalning sarlavhasi uning yuqorisiga, o'rtaga yozilishi tav-siya etiladi. Jadval grafalarining sarlavhalari bosh harflar bi-lan, sarlavhachalar esa, agar ular sarlavha bilan bitta gapni tash-kil etsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo'lsa, katta harflar bilan boshlanishi kerak. Jadvalning bosh qismini dioga-al bo'yicha bo'lish mumkin emas.

Ko'plab grafalarga ega bo'lgan jadvalni qismlarga bo'lish va bir qismni ikkinchi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi.

Bo'limlar doirasidagi jadvallar izchil, ketma-ket arab ra-qamlari bilan belgilanadi. Masalan: "1-jadval", "2-javdal" va h.

Agar kurs ishida bitta jadval bo'lsa, u raqamlanmaydi va "jadval" so'zi yozilmaydi.

Jadvalning biror qismi boshqa betga o'tganda, "jadval" so'zi va uning tartib raqami bir marta jadvalning birinchi qismi us-ida ko'rsatilib, qolgan qismlar ustiga "davomi" degan so'z yoziladi.

Matndagi manbalarga havola ("snoska")larni satr osti eslatmalarida keltirish lozim. Havola har bir betda arab raqamida ketma-ket tartib bilan keltirilishi lozim. Keyingi betda esa yana boshidan tartib bilan ilova qo'yilishi tavsiya qilinadi.

Havolalarni keltirish tartiblari:

- hujjat va ta'rifni tasdiqlash uchun iqtibos keltirganda;
- zamonaviy adabiyotlar va birlamchi manbalar bo'yicha iqtibos keltirganda;
- adabiyotlardan va boshqa manbalardan biror muammo, xulosa yoki takliflardan iqtibos keltirganda;
- davlat arboblari, olimlar va mutaxassislar fikrlaridan iqtibos keltirganda;
- statistik ma'lumotlar va to'plamlardan iqtibos keltirganda;
- me'yoriy-huquqiy hujatlardan iqtibos keltirganda;
- bir betda iloji boricha 3 tadan ko'p iqtibos keltirish tavsiya qilinmaydi;

10.6. Kurs ishini himoya qilish

Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda kurs ishlarini topshirish va himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi va kurs ishini topshirish va himoya qilish muddatlari kafedra mu-diri tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Talaba tayyor bo'lgan kurs ishini kafedra kotibasiga topshiradi. Kotiba ushbu kurs ishini ro'yxatga olish kitobida ro'yxatdan o'tkazib, kurs ishi titul varag'iga ro'yxatdan o'tkazilgan sana va ro'yxat tartib raqamini yozadi. So'ng ilmiy rahbarga topshiradi.

Ilmiy rahbar kurs ishini ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab bir hafta ichida ko'rib chiqib, uni talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedraga taqdim etadi.

Kurs ishida qo'pol xato-kamchiliklar bo'lmasa, himoyaga tavsiya etiladi. Talaba ko'rsatilgan xato-kamchiliklarni asoslash yoki to'g'rilash uchun kurs ishi himoyasigacha tayyorlanishi kerak.

Agarda kurs ishida xato-kamchiliklar ko'p bo'lsa, ularni bartaraf etgandan so'ng, himoyaga tavsiya etilishi ko'rsatilgan bo'lsa, u xolda

xato-kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ikkinchi marta yana himoyaga tavsiya etish uchun taqriz yoziladi.

Agarda talaba kurs ishini sababsiz o'z vaqtida topshirmasa, kamchiliklar to'liq bartaraf etilmasa, u holda ilmiy rahbar kurs ishi himoyaga qo'yilmaydi deb yozma xulosa beradi.

Kotiba taqriz yozilgan kurs ishini topshirilgan kun bilan ro'yxatdan o'tkazib qo'yishi kerak. Kurs ishlarini ro'yxatga olish kitobida har bir guruhni alohida betga rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish kuni va himoyada qatnashuvchi komissiya tarkibi kafedra majlisida belgilanadi. Kurs ishi himoyasida qatnashuvchi komissiya tarkibi 3-5 ta a'zodan iborat bo'ladi. Kurs ishi himoyasida komissiya tarkibidan kamida 3 ta azo bo'lishi ta-lab etiladi.

Har bir talaba uchun kurs ishi himoyasi 10-15 daqiqa (5-7 daqiqagacha talaba ma'rzasasi, 5-10 daqiqagacha savol-javob) davom etadi. Talaba o'z ma'rzasida mavzu to'g'risida qisqacha tushuncha berishi, ya'ni mavzuning dolzarbliji, muammosi, xulosa va taklif haqida to'xtalishi zarur. Shuningdek, taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar haqida to'xtalishi kerak.

Himoyadan so'ng, komissiya a'zolari yopiq majlis o'tkazib, tala-balarning ishini baholash qarorini qabul qiladi.

Komissiya a'zolari quydagicha qarorni qabul qilishi mumkin:

- kurs ishini himoya qilganligini bildiruvchi baho qo'yilishi;
- himoyaga kiritilmagan bo'lishi;
- «himoyaga kelmadи» bo'lishi;
- himoyada qoniqarsiz baho olgan bo'lishi;
- qayta himoya qilish uchun muddat berilishi;
- boshqa mavzuda qayta ishlab, himoya qilish tavsiya qilinishi.

Uzrli sabab bilan kurs ishini belgilangan muddatda himoya qilmagan talabalarga dekanning ruxsati bilan, komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Mutaxassislik fanlaridan kurs ishi mavzulari bankini shakllantirish haqida ma'lumot bering.
2. Kurs ishiga ilmiy rahbar tanlash tartibini ayting.

3. *Kursi ishi mavzusi qanday tanlanadi?*
4. *Kurs ishining “Kirish” qismida nimalar o‘z aksini topishi kerak?*
5. *Kurs ishining ob’ekti va predmeti qanday aniqlanadi?*
6. *Kurs ishining asosiy qismi qaysi talablar asosida rasmiylashtiriladi?*
7. *Kurs ishining xulosa qismi qanday yoziladi?*
8. *Kurs ishining “Ilovalar” qismi nimalardan iborat bo‘lishi mumkin?*

11-MAVZU. KURS ISHLARIGA TAQRIZ YOZISHGA O‘RGATISH, KURS ISHLARINI BAHOLASH MEZONLARI.

Tayanch iboralari: kurs ishi, mavzu, rahbar, rahbar xulosasi, himoya, Davlat attestatsuyasi komessiyasi, a’lo, yaxshi, qoniqarli baholar, baholash mezonlari.

11.1. Kurs ishlariga taqriz yozish tartibi.

Taqriz lotincha “rezensiya” so‘zidan olingan bo‘lib, “qayta ko‘rib chiqish, xabar qilish, tavsif, baho berish” degan ma’nolarni anglatadi.

Kurs ishiga taqriz-bu tadqiqotning rasmiy yozma sharhidir, uning tahlili va bahosini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot mavzusiga mos keladigan profilda oliy ma’lumotli diplomga ega bo‘lgan mutaxassis tomonidan tuziladi. Taqrizchilar universitet o‘qituvchilari yoki talabaning ilmiy rahbari bo‘lishi mumkin. Agar ish ma’lum bir korxona yoki tashkilot misolida yozilgan bo‘lsa, uni amaliyot uchun foydalanilayotgan usha korxona yoki tashkilotning rahbari tomonidan berilishi mumkin.

Taqrizchi vazifalariga quyidagilar kiradi:

Kurs ishi mavzusining dolzarbligi, ilmiy yangiligi va tugallanganligi to‘g‘risida xulosa taqdim etish;

dastlabki himoyadan kamida 3 kun oldin taqriz taqdim etish;

kasb odob-axloqi qoidalarining buzilishi holatlari (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, yolg‘onssitata keltirish va boshqalar) aniqlangan taqdirda, ularni taqrizda ko‘rsatish.

Kurs ishiga taqrizning umumiy hajmi bir yarim interval bilan Times New Roman uslubining 14-shriftida yozilgan ikki sahifadan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Kurs ishiga taqriz ushbu tuzilishga rioya qilish kerak:

mavzuning dolzarbliji;

kurs ishining qisqacha mazmuni;

ishning ijobiy tomonlari;

ishning kamchiliklari va ularning tahlili;

xulosa.

Mavzuning dolzarbliji. Ushbu bo‘limda muammoni tadqiq qilish zarurligini qo‘llab-quvvatlovchi argumentlar qisqa shaklda keltiriladi.

Namuna

Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta’lim yo’nalishi _____ guruh talabasi
ning “_____” fanidan
“_____” mavzusida yozilgan kurs ishiga

TAQRIZ

1. Mavzuning dolzarbliji: _____

2. Kurs ishi mazmunining vazifaga mosligi (Ha, yo‘q) _____;

3. Foydalanilgan manbalarga havolalar mavjudligi _____;

4. Foydalanilgan adabiyotlar soni _____;

5. Illyustratsiyalar, formulalar va jadvallar rasmiy lashtirish talablariga
muvoifiqligi _____

6. Ishning ijobiy tomonlari _____

7. Kamchiliklar va xatolar

8. Kurs ishida xulosa va takliflarning mavjudligi _____

9. Ishning himoyaga tavsiya etilishi.

Ilmiy rahbar:

Sana:

Kurs ishining qisqacha mazmunida ilmiy ishning asosiy g‘oyasi shakllantirilib, kirish qismida ko‘rsatilgan tadqiqot maqsadi, ishning

mazmuni va har bir bobning mazmuni ochib beriladi, grafik material, jadval, ilova va adabiy manbalar soni ta'minlanadi.

Ishning ijobiliy tomonlarida esa tadqiqot chuqur o'rganilganligi baholanadi: mavzuning nazariy jihatlari etarli darajada o'rganilganmi va empirik material to'planganmi va qayta ishlanganmi. Bu erda tadqiqotning amaliy ahamiyatini ham baholashingiz mumkin: amaliyot bilan munosabatlar va natijalar va natijalarni qo'llash imkoniyati.

Ishning kamchiliklari va ularning tahlili. Taqrizning bu qismida ishda uchraydigan kamchiliklar, orfografik xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi.

Taqrizning xulosa qismida esa, ishning talablarga muvofiqligi haqidagi xulosa va baho berish taklif qilish kerak.

11.2. Kurs ishlarni baholash mezonlari

Kurs uchun kurslarni tayinlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- ishning mustaqil bajarilganligi;
- o'rganilayotgan masala tarixi va nazariyasini bilish;
- axborotlarni yig'ish va qayta ishlash ko'nikmalar;
- ishning axborotga to'yunganligi (foydalilaniladigan ma'lumotlarning kengligi, ularning dolzarbligi);
- manbalar va adabiyotlarni ilmiy tahlil qilish ko'nikmalar;
- ish strukturasining sifati (qo'yilgan maqsadlarga izchilligi, etarliligi);
- savodli yozish;
- dizaynning aniqligi va savodxonligi, ilmiy apparat bilan ishlash qobiliyati;
- ilmiy etika normalariga rioya qilish.

Talabalarning kurs ishlarni baholash "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" Nizomga asosan amalga oshiriladi. Mazkur Nizomga tayangan holda kurs ishlarni baholash mezonini ko'rib chiqamiz:

"A'lo" baho. Kirish qismida mavzuni tanlash uchun asos aniq ko'rsatilgan bo'lsa, ilmiy sohadagi dolzarbligini to'liq ochib berilsa, kurs ishining maqsad va vazifalari aniq belgilab olinsa, kurs ishining asosiy qismida muallif tomonidan tahlil etilgan adabiyotlar ko'pligi,

asosiy atamalar to‘g‘ri tahlil etilganligi, manbalar tanqidiy tahlil qilinganligi, xulosalar mavjudligi, mantiqiy xulosalar va o‘z munosabati aniq ifodalay olganligi, o‘rganilgan nazariyalar va usullarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatidan xabardorligi, ilovada jadvallar, illyustratsiyalar va diagrammalar mavjudligi, terminologiyani etarli darajada qo‘llaganligi, ishni ko‘rsatilgan tartibda rasmiylashtirilganligi, ish hajmining etarliligi, shuningdek himoya vaqtidagi talabaning nutqi ravonligi inobatga olinib, “a’lo” baho bilan baholanadi.

“YAxshi” baho. Kurs ishining kirish qismida ba’zi noaniqlik mavjud bo‘lsa, asosiy qismida tanqidiy to‘liq amalga oshirilmaganligi, terminologiya noto‘g‘ri ishlatilganligi, ishda kichik orfografik va stelistik xatolar mavjudligi, adabiyotlar va ilovalarni rasmiylashtirishda kichik noaniqliklar borligi, himoya jarayonidagi talabaning nutqi o‘rta darajada ekanligini inobatga olib, “yaxshi” baho bilan baholanadi.

“Qoniqarli” baho: kurs ishi kirish qismida faqat mavzu tanlash va dolzarbligini oqlashga o‘ringanligi, aniq tahriri yo‘qligi, vazifalar va maqsadlar noaniq belgilanganligi, asosiy qismida boshqalarning g‘oyalarini qayta takror qilinganligi, taqdimot mantig‘i buzilganligi, muallif ijodiy yondashmaganligi, ilovada bir nechta qo‘pol xatolar mavjudligi, ilmiy atamalar ko‘pincha noto‘g‘ri ishlatilganligi, plagiat borligi, himoyada nutqi sayozligini ko‘zatilsa talaba “qoniqarli” baholanadi.

“Qoniqarsiz” baho. Bunday kurs ishini baholashda uning kamchiliklari darhol ko‘rinadi. Kurs ishi kirish qismida mavzuni asoslash mavjud emas, mavzuni yangiligi ko‘rsatilmagan, ishning maqsad va vazifalari ham aniqlanmagan, foydalanilgan adabiyotlarning kamligi, mavzu doirasida tanqidiy tushuncha ham, o‘zini fikri ham mavjud emas. Umumlashma yoki xulosalar yo‘q. Ish xulosalanmagan. Hech qanday ilova yo‘q, yoki etarli emas. Asarda ma’lumotnomalarning yo‘qligi, plagiatligi, uslubi saqlanmagan va terminologiyadan foydalanish kamligi ko‘rsatilgan. Rasmiylashtirishda bir qator kamchiliklar mavjud: bibliografiyada ko‘plab xatolar mavjud. butun ishning hajmi belgilangan me’yordan kam va talabaning himoya vaqtida mavzuni yorita olmasligiga qarab “qoniqarsiz” baholanadi. Kurs ishini o‘z vaqtida asosli sababsiz topshira olmagan talaba “qoniqarsiz” baholanadi. Kurs ishi uchun

qoniqarsiz baho olgan talaba kurs ishini belgilangan muddatda qayta topshirishi mumkin.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

- 1. Kurs ishiga ilmiy rahbarning xulosasi qanday yoziladi?*
- 2. Taqriz nima?*
- 3. Mutaxassislik fanilaridan yozilgan kurs ishiga kim taqriz beradi?*
- 4. Kurs ishiga berilgan taqrizning mazmuni nimalardan iborat bo‘lishi kerak?*
- 5. Mustaqil ravishda mutaxassislik fanilari bo‘yicha yozilgan kurs ishlariga taqriz yozing.*
- 6. Kurs ishlarini baholash mezonini tushintiring.*
- 7. Kurs ishi himoyasi bo‘yicha bayonnomaga bilan tanishib chiqing.*
- 8. Kurs ishiga “a’lo”, “yaxshi” va “qoniqarli” baholarini quyish mezonlarini tushintiring.*

5-MODUL. BITIRUV MALAKAVIY ISHLARIGA RAHBARLIK QILISH METODIKASI BITIRUV MALAKAVIY ISHLARIGA RAHBARLIK QILISHNING TASHKILIY VA ILMIY-METODIK TA'MINOTI

12-MAVZU. BITIRUV MALAKAVIY ISHLARIGA VA ULARNING MAVZULARINI TANLASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Tayanch iboralar: Bitiruv malakaviy ish, mavzu tanlash, rahbarlik qilish, mavzu dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishning kirish qismi, bitiruv malakaviy ishning asosiy qismi, xulosa, adabiyotlardan foydalanish

12.1. Bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan umumiy talablar

Zamonaviy kadr keng qamrovli bilimlarga ega bo'lishi, nazariy bilimlarni amaliy vazifalar bilan bog'lay olishi va o'z tanlagan sohasi bo'yicha haqiqiy bilimdon bo'lishi lozim. Bu maqsadga erishish talabidan o'z ustida tinmay ishlashni, nazariy va amaliy bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishni, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, uni oqilona tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarini chuqr o'zlashtirishni talab qiladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun talablaridan kelib chiqib, har tomonlama barkamol va bilimdon kadrlarni tayyorlashda ta'limning ko'p qirrali va turli xil usullaridan (ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlar va seminarlar o'tkazish, ishbilarmonlik o'yinlari va keyslar echish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng qo'llash, talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyoti o'tash, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari yozish) unumli foydalanish talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishi – oliy o'quv yurti bakalavriatida talabalarni o'qitishnining yakuniy bosqichidir. Bitiruv malakaviy ishida talabaning oliy o'quv yurtida o'qish davomida to'plagan barcha nazariy va amaliy bilimlari yuzaga chiqadi, talabaning nazariy bilimlar bilan qurollanish darajasi, uning olgan bilimlari va

ko‘nikmalarini ilmiy-ishlab chiqarish vazifalarini echishga qay darajada qo‘llay olishi namoyon bo‘ladi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish talabidan universitetda olgan nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishni talab etadi, talabaning o‘qish davomida olgan bilimlarini umumlashtirishga, chuqurlashtirishga va mustahkamlashga, ularni amaliyotga qo‘llashga imkon beradi.

Bitiruv malakaviy ishida aniq bir amaliy vazifani yechish vazifasi qo‘yilishi muhimdir. Bitiruv malakaviy ishida bir yoki bir-biri bilan bog‘langan bir nechta masalalarni chuqur tadqiq etish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish talabaning muammoni mustaqil ko‘ra bilishi va hal eta olishga qodirligini ko‘rsatadi. Bitiruv malakaviy ishining sifati uning ilmiyligi, tanlangan mavzuning dolzarbligi, talabaning mustaqil ishga ijodiy yondoshish ko‘nikmalarini namoyon qila olishi bilan baholanadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarilish darjasи, sifat va undan ko‘rib chiqilgan masalalarning qanday darajada o‘zlashtirilganligiga ko‘ra Davlat Attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishi muallifiga tegishli ixtisoslikni berish to‘g‘risidagi qaror qabul qiladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida talabalar quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

- voqelikni o‘rganish va anglashning ilmiy usullaridan boxabar bo‘lish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mohiyati va mazmunini chuqur anglash, davlatning ta’lim siyosati tamoyillari bilan yaqindan tanishish;
- ta’lim va tarbiya borasida qabul qilingan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganib chiqish;
- ilmiy adabiyotlar va boshqa manbalar orqali o‘rganilayotgan masalaning mohiyatini chuqur anglab etish;
- mustaqil ilmiy-tadqiqotlar olib borish uslubiyoti bilan tanishish;
- aniq bir muassasa misolida mavzuni ochib berishga xizmat qiladigan barcha ma’lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishslash;
- ishda ilmiy-tadqiqot muassasalari tavsiyalari, ilg‘or tajribalar, mahalliy va xorijiy adabiyotlardan unumli foydalanish;
- ishning ilmiy saviyasi yuqori bo‘lishiga, mavzuning etarlicha dolzarbligiga e’tibor berish;

- o‘rganilayotgan masalani aniq ochib berish, ishda ko‘chirmachilikka, keraksiz va ortiqcha ma’lumotlardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik;

- boblar va bo‘limlarning mantiqan bog‘lanishiga e’tibor berish, fikrlarni qisqacha bayon etish orqali ishning hajmi ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- masalani aniq dalillar va raqamlar yordamida tahlil etish, o‘z o‘rnida ishning mazmunidan kelib chiqadigan tavsiyalar va xulosalar bera olish;

- tavsiya etilayotgan echimlarning asoslanganligiga va samaradorligini baholash mezonlari bo‘lishiga e’tibor berish, ishning faqatgina faktlarni quruq bayon etishdan iborat bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- ishda ko‘rgazmali vositalardan, ya’ni jadvallar, chizmalar, diagrammalar va grafiklardan unumli foydalanish;

- mavzu ustida maqsadga yo‘naltirilgan va tizimga solingan ish olib borish, bitiruv malakaviy ishini bajarish muddatlariga qat’iy rioya etish.

Bitiruv malakaviy ishida taklif va muloxazalar, xulosalar va amalga oshirilgan barcha hisob-kitoblarning to‘g‘riligi va sifati uchun talabalar ma’sul hisoblanadilar.

12.2. Bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalari

Bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan bajariladigan ilmiy izlanish yakuni bo‘lib, unda talaba o‘qish davri mobaynida olgan nazariy bilimlari, amaliy darslarni qanday darajada o‘zlashtirganligini, shu bilan birgalikda o‘z ixtisosligi bo‘yicha mehnat faoliyat uchun tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Bitiruv malakaviy ishi bakalavriatning mazkur yo‘nalishiga davlat ta’lim standartlarida qo‘yilgan talablarga, ta’lim va tarbiyaning rivojlanish istiqbollariga va mamlakatimiz hukumatining ta’lim sohasida amalga oshiriliayotgan islohotlar mazmuniga mos kelishi maqsadga muvofiq.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishdan ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

-talabalarning ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarni umumlashtirish, tizimga keltirish, mustahkamlash va

kengaytirish, olingan bilimlarni aniq ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy va biznes vazifalarini hal etishda qo'llash;

- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, echim talab etadigan muammo va masalalarini tadqiq etish usullarini egallahsga va tadqiqot o'tkazishga imkon yaratish;

- ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga etkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lган ma'suliyatni his etishga o'rgatish;

- zamonaviy talim, tarbiya, iqtisodiyot, texnika va madaniyatining rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini aniqlash.

12.3. Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusini tanlash

Bitiruv malakaviy ishlar muvaffaqiyatini aniqlaydigan muhim va mas'uliyatli vazifalardan biri – tadqiqot mavzusini tanlashdir. Mavzularga qo'yiladigan umumiy talab – ularning dolzarbligi, ishlab chiqarish ehtiyojlari va muammolari bilan bog'liqligidir. Ular hozirgi zamon talablari va sanoatni rivojlanish tendensiyalari istiqbollaridan kelib chiqishi zarur.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi keng qamrovli nazariy va amaliy xususiyatga ega bo'lishi, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning eng muhim vazifalarini qamrab olishi va ilmiy-ishlab chiqarish yo'nalishida tadqiqotlar olib borishni nazarda tutishi lozim. Bitiruv malakaviy ish mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, biznes, ishlab chiqarish, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Mavzuning dolzarbligini asoslashda ushbu masala ustida tadqiqotlar olib borish nima uchun zarurligini, ishlab chiqarish bilan bog'liq qanday muammolar bunga sabab bo'lganini va tadqiqot yakunlari bo'yicha erishilajak natijalar muammoni echishga qanday ta'sir ko'rsatishini aniq bayon etib berish lozim.

Mavzu tanlashda ayrim talabalarning istiqbolda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga layoqati borligini nazarda tutgan holda bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzu kelgusida magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlashda ham davom ettirilishi maqsad qilib qo'yilishi mumkin.

Shu bilan birga tavsiya qilinayotgan va tanlangan mavzuning o‘quv jarayonida foydalanishini ham nazarda tutmoq lozim. Buning uchun mavzuning o‘qilayotgan ma’ruza yoki olib borilayotgan amaliy mashg‘ulot dasturida o‘z ifodasini topishiga erishish lozim.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ixtisoslashgan kafedralar tomonidan belgilanadi va universitetning ilmiy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi, mavzular har o‘quv yilida 20-30 foizga yangilanishi tavsiya etiladi.

Ishlab chiqarish korxonalari buyurtmasi bo‘yicha bajariladigan bitiruv malakaviy ishlar alohida amaliy ahamiyatga egadir. Ayniqsa muayyan ishlab chiqarish korxonasining moliyaviy ko‘magida tafsil olayotgan talabalar bunday yondoshuvdan manfaatdor bo‘lishlari kerak. Bu ularga keyinchalik ishga boradigan korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy holatini chuqurroq tadqiq etishga va muammo va ehtiyojlarini aniqlashga imkon beradi. Talaba yoki talabaning o‘qishi uchun to‘lov-kontarkt mablag‘ini to‘lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan malakaviy ishlar mavzusi bo‘yicha o‘z variantlarini taklif etishlari mumkin.

Bitiruvchi talabaga bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlash huquqi beriladi. Mavzuni tanlash jarayonida talabalarga ish rahbari yordam berishi maqsadga muvofiq. Mavzuni tanlash jarayonida rahbar tavsiya etilayotgan mavzular ro‘yxatini berish bilan cheklanib qolmay, balki tanlanadigan mavzuni mohiyati va ochib berish imkoniyatlari bilan hamda ma’lumotlar manbalari bilan talabani tanishtirishi maqsadga muvofiq.

Rahbar va talaba tanlagan mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar etarli bo‘lgani bilan talaba amaliyot o‘taydigan muassasada ushbu mavzuni yoritish bo‘yicha kerakli ma’lumotlar bo‘lishiga ham e’tiborni qaratish lozim. SHu sababdan bitiruv malakaviy ish mavzusi talabaning bitiruv oldi amaliyoti o‘tash uchun boradigan korxona aniq bo‘lgandan so‘ng tanlangani ma’qul.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlashda rahbar va talaba quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

1. Amaliyot o‘tish mo‘ljallangan muassasada ilmiy izlanish olib borish uchun imkoniyatlari mavjudligi.
2. Bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida mavzuni chuqr o‘rganish va tajriba oshirish imkoniyati mavjudligi.
3. Talabaning ilmiy-amaliy izlanishga qobiliyatligi.

4. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma'lumotlar, yo'riqnomalar bilan ta'minlanganlik darajasi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi. Bitiruv malakaviy ish mavzusi va kafedra mudirining taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

12.4. Bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish

Bitiruv malakaviy ishlarga rahbarlar oliy o'quv yurtining professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari, boshqa muassasa va korxonalarning yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Ilmiy rahbar tanlash talabaning keyingi ilmiy faoliyatini davom zttirishiga ham katta samara berishini maqsad qilib qo'yish kerak. SHu munosabat bilan ilmiy rahbar (ishlab chiqarishdan maslahatchi) tanlashda har bir professor-o'qituvchining ilmiy darajasi, unvoni, faoliyati va salohiyati, pedagogik tajribasi, oldingi uning raxbarligida bajarilgan ilmiy ishlar natijalari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

- topshiriq beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejorashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsif etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda maslahatlar o'tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan malkaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularining qaytarilishiga yoki ko'chirilishiga yo'l qo'yaydi.

Bitiruv malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan, kafedra malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilarlarni taklif etishi mumkin.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra malakaviy ishga qo'yiladigan majburiy talablar hajmini belgilangan holda malakaviy ishni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqadi va talabalarni ta'minlaydi.

12.5. Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi

Malakaviy ish, odatda, talabaning bitiruv oldi amaliyoti o‘tashi davomida bajariladi. Malakaviy ishning bajarilishi bo‘yicha talabaning hisobot berish muddatlarini o‘quv-uslubiy bo‘limi nazorat etadi. Mavzu tanlangandan so‘ng talaba shu mavzuni yozishi haqida ariza va topshiriq varaqasini to‘ldiradi.

Talabalar bitiruv oldi malakaviy amaliyotga chiqishdan oldin rahbar bilan birgalikda bitiruv malakaviy ishning rejasini tuzishi talab etiladi. Bitiruv malakaviy ishi rejasi talaba va rahbar bilan maslahatlashib kelishilgan holda tuziladi. Reja mukammal va mufassal holda tuzilib, tadqiq etilishi ko‘zda tutilgan barcha boblar va paragraflarni qamrab olishi kerak.

Ish rahbari malakaviy ishning rejasiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to‘plash bo‘yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o‘tkazish davrida ham) topshiriq, to‘ldiriladigan jadvallar maketini beradi. Talaba amaliyotga jo‘nashdan oldin mavzuga oid barcha nazariy materiallarni yig‘ishi va tizimga solishi lozim. Bu unga amaliyot davomida tadqiqotni olib borish yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy materiallari talabalar tomonidan bajarilgan bitiruv oldi amaliyoti va bitiruv malakaviy ishini bajarish davrida to‘plangan ma’lumotlari va nazariy bilimlari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishlari so‘nggi uch yillik ma’lumotlari asosida yozilishi maqsadga muvofikdir. Eskirgan yoki mavhum ma’lumotlardan foydalanish taqiqlanadi.

Mavzuga oid amaliy materiallarni va statistik (hisobot) ma’lumotlarini to‘plashda ularning mavzuni yoritishga mos kelishiga va chuqur tahlil etish uchun etarlicha bo‘lishiga erishish kerak. Korxonaning ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlarini to‘liq o‘rganmay va atroflicha tahlil etmasdan turib, muammoni echimi bo‘yicha tegishli xulosalar va takliflar tayyorlash mumkin emas.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda zaruriy manbalar quyidagilar bo‘lishi lozim:

- bitiruv malakaviy ishining barcha boblarini yoritishda foydalanilgan ilmiy adabiyotlar;

- respublika Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar hujjatlari va maxsus adabiyotlar;
- nizomlar va yo‘riqnomalar;
- amaliyot o‘talgan muassasaning yillik reja ko‘rsatkichlari, hisobot ma’lumotlari;
- e’lon qilingan statistik ma’lumotlar;
- mavzu bo‘yicha ilmiy-tadqiqot institutlarining materiallari;
- oynama, ro‘znama va boshqa matbuot nashrlari.

12. 6. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va mazmunini yoritish qoidalari.

Ixtisoslashgan kafedra malakaviy ishga qo‘yiladigan majburiy talablarni belgilaydi va bu talablarni talabalar e’tiboriga etkazadi. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida boblar va savollar bo‘yicha ayrim o‘zgarishlar kiritilishi mumkin. Bitiruv malakaviy ishi 7 ming so‘z hajmida belgilanadi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘ladi. Har bir bobda 2-3 ta paragraflar bo‘lishi maqsadga muvofiq. Har bir malakaviy bitiruv ishini mazmuniga ko‘ra boblar, bo‘limlar bir-biridan farq qiladi. Malakaviy bitiruv ishini umumiylajmi hajmi qo‘lyozmada 80-85 betdan oshmasligi tavsiya etiladi.

Har bir bob mavzuning mohiyatini to‘liq ochib beradigan va mantiqan ketma-ketlikka ega bo‘lgan paragraflarga bo‘linadi. Har bir bobni o‘rganilayotgan muammoning echimini ochib beruvchi asosiy natijalardan iborat xulosalar bilan yakunlash tavsiya etiladi.

Tushuntirish qismi (annotatsiya) malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, chizma va boshqa, shuningdek, zaruriy qo‘sishchasi axborotlar yozilgan disketlar ilova etilishi mumkin. Tushuntirish qismi 2-3 betdan oshmaydigan holda rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablari va mamlakat ta’lim siyosatining istiqbolli yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda tanlangan mavzuning dolzarbliji, ilmiy va amaliy ahamiyati, mavzuning o‘rganilganlik darjasи, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va

predmeti, ilmiy yangiligi va ishning tarkibiy tuzilishi mazmunan yoritiladi.

1-jadval

Bitiruv malakaviy ishlar tarkibi

Malakaviy ish tarkibi	Yoritiladigan asosiy masalalar	Tavsiya etilayotgan hajmi, bet
Mundarija		1
Kirish	Mavzuning dolzarbligi, o‘rganilganlik darjasи, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob’ekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va ishning tarkibiy tuzilish	4-5
I bob	Mavzuning nazariy asoslari	18-20
II bob	Mavzuning hozirgi holati tahlili	20-25
III bob	Mavzu bo‘yicha ilgari surilayotgan asosiy g‘oyalar, tajribalar va mavjud tizimni takomillashtirish yo‘nalishlari	20-25
Xulosa	Tadqiqot mavzusi yakunlari bo‘yicha xulosalar va takliflar	4-5
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, mavzu bo‘yicha maxsus adabiyotlar, ilmiy ishlar, maqolalar, yo‘riqnomalar, statistik ma’lumotlar manbalari	2-3
Ilovalar	Mavzuga tegishli bo‘lgan har qanday qo‘sishimcha statistik ma’lumotlar, jadvallar, chizmalar, diagrammalar, me’yoriy hujjatlardan ko‘chirmalar va boshqalar	cheklanmag an

Maqsad va vazifalar bitiruv malakaviy ishining asosiy mazmunini aks ettirish va qanday vazifalarni echishga yo‘naltirilganini ko‘rsatib berishi lozim.

Birinchi bobda bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslari bayon etilib, tadqiqotning ilmiy va uslubiy jihatlariga qaratiladi va tadqiqot olib borilgan ob'ektning tasnifini o'zida aks ettirishi lozim. Bunda hozirgi davrda bu mavzuga bo'lgan nazariy yondoshuvlar, masalaning mohiyati, muammoni echishning asosiy omillari va talabaning ilmiy, nazariy qarashlariga bo'lgan munosabati bildiriladi.

Mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, alohida paragrafda mavzuga oid muayyan uslubiy masalalarni ham ko'rib chiqish foydadan xoli emas. Albatta, talaba uchun mavzuning nazariy va uslubiy jihatlarini ishlab chiqish og'ir. Ammo, mavzuda ko'rib chiqilayotgan masalalarni echimiga oid ilmiy-uslubiy yondoshuvlar va ularning samaradorligini baholash mezonlariga umumiy baho berib ketish mumkin.

Ikkinchi bob odatda muayyan tadqiqot ob'ekti bo'yicha o'rganilayotgan muammoning umumiyligi holatini tahlil etishga bag'ishlanadi. O'rganilayotgan ob'ektning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil etish etarlicha chuqur va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, masalaga oid haqiqiy ma'lumotlarga asoslanishi lozim.

Bu bobda keltirilgan tahlil ma'lumotlari, chiqarilgan xulosalar keyingi bobda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Tadqiqot olib borilgan ob'ekt misolida ilmiy mavzu tahliliy-hisoblar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar va chizmalar orqali ochib beriladi. Har bir jadval, diagramma, chizma, grafik so'ngida uning tahlili beriladi.

Uchinchi bobda muallif tahlillar asosida mavzuni takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar, uslubiy yondoshuvlar ishlab chiqadi, ilgari surilayotgan taklif va g'oyalar ham ilmiy ham amaliy jihatdan asoslanadi.

Uchinchi bob ustida ishslash talabandan chuqur tayyorgarlikni talab etadi. Buning uchun ilmiy adabiyotlar va amaliy xarakterdagi ma'lumotlarning etarli bo'lishi kifoya qilmaydi. Ushbu bobni tayyorlashda talabaning ilmiy-tadqiqotlar olib borishga qodirligi, muammoni chuqur tahlil eta olishi va murakkab ishlab chiqarish sharoitlarida to'g'ri qarorlar qabul qila olishi namoyon bo'ladi.

Talaba fan-texnika va ishlab chiqarishning oxirgi yutuqlaridan boxabar bo'lgan, zaruriy me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlangan, ishlab chiqarishni tashkil etish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash bo'yicha

tavsiyalar bilan quollangan, ta’lim muassasalar bilan yaqindan tanish bo‘lsagina ilmiy asoslangan xulosa va takliflar bera olishi mumkin.

Xulosa va takliflar bitiruv malakaviy ishining mazmuni bayon etilishini yakunlaydi. Unda talaba olib borgan ilmiy izlanishlarning natijalari umumlashtiriladi. Xulosa va takliflar aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon etilishi, faqatgina mavzuga oid masalalarni o‘zida aks ettirishi lozim.

Xulosa va takliflar bitiruv malakaviy ishining kirish qismida yoritilgan maqsad va vazifalarga to‘liq mos kelishi hamda ish oldiga qo‘yilgan vazifalar qanday echilganini ko‘rsatishi lozim. Takliflar aniq natjalarga, tajribalarga asoslangan holda ko‘rsatib berilishi, zaruriy hisob-kitoblar va ma’lumotlar bilan mustahkamlanishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro‘yxatini rasmiy lashtirish. Adabiyotlar ro‘yxati bitiruv malakaviy ishining oxirgi qismida keltiriladi va adabiyotlar qa’iy tarzda quyidagi tartibda berilishi lozim:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari.
2. Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari.
3. O‘zbekiston Respublikasini Prezidentining asarlari.
4. Ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o‘quv ko‘rsatmalar va boshqa adabiyotlar (alfavit tartibiga ko‘ra).
5. Yo‘riqnomalar, turli me’yoriy hujjatlar, akt materiallari va boshqalar.
6. Statistik to‘plam materiallari, korxona hujjatlari va materiallari.
7. Ilmiy maqolalar.
8. Internet saytlari.

Bitiruv malakaviy ishlarida so‘nggi paytlarda universitet kutubxonasiga xorijdan keltirilgan va ayniqla internet orqali olingan eng yangi adabiyotlardan foydalanganligi ko‘rsatib o‘tilishi shart.

Adabiyotlar ro‘yxatida bitiruv malakaviy ishi jarayonida foydalananilgan barcha ma’lumotlarning manbalari ko‘rsatilishi lozim.

Zarur hollarda adabiyotlar keltirilgan ssitatarning manbasi albatta o‘sha betda ko‘rsatilishi, shu jumladan jadval yoki sxema manbasi ham o‘sha betda ko‘rsatib borilishi lozim. Agar jadval yoki chizma muallif tomonidan tayyorlangan bo‘lsa, qaysi manbadan foydalanib muallif tayyorlanganligi ham ta’kidlab o‘tiladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajaruvchi talaba ish jarayonida ko‘rib chiqqan lekin bitiruv malakaviy ishi uchun ishlatilmagan, maxsus materiallar yoki faqat xizmat bo‘yicha foydalanish uchun chop etilgan materiallar ro‘yxati ko‘rsatilmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

- muallifning ismi-sharifi, adabiyotning nomi, chop etilgan manzili, nashriyotdan chiqqan yili va foydalanilgan saxifalari.
- ro‘znama va oynomalardagi maqolalar ham adabiyotlar singari rasmiylashtirilib, unda muallifning ismi-sharifi, ro‘znama yoki oynamaning nomi, raqami, sanasi va foydalanilgan betlari ko‘rsatiladi.

Bitiruv malakaviy ishlarda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kamida 20 manbani tashkil etishi kerak. Bitiruv malakaviy ish bo‘yicha foydalanilgan manbalar ro‘yxati talab asosida beriladi. Foydalanilgan adabiyotlarga murojaat etilgan joylari varag‘ning pastki qismida ko‘rsatib o‘tilishi shart. Bitiruv malakaviy ish bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlarning barchasiga ishda ishora bo‘lishi shart. Bitiruv malakaviy ishda foydalanilmagan manbalarni ro‘yxatga kiritish qat’iyan taqiqlanadi. Ilmiy ishlarda (shu jumladan, BMI va MDda) ko‘chirmachilik va ilmiylikni soxtalashtirishni oldini olish uchun har bir adabiyot manbalari (risolalar, darsliklar, maqolalar, BMI, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari) ish oxirida ro‘yxati keltiriladi, matnda ulardan olingan har bir jumla oxirida katta qavs ichida ro‘yxatdagi qator sanog‘i va beti [--bet] yoki faqat qator sanog‘i [---] yoziladi.

Ilovalar qismida bitiruv malakaviy ishining ishining ob’ekti bo‘yicha olingan umumiy amaliy va axborot ma’lumotlari beriladi.

12.7. Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish

BMI ni talaba mustaqil o‘zi bajargan bo‘lishi shart, agarda BMI ni talaba o‘zi yozmaganligi aniqlansa, talabaga nisbatan keskin choralar qo‘llaniladi.

Umumiy qabul qilingan belgilardan tashqari boshqa so‘zlarni qisqartirib yozilishiga stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmasligi va bitiruv malakaviy ishi mavzusini yozilishi adabiy tilda bo‘lishiga ham ahamiyat berishi kerak. Bitiruv malakaviy ishini matni aniq, erkin o‘qiladigan husnixatda standart yozuv qog‘ozining bir tomonida yoziladi, Qog‘ozning chap qismidan 3 sm., yuqori qismidan 2 sm., o‘ng tomonidan 1,5 sm., past qismidan 2 sm. joy qoldiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi qo‘lyozmada qog‘ozning bir tomonida bajarilishi shart.

Bitiruv malakaviy ishi quyidagicha rasmiylashtiriladi.

▪ dastlab titul varag‘i, mundarija, kirish, 1, 2 va 3 boblar, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, keyin oxirida ilovalar beriladi;

▪ bitiruv malakaviy ishi rahbarining taqrizi, amaliyot joyidan taqriz, o‘quv jarayoniga va ishlab chiqarishga qo‘llanilishi bo‘yicha dalolatnomalar, kafedrada dastlabki himoyadan o‘tganligi bayonnomasi, bitiruv malakaviy ishi topshirig‘i muqovaning ichki qismidagi konvertga solinadi;

▪ titul varag‘i kompyuterda yoziladi;

▪ mundarija alohida sahifada ko‘rsatilishi, unda boblar, paragraflar qaysi sahifadan qaysi sahifagachaligi ham qayd etiladi, boblar va paragraflar ketma-ketligi bilan beriladi;

▪ diagrammalar, chizma va jadvallardan himoya paytida foydalanish mumkin, faqat chizma va jadvallardan katta formatga ko‘chiriladi;

Bitiruv malakaviy ishini varaqlari titul varag‘idan boshlab hisoblanadi. Ammo titul varag‘i va mundarijaga raqam qo‘yilmay, kirishdan boshlab 3 raqami bilan boshlanadi.

Tayyorlangan va himoyaga taqdim etilayotgan bitiruv malakaviy ishlarda muallif tomonidan o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha chuqur va tanqidiy bibliografik tahlil bo‘lishi lozim. Sifatli bibliografik tahlil qilish maqsadida unda boshqa mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, tahliliy materiallar, hisobotlar, maqolalar, INTERNETdan olingan ma’lumotlar va h.k.lar o‘rganib chiqilgan va ularga muallifning munosabati aks ettirilgan bo‘lishi lozim.

Bibliografik tahlilda keltirilgan adabiyotlar tanlangan mavzuga bevosita daxldor va oxirgi 5-10 yillar davomida nashr etilgan bo‘lishi kerak. Bitiruv malakaviy ishi yozishda bibliografik tahlilda kamida 20 ta adabiyotlar manbaasidan foydalanish shart.

BMIda ko‘chirmachilik va ilmiylikni soxtalashtirishni oldini olish maqsadida har bir adabiyot manbalarining (risolalar, darsliklar, maqolalar, BMI, magistrlik, nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalari va h.k.) ish oxirida ro‘yxati keltiriladi, matnda ulardan olingan har bir jumla oxirida katta qavs ichiga ro‘yxatdagi qator

sanog‘i va beti [---] yoki matnda faqat qator sanog‘i [----] yozib ko‘rsatiladi.

BMIlar tayyorlashda faqat rasmiy tan olingan statistik ma’lumotlardan foydalanish mumkin. SHu bilan birga so‘rov natijalari, turli tashkilot hisob-kitoblari va ekspert ma’lumotlaridan ham foydalanish tavsiya etiladi. Barcha qo‘llanilgan statistik va boshqa ma’lumotlarning aniq manbaalari ko‘rsatilishi shart va ularning barchasi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida o‘z o‘rnini topishi maqsadga muvofiqdir. Muallif tomonidan shaxsan tayyorlangan hamda ishda keltirilgan hisob-kitoblar va ma’lumotlar alohida ko‘rsatilishi kerak.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Bitiruv malakaviy ishiga qo‘yiladigan umumiy talablarni tushuntiring.
2. Bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalarini ayting.
3. Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusini tanlash tarbini izohlang.
4. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlashda rahbar va talaba qaysi jihatlarga e’tibor berishi lozim?
5. Bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbar tanlash tartibini tushuntiring.
6. Bitiruv malakaviy ishning tarkibi qaysi qismlardan iborat bo‘ladi?
7. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda zaruriy manbalar nimalardan iborat bo‘lishi mumkin?
8. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va mazmunini yoritish qoidalari haqida ma’lumot bering.
9. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida qaysi ma’lumotlar joy olishi lozim?
10. Bitiruv malakaviy ishlarini amaliyotga hamda o‘quv jarayonlariga qo‘llanilishini izohlang.
11. Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish tartibini tushuntiring.

13-MAVZU. BITIRUV MALAKAVIY ISHLARGA RAHBAR XULOSASINI TAYYORLASH, BITIRUV MALAKAVIY ISHLARIGA TAQRIZ TAYYORLASH VA ULARNI BAHOLASH.

Tayanch iboralar: bitiruv malakaviy ish, rahbarlik qilish, rahbar xulosasi, ichki taqriz, tashqi taqriz, dastlabki himoya, baholash mezoni, DAK xulosasi.

13.1. Bitiruv malakaviy ishlarga rahbar xulosasi va taqrizlarni tayyorlash. BMIni dastlabki himoyaga kiritish

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi himoya kunidan 5 kun avval jildlanmagan holda ilmiy rahbarga taqdim etiladi. Rahbar 5 kun ichida malakaviy ishni o‘rganib chiqishi va unga o‘z xulosasini berishi shart.

Xulosani yozish bo‘yicha ilmiy rahbar uchun eslatma

Ilmiy rahbar xulosasi tasdiqlangan shalkda tuzilib, ilmiy rahbar imzosi hamda fakulitet yoki universitet muhri bilan tasdiqlanadi.

Xulosada quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

- mavzuning dolzarbligi;
- ishning mundarijasi tasdiqlangan mavzu va topshiriqqa muvofiqligi;
- qarorning sifati, asoslanganligi va to‘g‘riliqi hamda qo‘yilgan masalaning to‘liq o‘rganilganlik darajasi;
- bitiruvchining tashabbuskorligi va mustaqilligi;
- topshiriqning to‘liq bajarilgan diqqatga sazovor bandini ko‘rsatish;
- ishda o‘ziga xos, original qarorlarning mavjudligi;
- ishning to‘liq va muayyan qismlaridagi ijobiy va salbiy jihatlari;
- bitiruvchining mavzu bo‘yicha bilimi va ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati;
- izoh va grafiklarning rasmiylashtirilish sifati;
- loyihada standartlar talablariga rioya qilinganligi;
- ish natijasining amaliyotga qo‘llanilishi mumkinligi darajasi;
- BMIni himoyaga tavsiya etish mumkinligi;

- ishning sifati yuzasidan umumiy baho (ish yuqori, o‘rtalik, quyi darajada bajarilgan);
- 4 balli tizimda loyihani baholash (a’lo, yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz).

Ilmiy rahbar malakaviy ishning talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so‘ng, ishni o‘z taqrizi, tashqi taqriz, BMIga berilgan topshiriq, annotatsiya, o‘quv jarayoni va amaliyotga joriy etish dalolatnomalari bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning boshqa ijobjiy (yoki salbiy) tomonlari tavsiflanadi.

Ilmiy rahbar bitiruv malakaviy ish belgilangan talablarga javob bermasligiga ishonch hosil qilsa va talaba kamchiliklarni bartaraf etishdan bo‘yin tovlasa ishni dastlabki himoyaga tavsiya etmasligi ko‘rsatilgan salbiy taqriz berishi ham mumkin.

Kafedra mudiri taqdim etilgan materiallar assosida, malakaviy ishni talaba tomonidan dastlabki himoyaga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar, kafedra mudiri talabaning malakaviy ishini dastlabki himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi.

Kafedra mudiri bitiruv malakaviy ishlar dastlabki himoyasini qabul qiluvchi maxsus komissiya tarkibini kafedra majlisiga taqdim etadi va majlis tasdiqlagan komissiya dastlabki himoyani o‘tkazadi.

Dastlabki himoyani qabul qilgan komissiya xulosasi bayonnomma (protokol) bilan rasmiy lashtiriladi (bayonnomma shakli ilova qilinmoqda). Bayonnomada dastlabki himoyaga kiritilgan talabaning ismi-sharifi, BMIning mavzusi, uning asosiy natijalari va kamchiliklari, himoyada talabaga berilgan savollar, savollarga talaba bergen javoblarning natijalari qayd etiladi. Komissiya bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi natijalari assosida uni DAKda himoya qilishga kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qiladi.

13.2. Bitiruv malakaviy ishni DAK huzurida himoya qilish.

Bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari.

Dastlabki himoyadan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruv malakaviy ishlar tashqi va ilmiy rahbar taqrizlari, bitiruv malakaviy ishi uchun berilgan topshiriq, annotatsiya, o‘quv jarayoniga va amaliyotda qo‘llanishi haqidagi ma’lumotnomalar hamda dastlabki himoya bayonnomasidan ko‘chirmalar bilan birga kafedra mudiri imzosi

asosida himoyaga kiritiladi. BMilar himoyasi universitet rektori (prorektori) tomonidan tasdiqlangan grafikka qat'iy rioya etilgan holda amalga oshiriladi. Talaba va uning ilmiy rahbari BMIIni grafikda belgilangan kuni himoyaga tayyor bo'lishi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Himoya boshlanishidan oldin DAK kotibi bitiruv malakaviy ishining mavzusini, uni bajargan talabaning ismi-sharifini, BMIning rasmiylashtirilishi va belgilangan hujjatlar talabga javob berishi to'g'risida ma'lumot beradi. SHundan so'ng DAK raisi BMIga berilgan ilmiy rahbar xulosasi, tashqi taqriz, ish natijalarini amaliyotga joriy etish dalolatnomasini o'qib eshittiradi va talabaga BMIIni himoya qilish uchun ruxsat beradi. Rahbar taqrizi bo'yicha noroziliklar bo'lsa himoyachi kamchiliklar to'g'rilanganligi to'g'risida gapirib o'tishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishini himoya qiluvchi talabaning DAK kengashidagi ma'ruzasi 8-10 daqiqa davomida tinglaniladi. Himoya jarayonida ma'ruzachi BMIning asosiy natijalarini ifodalovchi tarqatma materiallar, ko'rgazmali vositalar, taqdimot slaydlari va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq. Ma'ruzachi belgilangan reglamentga qat'iy rioya etgan holda aniq va qisqa jumlalarda, mantiqiy ketma-ketlikda BMI mavzusining dolzarbligini, maqsadi va vazifalarini, ishning tarkibini, olingan asosiy natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini, ilgari surilayotgan takliflar hamda tavsiyalarni bayon etib berishi lozim.

Ma'ruzadan so'ng talabaga DAK a'zolari tomonidan mavzuga oid savollar beriladi. Talaba berilgan savollarga aniq va tushunarli qilib javob berishi lozim. Agar DAK a'zolari talabaning berilgan savollarga javobidan qoniqish hosil qilsalar, talabaga himoyani yakunlashga ruxsat beriladi.

Bitiruv malakaviy ishi ochiq himoya qilingandan so'ng DAKning yopiq kengashida himoya natiasi muhokama qilinib mavjud baholash sistemasida baholanadi. Bunda bitiruv malakaviy ishining to'g'ri rasmiylashtirilgani, rejada belgilangan maqsad va vazifalarga qay darajada erishilgani, mavzuni to'liq ochib berilganligi, BMI natijalarining nazariy-uslubiy va amaliy ahamiyati, himoya jarayonida qilingan ma'ruzaning sifati, ma'ruza jarayonida tarqatma materiallar, ko'rgazmali vositalar va taqdimot slaydlaridan qay darajada

foydalanylani, talabaning berilgan savollarga to‘g‘ri javob bergani kabi bir qator mezonlarga ahamiyat beriladi.

BMI mazmuni va uning himoyasi natijalarini baholashda maksimal 100 ball quyidagicha taqsimlanadi:

Nº	BAHOLASH MEZONLARI	Maksi-mal ball
1.	Bitiruv malakaviy ishining to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga	5
2.	Bitiruv malakaviy ishi mazmunining belgilangan maqsad va vazifalarga hamda rejaga muvofiq kelishiga	5
3.	Har bir bobning mohiyati mantiqan to‘g‘ri ohib berilishiga	10
4.	Talaba BMIni tayyorlashda operativ, moliyaviy va statistik hisobotlar ma’lumotlaridan samarali foydalanganiga	10
5.	BMI chuqur iqtisodiy tahlilga tayanib amalga oshirilgani va unda iqtisodiy samaradorlikni ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar tizimidan unumli foydalanyliganiga	10
6.	Talaba BMIda mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etgani, mavzuga oid masalalarga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy kamchiliklarni ohib bergeniga	15
7.	Talaba BMIda ijodiy fikrlash qobiliyatini namoyon etgani, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari va takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqqaniga	15
8.	BMI himoyasi ko‘rgazmali vositalar (slaydlar, tarqatma materiallar) va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilganiga	5
9.	BMI himoyasi bo‘yicha talabaning maruzasi BMIda erishilgan asosiy natjalarni to‘liq qamrab olganligi va ular aniq raqamlar hamda xulosa va takliflar orqali ohib berilganiga	15
10.	BMI himoyasi bo‘yicha berilgan savollarga aniq va mazmunli javob bergenligiga	10
	JAMI	100

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi yuqorida keltirilgan mezonlar asosida quyidagicha baholanadi:

- 0-54 ball – “qoniqarsiz”;
- 55-70 ball – “qoniqarli”;

- 71-85 ball - “yaxshi”;
- 86-100 ball - “a’lo”.

DAKning malakaviy ishni himoya qilushi talabaga qo‘ygan bahosi DAK raisi tomonidan e’lon qilinadi. Malakaviy ish himoyadan so‘ng (kamida 10 yil) oliy o‘quv yurtida saqlanadi. Har xil sabablar bo‘yicha malakaviy ishni boshqalarga topshirish zaruriyati mavjud bo‘lgan holda (tadbiq etish, tanlovlari va hakozo), ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o‘quv yurtida qoldiriladi).

Ayrim sabablarga ko‘ra bitiruv malakaviy ishi himoyasiga kela olmagan talabalar 3 yil mobaynida DAKka bitiruv malakaviy ishi himoyasiga kiritilishi mumkin.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Bitiruv malakaviy ishlarga rahbar xulosasi qachon va qanday yoziladi?
2. Bitiruv malakaviy ishlarga ichki va tashqi taqrizlar kim tomonidan va qanday yoziladi?
3. BMIni dastlabki himoyaga kiritish tartibini tushuntiring.
4. Bitiruv malakaviy ishni DAK huzurida himoya qilish tartibini ayting.
5. Bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari haqida ma’lumot bering.
6. Ilmiy rahbar xulosasida quysi jihatlarga e’tibor berish lozim?

6-MODUL. MUTAXASSISLIK FANLARIDAN O'QUV VA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH.

14-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARIDAN O'QUV VA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

Tayanch iboralar: malakaviy amaliyot, pedagogik amaliyot, tanishuv amaliyot, talaba, amaliyot obyekti, amaliyot rahbari, o'quv amaliyoti, bitiruv oldi amaliyot.

14.1. Malakaviy amaliyot haqida tushuncha

Malakaviy amaliyot – bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda o'quv-pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Malakaviy amaliyot namunaviy va ishchi o'quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Malakaviy amaliyotning mazmumni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo'ladi. Malakaviy amaliyot o'quv mashg'ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi. Malakaviy amaliyotni talabalar oliy ta'lim muassasasi bilan shartnomaga tuzilgan tashkilotlarda o'tashlari mumkin. Ayrim hollarda bitiruvchi kurs talabalari o'zi ishslashni rejalashtirayotgan ta'lim muassasalarida faol malakaviy amaliyotni o'tashlari mumkin. Talabalarning malakaviy amaliyotni o'tash joylari oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan chiqarilgan buyruq asosida tashkil etiladi.

14.2. Malakaviy amaliyotning maqsadi va vazifalari.

Malakaviy amaliyot maqsadi - bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik va kasbiy faoliyat ma'suliyatini his etish va o'z ustida ishslash ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o'rganishdan iborat.

Malakaviy amaliyot vazifalari:

- ❖ *Talabalarda tanlangan kasbiga qiziqishni takomilashtirish;*
- ❖ *Kasbiy faoliyat haqida bir butun tushunchani shakllantirish;*
- ❖ *Kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;*

- ❖ Kasbiy faoliyat bo‘yicha tajribani yaratish.
- ❖ Talabalarning olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash va ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish.
- ❖ Mustaqil va ijodiy ishlashga, ilg‘or tajribalarni muntazam o‘rganishga, kasbiy faoliyatda ijodkor bo‘lishga undash.
- ❖ Mutaxassislik fanidan bilimlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish.
- ❖ Amaliyotchilarining o‘zlariga biriktirilgan ishlarni mustaqil ravishda tashkil etishiga ershish.
- ❖ Mutaxassislikdan mashg‘ulot tiplariga, mashg‘ulot o‘tishning ilg‘or usullariga, zamonaviy metodlarga alohida e’tibor berish.
- ❖ Mutaxassislik mashg‘ulotlarini ko‘rgazmali quroollar, texnika vositalaridan unumli foydalangan holda o‘tishlariga erishish.
- ❖ Kengaytirilgan mashg‘ulot ishlanmalari tuzdirish.
- ❖ Tajribali mutaxassislar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar ish faoliyatini kuzatish, o‘rganilgan faoliyat yuzasidan muhokama tashkil qilish.
- ❖ Amaliyotchilarining bir-birlarining o‘tkazilgan mashg‘ulotlarini muntazam kuzatib borishlarini nazorat qilish. Kuzatilgan darsslarni o‘scha kuniyoq tahlil qilib, yutuq-kamchiliklarini aytish. Metodik maslahatlar berish, zarur yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish.
- ❖ Bo‘lajak mutaxassislarda rahbarga xos kasbiy malaka va ko‘nikma hosil qilish, kasbiy mahoratlarini shakllantirish.
- ❖ Malakaviy amaliyot jarayonida mustaqil holda ish faoliyatini tashkil etishga o‘rgatish.
- ❖ Guruh (sinf) rahbarligini olib borish, tarbiyaviy ish, odobnama mashg‘ulotlari, madaniy-ma’rifiy tadbirdarda ishtirok etish.

14.3. Malakaviy amaliyot turlari

Malakaviy amaliyot uch bosqichda amalgaga oshiriladi.

1-bosqich - tanishuv- malakaviy amaliyoti. U o‘quv rejasiga asosan tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha birinchi yoki ikkinchi kursda 1 yoki 2 hafta davomida ta’lim muassasasi va tashkilotlarda amalgaga oshiriladi. Amaliyot davomida talabalar asosan muktabgacha ta’lim tashkilotlari, o‘rta maxsus, ta’lim muassasasi yoki tashkilotlarning ish faoliyati bilan tanishadilar va belgilangan tartibda hisobot topshiradilar.

2-bosqich - o‘quv-malakaviy amaliyoti. Unda talabalar ta’lim muassasasi yoki tashkilotlarda yuritiladigan barcha huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan tanishadi va mutaxassislik fan o‘qituvchilarining darslarini yoki tarbiyachilar mashg’ulotlarini kuzatadi.

3-bosqich - pedagogik amaliyot (bitiruv oldi amaliyot). U bitiruvchi kursning oxirgi semestrida olib boriladi va 10-11 hafta davom etadi. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o‘quv mashg’ulotlariga tayyorlanish bilan birgalikda, ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar rejasini tuzadi, guruh rahbari yordamchisi sifatida guruhni o‘rganadi va suhbatlar tashkil etadi. O‘ziga biriktirilgan guruhda pedagogik-psixologik tashxis o‘tkazadi.

Talabalarning pedagogik amaliyotiga qo‘yiladigan talablar:

- Mutaxassilik fanlaridan o‘qitishning so‘nggi usullarini qo‘llagan holda mashg’ulotlar olib borish;
- Mashg’ulot ishlanmalari, testlar, mavzuga oid ko‘rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlay olish;
- Texnika vositalaridan foydalana bilish;
- Mashg’ulotlarni pedagogik-didaktik va psixologik bilimlar asosida tahlil qilishni o‘rganish;
- Bolalarni mashg’ulotga qiziqtirish;
- Bolalarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini bilish, o‘rganish va sinf jamoasiga psixologik tavsiyanoma yozish;
- Odobnama mashg’ulotlarini kuzatish, tarbiyaviy matn yozish va o‘tish;
- Guruh (sinf) rahbarligi faoliyati, tarbiyaviy ish hujjatlari bilan yaqindan tanishish, tarbiyaviy tadbirdarda faol ishtirok etish va ota-onalar bilan muloqotda bo‘lish;
- Bolalarning tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish, tarbiyaning ta’sirchan usullaridan foydalanish, o‘quvchilarda odob, bilim, kasbhunar egallash va mustaqil diyorimizga muhabbat, burchga sadoqat, o‘zaro hamkorlik, do‘stlik, ma’naviy-ahloqiy his-tuyg‘ularini tarbiyalash. Sinfdan tashqari turli tadbirdar o‘tkazish;
- Kutubxonaga o‘quvchilarning qatnashuvini ta’minlash va ularni qiziqtirish;
- Bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash tizimini, ota-onalar yig‘ilishlarini o‘tkazish uslublarini o‘rganish;
- Ta’lim muassasasida navbatchilikni kuzatish va o‘zları ham bu jarayonda to‘la ishtirok etish lozim.

14.4. Maktabgacha ta'lismuassasalarida malakaviy amaliyotni tashkil etish

1. O'bekiston Respublikasida onalik va bolalikni muhofaza qilishga doir qaror, farmon va hujjatlarning mazmuni.
2. Oila kodeksining axloqiy, yuridik-siyosiy mohiyati. Oilani mustahkamlash borasidagi ahamiyati.
3. O'zbekistonda bolalarmi himoya qilish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlarning mohiyati.
4. O'zbekistonda yosh bolali onalarga g'amxo'rlik va nafaqalar.
5. Mamlakatimizdagi maktabgacha ta'lismuassasalarining soni (viloyat, shahar), qaysi vazirlik korxonalarga bo'ysunishi.
6. Maktabgacha ta'lismuassasalarini boshqarish va moliyalash.
7. Maktabgacha ta'lismuassasalarida bolalarmi guruhlarga ajratish tartibi.
8. Maktabgacha ta'lismuassasalarida ta'limgartbiya jarayonini tashkil etishga doir hujjatlar.
9. Maktabgacha ta'lismuassasalarida ta'limgartbiyani tashkil etish shakllari va metodlari.
10. Maktabgacha ta'lismuassasalarining kadrlar bilan ta'minlanganligi.
11. Oilaviy bog'chalar: ularda ta'limgartbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.
12. Maktabgacha ta'lismuassasalarida bolalarmi maktabga tayyorlash jarayoni.

Malakaviy amalimyot jarayonda talabalar quyidagi ishlarni bajarishlari lozim:

1. Malakaviy amaliyot o'tkazgan ta'lismuassasalaridagi o'quvchilar tarkibi bilan tanishish, ularning tayyorgarligi (medisina kartochkasi, shaxsiy gigiena buyumlari, kerakli buyumlar, o'quv mashg'ulot qurollari va hokazolar. Bilan ta'minlanganligi) aniqlaydilar;
2. Har bir bolaning shaxsiy qiziqishi va xususiyatlarni aniqlash, kundalik haftalik, ish rejalar tuzish;
3. Bolalar bilan mustaqil ishlash, ularni turli ko'rsatmalr bilan tanishtirish, guruh to'grarak majlisi, turli ko'rik musobaqalar, ertalabki saflanishni o'tkazish ishlarini tashkil etish;

4. Turistik yurishlar uyushtirish va o‘tkazish. Bu jarayonda joyni to‘g‘ri va aniq belgilash ko‘nikmalarini egallah;
5. Turli ijtimoiy - siyosiy, ma’naviy axloqiy mavzularda suhbatlar o‘tkazish vaqtli matbuot, radio, televidenie eshittirishlari bilan tanishtirsh, sport o‘yinlari, taniqli olimlar, shoirlar, sportchilar, mehnat faxriylari bilan uchrashuvchilar tashkil etish;
6. Yaqin atrofdagi ishlab chiqarish korxonalari, xo‘jliklardagi mehnat jarayonlari bilan tanishtirish;
7. Tabiatga sayr qildirish, jonli tabiat bilan tanishtirish, jonliburchaklar tashkil etish, o‘lkashunoslik materiallari, o‘simlikllardan namunalar yig‘ishga o‘quvchilarni o‘rgatish;
8. Bolalar yoshiga mos turli o‘yinchoqlar yasash, o‘yinlar o‘tkazish;
9. Maktabdan tashqari ta’lim muassalari va oromgoh ichki tartib qoidalariga rioya qilish, tozalik va ozodalikka e’tibor berish, navchilar ishini tashkil qilish
10. Muassasa kengashlarida ishtirok etish;
11. Ishchi qog‘ozlar, hujjatlar bilan tanishish va ularni yuritishni o‘rganish.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Malakaviy amaliyot haqida tushuncha bering.
2. Malakaviy amaliyotning maqsadi va vazifalarini tushuntiring.
3. Malakaviy amaliyot qaysi turlarga bo’linadi.
4. Talabalarning pedagogik amaliyotiga qo‘yiladigan talablar haqqida maa’lumot bering.
5. Maktabgacha ta’lim muassasalarida malakaviy amaliyotni tashkil etish tartibini tushuntiring.
6. Malakaviy amalimyot jarayonda talabalar bajarishlari lozim bo’lgan ishlar haqida ma’lumot bering.

15-MAVZU. PEDAGOGIK AMALIYOT DASTURINI ISHLAB CHIQISH, PEDAGOGIK AMALIYOTGA RAHBARLIK QILISH METODIKASI

Tayanch iboralar: malakaviy amaliyot, malakaviy amaliyot dasturi, pedagogik amaliyot, amaliyot hisoboti, amaliyot hujjatlari, amaliyot rahbari.

15.1. Talabalarning malakaviy amaliyot jarayonida bajargan ishlarini hisobga olish

Malakaviy amaliyot davrida talabalar olib borgan o‘quv-tarbiyaviy ishlari, kuzatishlari bo‘yicha kundalik daftar yuritadilar. Unda amaliyot dasturi bo‘yicha olingan topshiriqlarning bajarilishi xaqidagi ma'lumotlar, o‘quv-pedagogik tavsifnomaga taalluqli ma'lumotlar ifodalanadi. Amaliyot yakunida hisobotlar tayyorlashda talabalar daftardan foydalanadilar.

Guruh rahbari, pedagogika, psixologiya va mutaxassislik kafedrasi o‘qituvchilaridan iborat komissiya taqdim etilgan hujjatlar va tavsifnomaga asosan talaba bajargan ishlarga tegishli ballarda baho qo‘yadi. Baho nazoratining reyting tizimi asosida qo‘yiladi.

Malakaviy amaliyotining yakuniga bag‘ishlab o‘quv yurtida yakuniy konferensiya o‘tkaziladi.

15.2. Amaliyot rahbarining majburiyatları

- Dastur asosida ishchi reja tuzish;
- Amaliyot o‘tkazilayotgan muassasa va tashkilotga muntazam qatnab turish;
- Talaba-amaliyotchilar tomonidan mazkur ishchi dastur talablarining bajarilishini nazorat qilish;
- Talabaning amaliyot talablariga munosabati va ongli mehnat intizomini nazorat qilish;
- Maktab direktori, ilmiy bo‘lim mudiri, tarbiyaviy ishlari tashkilotchisi, ilg‘or o‘qituvchi va murabbiylarning maslahatlarini olish hamda ular bilan suhbat uyushtirish;
- Talabaning ona tili va adabiyot, odobnama darslarini kuzatish va maslahatlar berish;

➤ Talabalarning amaliyotga doir hujjatlari bilan tanishish va o‘rgatish;

➤ Tegishli jurnal yuritish, talabaning amaliyot bo‘yicha hisoboti, tavsifnomasini o‘rganish, pedagogik kengashda qatnashish, reyting nazoratini tashkillash hamda kafedra, fakul’tet dekanatiga hisobot yozish.

Metodistlarning vazifalari:

1. Malakaviy amaliyotning maqsadi va mazmunini talabalarga tushuntirish.

2. Malakaviy amaliyot rahbari va kafedralar tomonidan tayinlangan metodistlarning maslahatlari va ko‘rsatmalarini eshitish.

3. Tashkilot va muassasalar bilan umumiyl tanishish, fan xonalarini kirib ko‘rish.

4. Maktab rahbarlari, o‘qituvchilari jamoasi, sinf rahbarlari bilan tanishish, suhbatlashish.

5. Amaliyotchilarni sinflarga taqsimlash, mutaxassislik darslarini kuzatish.

6. Ta’lim muassasalarida davlat o‘quv rejalarini va dasturlarning bajarilishi, dars jadvali to‘g‘risida maktab ilmiy bo‘lim mudiri bilan suhbat.

7. Pedagogik amaliyot burchagini tayyorlatish, uning mazmuni qanday shaklda bo‘lishi yuzasidan metodik ko‘rsatma berish.

8. Tajribali o‘qituvchi va mutaxassislar bilan shu fanlarni o‘tish usullari haqida suhbat tashkil qilish.

9. Tajribali o‘qituvchilarining darslarini kuzatish va uni tahlil qilish. Amaliyotchilarining darslarini kuzatish, tahlil qilib borish, metodik maslahatlar berish.

10. Tayyorlangan ko‘rgazmali qurollar sifatini tekshirib borish.

11. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularni olimpiadalarga tayyorlanishiga ko‘maklashish.

12. Bo‘sish o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash yo‘llarini o‘rgatish.

13. Amaliyot davomida metod birlashma ishida qatnashish. Metod birlashma hujjatlari bilan tanishish.

14. Fanga oid kechalar uyushtirishlarini nazorat qilish, turli tadbirlar o‘tkazishga undash.

15. Malakaviy amaliyot yakuniga bag‘ishlangan konferensiya o‘tkazish kunini belgilash va ishtirop etish. Malakaviy amaliyotga

aloqador hujjatlarni tahlil etish. Pedagogik amaliyot yuzasidan talabalarning ishini baholash.

16. Pedagogik amaliyot yig‘ilishiga doir hisobotlar yozdirish va kafedraga topshirish.

17. Pedagogik amaliyotga bag‘ishlangan konferensiyada amaliyotchilar ishi yuzasidan so‘zga chiqish. Amaliyotchilar hujjatlari asosida ko‘rgazma tashkil etish.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Talabalarning malakaviy amaliyot jarayonida bajargan ishlarini hisobga olish haqida tushuncha bering.

2. Amaliyot rahbarining majburiyatlarini tushuntiring.

3. Olingan nazariy ma'lumotlaringizga tayanib, pedagogik amaliyot dasturini ishlab chiqing.

4. Amalyot burchagida nimalar o‘z aksini topishi lozim?

5. Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalarining malakaviy amaliyotini kuzating.

6. Pedagogik amaliyot oldi konferinsiyasiga ishtirok eting va tahlil qiling.

16-MAVZU. PEDAGOGIK AMALIYOTNI BAHOLASH MEZONLARI, PEDAGOGIK AMALIYOT BO‘YICHA ISH HUJJATLARI

Tayanch iboralar: malakaviy amaliyot, malakaviy amaliyotni baholash, baholash mezoni, pedagogik amaliyot, amaliyot hisobti, amaliyot hujjatlari, amaliyot rahbari.

16.1. Pedagogik amaliyotni baholash mezonlari

Pedagogik amaliyot davomida talabalarning faoliyatini nazorat qilish va baholash 100 ballik reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. Hisobot malakaviy amaliyot tugagandan so‘ng 3 kun muddatda qabul qilinishi shart. Baholash komissiyasi tarkibi a’zolari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Fakul'tet dekani
2. Dekani o‘rinbosari

3. Kafedra mudiri

4. Fakul'tet amaliyot rahbari

5. Amaliyot ob'ektidan tayinlangan metodist

6. Metodist o'qituvchi

Pedagogik amaliyot jarayonida o'quv rejasidagi fanninng xususiyatidan kelib chiqib ballar quyidagicha taqsimlanadi:

Mutaxassislik fanidan – 50%

«Pedagogika» fanidan – 20 %

«Psixologiya» fanidan – 15%

Hisobot uchun – 15 %

Talabalarning ballarda ifodalangan o'zlashtirishlari quyidagicha baholanadi:

86 – 100 ball – 5 «a'lo»

76 – 85 ball – 4 «yaxshi»

55 – 75 ball 3 «qoniqarli»

Fanlar bo'yicha belgilangan vazifalarga ballarning taqsimoti

Pedagogika fani – 20%

Nº	Bajariladigan ish mazmuni	Vazifa soni	Bajarish muddati	Reyting balli
1	Sinf rahbarlarining tarbiyaviy ishlar rejasini o'rghanish, biriktirilgan sinfda tarbiyaviy rejani tuzish		1 hafta	
2	Tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzish		Amaliyot davomida	
3	Tarbiyaviy tadbirdorda qatnashish va o'tkazish		Amaliyot davomida	
4	Pedagogik va psixologik tavsifnomalar (sinf va bitta o'quvchiga)		Amaliyot davomida	
5	Matnlarni tuzish (mehnat ta'lifi bo'yicha) va ularga tarbiyaviy maqsadni yoritish darajasi		Amaliyot davomida	
6	Ota-onal bilan suhbat		Amaliyot davomida	
7	Amaliyotchi kundaligini yuritish		Amaliyot davomida	

9	Hisobot		Amaliyot davomida	
10	Tavsifnoma		Amaliyot davomida	

Psixologiya fani– 15%

Nº	Bajariladigan ish mazmuni	Vazifa soni	Bajarish muddati	Baho
1	Maktab bilan tanishish		1 –hafta	
2	Maktab, psixolog bilan suhbat		1 –hafta	
3	Pedagogik-psixologik tavsifnoma tayyorlash		Amaliyot davomida	
4	Bolalar shaxsiy varaqasini o‘rganish va tuzish		Amaliyot davomida	
5	Ota-onalar bilan suhbat		Amaliyot davomida	
6	Yuritilgan hujjatlar		Amaliyot davomida	

Hisobot uchun– 15 %

Nº	Bajaradigan ish mazmuni	Vazifa soni	Bajarish muddati	Baho
1				
2				
.....				

Mutaxassislik fanidan– 50%

Nº	Bajariladigan ish mazmuni	Vazifa soni	Bajarish muddati	Baho
1	Pedagogik amaliyotga bag‘ishlangan yig‘ilishda qatnashish		1 –hafta	
2	Maktab, ma‘muriyati bilan tanishish		1 –hafta	
3	Kalendar-tematik rejani o‘rganish va tuzish		1 –hafta	
4	Ishlanma(konspekt tuzish)		Amaliyot davomida	
5	Darslarni kuzatish va tahlil qilish		Amaliyot davomida	

6	Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish va tayyorlash		Amaliyot davomida	
7	Sinfda darslarni o‘tkazish		Amaliyot davomida	
8	Sinfdan tashqari ishlar (to‘garaklar o‘tkazish, o‘quvchilar bilan ishlash, olimpiadalarga tayyorlash, tadbirlar o‘tkazish		Amaliyot davomida	
9	Hujjatlar: kundalik, hisobot, ishlanma, tavsifnama		Amaliyot davomida	

1-2 kurs talabalarining malakaviy amaliyoti ballar kesimida quyidagicha hisobga olinadi:

Mutaxassislikdan- 85 %

Hisobot – 15%*

16.2. Pedagogik amaliyot hujjatlari

Talabaning pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlashi lozim bo‘lgan hujjatlар

1. Amaliyotchi talabaning amaliyot rejasи
2. Kundalik
3. Ish reja (o‘quv predmetlari bo‘yicha)
4. Dars tahlili
5. Dars konsepti
6. Tarbiyaviy soatlar konsepti
7. Tarbiyaviy ish reja
8. Tarbiyaviy tadbir ssenariyasi
9. Sinf rahbari hujjatlari
10. O‘quvchi va sind jamoasiga pedagogik-psixologik tavsifnama
11. Tavsifnama
12. Hisobot

Amaliyotchi — talabaning haftalik ish rejasining taxminiy jadvali.

REJA	DUSHANBA	SESHANBA	CHORSHANBA
Ta'lim muassasasi rahbarlari va bolalar bilan tanishish.	Ta'lim muassasasi rahbarlari bilan suhbatga qatnashish.	Biriktirilgan guruhdagi mashg'ulot tahliliga qatnashish. Guruh rahbari bilan suhbat.	Boshqa guruh rahbarlari mashg'ulotini tahlilida qatnashish.
Fan bo'yicha o'quv- tarbiyaviy ishlar.	Fan o'qituvchisi rejasi bilan tanishish. Mashg'ulot xonasini jihozlash va rejasi bilan tanishish.	Fan o'qituvchisi dars tahliliga qatnashish.	Fan mavzusi va mazmuni, o'quv darsliklari bilan tanishish.
Bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar	Guruh rahbari bilan sinfda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar haqida suhbat.	Sinf faollari bilan suxbatlashish	"Ma'naviyat va ma'rifat" mashg'ulotlarida qatnashish va tahlil qilish.
Jamoat tashkilotlarida pedagogik ishlarni tashkil etish mazmuni bilan tanishish.	Maslahat olish.	Pedagoglarning hududlarda olib boriladigan ish rejasi bilan tanishish.	Ta'lim muassasalari kengashida qatnashish.
Metodik va izlanuvchanlik ishlari.	Usuliy yig'ilish, pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari.	Uslubshunos va o'qituvchilardan maslahat olish, pedagogik haftalik va kundalik tuzish.	Rejani tasdiqlash.
Pedagogik	Bolalar tartib—	Guruh rahbari	Uslubiy yig'ilish.

konsilium o‘tkazishga ko‘maklashish	intizom va o‘zlashtirishini hisobga olish.	tarbiyaviy ish rejasi bilan tanishish.	Pedagogik amaliyot davrida o‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni
-------------------------------------	--	--	---

PAYShANBA	JUMA	ShANBA
Mashg’ulot tahliliga qatnashish. Guruh faollari bilan suhbat o‘tkazish.	Mashg’ulot tahliliga qatnashish. Guruh tarbiyaviy ish rejasi, jurnali va yetakchi rejasi bilan tanishish.	Mashg’ulot tahliliga qatnashish. Shaxsiy reja tuzish va tasdiqlash.
Pedagogik amaliyot davrida o‘tkaziladigan dars jadvalini tuzish. Bolalarning ishlarini tekshirish	Adabiyotlar bilan tanishish (ilmiy uslubiy qo‘llanma qo‘shimchalar).	Ma’ruza matnini tuzish. Didaktik materiallar tayyorlash, kichik plakatlarni printerdan qog‘ozga yoki slaydga chiqarish.
Bolalarni tarbiyaviy rejada ko‘rsatilgan tadbirlarga tayyorlash	Bolalar kundaligini tekshirish. Guruh ota-onalari bilan suhbat o‘tkazish uchun uylariga borish	Bolalarni tarbiyaviy soatda belgilangan tadbirga tayyorlash.
Otaliq tashkilotlari bilan aloqa o‘rnatish.	Pedagogik o‘qishlar, ota-onalar bilan olib boriladigan suhbat mavzusiga tayyorlash.	Suhbat mavzularini tasdiqlash.
Seminarlar tashkil etish va qatnashish. Malaka talablar bilan tanishish, ularni ta’lim-tarbiya tizimiga tadbiq qilish.	Psixologiyadan maslahat. Pedagoglarning uslubiy yig‘ilishiga qatnashish.	Pedagogikadan maslahat. Pedagoglar uslubiy yig‘ilishiga qatnashish.

Bo'sh vaqtida bolalar o'quv motivini tekshirish va tahlil qilish.	Guruh yetakchilarini bilan suhbatlashish.	Pedagogik kengashga qatnashish.
---	---	---------------------------------

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Malakaviy amaliyotning baholash mezonlarini tushuntiring.*
2. *Amaliyot hujjatlari haqida ma'lumot bering*
3. *Bitirgan talabalarning amaliyot kundaligi bilan tanishib chiqing.*
4. *Talabaning pedagogik amaliyotda qatnashishi bo'yicha ta'lim muassasasi rahbari tomonidan beriladigan tavsifnomaga mazmuni nimadan iborat bo'lishi kerak?*

7-MODUL. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASH TIZIMI.

17-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASH TIZIMI

Tayanch iboralar: diagnostika, pedagogik diagnostika, bilim, ko‘nikma, malaka, nazorat, tekshirish, hisobga olish, oraliq nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat, baholash.

17.1. T a'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.

Diagnostika (yunon tilida «dia»-shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma’noni bildiradi) - o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayon to‘g‘risidagi aniq ma’lumot olishning umumiyl vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtayi nazaridan qarasak, kasallik belgilari va ulami kelib chiqish sabablari to‘g‘ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato diagnoz esa faqat shifokorlaming aqliy harakatini yo‘qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana a’zolari salomatligi to‘g‘risidagi aytilgan ushbu fikrlar ruhiy sog‘liqqa ham bevosita aloqadordir. Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin. Lekin ruhiy, ma’naviy, ijtimoiy rivojlanishni diagnostika qilish mashaqqatli faoliyatning mahsulasi hisoblanadi. Bu maqsadda qo‘llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo‘lib, har doim ham to‘g‘ri natija beraveradi, deb xulosa chiqarish, shoshilinch qaror qabul qilish noxush oqibatlaiga olib keladi. Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o‘qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o‘rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiyl baho berishga har doim ham musharraf bo‘lavermaydilar. Chunki tajriba uzluksizligini ta’minlash integrativ yondashishni taqozo etadi, ko‘p omillik tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta’sir etadi, xolos. Ta’lim

oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo‘lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o‘rja maxsus o‘quv maskanlari o‘qituvchilari ko‘pincha o‘quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o‘rganishga e’libor qaratadilar, ammo ulaming tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma’noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzlusiz ta’lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O ‘quvchilar va talabalajning aqliy rivojlanishlari ko‘p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiylar tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq. Ulaming tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma’navi-yma’rifiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, zarur bo‘lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davming muhim talablaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogik diagnostika - pedagogik omillaming samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatish haqidagi axborotlaming majmuyi. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor «tarbiya» va «tarbiyalanganlik» atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur.Jahon pedagogikasida «tarbiya» atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (o‘qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko‘p tarqalgan tendensiyadir. Bu o‘rinda kattalar to‘g‘ri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta’sir ko‘rsatish ko‘zda tutiladi, albatta.Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, mazkur jarayonning faqat muayyan qismini aks ettiradi, xolos. Tarbiyaga bunday ta’rif berishda bolaga kattalaming ta’siri yo‘naltirilgan obyekt sifatidagina qaraladi.

Pedagogik tashxislashning asosiy maqsadi ham tashabbuskor va mustaqil shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadigan bo‘lsa, u tarbiyaluvchiga pedagogika jarayonida faol harakat qiluvchi subyekt rolini beradi.Bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot

muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishda pedagogik diagnostika hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi. «Pedagogik diagnostika» atamasi ilk bor 1968-yili nemis olimi Karlxayns Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi.

K. Klauer (Germaniya), V.Burk, Rollet (Angliya), S.D. Smirnova, I.V.* Dubrovina (Rossiya) va boshqa bir qator olimlarning «pedagogik diagnostika»ning «psixologik diagnostika» zamirida tug‘ilganligini ta’kidlashlari, albatta, o‘rinsiz. Bir paytlari psixologik diagnostika biologiya va tibbiyotning tashxis modellarini andoza qilib olgani kabi pedagogik diagnostika ham zarur bo‘lganda psixologik ilmiy-tadqiqot metodlardan o‘z o‘mida foydalandi.

Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tashxislashga turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu pedagog shaxsining diagnostikasi (o‘zini-o‘zi tashxislash), ota-onalar, pedagoglar tomonidan o‘quvchilar jamoasini tashxislash; ma’muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta’lim bo‘limlari uslubiyotchilari tomonidan o‘quv dargoqining faoliyatini tashxislash va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Pedagogik diagnostika o‘z mohiyatiga binoan korreksion tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. «Korreksiya - deb ta’kidlaydi M. Quronov-hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o‘smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir»¹.

Bir qator olimlar: (R.S.Nemov, D.V.Olshanskiy, G.Broyer, G.Mattes) «Pedagogik korreksiya - tarbiya jarayonida yoshlaming ma’naviy-ma’rifiy sohalarda oldin yo‘l qo‘ygan nuqsonlarini bartaraf etish jarayonidir», - deb hisoblaydilar.

Fikrimizcha, korreksiyalash jarayoni-yoshlarning ongiga, his tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatları hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi faoliyat turidir.

Korreksiyalash ta’sirida ulaming g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quwatlari mustahkamlanadi va shu bilan birqalikda tarbiyaviy masalalar amalga oshiriladi. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-

¹ M. Quronov, Z. Qurboniyozova. Ijtimoiy pedagogika. T., «Universitet», 1994, 42-b.

atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ish) K.Yung pedagogik diagnostikaga ta’rif bergen bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlami bildiradi: «Pedagogik diagnostika (tashxislash) vazifalarini birvarakayiga klassifikatsiyalash (turkumlash)ni, bir paytning o‘zida amalga oshirishi mushkul, shu sababli i pedagogik diagnostika atamasining mohiyatini belgilamasligi kerak. Pedagogik diagnostika dolzarb pedagogik qarorlami, hukmlarni chiqarishga bo‘lgan urinishlar majmuyidan iborat».

Rus olimi V.I.Zverev: «Pedagogik diagnostika - bu turli pedagogik vaziyatlami o‘rganish, aniqlash, ta’lim tizimi qatnashchilarining xilma-xil qobiliyatları darajasini bilishdan iborat jarayon» (34,12), - degan fikmi ilgari suradi. Boshqa ms olimasi L. Denyakina: «Pedagogik diagnostika bu pedagogning o‘quv tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual-malakaviy sifatlarini belgilovchi, «Pedagogik diagnostika o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, mazmunini boyitish va attestatsiya uchun qo‘llaniladi»

1.Barcha tavsiflarni umumlashtirib, quyidagicha fikr bildirishni joiz deb o‘ylaymiz: pedagogik diagnostika - pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilaming pedagogik tizim natijalarini taqlil qilish, kafolatlash va tavsiyalar berish jarayoni.

Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta’lim jarayonini qulaylashtirishi, ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya natijalarini to‘g‘ri aniqlashni taminlashi, kafolatlashi, uchinchidan, o‘ziga xos ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika yordamida ma’naviy-ma’rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta’lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.Tashxislashda nafaqat ta’lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o‘zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o‘z qobiliyati va iste’dodini to‘la ro‘yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo‘shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan ta’lim-tarbiya jarayonini diagnostika qilishga zarurat oshmoqda. Yoshlamaing kamolot

darajasini diagnostika qilishda va xulqi dagi nuqsonlami korreksiyalashda intellektual va tarbiyalanganlik darajasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, xalq pedagogikasi tajribalarini zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim-tarbiya tizimini qulaylashtirish, komil inson fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan milliy qadriyatlar va ilg‘or metodikalar uzliksiz ta’lim tizimida tahsil olayotgan yoshlaming tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirishda muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni sama-rali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Ta’lim olganlikni tashxislash orqali erishil-gan natijalar va ta’lim olganlik ajratib olina-di. Shuningdek, ta’lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning **maqsadi** o‘quv jarayonida kechadigan barcha jihatlar-ni uning mahsuli bilan bog‘liq holda o‘z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

17.2. Ta’lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari

Nazorat (ta’lim jarayonida) ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o‘lchash esa **tekshirish** deb ataladi. O‘qituvchi o‘qi-tish bilan bir vaqtida o‘quvchilarining o‘rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlash-ga xarakat qilishini va uni amalda qo‘llash malaka-larini egallashini hisobga olib borishi kerak. **Hisobga olish** – bu o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Nazorat funksiyalari

1. Diagnostik funksiya.
2. Ta’limiy funksiya.
3. Tarbiyalovchi funksiya.
4. Rivojlantiruvchi funksiya.
5. Rag‘batlantiruvchi funksiya.
6. Korrektsiyalovchi funksiya

Tekshirishning bo‘g‘inlari (zvenolari)

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo‘g‘in* ta’lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinchi bo‘g‘ini* har bir mavzuni o‘zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**.

Takroriy tekshirish bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bo‘g‘ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzu-li bo‘lishi mumkin.

Tizimning *to‘rtinchi bo‘g‘ini* o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va mala-kalarini yaxlit bo‘lim yoki kursning alohida mavzusi bo‘yicha **davriy tek-shirish** hisoblanadi.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinchi bo‘g‘in* ta’lim oluvchilarning, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko‘nikma va ma-lakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**.

Baholash va uning o‘ziga xosliklari

Tekshirishdan tashqari nazorat o‘z ichiga baholashni (jarayon sifa-tida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. **Baholash** deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lcha-gich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytildi.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar bi-lan davlat ta’lim standartiga ko‘ra o‘zlashtirilishi belgilan-gan bilim, ko‘nikma va malakalar umumiylajmi o‘rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta’rif-lash)dan ta’lim darajasi-ning miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O‘zlashtirish (ta’lim samaradorligi) ko‘rsatkichi $B=A/T*100\%$ nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o‘zlashtirish (ta’lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o‘zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o‘zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to‘liq hajmi.

Hisobga olish va uning o‘ziga xosliklari

O‘qituvchi o‘qitish bilan bir vaqtida talabalarning o‘rganilayot-gan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga xarakat qilishini va uni amalda qo‘llash malakalarini egallahashini hisob-ga olib borishi kerak. **Hisobga olish** – bu o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosa-lash.

Hisobga olish natijasida o‘qituvchi ham, talaba ham o‘zlari-ning keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi.

O‘zlashtirishni hisobga olish talabalarning bilish faoliyatini rag‘batlantirib, ma’lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o‘zlashtirishni hisobga olish o‘qituvchining faoliyatni ham tashkil etadi. O‘qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o‘qituvchining pedagogik mahorati ko‘rsatkichiga aylanmoqda va o‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Talabalarning o‘zlashtirish natijalarini hisobga olish

1) o‘quv dasturi asosida mavzu va bo‘limni o‘rganish-da talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

2) har bir yakunlangan mavzu bo‘yicha talabalarning faoliyati to‘g‘risida to‘liq xulosa chiqarish;

3) o‘rtacha arifmetik ma’lumotlarga tayanibgina talabalarning o‘zlashtirish darajasini baholamaslik;

4) talabalarning mavjud bilimlariga aniq, bataf-sil ma’lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o‘quv yilidagi statistik o‘zlashtirish ma’lumotlariga asoslanib tahlil etish.

17.3. Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash printsiplari

Xolislik (ob’ektivlik) tashxis testlari (topshiriq-lari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagog-ning barcha ta’lim oluvchilarga do‘stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko‘rinishda belgilangan mezonlaridan iborat.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashhislash nazoratini ta’lim jarayoni-ning barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang‘ich idrok etishdan to amalda qo‘llashgacha bo‘lgan bosqichlarida olib borish kerak.

Ko‘rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta’lim oluvchilarni aynan bir hil mezonlar bo‘yicha ochiq sinovdan o‘tkazishni anglatadi.

Nazorat shakllari

- **nazoratning ommaviy (frontal) shaklida** o‘qituvchi talabalarga materi-alning ma’lum bir hajmi bo‘yicha savol beradi, talabalar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so‘rash ko‘pchilik talabani nazorat qilishni ta’minlaydi va butun guruhni faollashtiradi.

Ammo bu nazoratni talabalarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

- **nazoratning guruhli shaklida** talabalarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan talabalar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa talabalar ham qatnashi-shi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan talabalar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

- **nazoratning individual shaklidan** har bir talabaning bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda talabalar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

- **nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan)shakli** individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha talabalardan so'rash kerak bo'lган vaqtida foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtida birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

- **o'z-o'zini nazorat qilish shakli** ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Nazorat qilish metodlari

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholash-ning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rindiki, o'qituvchi talabalarga o'r ganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.

Yozma tekshirish – talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin.

Uy vazifalarini tekshirish. O‘quvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalarini ta’riflang.
2. Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati nimadan iborat?
3. Ta’lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalarini belgilang.
4. Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash printsiplarini ayting.
5. Nazorat turlari haqidagi ma’lumot bering.
6. Baho nima?
7. Shkalalash nima?
8. Nazorat shaklalari haqidagi tushuncha bering.

**18-MAVZU. REYTING O’TKAZISH METODIKASI,
TALABALARNING BILIMINI BAHOLASH BO‘YICHA
NAZORAT TURLARI, BAHOLASH MEZONLARI.**

Tayanch iboralar: reyting, nazorat turlari, oraliq nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat, baholash mezonlari.

18.1. Reyting nazorati haqidagi tushuncha

“Reyting” inglizcha so‘z bo‘lib, u baholash, tartib, tasnif so‘zlari ma`nosiga to`g`ri keladi. Bu so`zning dastlabki ma`nosi – “baholashni” nazarda tutib, unga quyidagicha ishchi ta`rif beramiz: reyting nazorati – bu berilgan o`lchovlar (shkalalar) asosida o‘quvchilar bilimi, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi va o‘quv predmetlariga munosabatini baholash demak. Reyting nazorati o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholash shkalalarini aniqlashdan boshlanadi. “SHkala” inglizcha “shkaling” so‘zidan olingan bo‘lib, “o`lchash birligini aniqlash” iborasi mazmuniga tugri keladi. Baxolash

shkalalari o`rganilayotgan ob`yekt (lar) majmuini ularning barchasi uchun umumiyl sanalgan mohiyat (maqsad)ga taqsimlash usulidir.

18.2. Reyting nazorat turlari

O`tkazilish davri (payti)ga qarab, reyting nazoratining uch ko`rinishi farqlanadi: joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON), yakuniy nazorat (YAN). Nazorat turlari o`zaro uzviy bog`liq, ular bir-birini to`ldiradi. Ularning barchasini birlashtiruvchi narsa — ta`lim etalonidir. Binobarin, nazorat turlarinnig barchasida erishilgan natijalar o`zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda etalonga taqqoslanadi. Bolalar taqqoslash yo`li bilan o`zlarining nimalarni talab darajasida, nimalarni talab darajasidan past o`zlashtirganliklarini ongli his qilishadi, mavzu, bo`lim yuzasidan o`qishni davom ettirish zarurligini payqaydilar. Binobarin, ta`lim texnologiyasida joriy nazorat o`quvchini oraliq nazoratga; oraliq nazorat o`z navbatida yakuniy nazoratga etaklaydi. Amaldagi pedagogik tajribada o`zlashtirish va uning natijasini tekshirish alohida jarayonlar sifatida amal qilsa, ta`lim texnologiyasida reyting nazorati ta`limning o`ziga singib ketadi. Natijada reyting nazoratini tashkil qilmasdan, ta`limni amalga oshirish, o`zlashtirishda olg`a siljish, ta`limni boshqarish mumkin bo`lmay qoladi. O`z-o`zidan reyting ta`lim texnologiyasining tarkibiy qismiga aylanadi.

Joriy nazorat ta`limning ob`yektiv borishi bilan bog`liq bo`lib, yangi o`quv materiallarini o`rganish va mustahkamlash, takrorlash va malaka hosil qilish, bilim va malakalarni umumlashtirish jarayonlarida o`tkaziladi. Shuningdek, uy vazifalari, qo`shimcha topshiriqlar, mustaqil ishlar hamda bolalarning o`z xoxish-istiklari bo`yicha qilingan ijodiy ishlar (mas. undalmalarni ishtirok ettirib she`r yozish), darslikdagi masala-misollarni echish, modellar yasash (mas. uy konstruktsiyasini loy, plastilindan yasash}, turli chizma, jadval, diagrammalar tuzish, laboratoriya mashg`ulotlari va didaktik o`yinlarda ishtirok etish, buklash, qirqish, qurish kabi faoliyat usullarini hisobga olib, joriy nazorat uchun ballar to`planadi. Kanaka usul hamda vosita bilan ball to`planmasin, u qabul qilingan etalonga zid bo`lmasligi lozim.

Joriy nazorat uchun to`planadigan ballar teskari aloqaga asoslangan bo`lib, u bolalarni o`rganishga rag`batlantirish, u yoki bu o`quv materialini, bo`limni o`zlashtirishda o`zlarining qaerga kelib

qolganliklarini anglash, mavzu yoki bo`lim bo`yicha o`rganishni davom ettirish zarurligini sezish, o`z kuchiga ishonch, mavzu yuzasidan biror ta`rif, aniqlik va qoidani e`tiborsiz qoldirmaslik kabi his-tuyg`ularga mo`ljallab olib boriladi. Shu tufayli joriy nazoratda ta`limiylik, shakllantiruvchanlik xususiyatlari ustun bo`ladi. Binobarin, joriy nazorat natijalari “4” yoki “5” raqamlari bilan emas, aksincha, mavzu va uning bandlari bo`yicha to`plangan ballar asosida hisobga olinadi. Joriy nazorat uchun ballar ham etalon asosida to`plangani tufayli mezoniylar xarakterda bo`ladi.

Joriy nazorat ballarini ikki yo`l bilan to`plash mumkin: ballarni o`qituvchining o`zi to`plashi; ballarni o`quvchilarning o`zlariga to`platish. Ikkinci yo`l biroz munozarali bo`lsa-da, eng samarali sanaladi. Joriy nazorat uchun ball to`plashni o`quvchilarning o`ziga yuklash ularda o`ziga ishonchni, har bir ishni vijdonan bajarish, burchni anglash kabi shaxsiy sifatlarni tarbiyalaydi. Joriy nazorat uchun ball to`plashni o`quvchilarning o`ziga yuklash o`qituvchining pedagogik mahoratiga bog`liq. O`qituvchi o`quv predmeti, uning bo`limi yoki mavzularga pedagogik ishlov bera olsa, har bir mashg`ulot va o`quv topshiriqlari maqsadini o`quvchilarga aniq etkazsa, ta`limni eng yuqori o`zlashtirishga yo`naltira bilsa, ta`limni motivlar, tafakkur va xotira-hodisalari ansambliga mo`ljallab tashkil etsa, har bir o`quvchining o`z-o`zini nazorat qilishi uchun vositalar tayyorlasa, ana o`shandagina joriy nazoratning samaradorligi oshadi.

O`quvchilarning o`z-o`zini nazorat qilishga oid vositalardan biri nazorat xaritasi. Nazorat xaritalari o`zlashtirilayotgan o`quv materiallari, uning birliklari — o`quv elementlari asosida tuziladi. Unda o`zlashtirilayotgan o`quv elementlari, ularni o`rganishga oid o`quv maqsadlari testga aylantirilgan maqsad, testning javobi, to`plangan ballarga mo`ljallangan grafalar bo`ladi. Testga aylantirilgan maqsadlarga quyiladigan ball miqdori o`quvchilarga oldindan aytildi, testning yechim i (kaliti) o`qituvchida saqlanadi.

Joriy nazorat uchun tuzilgan o`z-o`zini nazorat qilish xaritasida o`zlashtirilayotgan mavzu bo`yicha nechta o`quv elementi ajratilgan bo`lsa, shuncha miqdorda bolalarning o`quv maqsadlari, shuncha miqordagi testga aylantirilgan maqsadlar bo`lishi shart. Zero, testga aylantirilgan maqsadlarning javobini tahlil qilish yo`li bilan har bir o`quvchining qanday natijaga erishganini aniqlash mumkin. O`qituvchi shuni unutmasligi kerakki, o`z-o`zini nazorat xaritasida

keltiriladigan testga aylantirilgan maqsad o`rganilgan hodisani tanish (mas. undalmalarni matn tarkibida tanish) darajasida bulishi lozim.

Shunday qilib, joriy nazorat ta`limning borishi bilan daxldor bo`lib, mavzu bo`yicha axborotlar to`plash, to`planganaxborotlarga dastlabki ishlov berish, o`rganilgan hodisalarni boshqa hodisalardan farqlash, ularni taniy olish darajasida o`tkaziladi, testga aylantirilgan maqsadlarning murakkabligi, qiyinligi o`rganilgan bilimlarga oid hodisalarni tanish darajasida bo`ladi.

Joriy nazorat jarayonida testga aylantirilgan maqsadlar bo`yicha to`plangan ballar asosida sinf jamoasi gomogen guruhlarga ajratiladi, guruhlar uchun qiyinchiligi, murakkabligi hisobga olingan topshiriqlar belgilanadi, ta`limni borishiga qo`shimcha, tuzatishlar kiritiladi. Bular ta`limni yana bir bor takrorlashni osonlashtiradi, o`zlashtirishning navbatdagi darajasi — malaka darajasida o`zlashtirishga o`tishga imkoniyatlar yaratadi.

Joriy nazorat o`zlashtirishning birinchi darjasini (ko`nikma darjasida), oraliq nazorat esa malaka darajasida o`zlashtirilgan bilimlar asosida o`tkaziladi. Oraliq nazorat mohiyati jihatdan o`rganilgan axborotlarga ishlov berish jarayoniga to`g`ri keladi. O`quvchilar o`rganilgan bilimlarga rioya qilib faoliyat ko`rsatishadi, ularni turli o`quv va hayotiy holatlarga tatbiq qilishadi, o`rganilayotgan ob`yekt(lar)ning yangi-yangi xususiyatlarini kashf etishadi, bilimlarni yangi sharoitlarda sinab ko`rishadi.

Oraliq nazorat o`rganilayotgan mavzu yoki bo`lim bo`yicha umumiylar xulosalar chiqarish, voqealarni tushuncha darajasida o`zlashtirish jarayonlarida ham o`tkaziladi, shularga ko`ra oraliq nazoratda testga aylantirilgan maqsadning murakkablik, qiyinlik darjasini oshiriladi. Testga aylantirilgan maqsadlarni o`zaro taqqoslab ko`rish uchun oldingi sahifada keltirilgan jadvalni yana bir bor takrorlaymiz.

Joriy nazoratga o`xshab oraliq nazorat ham ta`limning borishi bilan daxldor, shu sababli ular mashg`ulotlarning tarkibida o`tkaziladi, ularga alohida o`quv soatlari ajratilmasligi kerak. Bu ularning o`xshash tomonlaridir. Ammo oraliq nazoratning o`zigagina xos xususiyati mavjud. Taqqoslang; joriy_nazorat to`liq o`zlashtirishning dastlabki bosqichida (mavzu bo`yicha axborot to`plash jarayonida) o`tkazilsa, oraliq nazorat axborotlarga ishlov berish — masala darajasida o`zlashtirish, shuningdek, mavzu yoki bulim yuzasidan


umumiylar xulosalar chiqarish — tushuncha darajasida o`zlashtirish bosqichlarida o`tkaziladi. “Oraliq nazorat” iborasi uning joriy va yakuniy nazorat o`rtasida o`tkazilishiga ishora emas, aksincha, bilimlarni yuqori daraja (etalon darajasi)da o`zlashtirishga yaqinlashganlikka diqqatini qaratishdir.

Hozirgi, endigina shakllanib kelayotgan ta`lim texnologiyasi pedagogik amaliyotida joriy va oraliq nazoratda uy vazifalari, qo`shimcha topshiriqlar, ijodiy ishlarni tekshirish orqali o`zlashtirish ballarini to`llash moyilligi paydo bo`lyapti. Bu ma`qul tendentsiya emas. Bizningcha, uy vazifasi, qo`shimcha topshiriqlar, ijodiy ishlar, konstruktiv yumushlarni ta`limning tashkiliy shakllari sifatida ajratish, mакtabda o`tkaziladigan mashg`ulotlarga ilova ishlar deb qarash ma`qulqga o`xshaydi. Bunday ishlarning natijasi hisobga olinishi zarur. Ammo ularni bolaning ta`limni yangi sharoitlarda takrorlayotgani sifatida qarash lozim. Haqiqiy reyting testga aylantirilgan maqsadlar asosida o`tkazilsa, nazoratning samaradorligi yanada oshadi.

Shu yerda bir hodisaga tanqidiy munosabat bildirishni joiz deb topdik. Ta`lim texnologiyasi amaliyotida mavzu yoki bo`lim bo`yicha to`planishi lozim bo`lgan ballarning ko`p miqdori joriy va oraliq nazoratga, juda oz miqdordagi ballar yakuniy nazoratga to`g`ri kelyapti. Bu unchilik to`g`ri emas. Ish shu yo`sinda ketaversa, eskicha protsentomaniya — foizbozlik o`rniga, yangi “ballomaniya” — ballbozlik paydo bo`lmaydimi? Bu birinchi. Ikknnchidan, joriy va yakuniy nazorat faqat ball to`plash uchun emas, aksincha, bolalarni ogohlantirish o`zlashtirishda qaerga kelib qolganlarini ularga tushuntirish, ta`limga tuzatishlar kiritish, uni yana bir bor takrorlash. kabi tabaqalashgan-differensial ta`limning ehtiyojga aylanganini o`quvchilarga anglatish maqsadlarida o`tkaziladi. Binobarin, joriy va oraliq nazoratlarda ta`limiylik ustun bo`ladi.

Yakuniy nazorat joriy va oraliq nazoratdan butunlay farq qiladi: unga alohida o`quv soati ajratiladi: u o`quvchilar bilim darajasi etalon darajasiga ko`tarilgach o`tkaziladi; unga ta`lim natijasi ta`lim jarayonidan ajratiladi. Ko`rinadiki, yakuniy nazorat ta`limning borishi bilan emas. nuqul ta`lim natijasi bilan daxldor hodisadir. Yakuniy nazoratda bulim yoki mavzu bo`yicha ajratilgan o`quv elementlarining barchasini o`zlashtirish etalonga taqqoslab tahlil etiladi, umumlashgan test yoki testlar tizimi vositasida natija tekshirilib, baholanadi. Shu

tufayli uni “nazorat ustiga qurilgan nazorat” deb qaraymiz. Reyting nazorati tizimini quyidagi chizma asosida tasavvur etish mumkin.



18.3. Baholash mezonlari

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagи 19-2018-son buyrug’iga asosan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risidagi” Nizom¹ ishlab chiqildi. Talabalar bilimini baholashda malakaviy amaliyat, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistratura bosqichida ilmiytadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo’yicha mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlari qo’llaniladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o’tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo’limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko’nikmalarini baholash maqsadida o’quv mashg’ulotlari davomida o’tkaziladi.

¹ Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.09.2018 й., 10/18/3069/1965-сон

Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o'tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan kam bo'lgan fanlar bo'yicha oraliq nazorat turi o'tkazilmaydi.

Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli tegishli fan bo'yicha kafedra tomonidan belgilanadi.

Yakuniy nazorat turi oliy ta'lim muassasasining tegishli fakulitet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Reyting nazorati.*
2. *Reyting nazoratining an'anaviy nazoratdan farqlarini aytib bering.*
3. *Joiy nazoratning o`ziga xos xususiyatlari ayting.*
4. *Oraliq nazoratning asosiy funksiyalari haqida ma'lumot bering.*
5. *Yakuniy nazorat qachon o'tkaziladi?*
6. *“Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi” Nizomni o'qib chiqing va baholash mezonlari haqida tushuncha bering.*

8-MODUL. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

19-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI, FANLAR BO‘YICHA PREZENTATSIYALAR TAYYORLASH.

Tayanch iboralar: *axborot texnologiyalari, kompyuter, operatsion tizimlar, tarmoqlar, pedagogik dasturiy vositalar, Virtual borliq, masofaviy ta’lim, ommaviy ochiq onlayn kurslar.*

19.1. Mutaxassislik fanlarini o’qitish jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalari

Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o‘qitish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo‘lib qoldi. Avvallari televizor, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor va boshqalar bajargan funksiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o‘z zimmasiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi.

Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, keljakda esa u har bir insonga qaerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o‘rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalariqatoriga: kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intelekt tizimlarini kiritish mumkin.

Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning

dasturiy ta'minoti;

- uskunaviy dasturiy ta'minot;
- virtual matn konstruktorlari, mul'tiplifikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik haritalar, ekran protsessorlari va x.k.;
- axborotlar majmui — ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar va x.k.;
- texnik ko'nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma'lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o'zlashtirish va h.k.).

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir.

Hozirgi kunda **kompyuterlar** ta'lim tizimida asosan to'rt yo'nalishda:

- o'rganish obyekti sifatida;
- o'qitishning texnik vositalari sifatida;
- ta'limni boshqarishda;
- ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

O'quv-tarbiya jarayonida kompyuterlar asosan to'rt tartibda:

- *passiv qo'llash* - kompyuter oddiy hisoblagich kabi;
- *reaktiv muloqat* - kompyuter imtihon oluvchi sifatida;
- *faol muloqat* - kompyuter talabaga yo'l - yo'riq berish va imtihon olishda;
- *interfaol muloqat* - kompyuter sun'iy intellekt sifatida, ya'ni talaba bilan muloqat qilishda foydalaniladi.

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalarini axborotlashtirishni;
- o'quv faoliyatni intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ta'lim tizimi infiltruzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarining birlashuvini;
- pedagoglar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishini;

- ta’lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqr o‘zlashtirilishiga;
- o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarini komp’yuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Portal - bu foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko‘lamli qulay interfeys orqali etkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi telekommunikatsiya tarmog‘i tuguni bo‘lib, u:

- ko‘p sonli foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishi;
- axborotlar ko‘lamining kengligi;
- asosiy tarmoq formatlarini qo‘llashi;
- oson va samarali qidirish tizimining joriy etilishi;
- axborot resurslari integratsiyasi;
- axborot xavfsizligini ta’minlashi;
- axborotlarni tabaqaqlashtirishi;
- bilimlarni boshqarish-tahlil etishi bilan tavsiflanadi.

19.2. Pedagogik dasturiy vositalar tushunchasi

Elektron pedagogika axborot kommunikatsiya texnologiyalar bilan to‘yingan (uyg‘unlashgan) axborot ta’lim muhitida o‘quv jarayonlarni o‘rganish, bashoratlash va tafsirlash bilan shug‘ullanadigan ilmiy yo‘nalish.

Elektron pedagogika - bu yuqori texnologiyali axborot ta’lim

muhitida ta’lim va tarbiyaning usul va shakllarini olib berish, o‘quv jarayonlarini o‘rganish, tavsiflash va bashoratlash bilan shug‘ullanidigan pedagogikaning yangi bir yo‘nalishi.

Pedagogik dasturiy vositalar - kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘srimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- > **o‘rgatuvchi dasturlar** - o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi **bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi**;
- > **test dasturlari** - egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;
- > **mashq qildirgichlar** - avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- > **o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar (Virtual borliq tizimlari)**.



Virtual borliq (Virtual'naya real'nost') tushunchasini Jaron Lanier (Lanъe) taklif etgan. Virtual borliq **immersivlik** va **interfaollik** tushunchalari bilan bog‘liq.

Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o‘zini faraz

qilishini tushunish lozim.

Interfaollilik foydalanuvchi real vaqtida virtual borliqdagi ob'ektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

Virtual borliq tizimi deganda - biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni qabul qilamiz. Interfaollikni ta'minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko'pmoddallikga, ya'ni ko'z bilan ko'radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo'lishi kerak. Bu amallarni amaliyatda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, katta hajmli tovush va videotizimlari, shuningdek odamning bosh qismiga o'rnatiladigan shlem va ko'zoynak displeylar, "hid sezadigan" sichqonchalar, boshqaruvchi qo'lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlataladi. YUqoridagilar ekzotik qurilmalarga tegishli.

19.3. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga qo'yiladigan talablar

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobjiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyatning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turlitumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy),

diqqati (qat’iylligi, boshqaga ko‘chishi), motivatsiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko‘rgazmalilik, o‘z vaqtida qayta aloqa yordamida o‘quvchilarning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag‘batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hisobga olib, o‘quv fani mazmuni hamda o‘quv masalalari murakkablik darajasi o‘quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o‘quv materialini o‘zlashtirishda ortiqcha hishayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta’sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test o‘tkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariga «mijoz-server» arxitekturasi, Internet-navigatorlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o‘qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o‘lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo‘nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko‘rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiatsiyalash (tabaqlashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do‘stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko‘zda tutadi.

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar - o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o‘quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko‘rinishida ta’minlashi. Fanlararo mantiqiy o‘zaro

bog‘liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta’lim oluvchiga o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

19.4. Mutaxassislik fanlarini o’qitishda masofaviy ta’limdan foydalanish

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o‘zgarmay kelgan holatlarni o‘zgrtirib yubordi. Bu odatdagи xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo‘ldi.

Endilikda esa ta’lim tizimida ta’lim olishning an’anaviy shakllari o‘rniga masofaviy ta’lim elementlari kirib keldi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘srimcha ravishda yangi o‘qitish shakli - masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi.

Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo’llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarini bajaradi.

Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzlusiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o‘quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo‘ladi.

Ma’lum sabablarga ko‘ra, ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil olish imkoniyati bo‘lmagan, masalan, sog‘ligi taqoza etmaydigan, mutaxassicligini o‘zgartirish niyati bo‘lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo‘lgan kishilar uchun masofaviy o‘qitish qulay o‘qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq. Masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma’lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya’ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

YUqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtida qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirib o‘tamiz.

Masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir.

Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtida va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim majmuaidir.

Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Nima uchun masofaviy ta’lim kerak bo‘lib qoldi? – degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- Ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog‘liqmasligi va boshqalar).
- Ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.
- Ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.
- Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
- Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

YUqorida sanab o‘tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o‘qitishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Masofaviy o‘qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagi qo‘llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);
- mamlakatning axborotlashuvi va komp’yuterlashtirish umumiy darajasi;
- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;
- ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo‘llanish darajasi;
- ta’limda qo‘llaniladigan an’analari;
- masofaviy o‘qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

- Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagи barcha o‘quvchilar, talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.
- Etakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potensiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish.
- Asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo‘srimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.
- Ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim muhitini kengaytirish.

- Uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish.
- Ta’lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipal ta’lim darajasini ta’minlash.

YUqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonida (xususan, masofaviy ta’lim jarayonini) qo’llash asosan ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo‘lsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanganligidir.

1. Texnik jihozlar bilan ta’minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qo‘rilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferensiya jihozlari va hakazo.

2. Dasturiy ta’minotga: Mavjud qurilmalarni ishlatajigan dasturiy ta’minotlardan tortib shu soha uchun mo‘ljallangan dasturlar to‘plami kiradi. So‘nggi yillarda G‘arbda ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llanilib kelinayotgan Internet yoki Interanet tarmog‘i orqali elektron shakldagi ta’lim turini Elearning (elektron ta’lim) atamasi bilan kirib keldi.



Masofaviy ta’lim modellari.

Elektron ta’limi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta’limning turli ko‘rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir.

Elearning o‘z ichiga elektron o‘quv kontenetrarni bilim oluvchiga etkazish usulidan kelib chiqqan holda guruhlarga ajratish mumkin.

YUNESKO institutining 2000 yildagi tahliliy tadqikot materiallarida (“Distance Education for the Information Society:

Policies, Pedagogy and Professional Development") keltirilgan masofali o'kitish modellarini keltiramiz:

Birlamchi (Yagonalik) modeli. Ushbu model tashkiliy tuzilishiga ko'ra faqat masofali o'qitishda va «masofali» talabalar bilan ishslash maqsadida tashkil etiladi. O'kitish shunday amalga oshiriladiki, bunda ta'limning kunduzgi shakli zarur bo'lmaydi. Barcha o'qitish masofadan amalga oshiriladi. Ushbu modelda o'qitishda xududiy markazlar bo'lib, ularda talabalar o'qituvchilardan maslahatlar olishi eki yakuniy imtihon topshirishlari mumkin.

Bunday oliyoxlarda o'qituvchilarga ham talabalarga ham o'quv faoliyatining shakl va uslublarini tanlashda katta erkinlik beriladi. Vaqt va o'quv jadvallariga qat'iy chegaralar qo'yilmaydi. Bunday tamoyilda o'qitish Ochiq universitetlarda, masalan, Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti (United Kingdom Open University – <http://www.open.ac.uk>) da tashkil etilgan.

Ikkilamchi (Ikkilangan) modeli. Bunday tizimda oliyox kunduzgi talabalarni ham, qisman kunduzgi va qisman masofali dastur asosida o'qitadi. Har ikkalasida ham dars jadvallari, o'qitish dasturlari, imtihonlari va baholash mezonlari bir xil bo'ladi. Odatda ikkilangan modelni rivojlantiraetgan oliyox kunduzgi talabalar soni masofali o'qiётган talabalar sonidan katta bo'lgan ana'naviy oliyoxlardir. Shuning uchun bir universitetning o'zida ikki shaklning birgaligida ko'proq o'zlarida katta o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan kunduzgi ta'lim olayotgan talabalar yutadilar. Bunday oliyoxlarda masofali kurslar har doim ham foyda keltirmaydi, ba'zan u qisman kunduzgi talabalarni o'qitish hisobidan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda asosiy urg'u tajribaga, pedagogika va uslubiy innovatsiyalar tadqiqotiga va boshqalarga beriladi. Masofali o'qitishning bunday modeli Avstralijaning yangi Angliya universiteti (University of New England, Australia – <http://www.une.edu.au>) da tashkil etilgan.

Aralash modeli. Ushbu model universitet talabalarini masofali o'qitishning turli shakllarini, aniqrog'i shakllarning integratsiyasini nazarda tutadi. Masalan, kunduzgi shaklda o'qiётган talabalar masofali o'qitish kurslarining dasturlaridagilarni yoki ushbu universitetining o'qituvchisi o'qiyotgan kunduzgi kurslari bilan parallel ravishda qisman o'qiydilar. Shuningdek, bu modelda an'anaviy kurslar doirasida virtual seminarlar, taqdimotlar, ma'ruzalar

ko‘rinishidagi mashg‘ulotlar alohida shakllarining birlashmasi bo‘lishi mumkin. Universitet axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan qanchalik yuqori jixozlangan bo‘lsa, shunchalik o‘qitish shakllari turli-tuman bo‘ladi. Integrallashgan bunday kurslar Yangi Zelandiyadagi Massey universitetida (Massey University, New Zealand – <http://www.massey.ac.nz>) tashkil etilgan.

Konsorsium. Ushbu model ikki universitetni birlashmasidan iborat. Bunda ular o‘quv materiallari bilan almashadilar yoki ba’zi vazifalarni bo‘lishib oladilar. Masalan, bir universitet masofali o‘qitish uchun o‘quv materiallar ishlab chiqaradi, boshqasi virtual o‘quv guruhlarini o‘qituvchilar bilan ta’minlaydi yoki masofali o‘qitish dasturlarini rasmiy akkreditatsiyasini o‘tkazadi. Bunday hollarda universitet butunlay éki uning alohida markazlari, fakul’tetlari, xatto ta’lim xizmati bozorida ishlayotgan tijorat yoki davlat tashkilotlari hamkor bo‘lishlari mumkin. Konsorsiumlar faqat qattiy markazlashgan boshqarish va yaratilayotgan ashyolarning mualliflik hamda material xuquqlarini rioya etish shartlaridagina samarali bo‘ladi. Kanadadagi Ochiq o‘quv Agentligi (Open Learning Agency, Canada – <http://www.ola.bc.ca>) konsorsiumga misol bo‘lishi mumkin.

Franchayzing. Franchayzing tamoyilida tashkil etilgan masofali o‘qitish modelida hamkor universitetlar bir – birlariga o‘zlarining masofali kurslarini beradilar. Bunda ta’lim xizmati bozorida o‘zini ko‘rsatgan qandaydir universitet o‘zida ishlab chiqqan kurslarini masofali o‘qitishni endigina tashkil qilayotgan va masofali o‘qitish uchun o‘quv ashyolarini mustaqil ishlab chiqish tajribasiga ega bo‘lmagan boshqa oliygox – hamkorlariga o‘qitish huquqini berishi mumkin. Bunday modelning qiziq tomoni shundaki, talabalar o‘zlarining universitetida o‘qishga yozilib, konsorsiumga kirgan ilg‘or oliygox talabasi kabi o‘sha hajmda va o‘sha sifatda ta’lim xizmatlariga, o‘qishni bitirganlaridan keyin xatto diplomlariga ega bo‘ladilar. Bunda ilg‘or universitetning barcha atributikalari o‘z kuchini saqlab qoladi. Franchayzing modeliga misol sifatida Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti qoshidagi Biznes Maktabi (Open University Business School, Great Britain) va uning Sharqiy Evropadagi universitetlari bilan aloqasini olish mumkin.

Validatsiya. Masofali o‘qitishning juda keng tarqalgan modeli bo‘lib, bunda ta’lim muassasalari masofali o‘qitish bo‘yicha

xizmatlarni barcha hamkorlari teng darajada bajarishlari haqida kelishuv imzolab oladilar. Ularning biri diplom validatsiyasi, kurs va dasturlarni akreditatsiyasini qiladi, rasman tan olinadigan diplom va sertifikatlarni berishga mas’ul bo‘ladi, ilmiy darajalar beradi va xokazo. Bosh oliygox (davlat akkreditatsiyasiga ega bo‘lgan taniqli oliygox) va uning xududlardagi ko‘p sonli filiallari orasidagi munosabatlar ham shu model asosida tashkil etiladi.

Uzoqlashtirilgan auditoriyalar. Bu modelda zamonaviy axborot texnologiyasi vositalari faol foydalaniladi. Qandaydir oliygoxda o‘tkazilayotgan o‘quv kurslar, ma’ruzalar yoki seminarlar talabalar yig‘iladigan uzoqlashtirilgan o‘quv auditoriyalarga sinxron teleko‘rsatuv, videoanjuman, radioeshittirish ko‘rinishida telekommunikatsiya kanallaridan uzatiladi. Bunda bir o‘qituvchi bir vaqtni o‘zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi. Ushbu model bo‘yicha AQSH ning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA) da, shuningdek, Xitoyning markaziy radio va televedenie universiteti (China Central Radio and TV University) da masofali o‘qitish tashkil etilgan.

Loyihalar. Davlat ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida keng qamrovlik loyihani amalga oshirish uchun mo‘ljallangan masofali o‘qitish modelidan iborat. Ushbu modelda asosiy ahamiyat o‘quv materiallarini ishlab chiquvchi asosiy mutaxassis xodimlar, masofali kurslarni olib boruvchi o‘qituvchilar va olimlar yig‘iladigan ilmiy – uslubiy markazga qaratiladi. Markazda ishlab chiqiladigan masofali kurslar u yoki bu davlat (xudud) ning katta auditoriyasiga uzatiladi. Bunday o‘qitish vaqtinchali hisoblanib, loyihada mo‘ljallangan ishlar bajarilgandan yoki tugagandan so‘ng tugatiladi. Bu modelga misol sifatida Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlarida turli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan qishloq xo‘jaligi, agrotexnikaning yangi uslublari, ekologiya bo‘yicha va sh.k. masofali o‘qitish kurslari olish mumkin.

Masofaviy ta’lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari

Elektron ta’limni tashkillashtirishning ko‘pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);
- Virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

- Ichkikontentniboshqaruvtizimlari CMS (Content Management Systems).

Hammamizga ma'lumki, har bir universitet yoki ta'lim muassasi o'z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining virtual axborot ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta'lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdag'i dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta'lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishslashlari shuningdek, ta'limga yo'naltirilgan fondlar tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar yaratilgan.

Bu o'quv modulimizda masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasinin gtahlili keltiriladi. O'quv modulida keltirilgan dasturiy majumalar tahlili ko'p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yozilgan.

O'quv muassasasida masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirishga qo'yiladigan texnik va dasturiy talablar

MT jarayonini amalga oshirishda qo'yida ko'rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin:

1-bosqich: Tahlil

2-bosqich: Loyihalashtirish

3-bosqich: Joriy qilish

4-bosqich: O'quv kontentlarini yaratish

5-bosqich: Ishga tushirish

6-bosqich: Rivojlantirish

1-bosqichda o'quv muassasining masofaviy ta'lim jarayoniga bo'lgan ehtiyojlari, ta'lim jarayonida qatnashayotgan foydalanuvchilarining soni, o'qitish usullari va shakllari, loyihani amalga oshirishdakerak bo'ladigan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihani iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi.

2-bosqichda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko'لامи va texnik topshiriqlayihalashtiriladi.

3-bosqichda esa tanlangan masofaviy ta'lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuua tegishli serverda o'rnatiladi, tizimga tegishli domen tanlanadi. Masofaviy ta'lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuasidan foydalanish va unga texnik qo'llab

quvvatloshchi ishchi xodimlarni o'rgatish bo'yicha o'quv mashg'ulotlar tashkillashtiriladi.

4-bosqichda masofaviy ta'lif jarayonining asosiy elementlaridan biri bo'lmish o'quv kontentlar o'quv bo'limi va soha mutaxasislari bilan hamkorlikda yaratiladi. YAratilgan o'quv kontentlar eskpertlar tomonidan tekshiriladi.

5-bosqichda masofaviy ta'lif jarayoni ishga tushiriladi. Ta'lif jarayonida o'quv jarayoni doiyimi nazoratda bo'lib turadi. Tizimdagi havfsizlik choralari monitoring qilib boriladi.

6-bosqichda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo'lgan kamchiliklar to'g'rilanadi, yangi o'quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo'lgan ishlar ko'lami bajariladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Axborot texnologiya nima?
2. Ta'lifda axborot-kommunikasiya texnologiyalari haqida ma'lumot bering.
3. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lif jarayonlariga joriy etish zaruriyatini asoslang.
4. Pedagogik dasturiy vositalar tushunchasini izohlang.
5. Pedagogik dasturiy vositalarni qaysi turlarga ajratish mumkin?
6. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga qanday talablar qo'yiladi?
7. Masofali o'qitishning nazariy va didaktik asoslarini aytib bering.
8. Masofaviy ta'lif jarayonini amalga oshirish bosqichlari qaysilardan iborat?
9. Masofaviy ta'lif tizimida o'quv jarayonini tashkillashtirish usullari haqida ma'lumot bering.

20-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Tayanch so‘zlar:texnologiya, pedagogic texnologiya, innovatsiya, texnologik jarayon, texnologik operatsiya, texnologik xarita, texnologik rejim, tadqiqiy-ijodiy ta’lim texnalogiyasi, ishbilarmonlik o‘yinlari texnalogiyasi, muammoli o‘qitish texnalogiyasi, individuallashtirilgan ta’lim texnalogiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyasi, interfaol usullar

20.1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati

Demokratik, huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatni asoslarini rivojlantirishning eng muhim masalalaridan biri mamlakatimiz ilmiy salohiyatini rivojlantirish masalasidir. Darhaqiqat, ilmiy salohiyatni taraqqiy ettirmay, mamlakatni iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy madaniy rivojlantirib bo‘lmaydi. Ilmiy salohiyat esa ta’lim-tarbiya vositasida yuksaladi. Shu sabab mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda barcha sohalar bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirildi. Shulardan biri “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bo‘ldi.

Chunonchi, “Ta’lim O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O‘sib kelayotgan avlodningbarcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzlucksiz takomillashadi, kata avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi”¹ – deb ta’kidlagan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov. Bu ta’kid mamlakat ta’lim mazmunini o‘zgartirishni uni amalda tadbiq etish jarayonini.... **zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta’minalashni”²** joriy etishni taqozo etadi. Chunki ta’lim texnologiyalari ilmiy kadrlarni tayyorlash va ularning intellektual salohiyatlarini yuksaltirishda ta’lim jarayonini optimallashga, o‘zlashtirish natijalarini kafolatlashga, buning uchun

¹Karimov I.A. “O‘zbekiston buyuk keljak sari” – Toshkent “O‘zbekiston” 1998, 62-bet.

²Karimov I.A.” O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” – Toshkent “O‘zbekiston” 2000, 30-bet.

esa ta’lim shakllari, metodlari, vositalarini qulaylashtirishga xizmat qila oladigan texnologiyadir.

2017 yil 20 aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari qatorida o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish asosida yanada takomillashtirish masalasi ham joy olgan¹.

Darhaqiqat, an’anaviy ta’lim talaba-yoshlarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatsa, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari esa bilim oluvchilarni o‘rganayotgan mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni, o‘zlari izlanib topishlariga, mustaqil o‘zlashtirib, tahlil qilib shaxsiy mulklariga aylantirishga chorlaydi. Bunda pedagog yo‘naltiruvchi, boshqaruvchi funksiyasini o‘tab, o‘quvchi-talabalarning shaxsini shakllanishi, rivojlanishi, bilim olish dunyoqarashini tarkib topishiga sharoit, imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy texnologiya deyilganda zamon talablarini qondira oladigan, uni ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy va madaniyma’rifiy taraqqiyotini tezlashtira oladigan texnologiyani tushunmoq darkor. Zero, zamonaviy texnologiya asosini **innovatsiya** (inglizcha innovation – yangilik, yangilik yaratish) termini tashkil etadi. Shu ma’noda innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog va talaba faoliyatiga o‘zgartirishlar, yangilik kiritishni anglatadi va o‘quvchi madaniyati hamda ta’lim ustuvorligini ta’minlaydi.

Chunonchi: a) mashg‘ulot davomida (nazariy, amaliy) o‘quvchilarning ijodiy munosabatini, ijod qilish, izlanishga da’vat etishi; bilim olishga nazariy mashg‘ulotlarni mustaqilegallahsha qiziqishlarini uyg‘otishni ta’minlashga; talabani ta’lim obyektidan ta’lim subyektiga aylanishiga; b)mashg‘ulotda pedagog va talabaning doimiy hamkorlikda ishlashlarini yo‘lga qo‘yishini amalga oshiradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сонли «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель

Oqibatda o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalarning qo‘yilgan maqsadga erishishi kafolatlandi.

Shunday qilib, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari o‘zlashtirishni faollashtirib, maqsadga erishishni ta’minlaydigan, natijani kafolatlovchi texnologiya ekan, avvalo, uning nazariy va amaliy asoslarini yorituvchi tushunchalar “Texnologiya”, “Zamonaviy texnologiya”, “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalar”ning mazmun-mohiyatini anglash, tushunib olish talab etiladi. Bu tushunchalarning mazmun-mohiyati, birinchidan bu tushunchalarga berilgan lug‘aviy izohlarda, ikkinchidan bu tushunchalarga berilgan ta’riflarda namoyon bo‘ladi.

“Texnologiya” so‘zi 1872 yilda fanga kiritildi va u yunoncha “texne” – mahorat, san’at hamda “logos”-fan, ta’limot tarzida ishlatila boshlandi va unga quyidagicha izoh berildi:

“-bu fan taklif etgan algoritm, vosita va yo‘llar tizimi bo‘lib, ishlatilganda oldindan belgilangan faoliyat natijalariga olib kelib, sifatli va miqdoriy mahsulot chiqishini ta’minlovchi jarayondir”¹.

Texnologiya tushuncha asosan ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bundan texnologik jarayon, texnologik operatsita, texnologik harita, texnologik rejim tushunchalari “Texnologiya” so‘zining mohiyatini yaratishda kalit rolini o‘ynaydi. Shundan **texnologik jarayon** – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisidan iborat bo‘lsa, **texnologik operatsiya** – ishchi yomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi deb ta’kidlaniladi.

Texnologik xarita – ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjatdir.

Texnologik rejim esa texnologik operatsiyalarni amalgalashirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan opertatsiyalarning vaqtini, shartlarini belgilaydi² deb qayd etiladi. Bu moddiy ishlab chiqarishni yaxshilash, takomillashtirish uchun texnologik jarayonni mukammallashtirish

¹Ibragimov X.I. Pedagogika-psixologiya – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007, 27-bet

² Ta’lim samaradorligni oshirish yo‘llari seminar-trening materiallari – Toshkent, 2002, 34-bet

lozimligini uqtiradi. Bu jarayonni mukammallashtirish ilm-fan, texnika yutuqlariga tayanish, yuksak malakali mutaxasislarga ega bo‘lish, yirik moddiy mablag‘ mavjudligi bilan amalga oshishini tajriba ko‘rsatmoqda.

Xuddi shuningdek, bugungi taraqqiyot, fan-texnika rivoji kasbga tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxassislarning ham yuksak mahorat va malakaga ega bo‘lishi taqozo etadi. Buning uchun esa mutaxassislar tayyorlaydigan o‘quv yurtlari, umuman, uzlucksiz ta’lim tizimidagi o‘quv-tarbiya jarayoning *pedagogik texnologiyalarga* tayanib tashkil etish zarurati tug‘ilmoqda. Chunki, bugungi kunda murakkab va serqirra texnika bilan ishlay oladigan, fanni va ishlab chiqarish jarayonini mufassal rivojlantira oladigan malakali kadrlar lozim bo‘lmoqda. Buning yagona sharti ta’lim tizimini texnologiyalashtirishdir. Bu deganimiz o‘qituvchi-pedgogning o‘qitish jarayonining unsurlari(shakl, metod, usul, vositalari)ni yaxlitligi, izchilligi, natijaviyligini ta’minalash yordamida o‘quvchi-talabalarga jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan loyihalashgan, ularda zamonaviy bilim, ko‘nikma, malakalarni singdirish demakdir.

Ma’lumki, ilmiy pedagogik nashrlarda qayd qilinishicha ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish g‘oyasi XX asrning 30-50 yillarida G‘arbiy Yevropa va AQSH da o‘qitish uchun zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda didaktik amallarni muayyan izchillik hamda tizimlik asosida qo‘llash lozimligi tarzida talqin etilib, ular shaxs uchun zaruriy ijtimoiy sifatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi deb izohlandi. Shu tariqa dastlab, ta’limning texnik vositalarini qo‘llash “ta’lim texnologiyasi” sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, so‘ngra XX asrning 60 yillarida ta’limni dasturlash “ta’lim texnologiyasi” mohiyatini olib beruvchi omil sifatida qarala boshlandi.

Shunday qilib, “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasi XX asrning 30 yillarida, o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etuvchi usul va vositalar vositasi XX asrning 50 yillarida ta’lim jarayoniga texnik vositalarni qo‘llash tarzida, XX asrning 60 yillarida dasturiy ta’lim ko‘rinishida tashkil etildi. Shu yillarda ta’lim texnologiyasi masalalarini taqiq etuvchi tashkilotlar hamda ilmiy журнallar chop etila boshlandi¹.

¹ Tolipov O’.Q, Usmonova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiylarasi –Toshkent, “Fan” 2006, 9-10 betlar.

Keyinchalik bu muammo MDH da, mamlakatimizda pedagog-olimlar tomonidan rivojlantirilib “Pedagogik texnologiya” atamasi bilan ta’lim va tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish masalasiga bag‘ishlandi va bu olimlar tomonidan “Pedagogik texnologiya” atamasiga berilgan ta’riflar yordamida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmun mohiyatini yoritishga harakat qilindi.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, har qanday natijaga, yutuqqa inson faoliyati orqali erishiladi. Zero, V.P.Bespalko ta’kidlaganidek “Har qanday aoliyat yoki texnika san’atdir. San’at intuitsiyaga, texnologiya-fanga asoslanadi. Hamma narsa san’at bilan boshlanib, texnologiya bilan tugaydi va ana shunday boshlanadi”¹. Demak, faoliyat samarali bo‘lishi, o‘qitish-o‘qish ko‘zlangan natijaga erishishi uchun ta’lim beruvchi va ta’lim o‘rganuvchi texnologiya bilan qurollanishi va uni san’at darajasida egallashi lozim. Shundagina ko‘zlangan marraga yetish, maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Qayd etib o‘tilganidek ta’lim jarayoniga texnologik yondashish AQSH va G‘arbiy Yevropa pedagog olimlari hamda psixologlari B.Blum, J.Blok, N.G.Gronlund, D.Kratvol, J.Kerrol, L.Anderson, V.Gerlax, R.Gens va boshalar tomonidan kashf etildi. Bu muammo MDH mamlakatlari pedagog-olimlari tomonidan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning muayyan sharoit va ajratilgan vaqtida aniq bilim olishlariga imkoniyat yaratish, mashg‘ulotni loyihalash hamda natijani oldindan kafolatlashga yo‘naltirilgan, qayta tiklanadigan pedagogik siklni o‘z mazmunicha qamrab olgan pedagogik texnologiyalarga asos solindi.

O‘.Q.Tolipov va M.Usmonboyevalarning ta’kidlashlaricha AQSH va G‘arbiy yevropa mamlakatlarining oliy ta’lim maktablarida “Pedagogika” fani o‘qitilmaydi. Shu bois “Pedagogik faoliyat”, “pedagogik tizim”, shuningdek, ularga bog‘liq ravishda yuzaga keluvchi “Pedagogik texnologiya” tushunchasi ham iste’molda yo‘q. Ammo MDH (shu jumladan O‘zbekiston mamlakati)da o‘qituvchi-tarbiyachilar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’limiy hamda tarbiyaviy jarayonni qamrab oluvchi “Pedagogika” fani o‘qitiladi. Shu nuqtai nazardan shaxsning yetuk kamoloti ikki faoliyat - ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining samarasi sifatida

¹ Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М, педагогика 1999, 5 бет

namoyon bo‘lganligi inobatga olinib muammoga “Pedagogik texnologiya” tushunchasi qo‘llanilmoqda.

MDH mamlakatlari pedagog-olimlari V.P.Bespolko, V.M.Klarin, Yu.K.Babanskiy, V.A.Slastyonin, N.H.Avliyoqulov, N.S.Saidahmedov, I.F.Xarlamov, B.T.Pikachyov, S.K.Islamchulova, K.Z.Zaripov, T.K.Selevko, U.N.Nishonaliyev, B.L.Farberman, B.M.Monaxov, M.A.Choshanov, P.A.Yusyabichens, N.E.Shurnova, I.Ya.Lerner, B.G‘.Ziyomuhammadov, B.Q.Xo‘jayev, T.S.Nazarova, Sh.Sh.Olimov, T.Sokomoto, J.G‘.Yo‘ldoshev, M.Usmonboyeva va boshqalar tomonidan “Pedagogik texnologiya” nazariyasi hamda amaliyotiga asos solindi va rivojlantirildi. Bu pedagog-olimlar tomonidan pedagogik texnologiyalarga berilgan ta’riflar zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining mazmun-mohiyatini ochib bera oladi.

MDH mamlakatlaridan o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiya qo‘llash bo‘yicha birinchi harahat Rossiyada amalga oshirildi. Uning hayotda qo‘llanihi zarurligini V.P.Bespalko ilmiy asoslab berdi va pedagogik texnologiyani shunday ta’rifladi: “Pedagogik texnologiya – o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik faoliyat muvaffaqqiyatini kafolatlay oladigan hamda o‘quvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayonning loyihasidir”. Bu ta’rifda pedagog o‘qitish jarayoni unsurlari(maqsad, vazifa, mazmun, shakllar, metodlar va h.k.)ni shunday loyihalaydiki, bunda bilim oluvchilar ta’lim vazifalarini mustaqil yechish imkoniyatiga ega bo‘lishlari qayd etiladi.

Akademik Yu.K.Babanekiyning ta’rifiga ko‘ra pedagogik texnologiya “O‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro bog‘langan va ta’lim maqsadini hal etishga yo‘naltirilgan faoliyatini tartibga soluvchi usul” deb qayd etilsa, akademik B.T.Lixachyov “O‘qitish(ta’lim)jarayonining shakl, metod, usul, yo‘l hamda tarbiyaviy vositalarining maxsus yig‘indisi va joylarini belgilab beruvchi psixologik tartiblar majmui, tashkiliy-uslubiy vositalari”-deb ta’riflanadi.

I.Ya. Lerner “Pedagogik texnologiya – o‘quvchilar harakatlarida aks etgan o‘qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi” deb pedagogik texnologiya mohiyatini ochib beradi.

M.B.Klarinning fikriga ko‘ra pedagogik texnologiya “Pedagogik maqsadlarga erishish yo‘lida foydalilaniladigan barcha shaxsiy,

uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig‘indisi va ularning amal qilish tartibi” deb ko‘rsatiladi.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiya berilgan boshqa ta’riflarda (I.L. Volkov, I.P.Pidkasenkiy, V.V.Yudin,M. CHashanov) ham mavjud bo‘lib, fikrimizga ularning birortasi BMT huzuridagi nufuzli tashkilot YUNESKOning ta’rificha “Pedagogik texnologiya mazmun mohiyatini yoritish darajasida emas, mazkur xalqaro tashkilot YUNESKONING ta’rifiga ko‘ra,”Ta’lim texnologiyasi – ta’lim modelarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro tasirini hisobga olgan holda, butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir “¹. Bu ta’rifda pedagogik texnologiya ta’limga tizimli yondashuvi ta’moyili asosida izohlanadi. Qolgan barcha keltirilgan ta’riflar pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyati o‘quv jarayonini loyihalash, tashkiliy –uslubiy vosita yig‘indisi sifatida qayd etiladi.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, “Pedagogik texnologiya “mazmun – mohiyatini ifodalash o‘zbekistonlik pedagog olimlar tomonidan ham amalga oshirilda. Buning bosh sababi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997- yil 29 –avgust) vazifalarini amalda tadbiq etishdan iborat bo‘ldi . Bu dedektiv hujjatlar talablari asosida mamlakatda ta’lim tuzilishi yangilandi. Bir bosichli oliy ta’limdan ikki bosqichli (bakalavriat va magistratura) oliy ta’limga o‘tildi. SHu munosabat bilan oliy ta’lim mazmuni ham yangilandi. Ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotni aks ettiruvchi yangi fanlar, yangi mazmundagi ilmiy- nazariy bilimlar o‘quv rejasiga kiritildi. Endi bu yangi mazmundagi fanlarni steriotip (eski) modeldagи o‘quv unsurlari bilan o‘rgatish jamiyat talabini qondirmay qoldi. Shuning uchun yangi mazmundagi fanlarni o‘qitishda o‘quv jarayoning tashkilotchisi, amalga oshiruvchisi va boshqaruvchisi qilib faqat o‘qituvchini belgilash va ayni paytda ta’lim oluvchini ta’lim obyekti qilib qo‘yish, uning mas’ulligini, ijodiy faoliyatini chegaralab qo‘yish mumkin bo‘lmay qoldi. Ayniqsa, fan texnikaning jadal rivojlanayotgan, axborotning keskin ko‘payib borayotgan bir davrida uzluksiz ta’lim jarayonini yangicha qurish yo‘llarini ishlarini ishlab chiqish lozim bo‘ldi.

Respublika pedagog-olimlari oldida o‘qitish–o‘qish ishlarini jadallashtiradigan samarali va tejamlı o‘quv –tarbiya jarayonini tashkil

etishga ko‘maklashuvchi, qayta takrorlanadi, bilim oluvchilarning o‘quv – biluv faoliyatlarini ijodiy – texnikaviy tafakkur asosida tashkillashtiriladigan pedagogik jarayoni yaratish vazifasi qo‘yildi. Bu vazifani hal etishning yagona yo‘li pedagogik texnologiya deb e’tirof etildi va u respublikamiz ta’lim muassasalarida qo‘llanila boshlandi.

Xorijiy hamda MDH mamlakatlari pedagog- olimlari tomonidan ilmiy -nazariy va ilmiy-metodik jihatdan asoslangan pedagogik texnologiyalar o‘rganilib, unga e’tirof bildirish boshlandi .

Natijada mamlakatimizning pedagogik matbuotida “Yangi pedagogik texnologiya (Ochilov M.O., Sayidahmedov M.S.), “Ilg‘or pedagogik texnologiya” (Farberman B.R., Ziyomuhamedov B.) “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari” (Avliyoqulov N.H., Abdukarimov H.) “Pedagogik texnologiya”(Azizzxo‘jayeva N.N., Tolibov O’.Q., Usmonboyeva M.) va boshqa shu kabi nomlar bilan risolalar, o‘quv qo‘llanmalar chop etila boshlandi .

Bu risolalar va o‘quv qo‘llanmalardagi “Pedagogik texnologiya” tushunchasiga ta’riflar berilganki ular muayyan tarzda pedagogik texnologiya mazmun – mohiyatini ocha oladi. Jumladan, N.S. Sayidahmedov ta’rifiga ko‘ra “Pedagogik texnologiya- bu o‘qituvchi (tarbiyachining o‘qitishi (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba) larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va aks ta’sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllantirishni kafolatlaydigan jarayondir”. Bu ta’rifda texnologik jarayon asos qilib olinib, bunda ishlab chiqarish jarayoni uchun kerakli bo‘lgan usul va vositalar muhim bo‘lgani kabi o‘qitish va tarbiyalashda ham bu vositalarning roli beqiyos bo‘lib, ularni o‘qituvchi (tarbiyachi) oldindan tanlay olishi va qo‘llashi, ta’lim – tarbiya unsurlaridan mukammal foydalana olishi talab etiladi .

B.L.Farberman fikriga ko‘ra, “Pedagogik texnologiya – ata’lim jarayoniga yangicha jarayon bo‘lib pedagogikada ijtimoiy muhandislik ong ifodasidir. Upedagogik jarayoni texnika vositalari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, unig optimal loyhasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir”. Ushbu ta’rifda pedagogik texnologiya o‘qituvchi – pedagogning mahorati va texnik tafakkur uyg‘unligida ta’lim- tarbiya vazifalarini hal etadigan ijtimoiy hodisa sifatida e’tirof etiladi.

M.Ochilov “Pedagogik texnologiyani tizimli texnologik yondashuvlar asosida ta’lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash hamda texnik vositalarining o‘zaro ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirish jarayonlarida qo’llanadigan usul va metodlar majmuasidir”, - deb ta’riflaydi. Bu ta’rifda pedagogik texnologiya ta’lim maqsadlarida erishishda o‘qitishning tashkiliy shaklarining eng muhimini faoliyatga qo’llab, ta’limning metod va usullarini tanlab, o‘quvchi-talabalarni bilim bilan qurollantirish o‘zlashtirish sifatini yaxshilashga qaratilgan malum yondashuv deb qaraladi. Bunda ta’lim shakllari, metodlari va usullari yaxlit bir yig‘indisi keltirilib, faoliyatda qo’llaniladigan ta’lim unsurlariga tizimli, mazmunli yondashuv tushuniladi.

Bunday qarash yapon olimi T.Sakomatoda ham ko‘zga tashlanadi. “Pedagogik texnologiya –bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayoni muayyan bir tizimga keltirishdir”.

B.Ziyomuxammedov, Sh.Abdullayevlar ham o‘quv jarayoniga tizimli yondashish nuqtayi nazridan qarab pedagogik texnologiya shunday ta’rif bergan “Pedagogik texnologiya – bu millat extiyojidan kelib chiqan kishi ijtimoiy shartlarni samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini mazmuni sifatida ko‘rib, o‘qitishni tashkil qiluvchi qismlari bo‘lgach o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma –ketlikda ko‘rsatgan ta’rifini nazoratda tutuvchi va ta’lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir”.

Bulardan tashqari, o‘zbekistonlik yana bir guruh pedagok-olimlari (N.N.Azizzxo‘jayeva, K.Z.Zaripov, O’.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva, B.Q.Xo‘jayev, Sh.Sh.Olimovlar)ning pedagogik texnologiya atamasiga bergan ta’riflari mavjudki, ularda pedagogik texnologiyalarning muayyan xususiyatlari, ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari, pedagogik jarayon belgilari o‘z ifodasini pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyotidan topgan.

Pedagogik texnologiya – pedagogik faoliyatni bosqichma-bosqich amalga oshirib, ta’lim va shaxsning barkamol bo‘lishi, taraqqiy etishiga qaratilgan maqsadga erishishning tizimli loyihasidir (N.N.Azizzxo‘jayeva).

- Pedagogik texnologiya izchil va ketma- ket amaliy faoliyatga, ta’lim – tarbiya jarayoniga avvalgi rejalarshirilgan maqsadni amalga oshirishga hamda ma’lum loyihani pedagogik tizim amaliyotiga qo’llashdir (K.Zaripov);

- Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolotlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir (O’.Tolipov, M.Usmonboyeva).

- Pedagogik texnologiya – muayyan maqsad natijaviyligini ta’minalashga qaratilgan ta’lim – tarbiya jarayonining qoidalari, usullari, shakllari, vositalarining mukammaligini anglatuvchi bilimlar yig‘indisi yoki san’atdir (B.Xo‘jayev, Sh.Olimov).

Xorijiy davlatlar, MDH mamlakatlari, o‘zbekistonlik pedagog - olimlar tomonidan keltirilgan ta’riflarni ilmiy – pedagogik jihatdan tahlil qilish shu xulosaga olib keldiki, ularda pedagogik texnologiyaning mazmun mohiyatini anglata oladi va ular hozirgi taraqqiyot bosqichida demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat asoslarini rivojlantirish sharoitida ta’lim islohotlarini amalga oshirishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘la oladi .

Shunday qilib, zamonaviy o‘qitishning texnologiyalarning, ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyot ehtiyojlarni kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarning maktabdagagi ta’limda pedagogika fanlarni o‘qitish va o‘rgatish jarayonini tartiblangan, o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlitlikka keltirib, yuksak pedagogik malaka, bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qila oladigan e’tirofga qilish imkonini beradi.

Buning uchun esa jamiyat ehtiyojidan kelib chiqgan holda yagona bir maqsadga qaratilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatli natijalari berishga qodir bo‘lgan pedagogik jarayon loyihasini ishlab chiqish lozim. Bu jarayonda o‘qitish texnologiyasining tarkibiy tuzulmasi quyidagicha bo‘ladi.

Rasmdagi namoyishdan ko‘rinib turibdiki, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining o‘zaro ta’siri asosida amalga oshadigan maqsad va kutiladigan natija o‘qitish mazmuni, shakl, metod, usul, topshiriqning hajmi va texnik vositalarga yangi texnologiyalarga bog‘liq . Buning uchun o‘qitish texnologiyasining unsurlari (mazmun, shakl, me’yor, usul, topshiriq, hajmi, texnik vositalar) aniq bir yo‘nalishda, yaxlitlikda, ya’ni maqsadni amalga oshirilmoqqa qaratilishi lozim .

Shundagina bilimli malakali, raqobatdosh o‘quvchi- yoshlarni o‘qitish va tarbiyalashdagi malakali kadrlar yetishtirilishi ta’minlanadi.

20.2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari

Maktabgacha ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ talablariga ko‘ra ta’limni jadallashtirish, ta’lim – tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi mavqeyini o‘zgartirish, og‘zaki va yozma tafakkurga asoslangan ta’limdan taxnik tafakkurga o‘tish, ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay qisqa vaqt ichida yuksak natijaga erishishga olib keluvchi ta’lim jarayoniga o‘tish bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarga yuksak kasbiy bilim berish bilan ular ma’naviy axloqiy barkamolligini ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi pedagogik tizim asosida olib borilsagina o‘z maqsadiga erishadi . V.P.Besnalkoning fikricha, pedagogik tizim bir butun o‘zaro bog‘liq yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo‘lib : o‘quvchi (1); tarbiya maqsadi (umumiylashtirish) (2); tarbiya mazmuni (3); o‘quv tarbiya jarayoni (4); o‘qituvchi yoki texnika vositalari (5); ta’lim- tarbiyaning tashkiliy shakllaridan (6) iborat.¹ Bu tizimni faoliyatga tadbiq etib qisqa vaqt oralig‘ida ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish ular egallagan bilim, ko‘nikma, malakalar darajalarini baxolash, ularda kasbiy maxoratni singdirish pedagogdan katta maxorat va ilmiy-metodik saloxiyat talab etiladi. Buning uchun o‘qituvchi-tarbiyachi oldingi paragrifda ta’kidlaganimizdek o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini mukammal egallashi lozim.

Hozirgi kunda xorijiy, MDH mamlakatlarida hamda Respublikamiz ta’lim muassasalarida ko‘plab ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga va ularni ilmiy asoslashga intilishlar mavjud. Ayni vaqtida ta’lim muassasalarida (umumiylashtirish) o‘rtalama, o‘rtalama maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim maktablari) da tadqiqiy-ijodiy ta’lim texnologiyasi, ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi, muammoli o‘qitish texnologiyasi, individuallashtirilgan ta’lim texnologiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi, modeli ta’lim texnologiyasi, differensiyalashgan ta’lim texnologiyasi,

¹ Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М, Педагогика. 1999. 6-7 betlar.

“Bumerang” texnalogiyasi, FSMU texnalogiyasi va masofaviy o‘qitish texnalogiyasi kabi o‘qqitish texnalogiyalarining ijodiy va samarali foydalanilmoqda. SHulardan ayrimlarining tashkiliy mazmuni ustida to‘xtalamiz.

Tadqiqiy-ijodiy ta’lim texnalogiyasi. Mazkur ta’lim texnalogiyasi talabalarni izlanishga, mustaqil o‘qish–o‘rganishni tarkib toptirishga, ijodiy fikrlashga, muammolarni yechish qobiliyatini o‘sirishga, yangi bilim (tajribalar)ni tadqiqiy o‘zlashtirishga va ma’lumotlarni o‘zlashtirish yo‘llarini izlab toppish ko‘nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan texnalogiya hisoblanadi. Bunday ta’lim texnologiyas faoliyatga mustaqillik berib, o‘quvchi(talaba)ni olsak ijodiy ishlashga yo‘naltiradi. Pedagogika faollari mazmunidagi zarur, kerakli, talab etilayatgan masalani talaba (o‘quvchi)ning o‘zi izlab topishga harakat qiladi. Bu harakatlar, izlanishlar albatta pedagog ta’lim o‘rgatuvchi tomonidan yo‘naltiradi, boshqariladi va rag‘batlantiriladi. Bunday talaba (o‘quvchi) ning mustaqiligi, tashabuskorligi, izlanuvchanligi pedagog tomonidan qo‘llab-quvatlansa, talabaning intilishi,qiziqishi, ijodiy fikrashi rag‘batlantirib borilsa, tadqiqiy- ijodiy ta’lim texnologiyasi o‘z maqsadiga erishadi. Shuning uchun bu ta’lim texnologiyasi xozirgi ilmiy – pedagogik nazarya (maxsuldor) ta’lim texnologiya variyanti deb yuritilmoqda. Tajribalarning ko‘rsatishiga tatqiqiy ta’limda o‘qitish ishlarining teatrlashgan rolli o‘yinlar, muamoli maruzalar bahs – munozarali amaliy mashg‘ulotlar kabi ta’lim shaklari va aqliy xujum tanqidiy fikrash, kichik guruxlarda ishslash, munozara kabi o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali qo‘llanilishini nazarda tutadi.

Buning natijasida bilimlar talaba tomonidan mustaqil- ijodiy o‘zlashtirilganligi, o‘z fikr muloxazalari va guruhdoshlarining fikrlariga tanqidiy yondoshqanligi tufayli, talabada mustaqil, erkin mushohada yuritishi, ijodiy fikrash, taxliliy yondoshishi rivojlanadi. Maskur texnologiyaning ta’limiy tarbiyaviy axamyati shundaki, u katta kuch, mablag‘ va texnika vositalarini qo‘lashni ta’lab etmaydi, ammo ta’lim oluvchilarda ma’lumotlar to‘plash, modellash, ularni sinovdan o‘tkazish, tatqiqiy, ijodiy tanqidiy mustaqil fikrash, dalillar keltirish qarorlar qabul qilish munosabat bildirish, yangiliklarni qabul qilish va qo‘llash, axloqiylik, ma’naviyatlilik ijtimoiy ma’sulliyatlilik, intelektuallik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat

qiladi. Shu bois pedagogik turkum fanlarni mактабга та’лимга о‘qитишда унумли foydalanish maqsadga muofiq.

O‘yinli texnologiyalar. Bu texnologiya bilim oluvchilar faolligi va faoliyatni jadallashtirishga qaratilgan texnologiya hisoblanadi. Shu bois bu texnologiya o‘quvchi (talaba) larda faoliyatni jadallashtirish, faolligini oshirish, bilimlarni egallash, ko‘nikma va malakalrni shakllantirish o‘qishga qiziqish va havasni uyg‘otish kabi masalalarni qamrab oladi. Bunda talabaning o‘z – o‘zini to‘la ifoda etish, imkoniyatini ro‘yobga chiqarishi, ehtiyojini qondiruvchi, musobaqaga kirishi orqali amalga oshiriladi. O‘yin texnologiyasi bir necha turli bo‘lib, pedagogik o‘yin aqlliyl rivojlanishni ta’minlaydi. Pedagogik o‘yin aniq qo‘yilgan maqsad va unga ta’luqli natija bilan farqlanib o‘quv – biluv yo‘nalishini belgilashi o‘yining o‘ziga xos belgisi hisoblanadi .O‘yin jarayonida kutilgan natijaga asoslangan o‘quv tayyorgarligi faoliyatiga ega bo‘lish orqali amalga oshiriladi. Pedagogik nazaryada pedagogik o‘yinlarning tasnifi (klassifikatsiyasi) G.K.Selevko tomonidan tafsiya etilgan¹.

Shu o‘rinda etirof etish joizki oliy, o‘rta maxsus kasb hunar maktablari o‘quvchilari pedagogika fanlarni o‘qitish bo‘yicha tashkil qilinadigan pedagogik o‘yinlar ta’limiy-tarbiyaviy, bilim oluvchi faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiy mavqeni amalga oshirishga yo‘naltirilgan,o‘rganilishi nazarda tutilgan o‘quv materialini nazariy – amaliy o‘zlashtirishga, mustahkamlashga va talabaning ijodiy amaliy qobiliyatini o‘sirishga qaratilmog‘I darkor. Bu esa talabalarda turli vaziyat hamda holatlarda o‘quv ma’lumotlari mazmunini tushunib yetishi o‘rganishi va amalga oshirish imkonini beradi.

T.K.Selevkoning fikricha o‘quv jarayonida ishni o‘quvchilarning turli xilda ko‘rinishlari mavjud: imitatsion, operatsion, rolli o‘yinlar,ishchi teatr, ishxo va sosiodramalar.

Imitatatsion o‘yinlar. O‘quv mashg‘ulotda qandaydir tashkilot yoki korxona faoliyati imitatsiya qilinadi. Masalan: ishchi yig‘ilishi loyihami muxokama qilishi, suhbatdoshni tashkil qilishi va.ka. aniq insoning faoliyati muhiti, shart-sharoitlari,favqulotdagи voqeа imitatsiya qilish mumkin.

¹ Селевко Т.К. Современная образовательная технология. - М ; “Народное образование“, 1998, 53 –bet

Operatsion o‘yinlar. Bu o‘yinlar aniq operatsionlar masalan insho yozish, misollar yechish, targ‘ibot yuritish, tashviqot qilish kabi operatsiyalarni bajarish holatini ishlab chiqishga ko‘maklashadi . Operatsion o‘yinlarda ta’lim ma’lum jarayonlar modellashtiriladi.

Rolli o‘yinlar. Bu o‘yinlarda ma’lum bir insonning faoliyat jarayoni vazifa va majburiyatni bajarishga hatti- harakatlari, hokum intizomining texnikasi ishlab chiqildi. Bunda vaziyatlar rollarni taqsimlash vujudga keltiriladi va ularni bajarishga ixtiyoriy, erkin yondoshish yo‘lga qo‘yilib, samimi yuxit yaratiladi.

Ishchi teatr. Bu o‘yinda qandaydir vazifa va bu vaziyatda muayan bir insonning qiyofasiga kirib, uning uning hatti- harakatlarini ruhiy xolatini , faoliyatga munosabatini namoyish etishning senarisi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi . Bunda talabalar o‘z hatti- harakati, hulqini obyektiv baxolashi, o‘zgalar imkoniyatini inobatga olish, ular bilan aloqa o‘rnatish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, faoliyatlariga buyruqbozlikdan cheklangan holda tasir ko‘rsatish muhim hisoblanadi.

Psixo va sotsiodrama. Bu o‘yin ishchi teatr dan bo‘lib, ijtimoiy ba psixologik masalalarni yechishi nazarda tutiladi. Bunday masalalarga jamoada yashash, unga moslashish, o‘zini idora eta olish, muamodagi ruxiy holatini his qila olishi, to‘g‘ri munosabat bildirilishi va baholash, o‘zgartira olishi, u bilan unumli muloqotga kirishish masalalar kiradi.¹

Rolli o‘yinlarda “ayollar o‘lkasiga sayohat”, “ Denish manular ko‘chasi”, “O‘quv yurti o‘rtoqlik sudi”, “Isquvarlar ko‘chasi”, “Jumboq ko‘chasi ”, kabi mavzular bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish mumkin. Shunday qilib o‘yin texnologiyalari didaktik bilim faoliyati, prugazorini kengaytirish, bilim, ko‘nikma, malakalarni amalyotda qo‘llash, ummum o‘quv ko‘nikma va mehnat malakalarini rivojlanadirish, tarbiyaviy (iroda mustaqillikni tarbiyalash, axloqiy, estetik, huquqiy va dunyoqarsh yo‘nalishidagi fazilatlarni shakllantirish, jamoatchillik, muloqotga kirisha olish komunikativ, hamkorlik faoliyatiga o‘rgatish va.h.k), rivojlaniruvchi (diqqat, xotira, nutq, tafakkurni rivijlantirish malakasiga ega bo‘lish, xayol, fantaziya, o‘xshatishni topa olish, ijodiy qobiliyat, optimal variantini

1 Селевко Т.К. Современная образовательная технология. - М ; “Народное образование“, 1998, 57-58 bet

topa olish, o‘quv faoliyati motivlarini o‘stirish), ijtimoiy (ijtimoiy, qimmatli hayot me’yorlariga ega bo‘lish, tashqi muhit sharoitiga moslashish, o‘z-o‘zini idora qilish, muammoni o‘rganish, psixoterapiyasi) maqsadli yo‘naltiruvchi vazifalar bajariladi. Bilimlar chuqurlashadi, mukamallashadi, ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarning uyushishi amalga oshadi, komil insonning fazilatlari tarkib topib boradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi. Pedagogik manbalarda qayd qilinishicha, muammoli o‘qitish texnologiyasi g‘oyasi yangi emas. O‘tmish pedagoglari bilim oluvchilar aqliy kuchlari, qobilyatlari, tafakkurini rivojlantirishga xizmat qila oladigan, o‘quvchi 9talaba) larga rohat va quvonch bahsh etadigan, bilish faoliyatlarini takomillashtiradigan o‘quv jarayonini qurush to‘g‘risida yillab izlandilar va uning yo‘llarini topishga intildilar (Ya.A.Komenskiy, Burxonidin Zarnutjiy, Az-Zamaxshariy, J.J.Russo, I.G.Pestolosiy, F.A.Disterberg, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy va hokazo).

XX asrga kelib muammoli ta’lim jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Dastlab amerikalik filosof, pedagog, psixolog Dmon Doi, XX – asrning 30- yillarda ananaviy, dokmatik o‘qitishga qarshi faol, mustaqil o‘qitishda o‘quvchilar amaliy faoliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi muammoli o‘qitish g‘oyasini ilgari surdi. U o‘zining “Biz qanday fikrlaymiz“ risolasida, “ Tafakkur muammolarini yechish sharti” deb ta’riflaydi va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan ta’lim – muammoli o‘qitishi deb biladi.

Keyinchalik bu g‘oya amerikalik psixolog Djon Bruner va polshalik pedagog Vintensi Okon tomonidan, XX asrning 2- yarmida tatar pedagogi M.I.Maxmudov tomonidan rivojlan Tirildi. Bularning g‘oyasi mazmunida muammoli vaziyatni yaratish, muammolarni shakllantirish va bu muammolarni xal qilishga o‘quvchilar aqliy kuchlarini jalb qilishi yotadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarda fanlarni, jumladan, pedagogik turkum fanlarni o‘qitishda pedagog talablar oldida har bir fanning hususiyatidan kelib chiqib o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha muammolar qo‘ydi, ularni yechish uchun muammoli vaziyat yaratadi, bu vaziyatga talabani kiritadi va yechimini topishga talabani o‘zini yo‘naltiradi. Bunda talabalrning faol, ijodiy, mustaqil izlanuvchanlik faoliyati yotadi.

Shunday qilib, muammoli o'qitish degandA, o'quvchilarning faol mustaqil faoliyatlarini ko'zda tutadigan, bilim ko'nikma, malakalarini ijodiy o'zlashtirishga qaratilgan pedagog tomonidan muammoli vaziyat yaratilib muammoni o'qituvchi rahbarligida yechishga yo'naltirilgan ta'limga tushuniladi.

Rus pedagoglari M.A.Danilov, V.P.Eshnov, I.Ya.Lerner, G.V.Pudrasev, M.I.Mahmudov va boshqalar muammoli o'qitish rivojlantiruvchi ta'limga texnologiyasi tiliga kirib muntazam ravishda ta'limga oluvchilarini izlanishga, mustaqil o'rganishga yo'llovchi, pedagog va talabaning o'zaro hamkorligi muloqot vositasida ta'limga oluvchilarining bilim faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limga deb takidlaydilar.

Muammoli o'qitishning asosini muammoli vaziyat yaratish tashkil etadi. O'qituvchi rahnamoligida muammoni yaratish, muammoli bayon qilish evristik suhbatlar tashkil etish muammoli topshiriqlarni bajarish natijasida talabalarda mustaqil izlanish ko'nikmalari shakllanadi, ijodiy tafakkur rivojlanadi, faol, erkin faoliyat tashkil topadi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, muammoli o'qitish texnologiyasining asosini muammoli vaziyat yaratish tashkil etadi . Muammoli vaziyatda o'quv muammosi, farazlar, ispotlar, izohlar, taxlil, sintez, mustaqil anglash, o'rganishlar asosiy component hisoblanib, ular o'quvchilarni yangi bilim, ko'nikma, malakalr bilan qurollantirish aqliy faoliyatlarni egallashga qaratilganligi sababli o'quv- bilim faoliyatini o'stiradi va ijodiylashtiradi. Bu jarayonda o'qituvchi yo'naltiruvchi, yo'lga soluvchi, muammoni bayon qiluvchi rolini bajaradi. Shunga ko'ra, o'qituvchi bayon etgan ma'lumotlar emas talabalar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka haqiqiy hisoblanadi shuning uchun bu jarayonda talaba eshituvchi emas, muammoni hal qiluvchi faol bajaruvchi hisoblanadi.

Pedagogika fanlarini o'qitishda muammoli ta'limga texnologiyasidan foydalanish bo'lajak tarbiyachi- o'qituvchilarda ijodiy tafakkur, mustaqil faolikni o'stiradi muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni yechish yo'larini o'rgatadi; vaziyatni turlicha yechish yo'llari haqida tushuncha beradi, aynan bir hildagi pedagogik voqeallarga turlicha yondoshish haqida ma'lumot beradi.

Olib borilgan tajriba ishlarning natijalariga asoslanib, aytish mumkinki, pedagogika fanlarini muammoli o‘qitishda quyidagilarga rioya qilish lozim:

- Eng zarur muammoli ta’lim yordamida yechiladigan muhim mavzular tizimini ishlab chiqish;
- Turli o‘quv mashg‘ulotlari (maruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar)da muammoli vaziyatlarni yaratishda, muammoli ta’limning o‘ziga xos pedagogik jihatlarida kelib chiqish ;
- Muammoli talimda talabalarning bilm darajasi, aqliy zakovati o‘zlashtirish meyorlarini inobatga olish;
- O‘z shaxsiy tajribasi, mahorati o‘quvchi –talabalrga tasir etish qiymatidan kelib chiqish v.h.k

Shundagina pedagogik fanlarni o‘qitishda muammoli o‘qitish texnologiyasidan maqsadli foydalanish amalga oshadi.

Modulli ta’lim texnologiyasi. Modelli o‘qitish g‘oyasining paydo bo‘lishi XX asrning 60 - o‘n yilligiga to‘g‘ri keladi. Bu texnologiyaning mohiyati shundagi, bunda ta’lim oluvchi unga tafsiya etilgan individial o‘quv dasturi, yani o‘zida mashg‘ulotning maqsadli rejasi, axborotlar banki va uning metodik ko‘rsatmasi asosida, didaktik vazifalarni bajarishga qaratilgan ta’lim oluvchining deyarli mutaqil yoki mustaqil ishlash rejasi. Bunda bilim oluvchi mustaqil ishlab o‘qituvchining funksiya axborotchi – nazoratchilikdan iborat bo‘ladi . shuning uchun u faqat oliy ta’lim maktablarida qo‘llaniladi .

Yukavichens L.A. modulli o‘qitishni shunday ta’riflaydiki, “qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishishni taminlovchi, o‘quv ma’lumotini mantiqn tugallangan birligini, harakatlarning maqsadli dasturini va uslubiy talimotini o‘z ichiga olgan axborot bloki”.

Modulli ta’lim texnologiyasi asosini ta’limiy modul tashkil etib, o‘zida bilish faoliyati va kasbiy tayyorgarlikni o‘zida mujassamlashtiradi . modulli o‘qitish o‘quv materiallarini aniq modullarga ajratish har bir moduldagi o‘quv materiali mazmunan bir birini to‘ldirish, ketma- ketlikda izohlanishi bilan xarakterlanadi va didaktik maqsadga erishishni taminlaydi buning uchun quydagi pedagogik qoidalar bajarilishi talab etiladi:

- O‘quv materiali shunday qurulmog‘i lozimki , har bir ta’lim oluvchi oldida qo‘yilgan didaktik vazifani bajarish imkoniyatiga ega bo‘lsin ;

- O'quv materialiga mos ta'lif komponentlari(shakl, metod, usulni qo'yilgan vazifa, me'yorlar)ga qarab tanlanilishi hamda bilim oluvchilarning qobiliyatları, o'quv-uslubiy material bilan ta'minlashni hisobga olish;

- Muayyan mutaxassislikka ega bo'lish uchun zarur bo'lgan, turdosh bo'lgan fanlar ularning bo'limlari (mavzulari) ni mujasamlashtiradigan tashkiliy- metodik bog'lanishli modullardan iborat bo'lishi lozim.

Shunga ko'ra pedagogika fanlarni modulli texnologiya asosida o'qitishda:

- Pedagogik ma'lumotlar tizimini tartiblashtirish ;
- Pedagogik fanlarning har biri mazmunidagi o'quv materialini modulli dastur shaklida (makro –mikro modullar tarzida) ketma-ketlikda o'qitishni loyihalash;
- Har bir fan mazmunidagi ma'lumotlarni qo'shimcha axborot bilan taminlagan holda o'quv materiallarini katta bo'limgan modullarni o'zlashtirish asosida qurish.

Rivojlantiruvchi ta'lif texnologiyasi. XX asrning 30 -60 yillarda yaratilgan ko'pgina psixologik, pedagogik adabiyotlarda rivojlantiruvchi ta'lif konsepsiysi to'g'risida so'z yuritilib, ta'lif bola rivojlanishining muhim manbai ekanligi qayd etiladi (A.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.A.Rubinshteyn, D.B.Elkonin, L.Ya.Galsring, E.V. Ilvinkov, L.V.Zankov, V.V.Davidov).

Ular g'oyalariga ko'ra inson va jamiyat ehtiyojlari asosida ta'lif shunday qurilmog'i darkorki, u qisqa vaqtida maksimal rivojlanishni ta'minlasin. Shunga asosan rivojlantiruvchi ta'lif pedagogik ta'sir tizimida shaxs irsiy xususiyatlarining rivojlanishini tezlashtirish, yo'naltirish, rag'batlantirishning stimulidir. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashganda rivojlantiruvchi ta'lif shaxsning qobiliyatlarini, bilish kuchlarini, intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi hisoblanadi. G'oya mazmunida bolaning psixik rivojlanishi, bilim, ko'nikma, malakaning samarasi yaxshi bo'ladi. Shuning uchun o'qitish jarayonida bolaning psixik xususiyatlari, ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish lozim. Buning uchun o'qitish jarayonida ta'lif oluvchilarni turli faoliyatga jalb qilish, har xil didaktik o'yinlar,

munozara usullaridan, bolalar tasavvuri, tafakkuri, xotirasi, nutqini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish darkor.

Bunda, asosan, pedagogik fanlarni o'qitishda ta'lif oluvchilarning fikrlash faoliyatlarini rivojlantiruvchi-ko'rgazmali-harakatli, amaliy, ko'rgazmali-tasvirli, mavhum-nazariy o'qitish ishlarini qo'llash, muammoli ma'ruza, evristik, tabaqalashgan, aqliy hujum usullaridan foydalanish talab etiladi.

“Bumerang” texnologiyasi. Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish. Erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli mashg'ulotlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida bo'lishi, kerakli balni toplashiga imkoniyat beradi. “Buremang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ta'lif bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- xushfe'lllik ;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan “ha” yoki “yo'q” tipidagi to'g'ri, ochiq javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Kondalang so'roq – bir-biriga guruhab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni,

opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“Skarabey” texnologiyasi. “Skarabey” interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkon yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini erkin va ochiq ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda, turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. “Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo‘lib, undan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda foydalaniladi:

-boshida – o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish sifatida (“Aqliy hujum”);

-mavzuni o‘rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash, ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash, mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, yangi jihatlarini ko‘rsatish;

-oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

“Skarabey” texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilga. U o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlarga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllaridan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

“Skarabey” alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o‘quv jamoalarda qo‘lanilishi mumkin.

Ta’limdan tashqari mazkur metot tarbiyaviy harakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-o‘zgalar fikriga hurmat;

-jamoa bilan ishlash maxorati;

-faolik;

- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko‘rsatish ehtiyoji;
- o‘z qobilyatlari va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- “men” ligini ifodalashga imkon beradi;
- o‘z faoliyati natijalarga masulyat va qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy tushunchalar quydagilar :

- Assosiasiya – mantiqiy bog‘liqlik bo‘lib, sezgilar,tasavvurlar, idrok qilish, g‘oyalar va boshqalar orasida xosil qiluvchi mantiqiy aloqadir.
- Zanjirlash (muayan tartib)- ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

O‘qituvchi va o‘quvchi talabaning maqsatli natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyoroda, chunki har ikkala tomoning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchi talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiy tanlanadi masalan,natijaga erishish uchun balki kompuyuter bilan ishlash lozimdir,balki film, tarqatma material,chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘ladi, bular o‘qituvchi va o‘quvchi talabaga bog‘liq.

Shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini joy va sharoitini, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishni hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda o‘quvchi- talabani ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

Shuningdek, mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tuzimiga, ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida, taraqqiyotning hozirgi bosqichida, “Tabaqalashtirilgan a’lim texnologiyasi”, “Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi”, “Bilish o‘yin texnologiyasi”, “Forstu texnologiyasi”, “Masofali o‘qitish texnologiyasi” “Individuallashtirilgan”, “Kompuyuterni o‘qitish” kabi texnologiyalar ham keng qo‘llaniladi.¹

Shunday qilib, ko‘rib o‘tilgan zamonaviy o‘qitish texnologiyalari o‘zida zamonaviy ta’lim shakllari majmuasi sifatida ta’lim beruvchida va ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi o‘quv

¹ Avliyoqulov N.Q. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”. Toshkent. 2001

faoliyatlarini tashkillashtirish, mujassamlashtirishni yo‘lga qo‘yadi va amalga oshiradi. Shu asosida oliv ta’lim maktablarida o‘qitiladigan pedagogik turkum fanlarni o‘qitishni jadallashtirish, mahsuldar (produktiv) qilish asosida talaba – yoshlarda erkin va mustaqil fikrlash, bilim doirasini kengaytirish, o‘z fikrini erkin, mazmunli bayon etish, jamoada o‘zini tuta bilish, jamoa ishlarida faol ishtirot etish, nutqi va muomila madaniyatini rivojlantiradi hamda takomillashtiradi zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash jarayonida, ta’limning interaktiv metodlarni tadbiqu etish masala yechishni osonlashtiradi .

20.3. Mutaxasslik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol usullar

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining interaktiv usullari, talaba- yoshlar savodxonligi, ilm darajasini oshirish bilan birga, qobilyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yuksak malakali mutahasis bo‘lishlariga hamda ularda yetuk kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga ko‘maklashadi . Shuning uchun ular faol usullardir, shuning uchun ulardan maqsadli foydalanishlari mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimiz ta’lim muassasalarida o‘qitish ishlarining yangi interfaol usullar deb nomlangan metodlari qo‘llanila boshlandi. Bu metodlar horijiy hamda MDH mamlakatlarining amalyotida qo‘llanilgan bo‘lib, ular respublika pedagogik olimlari tomonidan qayta ishlanib, mamlakatimiz o‘quv muassasalari sharoiyiga moslashtirib ta’lim tarbiya jarayoniga qo‘lanila boshlandi . Ushbu metotlar o‘qitishning samarasini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular ta’lim oluvchilarda mantiqiy, ijodiy tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishga, ilm oluvchini ta’lim obyektidan faol subyektga yo‘naltirishni, ularning ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishni, ishbilarmon, tadbirkor mutahasislarga kerakli kasbiy ma’lumotlarni singdirishga hizmat qilishni nazarda tutadi . Ular ko‘pincha dialog, munozara, o‘zaro yordam va hamkorlik ko‘rinishida qo‘llanib, bunda har bir o‘quvchi- talaba o‘z nuqtai nazarini asoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Pedagogik nashrlarda, - deb yozadi professor N.Saidaxmedov,- o‘qitish metodlarini faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o‘z

o‘rnida ishlatilsa shubhasiz faoldir “¹³. Ta’limning interaktiv metodlari o‘z o‘rnida qo‘llaniladigan faol metodlar tarkibiga kiradi. Chunki bu metodlar tabiat, jamiyat, inson tafakkuri taraqiyotining qonuniyatlariga tizimli – ijodiy yondashuv tamoyili asosida amal qilishini taminlaydi.

Tajribaning ko‘rsatishicha interaktiv medodlarda olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarda:

- erkin va mustaqil fikrlashni ;
- talabalar jamoasida o‘zini erkin his qilishni;
- esda qolishni qat’iylashtirishni;
- bilim doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishni :
- ijtimoiy foydali faoliyatga aktiv qatnashiahni ;
- muomila madanyatini ijobiylashtirni ;
- og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishni;¹
- o‘z fikrini erkin, ijodiy, mazmunli bayon etishni;
- o‘z kursdoshlari, ta’lim beruvchilar bilan hamkorlikda, hamjihatlikda ishlashni yo‘lga qo‘yishni tarbiyalaydi.

Interaktiv o‘qitish metodlarini o‘z mazmun-mohiyati, didaktik vazifalarni amalga oshirishga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. “Aqliy hujum” usuli. Mavzu bo‘yicha keng va har tomonlama fikr yuritish, muammoni mustaqil tushunish va muammoni yechishda talabalar motivatsiyasini uygo‘tishga o‘rgatadi. Ilm oluvchilarni o‘z bilimi va ijodiy tafakkuriga tayanib ish yuritishga undaydi.

2. “Fikriy hujum” (mozgovaya ataka) usuli. Mashg‘ulotda talabalar faolligini ta’minalash, erkin fikr yuritish, ijodkorlikka intilishni yuzaga keltiradi. Muayyan mavzu bo‘yicha rangba-rang go‘yalarni to‘plash muammoni yechishning dastlabki bosqichidagi ayrim fikrlarni yengishga o‘rgatadi.

3. “Yangi fikriy hujum” usuli. 20, 40, 60 nafar talabalar bilan o‘tiladigan mashg‘ulotga qo‘llaniladi. Yangi go‘yalarning o‘rtacha talabalar tomonidan qo‘yilishi bilan farqlanadi. 5-6 nafar guruh talabalariga 15 daqiqada ham etiladigan topshiriq beriladi. Bu ijodiy topshiriq aytilgan vaqt ichida ijodiy hal etiladi. Bajarilgan topshiriq darajasiga qarab guruhlar baholanib boriladi.

¹ Saidahmedov N. “ Yangi pedagogik texnologiyalar : nazarya va amalyot. T.” Moliya “ nashiryoti 2003 93 bet

4. “Fikrlarning shiddatli hujumi” usuli. Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan ushbu usul talabalarning fikrlashi, qobilyati va mulahaza yuritish imkoniyatini rivijlantirishga ko‘maklashadi. Ta’lim oluvchining guruh tomonidan ilgari surilgan fikrga qarashi o‘z g‘oyasini dalillash uchun qo‘llaniladi. Topshiriqlar yechimi bir necha bosqishda amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

5. “Namoyish” usuli. Mashg‘ulotga xaritalar, plakatlar, kartochkalar, magnitofon, televizor, lingafon kabi tasvirli materiallardan keng foydalanish mumkin. Bu bilimlarni ko‘nikma va makagaga aylantirish maqsadida qo‘llaniladi. Bunda talaba eshitadi, ko‘radi, kerakli ma’lumotlarni yozib boradi.

6. “Kitob bilan ishlash” usuli. Talabalarning manbalarda mustaqil ishlashlari, berilgan topshiriqni matndan topishi, o‘z-ozini tekshirishi maqsadida qo‘llaniladi. Shuningdek, vazifani to‘liq va ongli o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

7. “Ma’ruza-suhbat” usuli. Sector malakaga ega bo‘lsa, fanni mukammal bilsa, masalani bayon etish jarayonida ayrim savollar bilan tinglovchilarga murojaat qilishi nazarda tutiladi. Unda talabalar eshitgamlarini chuqur mulohaza qiladilar va mulohazaga kirishadilar.

8. “Suhbat” usuli. Talaba o‘quv stollariga davra qurib o‘tiradilar, bir-birlariga yozma tarzda savollar beradilar. Mashg‘ulot diolog tarzda o‘tkaziladi. Suhbat individual yoki guhuh shaklida tashkil etilishi mumkin.

9. “6x6x6” usuli. Talabalar 6 kishidan iborat guruhlarni tashkil qiladilar. Berilgan topshiriq belgilangan vaqtida bajariladi, so‘ngra guruhlar qayta shakllantiriladi va bu guruhda oldingi guruhning bir ishtirokchisi qatnashadi va u yangi guruhga o‘z jamoadoshlarining javobini taqdim etadi va mu’lum muammo yechimi birgalikda muhokama qilinadi. Bunda:

- guruhlarning har bir a’zosini faol bo‘lishi ta’minlanadi;
- ilgari surilgan fikrni boshqalar tinglaydi va mulohaza yuritadi;
- guruhlarning fikrlari umumlashtiriladi va aniq bir xulosa qilinadi.

10. “Klaster” (tarmoqlar) usuli. Fikrlarning tarmoqlanishi nazarda tutilgan ushbu metod mavzuni chuqur o‘rganish, mavzuga oid tushuncha yoki aniq fikrni erkin, ochiq bayon qilishga ko‘maklashadi. Bunda har bir talaba mavzuga taalluqli bo‘lgan fikrni ketma-ketlikda, mantiqiy bog‘langan tarzda tarmoqlanishiga yordam beradi. Mavzuni

chuqur o‘rganish, fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun bu usul qulay hisoblanadi.

11. “Pinbord” usuli (inglizcha, pin - muhtahkamlash, board – doska ma’nosini anglatadi). Bu usulda o‘quv mavzusi yoki o‘quv suhbatи kabi o‘quv usullari yordamida bayon etiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, u rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalarning bog‘lanishini ta’minlaydi. Bu usl yordamida talabalarda muloqotga kirishish, fikr yuritish, munozara olib boorish, o‘z nuqtai nazarini faqat og‘zaki emas, balki yozma bayon etish mas’uliyati shakllanadi. Tizimli-mantiqiy fikrlash rivojlantiriladi va mustahkamlanadi.

12. “Munozara” usuli. Bu usul o‘quvchi – talabalarining o‘z fikrlari nuqtai- nazarlari, g‘oyalarini asoslash, o‘zaro fikr almashish,bahs ishtirokini ta’minalash,maqsadida tashkil etilib va u pedagogik turkum fanlarning seminar mashg‘ulotlarini tashkil etadi. Buning uchun avvalo, pedagogning o‘zi munozara to‘g‘risida muayyan darajada tushunchaga ega bo‘lishi kerak, chunki bu usul yordamida muammoli mavzu o‘tiladi. Dastlab munozaraga kirishuvchilarga munozaraning maqsadi tushuntiriladi, ular mavzudan chetga chiqib ketmasliklarini nazorat qilib turadi. Bunda har bir talaba tomonidan aytilgan fikr doskaga yozib boriladi va munozara oxirida qo‘yilgan savollarga berilgan javoblar taxlil qilinib, yagona, to‘g‘ri xulosaga keladilar.

Munozaraga barcha o‘quvchilar jalb qilinishi har bir topshiriq bo‘yicha barchani tinglash yo‘lga qo‘yilishi lozim. Zero, munozara-faol, qiziqarli qizg‘in bahs, ehtirosli suhbat asosida o‘tishi kerak.Buning uchun mavzu va unga doir topshiriqlar savol tarzida ishtirokchilarga oldindan e’lon qilinishi va ishtirokchilarning puxta tayyorgarlik ko‘rishlarini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Talabalarining mavzu bo‘yicha o‘z bilimlarini va g‘oyalarini erkin namoyish etilishi uchun imkon yaratilishi lozim. Boshqaruvchi munozarani to‘g‘ri borishini kuzatib boorish, mavzudan chetga chiqiladigan bo‘lsa uni darxol o‘z yo‘nalishiga solib qo‘yishi talab qilinadi.

13. Matbuot (konfrensiya) usul. Talabaning ilmiy amaliy maruzalari, reforat **ishlari**, seminar yoki amaliy mashg‘ulotlarda o‘tkazilgan mavzularni muhokama qilish uchun o‘tkazilgan usul hisoblaniladi. Mashg‘ulotda ilmiy amaliy tatqiqotning borishi amalda

qo‘lanilgan natija amaliy ish mashqlari analiz –sintez qilinadi. Xulosalar chiqarilib, yangi ishlar rejalashtiriladi.

14. “Taqidiy fikrlar” usuli. Bu usul amerikalik psixolog va pedagog Dgion Dyuning “ Insoning sharoitlar va temperamentga nisbatan tanqidiy fikrlashigina shaxs istagi va qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘lga sola oladi “ aqidasiga rioya qilib, talim oluvchining o‘z bilimi, jismoniy, ruhiy tayyorgarlik darajasini tanqidiy o‘lchovlar, fikrlar orqali yechish, bahs-munozaraga to‘g‘ri ishtirok etish ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida qo‘laniladi. Bu usul o‘quvchi- talabalarga o‘zgalar fikrini tinglash, o‘z fikrlarini taqqoslash, muloqot olib boorish, yechimlarni to‘g‘ri topishga to‘l ochib beradi va ularda analitik fikrlash, to‘g‘ri hukm chiqarish qobilyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul yordamida talabalar o‘z fiklarini erkin bayon etib, fikrlarni oydinlashtish, ilmiy – amaliy asoslash, o‘zgalar fikrlarini o‘rganish, o‘z fikrining tahlili asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish va aniq natija,qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

“Mantiqiy fikrlash “ uch bosqichda–davat, mazmuni anglash, fikrlash bosqichlarida amalga oshiriladi. Mantiqiy bosqichda yangi mavzuga oid tushunchalar, oldin o‘rganilgan ma’lumotlarga tayangan xolda aniqlanadi. Aniqlik bosqichida bilaman, bilmoqchiman,qonuniga asoslanib bilimlar, fikrlar taqoslaniladi . Fikrlash bosqichida yangi o‘rganilgan bilimlar, tanqidiy fiklar yordamida g‘oyalar, axborotlar mustahkamlanadi, to‘ldiriladi. Bunda talabalarga matn bilan ishslash malaksi takomilashadi shahsiy sifatlar rivojlanadi.

15. “Ajurli arra” usuli. (Ajur fransuzcha “ajour” so‘zidan olingan bo‘lib, ikki tomoni ochiq, bir tomondan ikkinchi tomnga o‘tish manosini anglatadi). Bu usul topshiriq yoki matnning bir necha qismiga bo‘lib berilishi yordamida tashkil qilinishi lozimligini talab etadi. Eksprementlar belgilanadi. Har bir guruhsda o‘quvchi topshiriqni avval o‘z guruhsida, so‘ngra ekspremental guruhsda o‘rganadi. O‘z guruhsida bildirilgan fikrga qo‘silmagan o‘quvchi,ikkinchi guruhs fikriga qo‘silsa, u o‘sma guruhs tomoniga o‘tib ularning fikriga qo‘silishi mumkin . Bu usul yordamida talabalar pedagogik ma’lumotlarni egallashda hamkorlikda ishlaydilar va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma’lumotga ega bo‘ladilar.

16. “Videotopishmoq” usuli. So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar (kompuyuter, televidinya,

radio,nusha ko‘chiruvchi qurulma,slayt,video va audio magnitafonlar yordamida ta’lim jarayoni tashkil etishga alohida etibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muofiq foydalanish vazifasi turibdi . Videotopishmoq metodidan foydalanishda quydagи harakatlar amalga oshirilda:

-taxsil oluvchilar etiborida o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi bir necha videolavha namoyish etiladi.

17.“Yumaloqlangan qor o‘yini” usuli. Bu metod ham mavzuning muayyan qismlarida bo‘lgan xolda o‘zlashtirish imkonini beradi hamda taxsil oluvchilarda guruh hamda juftlikda ishslash ko‘nikmalarni shakllantirishga hizmat qiladi. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-tasvirli kartochkalar tayyorlaniladi;

-ularning orqa tomonida mavzuni o‘zlashtirishga oid o‘n beshdan variantdan iborat topshiriqlar yoziladi;

-sinf taxsil oluvchilari ikki yoki uch guruhga bo‘linadilar(guruhlarni hosil qilishda tasvirli kartochkalardan foyadalaniladi)

-har bir guruh azolari bir necha juftlikga biriktiriladi;

-har bir juftlik bir variantdagi topshiriqnini bajaradi;

-jarayon yakunida umumiylar xulosalar chiqaradilar;

“Yumaloqlangan qor o‘yini” metodidan muayan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish nihoyatda qulay.

16 “Zakovatli zuko” usuli. Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda taxsil oluvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muxim axamyatga ega. “Zakovatli zuko” metodi taxsil oluvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarni sinab ko‘rish istagida bo‘lgan taxsil oluvchilar uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgab savollarga qisqa mudatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakablik darajasiga ko‘ra har bir savolga ko‘tarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilaniladi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik

qiymatini toppish asosida taxsil oluvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Ballarning belgilanishi tahsil oluvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasvurga ega bo‘lishlarini taminlaydi.

Metod tahsil oluvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishslashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

19. “Qarama- qarshi munosabat” usuli. Metod o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma’lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo‘llashda quydagi harakatlar amalga oshiriladi:

-mavzuning umumiyligi mazmuni yodga olinib, uning axamyatini yorutuvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;

-ular muayyan ketma-ketlikda qayt etiladi;

-tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalar tarzida guruhanadi;

-jadval yaratilib, uning birinchi ustuniga muhim bo‘lgan, ikkinchi ustunida muhum bo‘lmagan tushunchalar yoziladi;

-kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;

-jamoaning umumiyligi fikriga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi;

Tahsil oluvchilar faoliyatining samaradorligini taminlash uchun ularning e’tiborlariga quydagi jadvallarni taqdim etish maqsadida muvofiqdir:

1. Yakka tartibda ishslash jarayonida foydalanish uchun:

MAVZUNING AHAMIYATI

No	Muhim tushunchalar	No	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	
3.		3.	

2. Jamoa asosida ishslash jarayoni uchun

MAVZUNING AHAMIYATI

Nº	Jamiyatning ijtimoiy (iqtisodiy-madaniy) hayotidagi roli (o‘rni)	Shaxs hayotidagi roli (o‘rni)
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		


20. “Sinkveyn” (axborotni yig‘ish) usuli. bu usul pedagogika turkumi fanlaridan olingen bilimlarni yig‘ish maqsadida o‘tkaziladi. Bu usul o‘rganilmagan, ammo bo‘lajak tarbiyachi-o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar mazmunini chuqur o‘rganish jarayonida o‘rganiladi va fikrlar kengaytiriladi. Ushbu usul o‘quvchi (talaba) larga o‘z fikrlarini to‘plash, ularni qisqa va aniq ifodalash, mulohazalarini sintezlash hamda o‘z mulohazalarini takomillashtirishga yordam ko‘rsatadi. Asosan, “sinkvey” usuli olingen ma’lumotlarni to‘plash, fikrlarini umumlashtirish, muomala vaziyatini yechish, tafakkurini rivojlantirish maqsadida tuziladi. Misol uchun, talabalar “Umumiy pedagogika” fanidan “Ta’lim to‘g‘isida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yuzasidan “Nimani bilasiz?” savoli yuzasidan o‘qituvchi yozuv taxtasiga uzlusiz ta’lim turlari ta’lim mazmunini belgilovchi ko‘rsatmalar va O‘zbekiston ta’limida qaysi sohalarga e’tibor qaratilgan v.h.k savollar nimani anglatishini so‘raganda tinglovchilar va ta’lim oluvchilar ta’lim strukturasi DTS, reja, dastur, darsliklarni, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’limda bular to‘g‘risida ma’lumotlar umumlashtiriladi va sintezlashtiriladi.

21. “Tayanch signallar” usuli. bu usul mavzu bo‘yicha tayanch manbalar, bilimlarni eslatuvchi signallar yozib qo‘yiladi. O‘quvchi (talaba) shu signallardan foydalaib javob topadi va mavzuni to‘liq o‘zlashtirib oladi. “Tayanch signallar” usulidan foydalanganiga pedagogik atamalar tushunchalariga doir signallar (belgilar) yozuv taxtasida yoki ko‘rgazmali vatmanlarda yozib qo‘yiladi. Talabalar shu belgilarni nazarda tutib qo‘yilgan topshiriq va savollarga javob topadilar, mavzuni to‘liq o‘zlashtirib oladilar. Bunda pedagogika fanlarning tarkibiy bo‘limlari yordamida kod bilan ifodalaniladi .

Manashu ifodalarga qarab talaba nima to‘g‘risida so‘z borayotganligini anglaydi va uning mazmunini ochib beradi.

22. “Insert” usuli. Bu usul talabalar faoliyatini yuqori darajada bo‘lishini taminlash va ta’lim – o‘qish, o‘rganish jarayonida o‘z bilimini, aniqlab olingen malumotlarni bilimlar ularga taxlily yondashib olishlari, ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘lga qo‘yiladigan usul hisoblanadi. Ma’lumki, ko‘p hollarda o‘quvchi – talabalar mavzu matnini, avvalidan oxirigacha o‘qib gap nima haqida borayotganligini eslay olmasliklari mumkin . Chunki, ularning diqqati matn mazmuniga qaratilgan bo‘lib, yoritilayotgan masalalar mazmunini anglash va uni kuzatish nazarda tutilmagan bo‘ladi . Bu usulni qo‘llash talaballarni faollashtirilishi, ularning mantiqiy fikrlashlarini yo‘lga qo‘yish, anglab kuzatgan hodisalarni erkin aytib berishlarni taminlash, yozma va og‘zaki nutqlarining yanada rivojlanishi uchun imkon yaratish ishlari amalga oshiriladi.

23. “Qarorlar shajarasi” usuli. Ushbu usul qiyin va turlicha murakkablikga ega bo‘lgan fanlardan (murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, hamda yakuniy eng to‘g‘ri fikrni toppish maqsadini oqilona hal etishga yordam beruvchi usul hisoblanadi. Bu usul bir necha ta’lim oluvchilarning to‘g‘ri javoblarini jamlash va baholash imkonini beradi. Usul mashg‘ulot jarayonida bildirilgan fikrlardan oqilona qaror qabul qilish, javoblarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri jihatlarini tahlil qilish orqali amalga oshadi. Mashg‘ulotning boshlang‘ich bosqichida mavzu mazmuni bo‘yicha biror muammo belgilab olinadi va o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi (har guruh 5-6 kishini tashkil qilishi muhim) muammo yuzasidan o‘z javoblarini ya’ni fikrlarini bildiradilar va muayyan qarorga keladilar. Bu quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:



Mashg‘ulotda o‘quv-biluv faoliyati quyidagicha bo‘ladi:

1. Mavzu bo‘yicha muammo belgilanadi.
2. Talabalar guruhi kichik guruhlarga bo‘linadi.
3. Vaqt belgilab olinadi.
4. Guruhlarning javoblari guruhda muhokama qilinadi.
5. Vaqt tugagach har bir kichik guruh sardori o‘z guruhining savoli bo‘yicha qarorini e’lon qiladi.
6. Javob(fikr)lar muhokama qilinib, yagona qaror qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda oliy o‘quv yurtlarida o‘quv fanlarini, ayniqsa, “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanini o‘rganishda yig‘ish, ma’lumotlarni tarqatish olib boriladi hamda o‘tmishdagi buyuk pedagoglar siymosi teatrlashtirilgan holda namoyish etiladi.

24. “B.B.B. (Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim.)” usuli.

Mazkur usul pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasini fani bo‘yicha egallagan bilimlar darajasini aniqlash imkonini beradi. Bunda o‘quvchilar guruh bo‘lib yoki jamoada ishlashlari mumkin. Buning uchun yozuv taxtasida uchta chizma aks ettiriladi. Masalan:

Taxminan bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.

Usuldan foydalanish uch bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab talabalar didaktik o‘yin asosida guruhlarni tashkil etadilar.

O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha har bir guruh o‘zaro hamkorlikda “Taxminan nimani bilamiz” ustunini to‘ldiradilar. Bu ustunga butun jamoaning javoblari mavzu mazmuni bo‘yicha mantiqiy ketma-ketlikda jamlanadi. Masalan, “Umumiy pedagogika fanidan ta’lim mazmuni” mavzusi o‘rganilayotgan ta’lim mazmunini belgilovchi hujjatlar ta’lim mazmunini ijtimoiy ehtiyojlar davlatning o‘quv yurti oldiga qo‘yilgan talablari orqali belgilanadi, ularni o‘quv reja, o‘quv dasturi va o‘quv qo‘llanmalariga oid tushunchalar, ma’lumotlar yoziladi, so‘ngra guruh a’zolari muayyan ketma-ketlikda mavzu bo‘yicha o‘zi qiziqtirgan savollarni ehtiyojlarini “Bilishni xohlayman” ustuniga yozib chiqadilar. So‘ngra talabalarga mavzu yuzasidan ma’ruza matni yoki qo‘srimcha adabiyotlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Savollarga topilgan aniq javoblar uchun “Bilib oldim” ustuniga joylashtiriladi. Mobodo talabarni qiziqtirgan savollarga javob topilmay qolsa unga javob toppish uchun talabalarga qo‘srimcha aniq ma’lumotlar tvsiya etiladi, yoki o‘qituvchining o‘zi javobni to‘ldirishi ham mumkin.(Izoh:Bu usuldan foydalanishning tavsiloti to‘liq holda amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi, yani dars ishlanmasidan keltiriladi.)

Biz yuqorida mamlakatimiz pedagog olimlarining ilmiy-nazariy va amaliy xulosalariga tayanib, uzlusiz ta’lim tizimida, jumladan oliy ta’lim mакtablarining ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan va qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qitish jarayonining interfaol usullarining ayrimlari xususida fikr yuritib, ularni oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan pedagogik turkum fanlarini o‘qitish jarayonida qo‘llash xususida fikr yuritildi. Mazkur interfaol usullarning tarmog‘i keng foydalanish mavqeい chegarasiz. Biz tasniflab o‘tgan va oliy ta’limning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan interfaol metodlar haqida turli manbalardan ma’lumot olish mumkin. Ular talabalar faolligini oshirish, o‘quv tarbiya jarayonini jadallashtirish, mustaqil ijodiy fikrlashni o‘stirish bilan birga bo‘lajak tarbiyachi-o‘qituvchilarga yuksak kasbiy mahorat, ma’naviy-axloqiy salohiyat va ilmiy dunyoqarashning rivojlanishiga katta yordam beradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Pedagogik texnologiya haqida ma’lumot bering?

2. O'qitish metodikasi va pedagogik texnologiyalarning farqli tomonlarini ko'rsating.

3. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda pedagogic texnologiyalaridan foydalanilanish afzalliklarini tushuntiring.

4. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol usullarni izohlang .

5. Aqliy hujum metodi haqida ma'lumot bering.

GLOSSARY

Amaliy mashg‘ulotlar – maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, tahsil oluvchilarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim shakli.

Analiz metodi – 1) pedagogik tadqiqot metodi bo‘lib, unda tekshirish ob’ekti fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilinadi; 2) o‘quv vaziyatini har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, o‘rganish.

Analitik metod – tahlil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim metodi

Annotasiya – kitob, qo‘llanma va shu kabilarning ahamiyati, mazmuni haqida qisqacha ma’lumot.

Analogiya – o‘xhash- paradigma.

Auditoriya – oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida dars o‘tkaziladigan xona.

Axborot-ta’lim muhiti – ta’lim jarayonida yangi ma’lumotlarni olish imkonini beradigan o‘quv vaziyati.

Axborot texnologiyalari – ta’lim jarayonida axborot olish imkonini beradigan loyihalar.

Axborot texnologiyasi – axborotni hosil qilish, saqlash, komp'yuter yordamida qayta ishlashni ifodalovchi faoliyat sohasi. Axborot texnologiyasini tatbiq etish muhiti bilan o‘zaro bog‘lik bo‘lgan jarayonlarga oid aloqadorlikni o‘z ichiga oladigan ko‘nikma va vositalar tizimidir.

Baho deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytildi.

Baholash deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lcha-gich)lar bilan solishtirish.

Bakalavr, magistr — oliy ta’limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

Bakalavriat — o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’lim.

Bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

Diagnostika- (yunon tilida «dia»-shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma'noni bildiradi) - o'r ganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risidagi aniq ma'lumot olishning umumiyo vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Dialog- o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir.

Didaktik kontseptsiya (didaktik tizim) ta`limda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish maqsadi, mazmuni, vositalari, usullari, tashkiliy shakllari to'g'risidagi qarashlar (g'oyalalar) majmuidir.

Didaktika pedagogikaning mustaqil qismi bo'lib, o'qitish va ta'lim berish muammolari bilan shug'ullanadi hamda o'qitish jarayonining umumiyo qonuniyatlarini o'r ganadi.

Elektron pedagogika - pedagogik faoliyatda kerakli interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish qoidalari va texnologiyalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish va o'ziga kerakli fanlar bo'yicha elektron interaktiv darsliklar mustaqil yaratish uchun amaliy ko'nikmalar hosil qilish to'g'risidagi fan.

Harbiy pedagogika - harbiy pedagogik jarayonning qonuniyatlari, harbiy kadrlar va harbiy guruhlarni o'qitish usullari, ularni muvaffaqiyatli jangovar operatsiyalar va harbiy-kasbiy faoliyat uchun tayyorlashga qaratilgan pedagogika fanining bir bo'limi.

Hisobga olish – bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonlarida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Joriy nazorat- o'qituvchi tomonidan talabalarning xar bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi.

Ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallah;

Kommunikativ kompetentsiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Logopediya – nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning ta'lif va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Ma'ruza (o'quv ma'ruzasi)-oliy o'quv yurti pedagogik jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan shakli bo'lib unda ta'lif oluvchilarga maksimal darajada yangi ilmiy axborotlar berish, o'quv materialini talabalar ongiga yetkazish nazarda tutiladi. Ma'ruzalarda talaba uchun zarur bo'lgan kasbiy, ilmiy-nazariy ma'lumotlar bayon etiladi.

Ma'ruza metodi-bu o'qituvchi tomonida katta mazmundagi ma'lumotni og'zaki tarzda mantiqiy izchillikda bayon qilish,

talabalarning esa o‘quv materialini tinglash orqali idrok etishini nazarda tutadi.

Magistratura — bakalavriat negizida o‘qish muddati kamida ikki yil bo‘lgan aniq mutaxassislik bo‘yicha oliy ta’lim.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi.

Malaka amaliyoti — o‘quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikma va o‘quv hosil qilish, o‘quv rejalarini va fanlar dasturlarning ma’lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo‘yicha materiallar to‘plash uchun o‘tkaziladigan bir qismi.

Malaka talablari — uzluksiz ta’lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiyligi bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda o‘quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo‘lgan didaktik vosita.

Maxsus pedagogika (defektologiya) - aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o‘rganuvchi fandir.

Mehnat pedagogikasi- asosan axloq tuzatish muassasalarida jinoyatchilarni tarbiyalash va qayta tarbiyalashning shart-sharoitlari va xususiyatlarini o‘rganadigan pedagogikaning sohasi.

Metodik (uslubiy) ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari, loyihamalar, laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko‘rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan ta’lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo‘llsnma.

Metodika – muayyan voqeа, hodisa va faoliyatga tegishli, qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgaridan o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o‘tkazish usullari, yo‘llari majmuasidir.

Metodika – pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Monolog-ma'ruzadagii oq'ituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir.

Musiqiy pedagogika - musiqiy ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini, shakllarini o'rganish va rivojlantirish, shuningdek musiqa sohasida turli yo'nalishlarda ijodiy ko'nikmalarni, tajriba va amaliy malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan pedagogika fanining sohasi.

Mutaxassislik — 5A-bosqichning o'quv rejalar va fanlar dasturi bo'yicha oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan "magistr" akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta'minlovchi muayyan mutaxassislik bo'yicha bilimlar, uquvlar va ko'nikmalar kompleksi.

Muzey pedagogikasi - muzeylarning madaniy va ma'rifiy faoliyatining xususiyatlari, ularning turli toifalari bo'yicha shaxsga ta'sir o'tkazish usullari, muzeylarning ta'lim muassasalari bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan fan.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi.

Nazoratning guruhli shakli- talabalarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan talabalar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa talabalar ham qatnashishi mumkin.

Nazoratning individual shakli- har bir talabaning bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda talabalar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

Nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan)shakli - individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni

taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha talabalardan so‘rash kerak bo‘lgan vaqtida foydalanadi. Har bir o‘quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtida birnecha o‘quvchini tekshirish mumkin bo‘ladi.

Nazoratning ommaviy (frontal) shakli- o‘qituvchi talabalarga materialning ma’lum bir hajmi bo‘yicha savol beradi, talabalar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so‘rash ko‘pchilik talabani nazorat qilishni ta’minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni talabalarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo‘llab bo‘lmaydi.

Oliy ma’lumot darajasi — shaxs tomonidan oliy ta’limning muayyan o‘quv rejalarini va fanlar dasturini mazkur ma’lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o‘zlashtirishi natijasi.

Oliy ma’lumot haqida davlat hujjati (diplom) — akkreditatsiyadan o‘tgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta’limning o‘quv rejalarini va fanlar dasturini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzlusiz ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishslash huquqini beradi.

Oliy ta’lim muassasasi akkreditatsiyasi — oliy ta’lim muassasasi faoliyati darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e’tirof etilishi.

Oliy ta’lim muassasasi attestatsiyasi — oliy ta’lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining OT DTS talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir.

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta’limi yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxati.

Oliy ta’lim — uzlusiz ta’limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti — muayyan ta’lim sohasiga (soha tarkibiga) qo‘yiladigan malaka talablari, ta’lim mazmuni, bitiruvchilar umumiyligi tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo‘limlarining o‘zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o‘qituvchi mashg‘ulotlar jadvali asosida mashg‘ulotda o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o‘tkazadi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo‘limlarining o‘zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o‘qituvchi mashg‘ulotlar jadvali asosida mashg‘ulotda o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o‘tkazadi.

Polelog- guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o‘quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagи ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi.

Reyting -baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, biron ta hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o‘quvchining ma’lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Suhbat metodi - bilim o‘zaro so‘zlashuv (dialog) yo‘li bilan o‘rganishga sabab asosan seminar mashg‘ulotlarida, talabalarning mustaqil ishi, referatlari, o‘quv konfersiyalarida qo‘llaniladi.

Ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

Ta’lim maqsadi – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi;

Ta’lim mazmuni –o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

Ta’lim metodi - o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li;

Ta’lim natijasi - o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish— o‘qitish mazmuni va natijalarining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Ta’lim vositasi - o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob’ekt;

Ta’limni tashkil etish - qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon;

Ta'lim mazmuni- inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni sama-rali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Teatr pedagogikasi - zamonaviy pedagogikaning amaliy jihatni bo'lib, ta'lim jarayonida voqelik, yashash, shaxsiy ijodiy harakatlar va improvizatsiya tamoyillarini tatbiq etuvchi, intellektual, hissiy tuyg'ularni aks ettiradigan fan.

Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Texnologik jarayon– ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisidan iborat

Texnologik operatsiya– ishchi yomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik rejim-texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan opertatsiyalarning vaqtini, shartlarini belgilaydi.

Texnologik xarita- ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjatdir.

Tiflopedagogika – ko'zi ojizlarni bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Tizim (sistema) – tartibga solingan, o'zaro bog'langan va ta'sir ko'rsatib turadigan pedagogik hodisa; tartibga solingan tushunchalar yig'indisidir.

Tizim (sistema) –o'zaro bog'langan ko'plab elementlar o'rtasidagi mustahkam birlik va bog'liqlik.

Yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash.

Yakuniy nazorat – sesmestr va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo‘linadi. Yakuniy nazorat og‘zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o‘tkaziladi.

Yo‘nalish — 5-bosqichning o‘quv rejalar va fanlar dasturi bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan “bakalavr” akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta’minlovchi bazaviy va fundamental bilimlar, uquvlar va ko‘nikmalar kompleksi.

Yosh pedagogikasi — turli yoshdagagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, katta yoshdagilar pedagogikasi (andragogika)ga bo‘linadi.

Yozma tekshirish — talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi.

O‘qitish sifatini nazorat qilish — talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini aniqlash.

O‘qitishning me’yoriy muddati — ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv rejalarini va fanlar dasturi o‘zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

O‘quv fani dasturi — ta’lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjat.

O‘quv fani — ta’lim muassasasida o‘rganish uchun fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar tizimi.

O‘quv fanlari bloki — o‘quv rejalarini va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan o‘quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

O‘quv rejasi — oliy ta’limning muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat.

O‘quv semestri — oliy ta’lim muassasasida o‘quv yilining yarmini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘langan fanlarning ma’lum majmuuni o‘zlashtirishga mo‘ljallangan va ular bo‘yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

O‘quv yili — oliv ta’lim muassasasida bir ta’lim kursini yakunlashga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati davri. O‘quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 20191-2020 o‘quv yili.

O‘z-o‘zini nazorat qilish shakli - ta’lim jarayonida ichki aks aloqaning bo‘lishini ta’minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘srimcha sinov topshiriqlari va o‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko‘rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalilaniladigan vositalar va ulardan foydalananish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘srimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko‘rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

O‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallah jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

O‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallahni nazarda tutadi.

Og‘zaki tekshirish- bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholash-ning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir. Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi talabalarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi.

TEST SAVOLLARI

1. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchi barcha ko‘rinishdagi maktabgacha tarbiya, o‘rta umumiy ta’lim maktablari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlari, mактабдан ташқари тарбиya muassasalarining o‘zaro uzviylikdagi bog‘liqlik bu -...?

- A) Tarbiya tizimi
- *B) Pedagogik tizim
- C) Tizim
- D) Yaxlitlik

2. O‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati

- *A) o‘rgatish
- B) o‘rganish
- C) o’zlashtirish
- D) metodika

3. Anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallah jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi

- A) o‘rgatish
- *B) o‘rganish
- C) o’zlashtirish
- D) o’qitish

4. O‘qitish nima?

- A) o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati
- B) anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallah jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi
- C) o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi
- *D) qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati

5. Qaysi qatorda ta'limga to'g'ri ta'rif berilgan?

- *A) o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi
- B) ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;
- C) egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyatga qo'llash usullarini egallah;
- D) avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi

6. Ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi bu-....?

- A) ta'lim
- *B) bilim
- C) ko'nikma
- D) malaka

7. Egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyatga qo'llash usullarini egallah

- A) ta'lim
- B) bilim
- *C) ko'nikma
- D) malaka

8. Avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi

- A) ta'lim
- B) bilim
- C) ko'nikma
- *D) malaka

9. Muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko'rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo'llanma.

- *A) metodik (uslubiy) ko'rsatma
- B) risola
- C) monografiya
- D) o'quv qo'llanma

10. Inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri

- *A) ta'lim mazmuni
- B ta'lim metodi
- C) ta'lim maqsadi
- D) ta'lim shakli

11. Pedagogika fani o`qitish metodi guruhlarga ajratishda o`z hissasini qo`shgan olimlarni aniqlang.

- A) Rajabov, Mamutov
- B) Ochilov, Abdullaeva
- C) Skatkin I.A, Pavlov
- *D) Mahmudov, Babanskiy, Skatkin I.A

12. O`qitish jarayonida metod va usullardan foydalanishda qanday maqsadlar amalga oshiriladi

- *A) ta'limiy va tarbiyaviy
- B) axloqiy, jismoniy
- C) ma'naviy, tashkiliy
- D) ilmiy, tadqiqot

13. Mutaxassislik fanlarini o`qitishda qo'llaniladigan og`zaki metodlarni aniqlang?

- A) namoyish qilish, suhbat
- B) induktiv, deduktiv
- C) o`yin, amaliy, mashq qilish
- *D) hikoya, ma'ruza, suhbat

14. Ko`rgazmali metod turlarini aniqlang?

- A) suhbat, mashq qilish, hikoya qilish
- B) evristik, muammoli, ko`rsatish
- C) o`yin, mashq qiilish, ma'ruza qilish
- *D) ko`rsatish, namoyish qilish

15. O`qitish jarayoni nima?

bilim, ko`nikma va malakalarni puhta o`zlashtirish
aqliy qobiliyatlarni o`stirish
o`qituvchi va o`quvchi hamkorligida amalga oshiriladigan jarayon
*o`qituvchi va o`quvchi hamkorligida amalga oshiriladigan
jarayon, aqliy qobiliyatlarni o`stirish, bilim, ko`nikma va
malakalarni puhta o`zlashtirish

16. Darsning maqsadlarini aniqlang.

ta'limiy
tarbiyaviy
rivojlantiruvchi
*ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi

17. Pedagogik amaliyot dasturlari kim tomonidan tuziladi va uni kim tasdiqlaydi.

*dastur o`quv muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va rektor tasdiqlaydi
o`quv bo`limi tomonidan ishlab chiqiladi va dekanat tasdiqlaydi
o`quv muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va dekanat tasdiqlaydi
o`quv bo`limi tomonidan ishlab chiqiladi va rektor tasdiqlaydi

18. «Aqliy hujum» usuli nima.

qisqa fursat ichida ko`p g`oya to`planadi
muammoni hal qilishning eng qulay yo`llarini topish
berilgan savollvrga qisqa javob berish
*qisqa fursat ichida ko`p g`oya to`planadimuammoni hal
qilishning eng qulay yo`llarini topishberilgan savollvrga qisqa
javob berish

19. Davlat ta'lim standartlari ta'limning qanday turlari uchun belgilanadi.

umumiyl o`rta ta'lim uchun
o`rta mahsus va kasb-hunar ta'limi uchun
oliy ta'lim uchun
*umumiyl o`rta ta'lim uchun, o`rta mahsus va kasb-hunar ta'limi
uchun, oliy ta'lim uchun

20. O`quv qo`llanma nima?

*o`quvchi talabalarga mo`ljallab yozilgan asar
o`qituvchilarga mo`ljallangan asar
turli yoshdagi kishilarga yozilgan asar
o`quvchilarga mo`ljallab yozilgan asar

21. Seminar mashg`uloti qaysi shaklda o`tkaziladi.

savol javlb va reja asosida suhbat
ma'ruza bo'yicha fikr almashish va bahs-diskussiya
referatlar muhokamasi va rolli o`yinlar
*savol javob va reja asosida suhbat, ma'ruza bo'yicha fikr
almashish va bahs-diskussiya, referatlar muhokamasi va rolli
o`yinlar

22. Reyting nima?

baholash va klassifikatsiyalash
tartibga solish
bilimlarni nazorat qilish
*baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, shkala bo'yicha
baholash

23. Suhbat ta'limning qaysi metodiga kiradi.

amaliy
*og`zaki
o`yin
munozara

24. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik tehnologiyani tadbiq etishda hissa qo'shgan o`zbek olimini aniqlang.

*N.Sayidahmedov
I.Tursunov
R.Mavlonova
U.Nishonaliev

25. Ilmiylik printsipi nima?

o`quv mazmuniga faqat asoslangan printsip
tajribada tasdiqlangan printsip
o`quv fani va fanning mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga
asoslangan printsip

*o`quv mazmuniga faqat asoslangan printsip, tajribada tasdiqlangan printsip, o`quv fani va fanning mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan printsip

26. Munozara nima?

*erkin fikr almashish va dalillar asosida isbotlay bilish
o`zaro muloqotga kirishish
savol-javob
so`zlab berish

27. Kom`pyuter tehnologiyasiga asoslangan o`quv uslubini qo`llashga mo`ljallangan adabiyot qanday ataladi.

o`quv qo`llanma
*elektron darslik
uslubiy qo`llanma
darslik

28. Malaka amaliyoti bu.....

*o`quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko`nikma va o`quv hosil qiluvchi qism.
kuzatish jarayoni
ta'limning shakli
ilmiy tadqiqot jarayoni

29. Fan bo`yicha barcha yutuqlarni aniqlash va baholash deyiladi.

oraliq nazorat
joriy nazorat
reyting tizimi
*yakuniy nazorat

30. Mustaqil ta'limning shakllarini aniqlang.

referat
kurs ishi
didaktik material tayyorlash

*referat, kurs ishi, didaktik material tayyorlash

31. To`garaklar ta'limning qaysi shakliga kiradi.

darsdan tashqari ishlar
mustaqil ishlar

o`quv jarayonidagi ishlar

*mustaqil ishlar, o`quv jarayonidagi ishlar

32. Muloqotli o`qitish turi bo`lib, o`qituvchi va talabani o`zaro hamkorligidir.

*interaktiv usul

fikrlash jangi usuli

muammoli usul

faollashtirish usuli

33. Pedagogika fanini o`qitish metodikasining asosiy maqsadi nima.

nazariya va tajribani sintez qilishdir

o`qitishning shakl va metodlarini o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatida ifoda etilishdir

bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlash

*nazariya va tajribani sintez qilishdir, o`qitishning shakl va metodlarini o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatida ifoda etilishdir, bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlash

34. O`quv yurtida o`rganiladigan o`quv predmetlarining tarkibi, ularning uquv yillari va haftalari bo`yicha taqsimlanishi qaysi hujjatda belgilanadi?

*o`quv rejasi

o`quv dasturi

darslik

o`quv qo`llanma

35. Ta`lim jarayonida kichik guruhlarda ishlash qanday natija beradi.

talabalarning darsda faolligini ta`minlaydi

boshqalar fikrini qadrlashga o`rgatadi

har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi

*talabalarning darsda faolligini ta`minlaydi boshqalar fikrini qadrlashga o`rgatadi har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi

36. «Standart» tushunchasi nimani anglatadi ?

*me`yor, namuna, o`lchov

anglash, idrok etish

tajriba to`plash

o`lchov birligi

37. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uquv rejalarini, dasturlari kim tomonidan tasdiqlanadi ?

*oliy va o`rta mahsus ta`lim vazirligi tomonidan
halq ta`limi vazirligi tomonidan
kasb-hunar kolleji direktori tomonidan
viloyat malaka oshirish instituti

38. Noan'anaviy dars turlarini aniqlang.

musobaqa-tanlov darsi
mujassamlashgan darslari
hamkorlik darslari

*musobaqa-tanlov darsi, mujassamlashgan darslari, hamkorlik darslari

39. Metodik qo`llanma nima?

o`qituvchilar, talabalarga mo`ljallab yozilgan asar
*o`qituvchilar, ilmiy hodimlarga mo`ljallab yozilgan asar
o`quvchi, talabalar uchun mo`ljallangan asar
turli yoshdagilar uchun mo`ljallangan asar

40. O`quv rejasi qanday talablarga javob beradi.

ilmiylik qoidasi
uquv materiali mazmunini to`g`ri anglash
nazariyaning amaliyot bilan birligi
*ilmiylik qoidasi, uquv materiali mazmunini to`g`ri anglash,
nazariyaning amaliyot bilan birligi

41. Dasturning asosiy vazifasi.

o`quv predmetining mazmunini ifodalash
bilim olishga qiziqtirish
fanni mustaqil egallah
bilim olishga qiziqtirish, fanni mustaqil egallah

42. ... o`quv tarbiya jarayonida o`qituvchining uquvchilar bilan kasbiy muloqotidir.

muloqot
*pedagogik muloqot
o`zaro suhbat

savol-javob

43. Ta'limdagi muammolikning muhim hususiyati nima ?

muammoni echimini topish

*muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o`quvchilarni faollashtirish
o`quvchilarni faollashtirish
muammoni echimini topish

44. Ta'lim sifati nima bilan belgilanadi.

talabalar intizomi bilan

talabalar ijodkorligi bilan

talabalar faolligi bilan

*talabalar bilimi bilan

45. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillarining aniqlash.

ta'limning ustuvorligi, demakratlashuvi

insonparvarlashuvi, ijtimoiylashuvi

milliy yo`naltirilganligi

*ta'limning ustuvorligi, demakratlashuvi, insonparvarlashuvi,
ijtimoiylashuvi, milliy, yo`naltirilganligi

46. Bir mavzu, bir masalani tekshirishga bag'ishlangan ilmiy asar

*Monografiya

Darslik

Lug'at

Metodik qo'llanma

47. Qaysi qatorda ilmiy daraja ko'rsatilgan

* Fan doktori

Professor

Dotsent

Aspirant

48. Ilmiy asar, maqola, doklad va shu kabilardagi asosiy g'oyalarning qisqacha va lo'nda ifodasi

Referat

Avtoreferat

*Tezis

Taqdimot

49. Kitob, maqola va shu kabilarning qisqacha mazmuni

*Annotatsiya

Tezis

Referat

Avtoreferat

50.....– bu fan va amaliyotning tadqiqot ob'ekti joylashgan sohasi bo'lib, amaliyotda u, masalan, matematika, biologiya, iqtisodiyotning u yoki boshqa ilmiy ixtisosligiga muvofiq bo'lishi mumkin.

*Tadqiqotning ob'ektli sohasi

Tadqiqot ob'ekti

Tadqiqot predmeti

Tadqiqotning dolzarblii

51.....– bu muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o'ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyat yo'naltirilgan narsa.

*Tadqiqot ob'ekti

Tadqiqotning ob'ektli sohasi

Tadqiqot predmeti

Tadqiqotning dolzarblii

52.Ob'ektning aniq bir qismi bo'lib, uning ichida izlanish olib boriladi

*Tadqiqot predmeti

Tadqiqot ob'ekti

Tadqiqotning ob'ektli sohasi

Tadqiqotning dolzarblii

53. Malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosini tashkil qiluvchi javobni belgilang.

*Uzluksiz ta'lim.

Fan.

Davlat va jamiyat.

Ishlab chiqarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T., 1997.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқи. // Халқ сўзи газетаси, 2017.16 январ, №11
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. “Ўзбекистон”, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги - инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида» 2001 йил 16 августдаги 343-сон қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақидги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 10 январдаги 3-сон қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 2-сон, 21-модда
7. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракат стратегияси. 7 февраль 2017 йил.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сонли «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель
9. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
10. Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш тизими тўғрисидаги Низом. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирининг 2018 йил 9

августдаги 19-2018-сон буйруғи. Қонун хұжжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.09.2018 й., 10/18/3069/1965-сон

11. Abdullayeva. SH., Axatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-у.

12. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. –B.: Durdona, 2019

13. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.

14. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. - T.: 2008.

15. Hayitov A.G'. Kompyuterlashtirilgan ta'lif va o'quvchilar bilimining tashhisi. //J.Pedagogik ta'lif. 2000, № 3.

16. Hayitov A.G'. Maktab amaliyotida kompyuterlashtirishning ahvoli //J. Pedagogik mahorat, 2002, 3-son. –B. 64—69.

17. Hayitov A.G'. Pedagogik dastur vositalarini yaratish stsenariysi //J. Ta'lif muammolari, 2002, 1-2-son. -B. 94—96.

18. Hayitov A.G'. Pedagogik dastur vositalarini yaratishga qo'yiladigan didaktik va psihofiziologik talablar //J. Pedagogik mahorat, 2001, 1-son. –B. 61—66.

19. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.

20. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Fan, 2001.

21. Leadership guide. Seniorleaders, subject leaders and teachers in secondary schools. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary schools. Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

22. Mahkamov U.I., Xo'jayev B.Q., Tilabova N., Didaktika vositalar majmui. Toshkent 2009

23. Mirsolieva M., Pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi – T.: Fan va texnologiyalar, 2011.

24. Ochilov M., Ochilov N. Oliy maktab pedagogikasi (darslik) –T. “Aloqachi”, 2008.

25. Omonov X., Xo'jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.

26. Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P - 12.

27. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevning umumiy tahriri ostida. – Т.: O’zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
28. Rashidov N.G‘. va boshqalar. «Kasbiy pedagogika» blokini o‘qitish metodikasi. /O‘quv-uslubiy qo’llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). -Т.: O’MKHTTKMO va UQTI, 2007 у.
29. Roziqov O. va boshqalar “Didaktika” darsligi –Т.: UzRFA “Fan”, 1997, 149-bet.
30. Saidahmedovning N. Yangi pedagogik texnologiyalar nazariya va amaliyot. –Т.: “Moliya” nashriyoti, 2003
31. Tolipov O’.Q, Usmonova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari –Toshkent, “Fan” 2006
32. Ho`jayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. –Buxoro. 2017.
33. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: Фан, 2006.
34. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М, педагогика 1999
35. Кукушин В.С. Теория и методика воспитания. - Роцова-Дону.: Феникс, 2006.
36. Лихачев Б. Т. Педагогика. - М.: Юрайт, 2003.
37. Ochilov M. Muallim qalb me’mori. – Т.: O’qituvchi, 2001.
38. Педагогика. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. - М.: Издательский центр "Академия", 2002. - 576 с.
39. Пидкасистый И.П. Педагогика. – Ростов-на-Дону.: Педагогика, 2003.
40. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.
41. Подласый И.П. Педагогика. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2000.
42. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теории и методики. – М.: Академия, 2000.
43. Сластени В.А., Исаев И.Ф. Педагогика. – М.: Академия, 2005.
44. Сластенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Общая педагогика. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2003.

45. Столяренко Л.Д. Общая педагогика. – Ростов-на-Дону, Феникс, 2003.
46. Харламов И.Ф. Педагогика. – М.: Гардарики, 2005.
47. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н.. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет
48. <http://www.istedod.uz/>
49. <http://www.pedagog.uz/>
50. <http://www.ziyonet.uz/>

MUNDARIJA

Kirish	4
1-modul. Mutaxassislik fanlari va ularning o‘ziga xosliklari	6
1-mavzu: Mutaxassislik fanlari o‘qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida; mutaxassislik fanlarini o‘qitishning pridmeti, vazifalari.....	6
1.1. Maktabgacha ta’limda mutaxassislik fanlari tizimi.	6
1.2. Mutaxassislik fanlarni o’qitishda pedagogik jarayon, o’quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalari	10
1.3. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.....	11
2-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish qonuniyatları va tamoyillari	15
2.1.Ta’lim qonuniyatları va tamoyillari (prinsiplari) tushunchasi.	15
2.2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fani prinsiplarining tavsifi.....	17
2-modul. Mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv meyoriy hujjatlari.....	23
3-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish mazmunini belgilab beruvchi meyoriy hujjatlar va ularda ta’lim mazmunini shakllantirishning bosqichlari.....	23
3.1.Ta’lim mazmuni tushunchasi.....	23
3.2. Mutaxassislik fanlar mazmunini belgilovchi muhim g‘oyalar (asoslar)	23
3.3. Mutaxassislik fanlar mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari	27
4-mavzu. Mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv meyoriy hujjatlari va davlat talim standarti.....	29
4.1. Mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv meyoriy hujjatlari	29
4.2. Davlat ta’lim standarti	35
5-mavzu. O’quv rejasining tuzilishi, fan dasturiga qoyiladigan talablar, fan bo‘yicha ishchi rejaning tuzilishi.	38
5.1. Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fan dasturlari.....	38
5.2. O‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumny talablar.....	39
5.3. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi	45
6-mavzu. Metodik ishlar, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi	55

6.1. Mutaxassislik fanlaridan o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash	55
6.2. Mutaxassislik fanlaridan o‘quv-uslubiy majmualari tarkibi	56
6.3. O‘quv-uslubiy majmualarni chop etishga tayyorlash	58
3-modul. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish mazmuni	62
7-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metod va vositalari	62
7.1. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarning mohiyati va ahamyati.....	62
7.2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarining tasnifi	65
7.3. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘laniladigan ta’lim metodlariga qo‘yiladigan talablar.....	71
7.4. Amaliyotda qo‘llanilayotgan ta’lim metodlarining mazmuni	73
7.5. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish vositalari va ularning tasnifi.....	78
8-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish shakllarining umumi tavsifi; ma’ruza turlari, seminar mashg’ulotlari, labaratoriya va amaliy darslar	83
8.1. O‘qitish shakllari haqida tushuncha va oliy maktablarda o‘qitishing tashkiliy shakllari	83
8.2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’limning tashkiliy shakllari	86
8.3. Seminar va amaliy mashg‘ulotlar.....	92
8.4.O‘quv konfrensiyasi va munozara mashg‘ulotlari.....	102
4-modul. Mustaqil ta’lim va kurs ishlarini tashkil etish metodikasi	104
9-mavzu:Talabalarni mustaqil ishlari uchun mavzular tanlash,talabalarni mustaqil ishlariga rahbarlik qilish, mustaqil ishlarni rasmiylashtirish tartibi, mustaqil ishlarni qabul qilish.	104
9.1. Mustaqil ta‘limning maqsad va vazifalari	104
9.2. Mustaqil ishlarini tashkil etish o‘ziga xos jihatlari.....	108
9.3.Talabalarning mustaqil ish turlari.	110
10-mavzu. Kurs ishlarini mavzusini tanlash, kurs ishiga rahbarlik qilish	115
10.1. Kurs ishlarini yozish bo‘yicha umumiyl talablar.....	115
10.2. Kurs ishi mavzusini tanlash va rejasini ishlab chiqish.	115
10.3. Kurs ishi bo‘yicha tadqiqot materiallarini yig‘ish va tahlil qilish	116
10.4. Kurs ishining tarkibiy tuzilishi.	118
10.5. Kurs ishini rasmiylashtirishningumumiyl talablari	122
10.6. Kurs ishini himoya qilish	124
11-mavzu. Kurs ishlariga taqriz yozishga o‘rgatish, kurs ishlarini baholash mezonlari.....	126
11.1. Kurs ishlariga taqriz yozish tartibi.	126

11.2. Kurs ishlarini baholash mezonlari	128
5-modul. Bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilish metodikasi	
bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilishning tashkiliy va ilmiy-	
metodik ta'minoti.....	131
12-mavzu. Bitiruv malakaviy ishlariga va ularning mavzularini	
tanlashga qo'yiladigan talablar	131
12.1. Bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan umumiyl talablar.....	131
12.2. Bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalari	133
12.3. Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusini tanlash	134
12.4. Bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish	136
12.5. Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi.....	137
12. 6. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va mazmunini yoritish	
qoidalari.....	138
12.7. Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish	142
13-mavzu. Bitiruv malakaviy ishlarga rahbar xulosasini tayyorlash,	
bitiruv malakaviy ishlariga taqriz tayyorlash va ularni baholash.	145
13.1. Bitiruv malakaviy ishlarga rahbar xulosasi va taqrizlarni	
tayyorlash. BMI ni dastlabki himoyaga kiritish.....	145
13.2. Bitiruv malakaviy ishni DAK huzurida himoya qilish. Bitiruv	
malakaviy ishni baholash mezonlari.....	146
6-modul. Mutaxassislik fanlaridan o'quv va malakaviy pedagogik	
amaliyotni tashkil etish va o'tkazish.....	150
14-mavzu. Mutaxassislik fanlaridan o'quv va malakaviy pedagogik	
amaliyotni tashkil etish va o'tkazish.....	150
14.1. Malakaviy amaliyot haqida tushuncha.....	150
14.2. Malakaviy amaliyotning maqsadi va vazifalari.	150
14.3. Malakaviy amaliyot turlari	151
14.4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida malakaviy amaliyotni tashkil	
etish	153
15-mavzu. Pedagogik amaliyot dasturini ishlab chiqish,pedagogik	
amaliyotga rahbarlik qilish metodikasi.....	155
15.1. Talabalarning malakaviy amaliyot jarayonida bajargan ishlarini	
hisobga olish.....	155
15.2. Amaliyot rahbarining majburiyatları	155
16-mavzu. Pedagogik amaliyotni baholash mezonlari, pedagogik	
amaliyot bo'yicha ish hujjatlari.....	157
16.1. Pedagogik amaliyotni baholash mezonlari	157
16.2. Pedagogik amaliyot hujjatlari	160
7-modul. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning	
bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tizimi.....	164

17-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash tizimi	164
17.1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.....	164
17.2. Ta’lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari	168
17.3. Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash printsiplari.....	170
18-mavzu. Reyting o’tkazish metodikasi, talabalarning bilimini baholash bo‘yicha nazorat turlari,baholash mezonlari.....	172
18.1. Reyting nazorati haqida tushuncha.....	172
18.2. Reyting nazorat turlari	173
18.3. Baholash mezonlari.....	177
8-modul. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish	180
19-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi, fanlar bo‘yicha prezентatsiyalar tayyorlash.	180
19.1. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalari	180
19.2. Pedagogik dasturiy vositalar tushunchasi.....	182
19.3. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga qo‘yiladigan talablar	184
19.4. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda masofaviy ta’limdan foydalanish.....	186
20-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	195
20.1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati	195
20.2. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari	205
20.3. Mutaxasslik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol usullar	216
Glossariy.....	228
Test savollari.....	238
Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati.....	248

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	4
1-модуль. Специальности и их характеристики	6
1-тема: Процесс обучения специальности как комплексная система: прайд, задачи преподавания специальностей.....	6
1.1. Система профильных дисциплин в дошкольном образовании... 1.2. Концепции педагогического процесса, учебного процесса, системный подход в преподавании специальных дисциплин 1.3. Предмет, цель, задачи методики преподавания предметов специальности	6 10 11
2-тема. Законы и принципы преподавания специальностей	15
2.1. Понятие законов и принципов воспитания. 2.2. Описание принципов методики преподавания специальных предметов.	15 17
2-модуль. Нормативные документы учителя специализированных наук	23
3-тема. Нормативные документы, определяющие содержание учебных специальностей и этапы формирования образовательного содержания	23
3.1. Понятие образовательного содержания..... 3.2. Важные идеи, определяющие содержание специальности (основы)..... 3.3. Принципы и критерии выбора содержания дисциплин специальности	23 23 27
4-тема. Образовательные нормативные документы и государственные стандарты образования для специализированных преподавателей.....	29
4.1. Учебная документация учителя естествознания по специальности	29
4.2. Государственный образовательный стандарт	35
5-тема. Структура учебной программы, требования к научной программе, структура плана работы науки.....	38
5.1. Учебный план и научные программы в области дошкольного образования бакалавриата..... 5.2. Общие требования к содержанию блоков программы..... 5.3. Порядок разработки и реализации учебных планов по специальностям	38 39 45
6-тема. Методологическая работа, методология планирования, организации и подготовки	55

6.1. Подготовка учебно-методических комплексов по специальным дисциплинам	55
6.2. Структура учебно-методических комплексов по дисциплинам специальности	56
6.3. Подготовка учебников к изданию	58
3-модуль. Содержание учебных специальностей	62
7-тема. Методы и инструменты преподавания специальностей	62
7.1. Сущность и значение методики преподавания специальных предметов	62
7.2. Классификация методик преподавания специальных предметов	65
7.3. Требования к методам обучения, применяемым при преподавании предметов специальности	71
7.4. Содержание применяемых на практике методов обучения	73
7.5. Способы преподавания специальных предметов и их классификация	78
8-тема. Общее описание форм учебных специальностей; виды лекций, семинаров, лабораторных и практических занятий	83
8.1. Понятие форм обучения и организационных форм обучения в высшей школе	83
8.2. Организационные формы обучения, используемые при преподавании предметов специальности	86
8.3. Семинары и практические занятия	92
8.4. Учебная конференция и дискуссионные сессии	102
4-модуль. Методология самостоятельного образования и организации курсов	104
9-тема: Выбор тем для самостоятельной работы студентов, управление самостоятельной работой студентов, порядок формирования самостоятельной работы, независимый порядок..	104
9.1. Цели и задачи независимого исследования	104
9.2. Особенности организации самостоятельной работы	108
9.3. Виды самостоятельной работы студентов	110
10-тема. Выбор темы курсовой работы, управление курсовой работой	115
10.1. Общие требования к написанию курсовой работы	115
10.2. Выбор темы курсовой работы и разработка плана	115
10.3. Сбор и анализ исследовательских материалов по курсовой работе	116
10.4. Структура курсовой работы	118
10.5. Общие требования к оформлению курсовой работы	122
10.6. Защита курсовой работы	124

11-тема. Обучение резюме курсовых работ, критерии оценки курсовых работ.....	126
11.1. Порядок написания рецензий на курсовую работу.....	126
11.2. Критерии оценки курсовой работы.....	128
5-модуль. Методология управления выпускной квалификацией организационное и научно-методическое обеспечение управления выпускной работой	131
12-тема. Требования к квалификациям выпускников и их отбор .	131
12.1. Общие требования к выпускной работе	131
12.2. Цели и задачи выпускной работы	133
12.3. Выбор темы дипломной работы	134
12.4. Надзор за выпускной работой.....	136
12.5. Завершение выпускной квалификационной работы	137
12. 6. Правила освещения структуры и содержания выпускной работы.....	138
12.7. Оформление выпускной квалификационной работы.....	142
13-тема. Подготовка выводов менеджера по выпускной квалификации, подготовка отзывов по выпускной квалификации и их оценка.....	145
13.1. Подготовка научных заключений и отзывов на выпускную работу. Включение ИМТ в первичную защиту	145
13.2. Защита дипломной работы при наличии ВАК. Критерии оценки дипломной работы	146
6-модуль. Организация и проведение обучения и квалифицированной педагогической практики по специальности.....	150
14-тема. Организация и проведение обучения и квалифицированной педагогической практики по специальности.....	150
14.1. Понятие квалификационной практики	150
14.2. Цели и задачи стажировки.	150
14.3. Виды квалификационной практики	151
14.4. Организация квалификационной практики в дошкольных образовательных учреждениях	153
15-тема. Разработка программы педагогической практики, методологии управления педагогической практикой	155
15.1. С учетом работы, проделанной студентами во время практики	155
15.2. Обязанности руководителя практики	155
16-тема. Критерии оценки педагогической практики, рабочие документы для педагогической практики.....	157
16.1. Критерии оценки педагогической практики	157

16.2. Документы педагогической практики	160
7-модуль. Система оценки знаний, навыков и навыков студентов в процессе преподавания специальностей.....	164
17-тема. Система оценки знаний, навыков и навыков студентов в процессе преподавания специальностей.....	164
17.1. Суть диагностики обучения.....	164
17.2. Контроль и учет в образовательном процессе, их функции..	168
17.3. Принципы мониторинга и диагностики обучения	170
18-тема. Методология рейтинга, виды контроля для оценки знаний студентов, критерии оценки.....	172
18.1. Понятие рейтингового контроля	172
18.2. Виды рейтингового контроля	173
18.3. Критерии оценки.....	177
8-модуль. Использование информационно-педагогических технологий в процессе преподавания специальностей.....	180
19-тема. Методология использования информационных технологий в процессе преподавания специальностей, подготовки презентаций по науке.....	180
19.1. Информационно-коммуникационные технологии в обучении специальностям	180
19.2. Понятие педагогических программных средств	182
19.3. Создать педагогическое программное обеспечение. требования	184
19.4. Использование дистанционного обучения при преподавании специальных предметов	186
20-тема. Использование педагогических технологий в преподавании специальностей.....	195
20.1. Сущность современных педагогических технологий	195
20.2. Образовательные технологии, используемые при обучении специальностям	205
20.3. Интерактивные методы, используемые при обучении специальным предметам	216
Глоссарий	228
Тестовые вопросы.....	238
Список литературы	248

G.Q.HASANOVA, Z.B.JALILOV

MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH METODIKASI

Muharrir: A. Qalandarov
Texnik muharrir: G. Samiyeva
Musahhih: Sh. Qahhorov
Sahifalovchi: M. Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 22.04.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 16,2. Adadi 100. Buyurtma №103.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45